Akazie *f; -; -n Bot.* qayin daraxti.
akklimatisieren *vt.* 1. moslashtirmoq. 2. **sich ~** iqlimga moslashmoq.
Akkordeon *n; -s; -s; Mus.* akkardion.
Akkordlohn *m; -(e)s; -löhne;* ishbay haq.
akkreditieren *vt.* vakil qilmoq, vakolat bermoq.
Akkreditiv *n; -s, -e,* 1. *Finanz.* akkreditiv. 2. *Dipl.* ishonch yorlig'i.
Akku *m; -s; -s; Kurzw.* akkumulyator, batareya.
akkurat *Adj.* 1. pokiza, ozoda, toza. 2. tartibli.
Akkusativ *m; -(e)s; -e; Gramm;* chiqish kelishigi, akkuzativ
Akt *m; -(e)s; -e;* 1. ish, harakat. 2. pyesaning bir pardasi. 3. qism.
Akte *f; -; -n;* 1. hujjat, akt. 2. hujjatlar jamlamasi.
Aktentasche *f; -; -n;* yig'ma portfel *(hujjatlar uchun).*
Akteur *m; -s; -e;* 1. aktyor. 2. (faol) ishtirokchi.
Aktie *f; -; -n; Wirt.* aksiya, hissa.
Aktiengesellschaft *f; -; -en;* hissadorlik jamiyati.
Aktienfonds *Pl.* aksiya jamg'armalari.
Aktienmarkt *m; -(e)s; -märkte;* aksiyalar bozori.
Aktion *f; -; -en,* 1. (maqsadli) harakat. 2. tadbir; **in (voller) ~** band bo'lmoq.
Aktionär *m; -s; -e;* aksiya egasi, hissador.
aktiv *Adj.* faol, g'ayratli, ishchan.
aktivieren *vt.* faollashtirmoq, kuchaytirmoq; **die Tätigkeit ~** faoliyatni oshirmoq, faollashtirmoq.
Aktivität *f; -; -en;* 1. faollik. 2. faol harakat.
aktualisieren *vt.* dolzarb holatga keltirmoq.
aktuell *Adj.* dolzarb, zamonga monand.
Akustik *f; -; -; Phys.* akustika.
akut *Adj.* 1. shoshilinch, darhol. 2. *Med.* tez o'tadigan.
Akzent *m; -(e)s; -e;* 1. urg'u. 2. ta'kidlash.
akzentuieren *vt.* urg'u bermoq, ta'kidlab gapirmoq.

akzeptabel *Adj.* mos keladigan, to'g'ri keladigan.
akzeptieren *vt.* 1. hisobga olmoq, nazarda tutmoq. 2. *Finanz.* to'lovni qabul qilmoq.
Alabaster *m; -s; -;* alebaster.
Alarm *m; -(e)s; -e;* bong; ~ **schlagen** bong urmoq.
alarmieren *vt.* bong urmoq.
albern *Adj.* uquvsiz, tentak, jinni; ~ **Geschäft** arzimagan narsa.
albern *vi.* jinnilik qilmoq.
Albernheit *f; -; -;* tentaklik, uquvsizlik, jinnilik.
Albion *n; -s; -;* Albion *(Angliyaning she'riy nomi), tumanli yurt.*
Albtraum *n; -(e)s; -träume;* 1. qo'rqinchli tush. 2. jirkanch tasavvur.
Album *n; -s; Alben;* albom.
Alchimie *f; -; -;* o'rta asr kimyosi, alkimyogarlik.
Alge *f; -; -n; Bio.* suv o'simligi;
Alibi *n; -s; -s;* dalil, ashyoviy dalil.
Alkohol *m; -(e)s; -e;* alkogol, spirtli ichimlik.
Alkoholiker *m; -s; -;* alkogolizmga mubtalo kishi, piyonista.
alkoholfrei *Adj.* alkogolsiz; ~**es Bier** alkogolsiz pivo.
alkoholhaltig *Adj.* tarkibida alkogol mavjud ichimlik.
all *Pron.* barcha, butun; **all sein Geld** uning hamma puli.
All *n; -s; -;* koinot, kosmos.
allabendlich *Adv.* har oqshom.
alle *Adv.* 1. hamma, barcha. 2. tamom; **das Geld ist** ~ pul tugadi.
allbekannt *Adv.* hammaga ma'lum, taniqli, tanish.
Allee *f; -; -n* xiyobon.
allein *Adv.* bir o'zi, yolg'iz, tanho; **er steht** ~ u yolg'iz turadi.
Alleingang *m; -(e)s; -gänge;* umumiy kirish yo'li.
Alleinherrschaft *f; -; -;* yakkahokimlik.
Alleinsein *n; -s; --;* yolg'izlik, tanholik.
alleinstehend *Adj.* yolg'iz, oilasiz.
allerbeste *Adj.* eng yaxshi, hammadan yaxshi.
allerdings *Adv.* har holda, chindan ham.
allererste *Adv.* hammadan birinchi, eng birinchi.
Allergie *f; -; -n; Med.* allergiya.
allerhand *Pron.* har tomonlama *(imkoniyat).*
allerlei *Pron.* har qanday, har qanaqasiga.
Allerlei *n; -s; -s;* aralash-quralash.
allerletzte*(r, -s) Adj.* eng so'nggi, eng oxirgi.
allerliebst *Adj.* eng sevimli.
allernächste(r, -s) *Adj.* eng yaqin.
allerneueste(r, -s) *Adj.* eng yangi.
allerorten *Adv.* hamma joyda, har joyda.
allerseits *Adv.* hamma birgalikda.
allezeit *Adv.* har doim, har vaqt.
allgemein *Adj.* umumiy, yalpi, barchaga (hammaga) taalluqli.
Allgemeinbildung *f; -; -en;* umumiy ta'lim.
Allgemeinmedizin *f; -; -en;* umumiy tibbiyot.
allgemeingebräuchlich *Adv.* ommabop, hamma ishlatadigan, qo'llaydigan (iste'mol qiladigan); hammaga odat bo'lib qolgan.
Allgemeinheit *f; -; -en;* umumiylik, barchaga barobarlik.
Allianz *f; -; -en;* uyushma, ittifoq, alyans
alljährlich *Adv.* har yili bo'ladigan, har yilgi.
Allmacht *f; -; -;* qudrat, qodirlik, har narsaga qodir bo'lishlik.
allmächtig *Adv.* qudratli, qodir, azim, kuchli.
allmählich *Adj.* asta-sekin.
allmonatlich *Adj.* har oylik, har oygi.
allseitig *Adv.* 1. har taraflama, atroflicha, keng, mufassal, har tomonlama. 2. umumiy.
Alltag *m; -es; -e;* kundalik hayot.
alltäglich *Adv.* har kungi, har kunlik.

allewochentlich *Adv.* haftalik, har haftalik.
allzu *Adv.* juda ko'p, mo'l-ko'l.
Alm *f; -; -en;* tog' (alp o'tlog'i).
Alma Mater *f; -; -;* dorilfunun, universitet.
Almanach *m; -(e)s; -e;* 1. she'riy, nasriy to'plam. 2. kalendar, taqvim.
Almosen *n; -s; -;* ehson, diniy zakot, muruvvat *(muhtojlarga).*
Alpen *Pl.* Alp tog'lari.
Alpha *n; -s; -s;* grek (yunon) alifbosining birinchi harfi.
Alphabet *n; -(e)s; -e;* alifbo, alifbe.
alphabetisieren *vt.* alfavit bo'yicha tartiblamoq, tartibdga solmoq.
Alphorn *n; -s; -e; Mus.* naysimon musiqa asbobi.
alpin *Adj.* Alp tog' tepaliklariga oid.
Alptraum *m; -es; -träume;* qo'rqinchli (dahshatli) tush.
als *Konj.* 1. sifatida, kabi; ~ **Vertveter** vakil sifatida. 2. qaraganda. 3. *Gramm;* payt yuklamasi.
also *Konj.* shunday qilib, demak.
alt *Adj.* qari, eski; **Wie ~ bist du?** Yoshing nechada?
Alte *m; -n; -n;* qariya, chol.
Altenheim *n, -es, -e;* qariyalar uyi.
Alter *n; -s; -;* yosh; **ein Mann im besten ~** taxminan 40 – 50 yoshlardagi kishi.
altern *vi.* qarimoq, eskirmoq.
alternativ *Adj.* muqobil, alternativ.
alters *Adv.* **seit ~ her** qadimdan.
Altersgenosse *m; -en; -en;* tengdosh, tengqur.
Altersheim *n; -(e)s; -e;* qariyalar uyi.
altersmässig *Adv.* yoshga qarab.
Altertum *n; -s; Altertümer* qadim zamonda.
altertümlich *Adj.* qadimiy.
Älteste *m; -n; -n;* 1. oqsoqol. 2. to'ng'ich o'g'il.
Ältestenrat *m; -(e)s; -räte;* oqsoqollar kengashi.
Althochdeutsche *n; -n; -; Ling.* qadimgi nemis tili.
Altmeister *m; -s; -;* biror sohaning (iqtisod, sport) tajribali namoyandasi, vakili.
altmodisch *Adj.* orqada qolgan, modadan qolgan, urfdan qolgan, eski.
Altpapier *n; -s; -;* qog'oz chiqindisi, makulatura.
Altruist *m; -en; -en;* fidoyi, jonkuyar.
Altstadt *f; -; -städte;* eski shahar.
Amateur [tör] *m; -s; -e;* 1. havaskor. 2. yuzaki ish bajaruvchi, diletant.
Amateursportler *m; -s; -;* havaskor sportchi.
Ambition *f; -; -en;* shuhratparastlik, kalondimog'lik.
ambitioniert *Adj.* shuhratparast, kalondimog'.
Ambivalent *f; -; -en;* qarama-qarshilik.
ambulant *Adj.* ko'chma, *Med.* ambulatoriyaga qatnab (davolanish).
Ambulanz *f; -; -en;* ambulatorlik bo'limi.
Ameise *f; -; -n; Zool.* chumoli.
Amen *n; -s, -; Rel.* omin *(ibodat va duoning oxirgi so'zi).*
Amnestie *f; -; -n; Jur.* aybdorlarning afv etilishi, amnistiya.
Amoklauf *m; -s; -läufe;* jazava, quyushqondan chiqish.
amoralisch *Adj.* axloqsiz, axloqi buzuq.
Ampel *f; -; -n;* yo'l harakati chirog'i, svetofor.
Amt *n; -(e)s; Ämter;* 1. lavozim, mansab, vazifa. 2. muassasa, idora.
amtlich *Adj.* rasmiy, ish yuzasidan.
Amtsanmaßung *f; -; -en;* rasmiy xizmatni tashkil etish.
Amts/blatt *n; -(e)s; ~ blätter* rasmiy gazeta.
Amtseinführung *f; -; -en;* xizmatni boshlash, xizmatga kirishish.
Amtsführung *f; -; -en;* rasman lavozimni bajarishga kirishish.
Amtsgeschäfte *Pl.* xizmat yumushlari.

Amtsgewalt *f; -; -;* adliya idorasi, boshqarmasi.
Amtshandlung *f; -; -en;* xizmat bo'yicha muzokara.
Amtsperson *f; -; -en;* amaldor, xizmatchi.
Amtsrichter *m; -s; -; Jur.* sudya, hakam.
Amtssitz *m; -es; -e;* xizmat joyi, ish o'rni.
Amtssprache *f; -; -en;* rasmiy (idora) til.
Amtsträger *m; -s; -;* boshqaruvchi.
Amtsweg *m; -(e)s; -;* ish rejasi, rejalashtirilgan ish.
Amtszeit *f; -; -en;* vakolat muddati, lavozimda turish muddati.
Amulett *n; -(e)s; -e;* tasma, amulet; tumor.
amüsant *Adj.* qiziq, ajoyib, alomat, g'alati, kulgili.
amüsieren *vt.* ko'ngilni ochmoq, vaqtni chog' qilmoq; **sich** ~ (o'z) ko'nglini ochmoq.
an *Präp.* 1. joyga nisbatan; ~ **dem (am) Fluß** daryo bo'yida. 2. bevosita yaqin joyda; **an der Wand** devorda, devor yonida. 3. vaqtga nisbatan; ~ **diesem Tag** shu kuni; **am Montag** dushanba kuni.
analog *Adj.* o'xshash, mos.
Analogie *f; -; -n;* o'xshashlik, moslik.
Analphabet *m; -en; -en;* savodsiz (kishi).
Analphabetentum *n; -s; -;* savodsizlik.
Analyse *f; -; -n;* tahlil, analiz.
analysieren *vt.* tahlil qilmoq, analiz qilmoq.
Analytiker *m; -s; -;* tahlilchi.
analytisch *Adj.* tahliliy; ~**e Funktion** tahliliy vazifa.
Anämie *f; -; -; Med.* anemiya, kam qonlik.
Ananas *f; -; -nasse; Bio.* ananas.
Anapher *f; -; -n; Ling.* anafora *(gap boshidagi so'zning ketma-ket gaplarda takrorlanishi).*
Anarchie *f; -; -n;* anarxiya, tartibsizlik.
Anästhesie *f; -; -n; Med.* anasteziya.
Anästhesist *f; -; -;* narkoz beruvchi (shifokor).
Anatomie *f; -; -n;* anatomiya.
anbahnen *vt.* tayyorlamoq, boylamoq, poydevor qo'ymoq; **eine Verbindung** ~ aloqa o'rnatmoq.
anbändeln *vt.* janjal chiqarmoq.
Anbau *m; -(e)s; -en;* ekin o'stirish, ko'paytirish.
anbauen *vt.* 1. ekin ekmoq, o'stirmoq, yetishtirmoq. 2. qurmoq *(yoniga).*
Anbaufläche *f; -; -n;* ekin maydoni.
Anbeginn *m; -(e)s; -;* debocha, boshlanish.
anbehalten *vt.* yodida tutmoq, yodida saqlamoq.
anbei *Adv.* ilova, ilova qilib.
anbeißen *vt.* tishlab olmoq.
anbelangen *vi.* tegishli bo'lmoq.
anbellen *vt.* hurmoq, vovullamoq.
anberaumen *vt.* tayinlamoq, belgilamoq.
anbeten *vt.* duo qilmoq, fotiha bermoq.
Anbetracht: in ~ auf (Akk) e'tiboran.
anbetreffen *vt.* daxldor bo'lmoq, tegishli bo'lmoq.
anbetteln *vi.* tilanchilik qilmoq.
anbetungswürdig *Adj.* ibodatga sazovor.
anbiedern sich *(bei D.)* ishonchga kirmoq, ishonch qozonmoq.
anbieten *vt.* taqdim etmoq, taklif etmoq.
Anbieter *m; -s; -;* taklif qiluvchi, tavsiya etuvchi.
anbinden *vt, vi.* 1. bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq. 2. yopishmoq.
Anblick *m; -(e)s; -e;* 1. manzara. 2. nazar tashlash, qarash; **beim ersten** ~ bir qarashda.
anblicken *vt.* tikilib qaramoq.
anbraten *vt.* qizartirmoq, qizartirib pishirmoq *(go'sht).*
anbrechen *vt, vi.* sindirmoq, yormoq.
anbrennen *vi.* 1. yondirmoq, yoqmoq. 2. (sut, ovqat) tagini olmoq.
anbringen *vt.* 1. mahkamlamoq. 2. izoh bermoq. 3. olib kelmoq.

Anbruch *m; -(e)s; -; -(e)s;* **brüche** ~ bo'lish boshlanish, hujum.
anbrüllen *vt.* baqirib bermoq.
Andacht *f; -; -en;* 1. *Rel.* ibodat. 2. xotira.
andächtig *Adj.* ilohiy, tantanavor, diqqat - e'tiborli.
andauernd *Adv.* doimo, hamma vaqt, har doim, hamisha.
Andenken *n; -s; -;* 1. xotira, esdalik: yo'qlash. 2. esdalik sovg'asi
andere(e) *Pron.* boshqa; **eine ~ Person** boshqa shaxs.
andermal *Adv.* boshqa safar, hozir emas.
ändern *vt.* 1. o'zgartirmoq. 2. almashtirmoq, almashmoq.
anders *Adv.* boshqacha, o'zgacha, boshqacha qilib.
andersartig *Adj.* o'zgacha, boshqacha.
Andersdenkende(r) *m; -s; -;* o'zgacha fikrlovchi.
anderseits *Adv.* boshqa tomondan, boshqa tarafdan.
andersfarbig *Adj.* boshqacha rangda.
andersgeartet *Adj.* boshqacha, farqli.
andersherum *Adv.* boshqacha, boshqacha yo'l bilan.
anderslautend *Adj.* boshqacha ohangli, boshqacha eshitiladigan.
anderswie *Adv.* boshqacha tarzda.
anderswo *Adv.* boshqa joyda, qayerdadir.
anderswoher *Adv.* qayerdan, boshqa joydan.
anderswohin *Adv.* qayergadir, boshqa joyga.
anderthalb *Num.* bir yarim; **in ~ Jahren** bir yarim yildan so'ng.
Änderung *f; -; -en;* o'zgarish, o'zgartirish.
andeuten *vt.* shama qilmoq, luqma solmoq.
Andeutung *f; -; -en;* shama, shama qilish.
andichten *vt.* madh etmoq, she'rlarda kuylamoq.
andicken *vt.* quyuqlashtirmoq, zichlamoq.
Andrang *m; -(e)s; -;* quyulish, qattiq bosimda otilib chiqish, napor.
andrängen *vt. (an A. gegen A.)* qismoq, yopishtirmoq.
andre(r, -s) *Pron.* boshqa, o'zga; **unter anderem** shu jumladan.
andrehen *vt.* aylantirmoq, aylanasiga buramoq.
androhen *vt.* do'q qilmoq, po'pisa qilmoq.
Androhung *f; -; -en;* do'q, po'pisa.
andrücken *vt.* bosib qo'ymoq, ezib qo'ymoq.
aneignen sich 1. o'zlashtirmoq, o'ziniki qilmoq. 2. bilim egallamoq.
Aneignung *f; -; -en;* o'zlashtirish, bilib olish.
aneinander *Adv.* ketma-ket, yonma-yon.
aneinanderfügen *vt.* birlashtirmoq, yaxlitlashtirmoq.
aneinandergeraten *vi.* bir-biriga tashlanmoq.
aneinanderhängen *vt.* yonma-yon, ketma - ket osmoq.
Anekdote *f; -; -n;* latifa; ~ **erzählen** latifa aytmoq.
anekeln *vt.* nafrat qo'zg'amoq, nafratini keltirmoq.
Anemone *f; -; -n; Med.* suvchechak.
Anerbieten *n; -s; -;* taklif.
anerkannt *Adj.* tan olingan, taniqli.
anerkennen *vt.* tan olmoq, e'tirof etmoq.
anerkennenswert *Adj.* e'tirofga loyiq, munosib.
Anerkennung *f; -; -en;* tan olish, e'tirof qilish.
anfachen *vt.* puflab yoqmoq.
anfahren 1. *vi.* kirib kelmoq. 2. *vt.* vaqt o'tkazmoq. 3. *vt.* urib olmoq *(avtoulovni).*
Anfahrt *f; -; -en;* 1. kirib kelish. 2. kirish yo'lagi. 3. bandargoh.
Anfall *m; -(e)s; -Abfälle;* xuruj, yomon his qilish.

anfällig *Adj.* ta'sirchanlikka moyil, kasalmand.

Anfang *m; -(e)s; -fänge;* boshlanish, boshlanish joyi, boshlanish payti; **aller ~ ist schwer** hamma narsaning boshlanishi qiyin.

anfangen *vt., vi.* boshlamoq, boshlanmoq.

Anfänger *m; -s; -;* boshlovchi, havaskor.

anfänglich *Adj.* ilk, dastlabki.

anfangs *Adv.* boshida, dastavval.

Anfangsbuchstabe *m; -n; -n;* so'zning boshidagi harf, ism-sharifni anglatuvchi harflar.

Anfangsgehalt *n; -es; -gehälter;* birinchi (ilk) maosh.

Anfangsphase *f; -; -n;* boshlang'ich bosqich.

anfassen *vt.* qo'l bilan ushlamoq, paypaslamoq.

anfechtbar *Adj.* baxsli, munozarali.

anfeinden *Adj.* dushmanlik munosabatida bo'lmoq.

anfertigen *vt.* tayyorlamoq, tayyor qilmoq.

Anfertigung *f; -; -en;* tayyorlash.

anfeuchten *vt.* ho'llamoq, namlamoq.

anfeuern *vt.* o't oldirmoq, yondirmoq.

anflehen *vt.* (um A.) yalinmoq, iltijo qilmoq.

anfliegen 1. *vi.* uchib kelmoq. 2. *vt.* osonlikcha yetib kelmoq.

Anflug *m; -(e)s; -flüge,* qo'nish, yaqinlashish.

anfordern *vt.* talab qilmoq, talab qilib so'rab olmoq.

Anforderung *f; -; -en;* talab qilish, so'rash.

Anfrage *f; -; -n;* (rasmiy ravishda) so'rash; so'rov, so'rovnoma.

anfragen *vt., vi.* so'rab olmoq, surishtirib bilmoq.

anfreunden sich do'stlashmoq, do'st bo'lib olmoq.

anfühlen *vt.* yetakchilik qilmoq, boshqarmoq.

anfügen *vt.* qo'shib qo'ymoq, to'ldirmoq.

Anführer *m; -s; -;* 1. rahbar, yetakchi 2. aldoqchi, yolg'onchi.

anführen *vt.* yetakchilik qilmoq, bosh bo'lmoq, tepasida turmoq, boshqarmoq.

Anführung *f; -; -en;* olib kirish, holat bilan tanishtirish.

Anführungszeichen *n; -s; -; Ling.* qavs; **in ~** qavs ichida.

Angabe *f; -; -n;* 1. ko'rsatma. 2. maqtanchoqlik. 3. uzatish *(koptokni).*

angeben *vt.* 1. ko'rsatmoq. 2. yetkazmoq. 3. maqtanmoq.

Angeber *m; -s; -;* shpion, josus, chaqimchi, maqtanchoq.

angeberisch *Adj.* 1. tuhmat bilan. 2. maqtanchoq.

angeblich *Adj.* aytishlaricha, ta'kidlanishicha.

angeboren *Adj.* tug'ma, tabiiy.

Angebot *n; -(e)s; -e;* taklif; **~ und Nachfrage** taklif va talab.

angbrochen *Adj.* lat yegan, darz ketgan.

Angedenken *n; -s; -;* eslash; **jmnd. in gutem ~ behalten** kimnidir yaxshi nom bilan eslamoq.

angegriffen *Adj.* qiynalgan, charchagan.

angeheitert *Adj.* shirakayf, xushchaqchaq.

angehen 1. *vi.* (biron ishga shahd bilan) kirishmoq; **das geht mich nicht an** ~ bu menga tegishli emas, bu mening ishim emas. 2. *vt.* boshlamoq, qo'l urmoq.

angehören *vi.* qarashli (tegishli) bo'lmoq, mansub bo'lmoq.

Angehörige *m; -n; -n;* qarindosh, tegishli kishi.

Angehörigkeit *f; -; -en;* mansublik, tegishlilik.

Angeklagte *m; -n; -n;* sudlanuvchi, ayblanuvchi.

angeknackst *Adj.* axloqan mustahkam, e'tiqodli, iymonli.

Angel *f; -; -n;* 1. halqa, ilmoq; **die Welt aus den ~n heben** dunyoni ag'dar-to'ntar qilmoq. 2. qarmoq; **an die ~ gehen** qarmoqqa tushmoq.

angelaufen *Adj.* 1. boshlangan. 2. rangi o'zgargan.

Angelegenheit *f; -; -en;* ish, masala; **wirtshaftliche ~** iqtisodiy masala.

angeln *vt.* qarmoq tashlamoq, qarmoq bilan baliq ushlamoq.

Angelpunkt *m; -(e)s; -e;* og'irlik markazi.

angemessen *Adj.* muvofiq, mos, munosib, loyiq.

angenehm *Adj.* yoqimli, xush yoqadigan.

angenommen *Adj.* 1. shartli, o'ylab topilgan, to'qilgan. 2. asrab olingan, boqib olingan, asrandi.

Anger *m; -s; -;* o'tloq, (kichik) yer maydoni. 3. *Part. Adj.* taxminan, faraz qilganda.

angeregt *Adj.* qiziqqon, moyil.

angesagt *Adj.* dolzarb, zamonga mos.

angeschlagen *Adj.* 1. charchagan. 2. kasalmand.

Angeschuldigte *m; -n; -n;* aybdor.

angesehen *Adj.* hurmatli, e'tiborli.

Angesicht *n; -(e)s; -er;* chehra, yuz.

angesichts *Präp.* munosabati bilan, sababli.

angespannt *Adj.* tang, og'ir ahvol.

angestaubt *Adj.* 1. changli, chang bosgan, chang qoplagan. 2. eskirgan, uringan, umrini o'tagan.

Angestellte *m, -n; -n;* xizmatchi, xodim.

angestellt: fest ~ doimiy ish joyiga ega bo'lgan.

angetrunken *Adj.* shirakayf, (biroz) ichib olgan.

angewandt *Adj.* amaliy; **~ Kunst** amaliy san'at.

angewiesen *Adj.* majbur, bog'liq.

angewöhnen *vt., vi.* o'rgatmoq; **~ sich** ko'nikmoq, o'rganib qolmoq.

Angewohnheit *f; -; -en;* odat, o'rganish, ko'nikish.

Angina *f; -; Anginen; Med.* angina.

angleichen *vt.* moslashtirmoq, tenglashtirmoq.

Angler *m; -s; -;* baliq tutuvchi, baliqchi *(qarmoq bilan).*

angliedern *vt.* qo'shmoq, tarkibiga kiritmoq.

anglotzen *vt.* chaqchaymoq, o'qraymoq.

angreifbar *Adj.* 1. ushlab bo'ladigan. 2. yemirilishga moyil.

angreifen *vt.* hujum (tajovuz) qilmoq, bostirib (bosib) kirmoq.

Angreifer *m; -s; -;* tajovuzkor, hujum qiluvchi.

Angriff *m; -s; -e;* hujum, tajovuz, bosqinchilik; **einen ~ abschlagen** hujumni qaytarmoq.

angriffig *Adj.* g'ayratli, chaqqon.

Angriffsfläche *f; -; -n;* yuza qism, yuza maydon.

Angriffslust *f; -; -;* tajovuzkorlik, hujumkorlik.

Angriffspunkt *m; -(e)s; -e;* og'irlik tushadigan nuqta.

angrinsen *vt.* jilmaymoq, kulimsiramoq.

Angst *f; -; Ängste;* qo'rqish, qo'rqinch, vahima, dahshat; **~ haben** qo'rqmoq; **vor ~** qo'rquvdan; **j-n in ~ versetzen** kimnidir qo'rqitmoq.

ängstigen *vt.* qo'rqitmoq; **sich ~** qo'rqmoq.

ängstlich *Adj.* jur'atsiz, tortinchoq, qo'rqoq.

angstvoll *Adj.* qo'rqqan, qo'rqib qolgan.

Angstschweiß *m; -es; -;* sovuq ter.

angucken *vt.* qaramoq, ko'z tikmoq.

angurten *vt.* siqmoq, siqib boylamoq.

anhaben *vt.* biror kiyimda (egnida) bo'lmoq.

anhaften *vt.* tegajog'lik qilmoq, birovga yopishmoq.

Anhalt *m; -(e)s, -e;* 1. tayanch. 2. bekat. 3. asos. 4. taxminiy dalil. 5. tanaffus.

anhalten *vt.* to'xtatmoq, to'xtatib, ushlab qolmoq.
anhaltend *Adj.* davomiy, davomli; **~er Beifall** davomli qarsaklar.
Anhaltspunkt *m; (e)s, -e;* 1. tayanch nuqtasi. 2. (taxminiy) dalil.
anhand *Präp.* yordamida, asosida, vositasida.
Anhang *m; -e(s); -hänge;* qo'shimcha, ilova.
anhängen *vt.* osib qo'ymoq, ilib qo'ymoq.
Anhänger *m; -s; -;* 1. tarafdor, maslakdosh, muxlis. 2. *Tech.* tirkama, pritsep 3. ilgak, veshalka.
Anhängerschaft *f; -; -;* muxlislik, tarafdorlik.
anhängig *Adj.* sudda ko'riladigan.
anhänglich *Adj.* bog'langan, ilib qo'yilgan.
anhauchen *vt.* puflamoq, shishirmoq.
anhäufen *vt.* to'plamoq, yig'moq, jamlamoq.
anheben *vt.* ko'tarib qo'ymoq, biroz ko'tarmoq.
anheften *vt.* 1. teshmoq, qadamoq. 2. **sich ~** bog'lanmoq, qo'shilmoq, yondashmoq.
anheimfallen *vi.* ixtiyoriga o'tmoq.
anheimstellen *vt.* ixtiyoriga bermoq.
anheizen *vt.* olov yoqmoq, o't qo'ymoq.
anherrschen *vt.* koyimoq, urushib bermoq.
anheuern 1. *vt.* yollamoq, majburiyat yuklamoq. 2. *vi.* jollanmoq, xizmatga kirishmoq.
anhimmeln *vt.* ixlos qilmoq, hurmat qilmoq.
Anhöhe *f; -; -n;* balandlik, tepalik.
anhören *vt.* eshitmoq, oxirigacha eshitmoq, quloq solib tinglamoq.
animalisch *Adj.* hayvoniy, hayvondek.
ankämpfen *vt.* qarshilik qilmoq, kurashmoq.
Ankauf *m; -es, -käufe;* sotib olish, (ko'p miqdorda) olish, ulgurji ravishda sotib olish.
Anker *m; -s; -;* langar; **~ werfen** langar tashlamoq.
ankern *vt.* langar tashlamoq.
Anklage *f; -; -n;* ayblash, ayblov, qoralash, aybnoma; **j-n unter ~ stellen** birovga ayb qo'ymoq.
anklagen *vt.* ayblamoq, ayb qo'ymoq, to'nkamoq.
Anlagekapital *n; -s; -e;* asosiy kapital.
Ankläger *m; -s; -;* ayblovchi.
Anklagerede *f; -; -n;* ayblovchi nutq.
anklammern *vt.* (qisqich bilan) mahkamlamoq; **sich ~** mahkam yopishib olmoq.
Anklang *m; -(e)s; -klänge,* sado.
ankleben *vt.* yopishtirmoq *(yelim bilan).*
ankleiden *vt.* kiymoq; **sich ~** kiyinmoq.
Ankleideraum *m; -(e)s; räume* ~ kiyinish xonasi, garderob.
anklicken *vt.* kompyuter yozuvida chiziq yoki belgi qo'yish.
anklingen *vt.* jiringlamoq, eshik tugmasini bosmoq.
anklopfen *vi., vt.* taqillatmoq; **an die Tür ~** eshikni taqillatmoq.
anknoten *vt. (tugun qilib)* bog'lamoq.
anknüpfen *vt. (suhbatga)* qo'shilmoq.
Anknüpfungspunkt *m; -(e)s; -e;* (fikrlar) to'g'ri kelish.
ankommen *vi.* yetib kelmoq.
ankreiden *vt.* 1. nasiyaga bermoq. 2. esga solmoq.
ankreuzen *vt.* belgilab qo'ymoq.
ankündigen *vt.* e'lon qilmoq; ma'lum qilmoq, xabardor qilmoq, bildirmoq.
Ankündigung *f; -; -en;* e'lon qilish.
Ankunft *f; -; -künfte,* yetib kelish.
ankurbeln *vt.* motorni o't oldirmoq.
anlächeln *vt.* jilmayib qo'ymoq, kulimsiramoq, kimgadir qarab kulmoq.
anlachen *vt.* kimgadir qarab kulmoq, kimnidir ustidan kulmoq.
Anlage *f; -; -n;* 1. o'rnatish, qurishga kirishish. 2. obodonlashtirish ishlari 3. asbob, uskuna. 4. mablag' qo'yish, ajratish.

Anlaß *m; -es; lässe;* sabab, bahona; bois; **zu diesem ~** shu munosabat bilan.
anlassen *vt.* yechmay, bo'shatmay qoldirmoq.
Anlasser *m; -s; -; Tech.* starter.
anläßlich *Präp.* munosabati bilan, sababli.
Anlauf *m; -(e)s; -läufe;* 1. yugurib borish, yugurib kelish. 2. to'planish, quyulish. 3. joyga ega bo'lish. 4. urinish.
Anlaufbahn *f; -; -en;* yugurish yo'lakchasi.
anlaufen *vi.* 1. (tez harakatdan) urilib ketmoq. 2. qarshi harakat qilmoq. 3. (asta) o'chmoq; **der Motor ist angelaufen** motor sekin o'chdi 4. boshlanmoq. 5. rangi o'zgarmoq. 6. ko'tarilmoq
Anlaufstelle *f; -; -en;* bandargoh, uchrashuv joyi.
anläuten *vt.* qo'ng'iroq chalmoq.
anlegen *vt.* 1. ustiga qo'ymoq. 2. taqmoq, taqib qo'ymoq. 3. barpo etmoq; **einen Garten ~** bog' barpo etmoq.
Anlegeplatz *m; -es; plätze;* bandargoh.
Anlehen *n; -s; -;* ssuda, qarz; **ein ~ machen** ssuda olmoq.
anlehnen *vt.* 1. suyab qo'ymoq. 2. ochiq qoldirmoq; **sich ~** suyanmoq.
Anlehnung *f; -; -en;* 1. qo'llab-quvvatlashga yoki yordamga muhtoj bo'lish. 2. suyanch.
Anleihe *f; -; -n;* uzoq muddatli kredit, qarz.
anleinen *vt.* jilovga olmoq, jilovlamoq *(kuchukni).*
Anleitung *f; -; -en;* qo'llanma, yo'l-yo'riq, ko'rsatma, instruktsiya.
anliefern *vt.* keltirmoq, yetishtirmoq, ta'minlamoq.
Anlieferung *f; -; -en;* yetkazib berish, ta'minlash.
anliegen *vt.* 1. mos kelmoq, to'g'ri kelmoq *(kiyimga oid).*
anliegend *Adj.* yon-atrofga oid.
Anlieger *m; -s; -;* qo'shni, yaqin-atrofda yashovchi.
Anliegerstaat *m; -es; -en;* qo'shni, chegaradosh mamlakat.
anlocken *vt.* jalb etmoq, jalb qilmoq.
anlügen *vt.* aldamoq, yolg'on gapirmoq.
Anmache *f; -; -n;* moslashtirish.
anmachen *vt.* 1. yoqmoq *(chiroq, televizor).* 2. bo'yoq bermoq, bo'yamoq.
anmahnen *vt.* yozma tarzda eslatmoq, ko'ndirmoq.
anmalen *vt.* 1. bo'yab qo'ymoq. 2. chizib ko'rsatmoq.
Anmarsch *m; -(e)s; -; Milit.* kirib kelish *(qo'shin).*
anmaßen sich o'ziga ortiqcha ishonmoq.
anmaßend *Adj.* o'ziga ishongan, surbet.
Anmaßung *f; -; -en;* o'zbilarmonlik, surbetlik.
anmelden *vt.* bildirmoq, e'lon qilmoq, xabar qilmoq; **sich ~** (o'zi haqida) bildirmoq, xabar bermoq.
Anmeldeformular *n; -(e)s; -e;* ro'yxatdan o'tish varaqasi
Anmeldung *f; -; -en;* bildirish, xabar berish.
anmerken *vt.* belgilamoq, o'ziga belgilab olmoq.
Anmerkung *f; -; -en;* mulohaza (fikr) bildirish.
anmieten *vt.* (biror narsani, joyni) ijaraga olmoq.
Anmut *f; -; -z;* joziba, go'zallik; ajoyib; **~ und Würde** joziba va g'urur.
anmuten *vt.* yoqmoq, talab qilmoq.
anmutig *Adj.* jalb qiluvchi, yoqimli.
annageln *vt.* (mixni) qoqib qo'ymoq.
annähen *vt.* tikib qo'ymoq.
annähern *vt.* yaqinlashtirmoq; **sich ~** yaqinlashmoq.
annähernd *Adv.* taxminan, qariyb, deyarli, umuman olganda.
Annahme *f; -; -n;* 1. qabul qilish. 2. taxmin, faraz.
annehmbar *Adj.* ma'qul, yaroqli.

annehmen *vt.* 1. qabul qilib olmoq. 2. taxmin, faraz qilmoq.

Annehmlichkeit *f; -; -en;* 1. moslik. 2. ma'qullik, qulaylik.

annektieren *vt.* anneksiya qilmoq *(zo'rlik bilan egallab olmoq, qo'shib olmoq).*

Annexion *f; -; -en;* anneksiya, (zo'rlik bilan) qo'shib olish.

Annonce *f; -; -n;* (gazetadagi) e'lon.

annoncieren *vt.* e'lon bermoq (*gazetada*).

annullieren *vt.* bekor qilmoq.

Anode *f; -; -n;* musbat maydon, musbat elektrod.

anöden *vt.* 1. joniga tegmoq, zeriktirmoq. 2. suykalmoq.

anomal *Adj.* 1. anomal, noto'g'ri, nonormal.

Anomalie *f; -; -n;* anomaliya, qoidadan tashqari, istisno.

anonym *Adj.* nomsiz, anonim; **~er Brief** imzosiz (anonim) xat.

anonymisiert *Adj.* anonimlashgan, mavhumlashtirilgan.

Anorak *m; -s; -s;* (nam o'tkazmaydigan) sport kostyumi.

anordnen *vt.* buyruq, farmoyish bermoq.

Anordnung *f; -; -en;* farmoyish, ko'rsatma.

anpacken *vt.* ushlab olmoq, qamrab olmoq.

anpassen *vt.* moslashtirmoq; **sich ~** moslashmoq.

Anpassung *f; -; -en;* moslashuv.

anpassungsfähig *Adj.* moslashuvchan, moslashishga moyil.

anpeilen *vt.* qayd etmoq, yo'llanma olmoq, belgilamoq.

anpfeifen *vt.* (o'yin boshlanishiga) hushtak chalmoq.

Anpfiff *m;* -s; -e; *Sport.* hushtak chalib o'yin boshlash.

anpflanzen *vt.* o'tkazmoq, o'stirmoq, parvarish qilmoq.

Anpflanzung *f; -; -en;* o'tqazish, ekish.

anpöbeln *vt.* qo'pol muomala qilmoq.

anprangern *vt.* yomonotliq qilmoq, sazoyi qilmoq, fosh qilmoq.

anpreisen *vt.* maqtamoq, ko'klarga ko'tarmoq.

Anprobe *f; -; -n;* (kiyib ko'rib) o'lchash, o'lchab ko'rish.

anprobieren *vt.* kiyib ko'rmoq, o'lchab ko'rmoq, sinab ko'rmoq.

anraten *vt.* maslahat bermoq.

anrauhen *vt.* qo'l uchida bajarmoq, qo'ldan kelgancha qilmoq.

anrechnen *vt.* hisoblamoq, kimnidir hisobiga o'tkazmoq.

Anrecht *n; -(e)s; -e;* huquq; **ein ~ auf etw. haben** biror narsaga huquqli bo'lmoq.

Anrede *f; -; -n;* 1. murojaat, murojaatnoma. 2. tabrik nutqi.

anreden *vt.* murojaat qilmoq, gap ochmoq.

Anregung *f; -; -en;* tashabbus, (undovchi) g'oya, da'vat.

Anreise *f; -; -;* yetib kelish, tashrif.

anreisen *vi.* yetib kelmoq.

Anreiz *m; -es; -e;* rag'bat; **~ geben** rag'batlantirmoq.

anrichten *vt.* 1. tayyorlamoq *(ovqat, dasturxonni).* 2. zarar yetkazmoq.

Anruf *m; -(e)s; -e;* 1. hayqiriq, chaqiriq, qichqiriq. 2. qo'ng'iroq, (telefonga) chaqirish.

anrufen *vt.* (qo'ng'iroq) telefon qilmoq, chaqirmoq, telefon orqali chaqirmoq.

anrühren *vt.* tegmoq, qo'l urmoq.

Ansager *m; -s; -;* diktor, suxandon.

ansagen *vt.* xabar bermoq, ogohlantirmoq.

ansässig *Adj.* (doimiy) yashovchi, istiqomat qiluvchi, o'troq.

ansammeln *vt.* yig'moq, termoq, jamlamoq; **sich ~** yig'ilib qolmoq.

Ansatz *m; -es; -sätze;* 1. shakllanish, vujudga kelish. 2. moyillik. 3. *Geol.* cho'kma, quyqa, loyqa. 4. tezlik olish, zarb. 5. tikilgan pul, dov *(qimorda).*

Ansatzpunkt *m; -(e); -e;* boshlanish nuqtasi, boshlanish marrasi.

ansatzweise *Adv.* qisman, umumiy tarzda

anschaffen *vt.* ega bo'lmoq, sotib olmoq, tayyorlamoq; **sich etw.** ~ biror narsalik bo'lmoq.

Anschaffung *f; -; -en;* 1. ega bo'lish, xarid. 2. tayyorlash. 3. naqd pul bilan to'lash.

anschalten *vt.* 1. ulamoq, yoqmoq. 2. yoqmoq *(chiroq).*

anschauen *vt.* qaramoq, tikilmoq.

anschaulich *Adj.* yaqqol, aniq, ko'rsatmali.

Anschauung *f; -; -en;* dunyoqarash, nigoh, nuqtayi nazar; **politische** ~ siyosiy qarash, dunyoqarash.

Anschauungsmaterial *n; -es; -ien;* ko'rgazmali o'quv quroli.

Anschein *m; -(es); -;* ko'rinish *(tashqi).*

anscheinend *Adj.* aftidan, chamasi.

anschicken sich 1. hozirlanmoq, niyat qilmoq. 2. o'zini tutmoq.

anschieben *vt.* siljitmoq, surmoq.

anschießen *vt.* otib qo'ymoq, urib tushirmoq.

Anschiss *m; -es; -e;* 1. aldash, ko'pirtirish. 2. hayfsan, ta'zir berish, tanbeh, koyish.

Anschlag *m; -(e)s; -schläge;* 1. zarba. 2. terroristik harakat. 3. e'lon. 4. miltiq qo'ndog'i. 5. hisob-kitob, smeta.

anschlagen *vt.* 1. mustahkamlamoq; (mix) urmoq. 2. e'lon qilmoq. 3. bosmoq. 4. zararlamoq, zarar yetkazmoq. 5. baholamoq.

anschleichen sich yashirinib yaqinlashmoq.

anschließen *vt.* 1. qo'shmoq, ulamoq. 2. qulflamoq; **sich** ~ qo'shilmoq *(fikrga).*

anschließend *Adj.* nihoyat, intihoda.

Anschluß *m; -es; -schlüsse;* ulanish, ulgurish *(transport vositasiga).*

Anschlußbahnhof *m; -(e)s; -bahnhöfe;* (boshqa poyezdlarga chiqish) vokzali.

Anschlussstelle *f; -;* ulanish, uchrashish joyi.

anschmiegen sich 1. qisilmoq. 2. erkalamoq.

anschmiegsam *Adj.* tarang, yopishgan *(kiyimlarga nisbatan).*

anschmieren *vt.* iflos qilmoq.

anschnallen *vt.* qadab qo'ymoq.

Anschnallgurt *m; -es; -e;* xavfsizlik kamari.

anschneiden *vt.* kesib qo'ymoq, qirqib qo'ymoq, kesmoq, qirqmoq.

Anschnitt *m; -(e)s; -e;* kesib, qirqib olingan narsa, kesma.

anschrauben *vt.* buramoq *(vint, gaykani).*

anschreiben *vt.* yozib olmoq, yozib qo'ymoq.

anschreien *vt.* baqirmoq, baqirib haqorat qilmoq.

Anschrift *f; -; -en;* 1. manzil, adres. 2. yozuv, qayd, sarlavha.

anschuldigen *vt.* ayblamoq.

Anschuldigung *f; -; -en;* ayblov.

anschwellen *vi.* semirmoq, ko'paymoq, balandlashmoq *(ovoz).*

anschwindeln *vt.* aldamoq.

ansehen *vt.* 1. qaramoq. 2. hisobga olmoq.

Ansehen *n; -s; -;* 1. hurmat, ehtirom, izzat-ikrom. 2. ko'rib chiqish.

ansehnlich *Adj.* ko'rimli, nufuzli, hurmatli, munosib.

ansetzen *vt.* qo'ymoq, olib kelmoq.

Ansicht *f; -; -en;* fikr, xayol, mulohaza, nazar, dunyoqarash; **meiner** ~ **nach** mening fikrimcha, mening o'ylashimcha, nazarimda.

Ansichtskarte *f; -; -n;* ochiq xat, tabrik xati.

ansiedeln *vt.* ko'chirmoq; **sich** ~ ko'chib kelmoq.

Ansiedlung *f; -; -en;* odamlar yashaydigan joy, qo'nalg'a, koloniya.

Ansinnen *n; -s; -;* tahqirlovchi talab.

ansonsten *Adv.* aks holda, boshqacha aytganda.

anspannen *vt.* cho'zmoq, taranglashtirmoq.
ansparen *vt.* yig'moq, to'plamoq.
anspeien *vt.* tupurmoq, tuflamoq, tufugini sachratmoq.
Anspiel *n; -(e)s; -e; Sport.* o'yin boshidagi birinchi yurish; **Ihr~** Sizning yurishingiz.
anspielen *vi.* 1. chalib ko'rmoq. 2. o'yinni boshlamoq. 3. *Sport.* to'pni uzatmoq, pas bermoq.
Anspielung *f; -; -en;* ishora; **eine~** *auf etw. (A.)* biror narsaga ishora qilmoq.
anspitzen *vt.* qayramoq, charxlamoq.
Ansporn *m.-(e)s; -;* rag'bat, stimul.
anspornen *vt.* rag'batlantirmoq.
Ansprache *f; -; -n.* 2. nutq. 2. murojaat.
ansprechen *vt.* 1. gap ochmoq. 2. murojaat qilmoq.
ansprechend *Adj.* yoqimli, jozibador, istarali.
Ansprechpartner *m; -s; -;* murojaat uchun shaxs, hamkor shaxs.
anspringen *vi.* ishlay boshlamoq.
Ansporn *m; -(e)s;* rag'bat, qo'zg'atuvchi sabab, stimul, istak, impuls.
Anspruch *m; -(e)s; -sprüche;* 1. haq-huquq. 2. da'vo, talab, da'vo qilish.
anspruchslos *Adj.* 1. kamtar. 2. juda oddiy.
anspruchsvoll *Adj.* talabchan.
Ansprung *m; -s; -sprünge* sakrash, otilib sakrash.
anspucken *vt.* tupurmoq, tuflab yubormoq.
anstacheln *vt.* qiziqtirmoq, qo'llab quvatlamoq.
Anstalt *f; -; -en;* 1. idora, muassasa. 2. jinnixona.
Anstand *m; -(e)s; anstände;* 1. xulq, odob. 2. orqaga surish.
anständig *Adj.* yaxshi, durust, tuzuk, binoyidek.
Anstandsbesuch *m; -(e)s; -e;* hurmat-ehtirom tashrifi.
anstandshalber *Adv.* odob yuzasidan.
anstandslos *Adj.* so'zsiz, to'xtovsiz, qarshiliksiz, shu zahotiyoq.
anstarren *vt.* tikilib qaramoq, angrayib qaramoq.
anstatt o'rniga; **~ dieses Buches gebe ich Ihnen ein anderes** Bu kitob o'rniga sizga boshqasini beraman.
anstechen *vt.* sanchib olmoq, sanchmoq.
anstecken *vt.* qadamoq, sanchib qo'ymoq, yoqmoq; **Feuer ~** o't (olov) yoqmoq.
Ansteckung *f; -; -en; Med.* yuqtirish, infektsiya.
Ansteckungsgefahr *f; -; -en;* yuqish xavfi, yuqtirish xavfi.
anstehen *vi.* navbatda turmoq, oldinda turmoq *(reja, vazifa).*
ansteigen *vi.* ko'tarilmoq, oshmoq *(narxlar).*
anstelle *Präp.* o'rniga, uchun.
anstellen *vt.* joylashtirmoq; ishga olmoq; **zur Arbeit ~** ishga joylashtirmoq.
anstellig *Adj.* bilag'on, usta, chaqqon, uchar.
Anstellung *f; -; -en;* 1. xizmatga qabul qilish, ishga joylashtirish. 2. lavozim, o'rin.
ansteuern *vt.* yo'lga chiqmoq, yo'l tutmoq.
Anstich *m; -(e)s; -e;* 1. ochish *(pivo bochkasi).* 2. ilk yer qazish ishi.
Anstieg *m; -(e)s; -e* ko'tarilish, chiqish, o'sish, yuksalish.
anstiften *vt.* 1. qoqmoq. 2. zarar yetkazmoq, ziyon keltirmoq.
anstimmen *vt.* (ashulani) boshlab bermoq.
Anstoß *m; -es; stöße;* 1. urish, urilish, zarb, zarba; **~ erregen** jahlini chiqarmoq, g'azablantirmoq. 2. turtki, tashabbus.
anstoßen *vt.* 1. itarib ybormoq, turtmoq. 2. qadah ko'tarmoq.
anstößig *Adv.* nomunosib, nojo'ya.
anstrahlen *vt.* yoritmoq, munavvar qilmoq, nur sochmoq.

anstreben *vt.* 1. intilmoq *(biror narsaga).* 2. qadah ko'tarmoq.
anstreichen *vt.* ranglamoq, rang bermoq.
Anstreicher *m; -s; -;* bo'yoqchi, rang beruvchi.
Ansturm *m; -(e)s; -strüme;* hujum, bosim, siquv.
anstürmen *vi.* hujum qilmoq.
Ansuchen *n; -s; -;* iltimosnoma; so'rovnoma.
Anteil *m; -(e)s; -e* 1. qism, ulush, hissa. 2. hamdard bo'lish, xayrixohlik.
Anteilnahme *f; -, -n;* 1. ishtirok. 2. hamdardlik, xayrixohlik, simpatiya.
Anthologie *f; -; -n;* antologiya, bayoz, durdona. *(yozuvchi va shoirlarning eng yaxshi asarlari kiritilgan to'plam).*
antik *Adj.* qadimiy, antik.
Antike *f; -; -n;* antik dunyo, antik madaniyat, qadimiy davr.
Antiquariat *n; -(e)s; -e* antikvar, antiqa buyumlar do'koni.
antiquarisch *Adj.* antikvar, antiqa.
Antlitz *n; -es; -e* chehra, yuz.
Antonym *n; -s; -e Ling.* antonim.
Antrag *m; -(e)s; -träge;* taqvim; (nomzodlikka) ariza; **einen ~ stellen** taklif qilmoq, ariza bermoq.
antragen *vt.* ariza bermoq, taklif etmoq, taqdim qilmoq.
Antragsformular *n; -s; -e;* ariza blanki, varaqasi.
Antragsteller *m; -s; -;* ariza muallifi, da'vogar.
antreten *vt.* 1. (yurib) bosmoq. 2. (qo'l, oyoq bilan) bosmoq. 3. boshlamoq, kirishmoq; otlanmoq (*sayohatga*).
Antrieb *m; -(e)s; -e;* 1. istak, tilak, mayl, rag'bat, niyat. 2. motor, dvi.gatel.
Antritt *m; -(e)s; -e;* boshi, boshlanishi.
Antrttittsrede *f; -; -n;* kirish nutqi.
antun *vt.* 1. sabab bo'lmoq. 2. (zarar) yetkazmoq, keltirmoq.
Antwort *f; -e; -en;* javob; **auf alles eine ~ bereit haben** hamma narsaga tayyor javobga ega bo'lmoq.
antworten *vi.* javob bermoq; **auf die Frage ~** savolga javob bermoq.
anwachsen *vi.* (an A.) o'sib chiqmoq, ildiz otmoq.
Anwalt *m; -(e)s; -wälte;* advokat, oqlovchi.
Anwandlung *f; -; -en; Med.* tutqanoq, xuruj.
anwärmen *vt.* ilitmoq, isitmoq, qizdirmoq *(mashina).*
Anwärter *m; -s; -;* da'vogar, talabgor, nomzod.
Anwaltschaft *f; -; -en;* advokatura, advokatlik.
anweisen *vt.* ko'rsatma bermoq, ko'rsatmoq.
Anweisung *f; -; -en;* 1. ko'rsatma; farmoyish, buyruq. 2. qo'llanma.
anwendbar *Adj.* qo'llasa bo'ladigan.
anwenden *vt.* qo'llamoq, ishlatmoq.
Anwendung *f; -; -en;* qo'llanish, ishlatish, tatbiq etish.
anwerben *vt.* odam olmoq, yollamoq, jalb qilmoq.
anwerfen *vt.* 1. yurgizib yubormoq *(mashina).* 2. *vi.* boshlamoq, otishni boshlamoq *(o'yinda).*
Anwesen *n; -s; -;* kichik mulk, yer uchastkasi, dehqon xo'jaligi, dehqon xonadoni.
anwesend *Part. Adj.* hozir bo'lgan, qatnashuvchi, ishtirok etuvchi; **sein ~** hozir bo'lmoq, bor bo'lmoq.
Anwesenheit *f; -; -en;* hozir bo'lish, ishtirok etish.
anwidern *vt.* nafrat uyg'otmoq, jirkantirmoq.
anwinkeln *vt.* qo'lni tirsakdan bukmoq.
Anwohner *m; -s; -;* yashovchi, turuvchi.
Anzahl *f; -; -en;* 1. son *(raqam).* 2. miqdor.
anzahlen *vt.* bay ochmoq, to'lab qo'ymoq.
anzapfen *vt.* qopqog'ini ochmoq *(bochka).*

Anzeichen *n; -s; -;* belgi, alomat, nishon.
anzeichnen *vt.* chizmoq, chizib belgilamoq.
Anzeige *f; -; -n;* xabar, bildirish, e'lon.
anzeigen *vt.* bildirmoq, ma'lum qilmoq, xabar bermoq.
anziehen *vt.* kiymoq; kiydirib qo'moq; **sich** ~ kiyinmoq.
Anzug *m; -s; -züge;* 1. kostyum, kamzul. 2. kuch, tezlanish.
anzünden *vt.* 1. yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq. 2. tutatmoq.
anzweifeln *vt.* shubhalanmoq, shubha ostiga qo'ymoq.
Aorta *f; -; Aorten; Med.* aorta, shohtomir *(tomir).*
Appartment *(n; -s; -s;* 1. hashamatli bino 2.kvartira *(mehmonxona uslubida).*
Apathie *f; -; -n;* loqaydlik, hafsalasizlik.
Apfel *m; -s; Äpfel;* olma; **der ~ fällt nicht weit vom Stamm** nima eksang, shuni o'rasan.
Apfelbaum *m; -(e)s; -bäume;* olma daraxti.
Apfelsine *f; -; -n;* apelsin *(daraxti).* 2. apelsin *(mevasi).*
Aphorismus *m; -; -rismen;* aforizm, hikmatli so'z, ibora.
apodiktisch *Adj.* shubhasiz, shak-shubhasiz, aniq va ravshan, rad qilib bo'lmaydigan, inkor etib bo'lmaydigan, e'tirozsiz.
Apokalypse *f; -; -n; Rel.* oxirzamon, apokalipsis.
Apostel *m; -s; -;* 1. Rel. havoriy, apostol *(Isoning afsonaviy o'n ikki shogirdlaridan biri).* 2. ma'rifat targ'ibotchisi.
Apostroph *m; -s; -e; Ling.* apostrof, ajratish belgisi (').
Apotheke *f; -; -n;* dorixona, apteka.
Apotheker *m; -s; -;* aptekachi.
Apparat *m; -(e)s; -e* apparat, asbob.
Apparatur *f; -; -en;* apparatura, murakkab mexanizm.
Appel *m; -s; -e;* da'vat, chaqiriq, murojaat.
appellieren *vt.* (an A.) da'vat, iltimos bilan murojaat qilmoq.
Appendix *m; -es; -Appendizes;* 1. ilova. 2. *Med.* ko'richak.
Appendizitis *f; -; -diziten; Med.* appenditsit, ko'richak.
Appetit *m; -(e)s; -e;* ishtaha; **Guten ~!** yoqimli ishtaha!
appetitlich *Adj.* ishtaha bilan.
applaudieren *vt.* qarsak (chapak) chalmoq.
Applaus *m; -(e)s; -;* qarsak(lar).
Approbation *f; -; -en;* sinash, sinovdan o'tkazish, tasdiq, ijozat, ma'qullash.
Aprikose *f; -; -en;* o'rik.
April *m; -s; -e;* aprel; **Ende ~** aprelning o'rtalarida.
Aprilscherz *m; -(e)s; -e* aprel hazili.
Aprilwetter *n; -s; -;* aprel ob-havosi (tez-tez o'zgaruvchan havo).
apropos *Adv.* aytgancha, ya'ni, aytganday.
Aquädukt *m; -(e)s; -e* qadimgi quvurli suv o'tkazgich.
Aquarium *n; -s; -rien;* akvarium.
Äquator *m; -s; -;* ekvator; **unter dem ~** ekvator chizig'idan pastda.
Äquation *f; -; -en; Math.* tenglama.
äquivalent *Adj.* bir xil, ekvi.valent.
Äquivalent *n; -(e)s; -e* bir xillik, ekvivalent.
Aquarel *n; -s; -e;* akvarel, suv bo'yoqli rangtasvir.
Ära *f; -; Ären;* katta tarixiy davr, era.
Arabeske *f; -; -n;* arabeska, (sharqona uslubdagi naqsh).
Arbeit *f; -; -en;* ish, mehnat, xizmat, mashg'ulot; **seine ~ machen** o'z ishini qilmoq, **körperliche ~** jismoniy mehnat.
arbeiten *vt.* ishlamoq, mehnat (xizmat) qilmoq; **an etwas ~** biror narsa ustida ishlamoq.
Arbeiter *m; -s; -;* ishchi xodim.

Arbeitgeber *m; -s; -;* ish beruvchi.
Arbeitnehmer *m; -s; -;* ishchi, xizmatchi, xodim.
arbeitsam *Adj.* ishchan, mehnatsevar.
Arbeitsamkeit *f; -; -en;* ishchanlik.
arbeitsfähig *Adj.* ishga qobiliyatli.
Arbeitsgang *m; -es; -gänge* ishning borishi.
Arbeitsgemeinschaft *f; -; -en;* mehnat shirkati.
Arbeitsgericht *n; -s; -e;* mehnatni muhofaza qiluvchi sud.
Arbeitsgruppe *f; -; -n;* ishchi guruh.
Arbeitskleidung *f; -; -en;* ish kiyimi.
Arbeitsklima *m; -s; -s;* ish joyidagi vaziyat, muhit.
Areibtskraft *f; -; -kräfte;* ishchi kuchi.
arbeitslos *Adj.* ishsiz, bekorchi, bekor.
Arbeitslose *m, -n; -n;* ishsiz.
Arbeitslosengeld *n; -es; -er;* ishsizlik nafaqasi.
Arbeitslosenhilfe *f; -; -n;* ishsizlarga yordam.
Arbeitslosigkeit *f; -; -en;* ishsizlik.
Arbeitsmarkt *m; -(e)s; -märkte;* mehnat bozori.
Arbeitsmoral *f; -; -;* ishga munosabat.
Arbeitsplatz *m; -es; -plätze;* ish o'rni, ish joyi.
Arbeitsprozess *m; -es; -e;* ish jarayoni.
Arbeitsrecht *n; -es; -e;* mehnat qilish huquqi.
Arbeitsschutz *m; -es; -e;* mehnat muhofazasi.
Arbeitsstelle *f; -; -n;* ish joyi.
Arbeitstag *m; -es; -e;* ish kuni.
Arbeitsteilung *f; -; -en;* ish taqsimoti.
Arbeitsverhältnis *n; -ses; -se;* ishga munosabat.
Arbeitsvertrag *m; -(e)s; -verträge;* mehnat shartnomasi.
Arbeitswelt *f; -; -en;* mehnat dunyosi.
Arbeitswillige *m, f; -n; -n;* ishlashga xayrixoh kishi.
Arbeitszeit *f; -; -en;* ish payti, vaqti.
Arbeitszimmer *n; -s; -;* ish xonasi.
archaisch *Adj.* arxaik, eskirgan.
Archäologie *f; -; -;* arxeologiya.
Architekt *m; -en; -en;* me'mor, arxitektor.
architektonisch *Adj.* me'moriy, arxitektonik.
Archiv *n; -s; -e;* 1. arxiv, hujjatlar yig'indisi. 2. arxiv, hujjatlar saqlanadigan joy.
Arena *f; -; Arenen* maydon; o'yingoh; **in die ~ treten** maydonga kirib kelmoq.
arg *Adj.* yomon, xunuk.
Ärger *m; -s; -;* xafalik, alam, ayanch.
ärgerlich *Adj.* alamli, ayanchli.
ärgern *vt.* xafa qilmoq; **sich ~** xafa bo'lmoq.
Ärgernis *n; -ses; -se;* 1. odobsizlik, axloqsizlik, intizomsizlik. 2. xafagarchilik.
Arglist *f; -; -;* 1. makkorlik, hiylagarlik, mug'ambirlik. 2. *Jur.* aldov, haqiqatni ataylab soxtalashtirish.
arglos *Adj.* soddadil, ishonuvchan, yuvosh, ko'ngli bo'sh.
Argument *n; -es; -e;* dalil, asos.
Argumentation *f; -; -en;* dalil - isbot, dalil.
argumentieren *vt.* dalil keltirmoq, isbotlamoq.
Argwohn *m; -(e)s; -;* shubha, gumon.
argwöhnen *vt., vi.* gumonsiramoq, shubha qilmoq.
argwöhnisch *Adj.* gumonli, shubhali.
Arie *f; -; -n; Mus.* ariya.
Aristokrat *m; -en; -en;* oqsuyak, aslzoda, zodagon.
Aristokratie *f; -; -;* 1. aristrokratiya. 2. aristokratiya, ijtimoiy guruhning imtiyozli qismi.
Arithmethik *f; -; -;* arifmetika, matematikaning qismi.
Arkirsche *f; -; -n; Bot.* shumurt *(oq xushbo'y gulli daraxt).*
arm *Adj.* kambag'al, qashshoq.
Arm *m; -es; -e;* qo'l; **der rechte ~** o'ng qo'l.

Armknochen *m; -s; -; Anat.* yelka suyagi.
Armatur *f; -; -en;* 1. armatura, temir jihoz, asbob-uskuna. 2. metal qurilma.
Armaturenbrett *n; -(e)s; -er;* uskuna taxtasi, armaturali tokcha.
Armband *n; -(e)s; -bände;* bilaguzuk.
Armbanduhr *f; -; -en;* qo'l soati.
Arme *m; -n; -n;* qambag'al kishi.
Armee *f; -; -arme:en;* armiya, qo'shin.
Armbeuge *f; -; -n;* tirsak, tirsak bukiladigan joy.
Armbinde *f; -; -n;* bog'ich.
Armbrust *f; -; -brüste;* arbalet *(kamonga o'xshash qadimiy qurol).*
Armee *f; -; -n;* armiya, qo'shin; **zur ~ gehen** armiyaga ketmoq.
Ärmel *m; -s; -;* yeng; **das Hemd mit langen ~n** uzun yengli ko'ylak.
Ärmelkanal *m; -s; -;* La-Mansh bo'g'ozi (Franziya va Angliya o'rtasidagi bo'g'oz).
ärmellos *Adj.* yengsiz; **~es Kleid** yengsiz ko'ylak.
Armlehne *f; -; -n;* tirsak qo'ygich, tirsaklagich *(kursining tirsak qo'yiladigan qismi).*
Armleuchter *m; -s; -;* qandil, chilchiroq.
ärmlich *Adj.* ayanchli, qashshoq.
Armreif *m; -(e)s; -e;* bilaguzuk.
armselig *Adj.* g'arib, bechora.
Armut *f; -; -;* kambag'allik.
Armutsgrenze *f; -; -n;* kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori, qashshoqlik chegarasi
Aroma *n; -s; -s;* xushbo'y hid.
arrogant *Adj.* takabbur, dimog'dor, kekkaygan.
Arrogenz *f; -; -;* takabburlik, kekkayish.
arschkalt *Adj.* juda sovuq.
Arsenal *n; -s; -e;* 1. qurol-yarog'. 2. qurol saqlanadigan ombor.
Art *f; -; -en;* xil, ko'rinish, tur.
Artefakt *n; -(e)s; -en;* 1. sun'iy yaratilgan narsa (predmet). 2. *Archäol.* ibtidoiy tosh qurol.
arten *vi. nach D.* o'xshab tug'ilmoq, kimgadir o'xshamoq.
artenreich *Adj.* turli-tuman, xilma-xil, turfa xil.
Artenschutz *m; -(e)s; -;* turlar himoyasi, muhofazasi.
Artenvielfalt *f; -; -en;* turlar xilma-xilligi, rang-barangligi.
Arterie *f; -; -n;* arteriya, qizil qon tomiri.
Arterienverkaltung *f; -; -en; Med.* arteroskleroz *(qon tomirlarining dag'allashishi, torayishi).*
Arthritis *f; -; Arthritiden; Med.* artrit, bo'g'inlarning yallig'lanishi.
artig *Adj.* gapga quloq soladigan, itoatkor, mo'min, qobil.
Artikel *m; -s; -;* 1. maqola. 2. mol, narsa, buyum. 3. paragraf, modda.
Arznei *f; -; -en;* dori-darmon; **~einnehmen** dori qabul qilmoq, ichmoq.
Arzt *m; -(e)s; Ärzte;* shifokor, doktor; **beim ~** shifokor huzurida.
Arzttum *n; -s, -e;* davolash, tibbiy amaliyot.
Asche *f; -; -n;* kul; **zu ~ werden** yonib kul bo'lmoq.
Aschenbecher *m; -s; -;* kuldon.
aschengrau *Adj.* kulrang.
Aschenputtel *n; -s; -;* ertaklardagi ayol qiyofasi.
Asiat *m; -en; -en;* osiyolik, Osiyoda yashovchi.
Assignation *f; -, -en* mablag' ajratish, pul chiqarish.
Assimilation *f; -; -en; Ling.* assimilatsiya, singish. 2. *Bot.* o'zlashtirish.
askethisch *Adj.* oddiy, o'ta kamtar; **~e Lebensweise** kamtarona turmush tarsi.
Aspekt *m;* -es; -e; 1. jihat. 2. tarkibiy qism.
Asphalt *m; -s; -e;.* asfalt.
asphaltieren *vt.* asfaltlamoq, asfalt qilmoq.
Assoziation *f; -; -en;* 1. *Psych.* assotsiatsiya, tasavvur. 2. birlashuv, assotsiatsiya

assoziieren *vt.* tasavvur qilmoq.
Astronom *m; -en; -en;* astronom.
assimilieren *vt.* moslashtirmoq; **~ sich** moslashmoq.
Ast *m; -es; Äste* daraxt shoxi; **den ~ absägen, auf dem man sitzt** o'zi o'tirgan shoxni kesmoq.
Asyl *n; -(e)s; -e;* boshpana; **politisches ~** siyosiy boshpana.
Asylant *m; -en; -en;* boshpana so'rovchi.
Asylersuchen *n; -s; -;* boshpana so'rab berilgan ariza.
Atem *m; -s; -;* nafas; **außer ~ sein** o'ta charchagan.
Atempause *f; -; -n;* nafas rostlash.
Äther *m; -s, -;* efir; **durch (über) den ~ senden** efir orqali uzatmoq.
Atlas *m; -ses; -se;* 1. xarita. 2. atlas.
atmen *vi., vt.* nafas olmoq.
Atmosphäre *f; -; -n;* 1. vaziyat. 2. atmosfera.
Atom *n; -s; -e;* atom, elementning eng kichik qismi.
Atomeisbrecher *m; -s; -;* atom muzyorari (kema).
Atomenergie *f; -; -n;* atom energiyasi.
Atomkern *m; -(e)s; -e;* atom yadrosi.
Atomkraft *f; -; kräfte;* atom energiyasi (quvvati).
Atomkraftwerk *n; -(e)s; -e;* atom elektrostansiyasi.
Atomkrieg *m; -(e)s; -e;* atom urushi.
Atomrüstung *f; -; -en;* atom quroli bilan qurollanish.
Atomwaffe *f; -; -en;* atom (yadro) quroli.
Attentat *n; -(e)s; -e;* suiqasd; **ein ~ begehen** suiqasd uyushtirmoq.
Attentäter *m; -(e)s; -e;* suiqasd uyushtirgan shaxs.
Attraktion *f; -; -en;* sirk tomoshasi.
attraktiv *Adj.* ko'rkam, yoqimli, istarasi issiq.
Aubergine *(ober'ji:ne) f -; -n; Bot.* baqlajon, patinjon.
auch *Konj.* ham, hamda.
Audienz *f; -; -en;* (rasmiy, diplomatik) qabul.
Auditorium *n; -s; Auditorien;* auditoriya, o'quv xonasi.
auf *Präp.* 1. joyga nisbatan; **~ der Straße** ko'chada. 2. *tadbirga nisbatan;* **~ der Hochzeit** to'yda. 3. *turli iboralarda;* **~ dem Gebiet** sohada.
Aufbau *m; -(e)s; -ten;* qurish, qurilish, inshoot.
aufbauen *vt.* qurmoq, barpo qilmoq, tiklamoq.
aufbewahren *vt.* asramoq, saqlamoq.
Aufbewahrung *f; -;* saqlash, yig'ish.
aufbügeln *vt.* dazmollamoq, dazmol urmoq.
aufdecken *vt.* solmoq, (dasturxon) yozmoq.
aufeinander *Adj.* ustma-ust, ketma-ket; **~ stellen** ustma-ust qo'ymoq.
aufeinanderfolgen *vi.* bir-biriga ergashmoq, ergashib yurmoq.
Aufenthaltsort *m; -(e)s; -e;* bo'lish, turish joyi.
Aufenthalt *m; -(e)s; -e;* 1. bo'lish, turish. 2. manzil, turar joy, yashash joyi. 3. to'xtash joyi.
auffallen *vi.* ko'zga tashlanmoq.
auffassen *vt.* fahmlamoq, tushunmoq, ilg'amoq.
Auffassung *f; -; -en;* tushunish, nuqtayi nazar; **eine ~ nicht teilen** fikrga qo'shilmaslik.
auffordern *vt.* talab qilmoq, da'vat etmoq.
Aufforderung *f; -; -en;* talab, taklif, chaqirish, taklifnoma.
auffressen *vt.* 1. yeb qo'ymoq, yemoq. 2. yeb yubormoq.
auffrischen *vt.* yangilamoq, qayta tiklamoq.
Aufführung *f; -; -en;* 1. inshoot. 2. spektakl, tomosha.
auffüllen *vt.* to'ldirmoq.
Aufgabe *f; -; -n;* vazifa, masala, topshiriq.
Aufgabenheft *n; -(e)s; -e;* kundalik *(o'quvchining).*

aufgeben *vt.* topshiriq bermoq.
aufgehen *vi.* 1. chiqib kelmoq *(quyosh).* 2. ochilmoq *(eshik, deraza).*
aufgeklärt *Adj.* ma'rifatli, hurfikr.
aufgeregt *Adj.* hayajonli, hayajonlangan.
Aufgesang *n; -es; -;* jo'r bo'lish *(ashulaga).*
aufgeschlossen *Adj.* dilkash, ulfat.
Aufgliederung *f; -; -en;* (qismlarga) bo'linish.
aufhalten *vt.* 1. tutib olmoq, to'xtatmoq. 2. ushlamoq, hibsga olmoq. 3. ochiq ushlamoq *(deraza);* **sich** ~ to'xtab (ushlanib) qolmoq.
aufheizen *vt.* qizdirmoq; **sich** ~ isinib olmoq.
aufhören *vi.* to'xtatmoq, tugatmoq, tamom qilmoq; **Hör auf!** Tugat!
Aufhören *n; -s; -;* tugatish, nihoya.
aufklären *vt.* 1. (atroflicha) aniqlamoq, tushuntirmoq. 2. ma'rifat tarqatmoq, tashvi.qot qilmoq.
Aufklärer *m; -s; -;* 1. ma'rifatchi 2. tashviqotchi 3. razvedkachi.
aufkleben *vt.* yopishtirmoq, yelimlamoq.
Aufkündigung *f; -; -en;* rad qilish, voz kechish, (shartnoma, kelishuvni) bekor qilish.
aufladen 1. yuklamoq. 2. zaryad bermoq *(batareyaga).*
Auflage *f; -; -n;* 1. nashr, bosma. 2. tiraj, adad.
Auflagenziffer *f; -; -n;* tiraj, adad *(gazeta, kitoblar).*
auflesen *vt.* yig'ishtirib, terib olmoq *(yerdan).*
auflisten *vt.* (ro'yxatga) yozib qo'ymoq.
auflösen *vt.* yechmoq, masalani hal qilmoq.
Auflösung *f; -; -en;* 1. yechim. 2. bekor qilish *(shartnomani).*
aufmachen *vt.* ochmoq; **das Fenster** ~ eshikni ochmoq.
aufmerken *vt.* etiborga olmoq, diqqat-e'tiborli bo'lmoq.
aufmerksam *Adj.* e'tiborli, sezgir.
Aufmerksamkeit *f; -; -;* diqqat, e'tibor.
aufmuntern *vt.* kayfiyatini ko'tarmoq, ruhlantirmoq.
Aufnahmeantrag *m; -s; -anträge;* qabul (qilish) haqidagi ariza.
Aufnahme *f; -; -n;* 1. qabul, qabul qilib olish. 2. qaytadan boshlash, barpo etish, o'rnatish *(munosabatlarni).*
aufnehmen *vt.* 1. ko'tarmoq. 2. qabul qilmoq. 3. rasmga olmoq.
aufpacken *vt.* ochmoq *(chamadon, quti).*
aufpassen *vt.* 1. diqqatli bo'lmoq, ehtiyot bo'lmoq. 2. diqqat bilan qarab turmoq; **Paß auf!** Ehtiyot bo'l!
Aufpreis *m; -es; -e;* ustama, qo'shimcha haq.
aufräumen *vt.* yig'ishtirmoq, tozalamoq, tartibga keltirmoq *(xonani).*
Aufräumen *n; -s; -;* tozalash, yig'ishtirish, tartibga solish.
aufregen *vt.* hayajonlantirmoq, bezovta qilmoq; **sich** ~ hayajonlanmoq, bezovta bo'lmoq, tashvishlanmoq.
Aufregung *f; -; -en;* hayajon, tashvish, bezovtalik.
aufrichtig *Adj.* samimiy, sofdil, to'g'ri, rostgo'y.
Aufrichtung *f; -; -en;* ko'tarish, qurish, qayta tiklash *(inshoot, bino).*
Aufruf *m; -es; -e;* murojaatnoma, chaqiriq, murojaat, da'vat.
aufrufen *vt.* 1. yo'qlama qilmoq. 2. da'vat qilmoq, chaqirmoq.
aufrüsten 1. *vt.* qurollantirmoq. 2. *vi.* qurollanmoq.
Aufrüstung *f; -; -en;* qurollanish, qurollantirish.
Aufsatz *m; -es; -sätze;* 1. insho. 2. maqola.
Aufschlag *m; -(e)s; -schläge;* 1. to'qnashuv. 2. ustama haq.
aufschlagen *vt.* 1. ochmoq, varaqlamoq *(kitobni).* 2. o'rnatmoq, yoymoq *(chodirni).* 3. ustama haqi qo'ymoq.
aufschließen *vt.* ochmoq; **jdm; sein Herz** ~ yuragidagini kimgadir ochmoq.

aufschmelzen 1. *vt.* eritmoq. 2. *vi.* erimoq.

Aufschrift *f; -; -en;* (sarlavha, nom bitilgan) yozuv.

Aufschub *m; -es; -;* kechiktirish, muddatini cho'zish.

Aufschwung *n; -s; -;* (yuksak) rivojlanish, yuksalish.

Aufseher *m; -s; -;* nozir, nazoratchi *(qamoqxonada).*

aufsetzen *vt.* 1. o'tqazmoq, kiydirib qo'ymoq *(bosh kiyimni).* 2. quymoq *(ovqat).*

Aufsicht *f; -; -en;* nazorat, kuzatuv.

Aufsichtsrat *m; -(e)s; -räte;* nazorat kengashi.

aufspalten *vt.* tilmoq, burdalamoq, tilib tashlamoq.

Aufspaltung *f; -; -en;* ajralish, ixtilof, kelishmovchilik.

aufspannen *vt.* tortmoq, cho'zmoq, taranglashtirmoq; **den Regenschirm** ~ soyabonni ochmoq.

Aufstand *m; -es, -stände* qo'zg'alon, isyon.

Aufständische *m; -n; -n;* qo'zg'olonchi, isyonchi.

aufstehen *vi.* o'rindan turmoq, qo'zg'almoq.

aufsteigen *vi.* chiqmoq, ko'tarilmoq, minmoq, o'tirmoq *(otga).*

aufstellen *vt.* qo'ymoq, o'rnatmoq, qurmoq, qo'yib chiqmoq.

Aufstieg *m; -(e)s; -e;* ko'tarilish, yuqori chiqish, yuksalish.

auftauchen *vi.* qalqib chiqmoq, (ba'zan) ko'rinib qolmoq, paydo bo'lmoq.

Auftrag *m; -(e)s; Aufträge;* topshiriq, vazifa, buyurtma.

auftragen *vt.* 1. ovqat tortmoq. 2. ranglamoq. 3. vazifa, topshiriq bermoq.

Auftraggeber *m; -s; -;* buyurtmachi, mijoz

auftreten *vi.* (sahnaga, so'zga) chiqmoq; **als Zeuge** ~ guvoh sifatida chiqmoq.

Auftreten *n; -s; -;* (sahnaga) chiqish, so'zga chiqish.

auftun *vt.* 1. ochmoq. 2. ovqat qo'ymoq, tortmoq.

aufwachen *vi.* uyqudan uyg'onmoq.

Aufwand *m; -(e)s; -;* sarf, xarajat, ortiqcha, ko'zda tutilmagan.

aufwändig *Adj.* isrofli, (ortiqcha) sarf-xarajatli.

aufwärmen *vt.* isitmoq; **sich** ~ isinmoq.

aufwärts *Adv.* yuqori, yuqoriga qarab.

Aufwasch *m; -es;* yuvish; **alles in einem** ~ bira to'la, bir varakasiga.

aufwecken *vt.* uyg'otmoq, jonlantirmoq.

aufweisen *vt.* ko'rsatmoq.

aufwenden *vt.* sarf qilmoq, (biron narsaga) ishlatmoq.

Aufwuchs *m; -(e)s; -;* 1. o'sish. 2. yosh avlod.

aufzählen *vt.* hisoblab sanab chiqmoq.

Aufzählung *f; -; -en;* hisoblab chiqish, sanab chiqish.

Aufzucht *f; -; -en;* yetishtirish, o'stirish.

Aufzug *m; -(e)s; -züge;* 1. lift. 2. (teatr) sahnasidan ko'rinish. 3. tantanali yurish, namoyish.

Augapfel *m; -s; -äpfel;* ko'z qorachig'i; **wie seinen ~ hüten** ko'z qorachig'iday asramoq.

Auge *n; -s; -n;* ko'z; **große ~n machen** hayron bo'lmoq.

Augenarzt *m; -(e)s; -ärzte;* okulist *(ko'z shifokori).*

Augenblick *m; -(e)s; -e;* bir on, bir dam, bir zum; **im** ~ bir zumda; **einen ~ bitte!** Biroz kuting!

augenblicklich *Adj.* bir ondagi, bir damdagi.

Augenbraue *f; -; -n;* qosh.

Augenzeuge *m; -n; -n;* guvoh.

August *m; -(e)s; -e;* avgust; **Anfang** ~ august boshlarida.

Auktion *f; -; -en;* auksion, kim oshdi savdosi.

Aula *f; -; -Aulen; -Aulas;* majlislar zali.

aus *Präp.* 1. *(joyga nisbatan)* ~ **dem Zimmer** xonadan. 2. *(yo'nalishga nisbatan)* ~ **Bremen** Bremendan. 3. *(materialga nisbatan)* ~ **Holz** yog'ochdan. 4. *(holat, sabab)* ~ **Ziele** sevgi tufayli.

ausarbeiten *vt.* ishlamoq, ishlov bermoq; ishlab chiqmoq.

Ausarbeitung *f; -; -en;* ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash.

Ausbau *m; -(e)s; -;* ishlov berish *(ichki)*, bezak berish; pardozlash.

Ausbauen *n; -s; -;* bezak berish, (qayta) moslashtirish.

ausbilden *vt.* mutaxassis tayyorlamoq, ta'lim bermoq.

Ausbildung *f; -; -en;* mutaxassis tayyorlash, o'qitish, ta'lim berish.

Ausbildungskosten *Pl.* ta'lim xarajatlari.

Ausbildungsstätte *f; -; -n;* ta'lim muassasasi.

ausbleiben *vi.* 1. kelmaslik, hozir bo'lmaslik, (biron narsadan) qolmoq. 2. sodir bo'lmaslik.

Ausblick *m; -(e)s; -e;* ko'rinish, manzara.

ausbreiten *vt.* 1. yoymoq, to'shamoq; **sich** ~ yoyilmoq. 2. bayon qilmoq. 3. kengaytirmoq.

Ausbreitung *f; -; -en;* yoyilish, kengayish, tarqalish.

Ausbruch *m; -(e)s; -brüche;* boshlanish, birdan (to'satdan) paydo bo'lish otilib chiqish (*vulqon*).

Ausdauer *f; -; -;* sabr, toqat, chidam, bardosh.

ausdauernd *Adj.* 1. sabrli, chidamli 2. *Bot.* ko'p yillik o'simlik.

ausdehnen *vt.* kengaytirmoq, tarqatmoq; **sich** ~ kengaymoq, tarqamoq.

ausdenken *vt.* o'ylab chiqarmoq, o'ylab topmoq.

Ausdruck *m; -(e)s; -drücke;* ifoda, ibora, so'z; **zum** ~ **bringen** ifoda qilmoq, bildirmoq, ifodalamoq; **seinen** ~ **finden** o'z ifodasini topmoq.

ausdrucken *vt.* bosmoq, nashrdan chiqarmoq.

ausdrücken *vt.* ifodalamoq, aytmoq.

ausdrücklich *Adj.* aniq, ravshan.

ausdrucksvoll *Adj.* ravshan, ma'noli, ta'sirli.

auseinander *Adv.* ayrim, bir-biridan uzoq, boshqa-boshqa.

auseinandergehen *vi.* ajralmoq, tarqalmoq.

Auseinandersetzung *f; -; -en;* 1. to'qnashuv, ziddiyat. 2. munozara.

auserlesen *Adj.* nozik, nafis, saralangan.

auserwählen *vt.* tanlamoq, tanlab olmoq.

Auserwählte *m; -n; -n;* tanlangan, suyukli, sevimli shaxs.

ausfahren 1. *vi.* sayrga, sayohatga chiqmoq *(transport vositada)*. 2. (tashqariga) haydab chiqib ketmoq. 3. haydalib to'zib ketmoq. 4 *vt.* sayr qildirib kelmoq, olib borib qo'ymoq *(transport vositasida)*.

Ausfahrt *f; -; -en;* 1. (transportga oid) haydab chiqib ketish, chiqish. 2. sayohat, jo'nab ketish.

Ausfahrtstraße *f; -; -n;* (katta) magistralga chiqish yo'li.

Ausfall *m; -(e)s; -;* 1. tushish, to'kilish *(soch)*. 2. kamomad, yetishmaslik *(pul)*. 3. safdan chiqish.

ausfallen *vi.* 1. tushmoq, to'kilmoq. 2. bo'lmaslik. 3. safdan chiqmoq.

Ausfällung *f; -; -en;* yog'ingarchilik.

ausfertigen *vt.* 1. (shartnoma) tuzmoq. 2. hisob yozib bormoq.

Ausfertigung *f; -; -en;* 1. (ro'yxat) tuzish. 2. nusxa.

ausfindig: ~ machen *(zarur, mos keladiganini)* qidirib topmoq.

ausfliegen *vi.* uchib ketmoq.

Ausflug *m; -(e)s; -flüge;* 1. sayr, sayohat. 2. baland uchish, parvoz qilish.

Ausfuhr *f; -; -en;* eksport, chetga mol sotish.

Ausfuhrartikel *m; -s; -;* eksport mahsuloti.

ausführen *vt.* 1. (sayrga) olib chiqmoq. 2. namoyish, ko'z-ko'z qilmoq. 3. eksport qilmoq. 4. bajarmoq.

ausführlich *Adj.* mufassal, batafsil, to'la-to'kis.

Ausfuhrlizenz *f; -; -en;* eksport qilish uchun litsenziya (*ruxsatnoma*).

Ausführung *f; -; -en;* 1. bajarish. 2. rasmiylashtirmoq. 3. ifodalash.

ausfüllen *vt.* to'ldirmoq, bajarmoq.

Ausgabe *f; -; -n;* 1. xarajat. 2. nashr. 3. son *(gazeta, jurnalning)*.

Ausgang *m; -(e)s; -gänge* 1. chiqish yo'li 2. yakun

Ausgangslage *f; -; -n;* yakuniy vaziyat

ausgeben *vt.* 1. (qo'l bilan) bermoq. 2. xarajat qilmoq, sarflamoq. 3. bosib chiqarmoq.

Ausgeburt *f; -; -en;* yo'q bo'lib ketish, qirilish.

ausgehen *vi.* 1. (tashqariga) chiqmoq. 2. sayrga chiqmoq. 3. kelib chiqmoq; asoslanmoq; **von der Situation** ~ vaziyatdan kelib chiqmoq.

ausgelassen *Adj.* sho'x, bebosh.

Ausgelassenheit *f; -; -en;* sho'xlik, beboshlik.

ausgelaufen *Adj.* vaqti (muddati) o'tgan.

ausgenommen *Part.* istisno, mustasno holda.

ausgeprägt *Adj.* yaqqol, ravshan.

ausgerechnet *Part.* ataylab, aynan.

ausgesprochen *Adj.* haqiqiy, o'ta ketgan, ashaddiy.

Ausgestaltung *f; -; -en;* bezash, bezatish.

ausgezeichnet *Adj.* a'lo darajali, juda yaxshi, soz.

ausgießen *vt.* to'kmoq, quymoq (*suyuqlikka nisbatan*).

ausgraben *vt.* qazimoq, qazib olmoq.

Ausgrabung *f; -; -en;* (arxeologik) qazilma, qazish ishlari.

Ausgrabungsstück *n; -(e)s; -e;* arxeologik topilma.

aushalten *vt.* bardosh bermoq, chidamoq.

aushändigen *vt.* bermoq, tantanali topshirmoq.

Aushang *m; -(e)s; -hänge;* e'lon.

aushängen *vt.* e'lon osmoq *(ko'rinarli joyga)*.

ausheilen 1. *vt.* davolab tuzatmoq. 2. *vi.* davolanmoq, tuzalmoq.

Ausheilung *f; -; -en;* davolanish, tuzalish.

aushelfen *vt.* 1. (qisqa fursat) yordam bermoq, yordam berib yubormoq.

Aushilfe *f; -; -n;* yordam (*vaqtinchalik, qo'shimcha*).

auskennen sich yaxshi bilmoq, (sohani) mukammal egallamoq; **Kennen Sie sich mit Computer aus?** Kompyuterni yaxshi bilasizmi?

ausklammern *vt.* 1. *Math.* qavsdan tashqariga chiqarmoq. 2. ajratmoq, ajratib olmoq.

Ausklang *m; -(e)s; -klänge;* yakun, nihoya.

Auskommen *n; -s; -;* pul mablag'i.

auskömmlich *Adj.* yetarli, yetadigan, kifoya qiladigan.

auskühlen 1. *vt.* sovitmoq. 2. *vi.* sovimoq.

Auskunft *f; -; -en;* ma'lumot, xabar, axborot; **j-n ~ um bitten** birovdan ma'lumot so'ramoq.

Auskunftsbüro *n; -s; -s;* ma'lumotlar byurosi.

auslachen *vt.* kulmoq, masxara qilmoq.

ausladen *vt.* 1. tushirmoq *(yuk)*. 2. (taklifni) qaytarib olmoq.

Ausladung *f; -; -en;* yuk tushirish.

Auslage *f; -; -n;* 1. (sotuvga) yoyilgan mol. 2. turish holati *(vaziyati)*.

Auslagerung *f; -; -en;* olib chiqib ketish *(molni)*.

Ausland *n; -(e)s; -länder;* chet el, xorijiy (ajnabiy) mamlakat (davlat); **aus dem ~** chet eldan.

Auslandserfahrung *f; -; -en;* chet el *(xorij)* tajribasi.
ausländisch *Adj.* chet ellik, xorijiy, ajnabiy.
auslassen *vt.* 1. tashlab ketmoq *(so'z, gapni)*, ko'zdan qochirmoq. 2. ulgurmaslik *(poyezdga, tadbir boshlanishiga)*. 3. oqizib tashlamoq *(suvni)*. 4. eritmoq *(moyni)*.
Ausleihe *f; -; -n;* (ijaraga, qarzga) berish.
ausleihen *vt.* qarz bermoq; **sich** ~ qarz olmoq.
auslernen *vt.* yodlab olmoq, o'qishni tugatmoq.
Auslese *f; -; -n;* 1. tanlov, saylab olish. 2. durdona *(sara asarlar to'plami)*. 3. antologiya. 4. (*saralangan*) vino.
auslesen *vt.* 1. o'qib tugatmoq. 2. tanlab olmoq.
ausliefern *vt.* yetkazib bermoq *(tovarni)*.
Auslieferung *f; -; -en;* yetkazib berish.
ausmachen *vt.* 1. o'chirmoq *(chiroqni)*. 2. kelishishmoq. 3. o'zaro hal qilmoq.
Ausmaß *n; -es; -e* 1. hajm. 2. daraja.
ausmalen *vt.* bo'yamoq, chizmoq.
Ausnahme *f; -; -n;* mustasno, istisno, qoidadan tashqari; **mit** -dan tashqari.
ausnahmweise *Adv.* istisno tarzida.
ausnahmslos *Adj.* beistisno, yoppasiga.
ausnehmen *vt.* 1. tortib olmoq. 2. istisno qilmoq; ~ **sich** ajralib turmoq.
ausnutzen *vt.* 1. (birovni mehnatidan) foydalanmoq. 2. qisqa muddatga foydalanmoq. 3. mansabidan foydalanmoq.
Ausnutzung *f; -; -en;* foydalanish.
auspacken *vt.* bo'shatmoq *(idishni)*.
auspeitschen 1. *vt.* qamchilamoq. 2. (norozilikdan) hushtak chalmoq.
ausprägen *vt.* zarb qilmoq (bosmoq, chekmoq); **Münzen** ~ chaqa (tanga pul) zarb qilmoq.
Ausprägung *f; -; -en;* zarb etish.
ausrauben *vt.* o'g'irlamoq, (majburan) tortib olmoq.
Ausraubung *f; -; -en;* o'g'irlik, tortib olish.
ausräumen *vt.* bo'shatmoq; **ein Zimmer** ~ xonani bo'shatmoq.
Ausrede *f; -; -n;* bahona; **Keine ~n!** Hech qanday bahona ketmaydi!
ausreden 1. *vt.* gap bilan ko'ndirmoq. 2. *vi.* (oxirigacha) gapirmoq, gapirib bo'lmoq.
ausreichen *vi.* yetarli bo'lmoq, yetmoq, qoniqarli bo'lmoq.
ausreichend *Adj.* yetarli, qoniqarli; ~ **Note** qoniqarli baho.
ausreifen *vi.* pishib yetilmoq, pishmoq *(meva, sabzavot)*.
Ausreise *f; -; -n;* mamlakatdan chiqib ketish.
Ausreiseerlaubnis *f; -; -se;* chet elga chiqib ketishga ruxsatnoma.
ausreisen *vi.* mamlakatdan chiqib ketmoq.
Ausreisevisum *n; -s; -visen;* chet elga chiqish vizasi.
ausreißen 1. *vt.* yulib olmoq, uzib tashlamoq *vi.* 2. uzilmoq *(tugma)*. 3. (kimdandir) qochib qolmoq.
ausreiten *vi.* (*otda*) sayrga chiqib ketmoq.
ausrichten *vt.* 1. xabar bermoq. 2. tashkil qilmoq, uyushtirmoq. 3. erishmoq.
ausrotten *vt.* qirib bo'lmoq, butkul yo'q qilmoq.
Ausrottung *f; -; -en;* qirib tashlash; butunlay yo'q qilish.
Ausruf *m; -(e)s; -e;* hayqirish, xitob, xitob qilish.
ausrufen *vt.* hayqirmoq, qichqirmoq, chaqirmoq.
Ausrufezeichen *n; -s; -; Ling.* undov belgisi.
ausruhen sich *vi.* dam olmoq, orom olmoq.
ausrüsten *vt.* 1. jihoz bilan ta'minlamoq, qurollantirmoq; **sich** ~ yig'moq, jamg'armoq.

Ausrüstung *f; -; -en;* 1. qurollanish, qurollantirish. 2. jihoz, jihozlash, ta'minlash.
Aussaat *f; -; -;* ekish, urug'.
aussäen *vt.* ekmoq, urug' sepmoq.
Aussage *f; -; -n;* 1. fikr (mulohaza) bayon qilish. 2. guvohlik berish.
aussagen *vt.* aytmoq, bayon qilmoq.
Aussagesatz *m; -(e)s; -sätze; Ling.* darak gap.
ausschalten *vt.* 1. o'chirmoq. 2. chiqarib (o'chirib) yubormoq (a'zolikdan). 2. *vi.* chiqib (o'chib) ketmoq *(ro'yxatdan).*
Ausschaltung *f; -; -en;* 1. o'chirish. 2. chiqarish.
ausscheiden 1. *vt.* ajratmoq, ajratib olmoq *vi.* 2. ajralib chiqmoq. 3. chiqib ketmoq *(o'yindan).*
ausschenken *vt.* qadahlarga quymoq.
ausschlachten *vt.* 1. bo'laklarga bo'lmoq. 2. (g'arazli maqsadda) foydalanmoq.
ausschlafen *vt.* (to'yib) uxlab olmoq.
Ausschlag *m; -es; -Ausschläge* 1. g'adir-budur. 2. keng ko'lam, keng yoyilish, quloch yozish. 3. *Sport.* dastlabki zarba.
ausschlagen *vt.* 1. (yuzni) urib sindirmoq. 2. rad etmoq. 3. *Sport.* ilk zarba bermoq.
ausschlaggebend *Adj.* muhim, hal qiluvchi.
ausschließen *vt.* 1. (ro'yxatdan) chiqarmoq, o'chirmoq. 2. istisno qilmoq. 3. ~ **sich** o'zini chetga olmoq.
ausschließlich 1. *Adv.* faqat, nuqul. 2. *Adj.* maxsus, alohida, ayrim, o'ziga xos.
ausschmücken *vt.* bezatmoq, yig'moq *(xona).*
ausschneiden *vt.* qirqmoq, kesmoq, bichmoq.
Ausschnitt *m; -(e)s; -e;* parcha, kesma.
ausschöpfen *vt.* batamom foydalanib bo'lmoq.
ausschreiben *vt.* 1. yozib bermoq. 2. yozib tashlamoq. 3. (yozuv bilan) to'ldirmoq. 4. e'lon qilmoq, belgilamoq.
Ausschuss *m; -es; -schüsse* komissiya.
ausschütteln *vt.* qoqib tashlamoq *(kiyimdan).*
aussehen *vt.* 1. ko'rinmoq, ko'rinishda bo'lmoq. 2. tuyulmoq; **Sie sehen wunderbar aus!** Ko'rinishingiz zo'r!
Aussehen *n; -s; -;* tashqi ko'rinish, qiyofa.
aussein *vi.* tamom bo'lmoq, tugamoq.
ausspeichern *vt.* yig'moq, jamg'armoq.
außen *Adv.* tashqi; **von** ~ tashqaridan.
Außenhandel *m; -s; -;* tashqi savdo.
Außenministerium *n; -s; -ministerien;* tashqi ishlar vazirligi.
Außenpolitik *f; -; -;* tashqi siyoat.
außer *Präp.* tashqari; ~ **Sonntag** yakshanbadan tashqari.
außerdem *Adv.* undan tashqari.
Äußere *n; -n; -;* tashqi ko'rinish.
außergewöhnlich *Adj.* odatdan tashqari, favqulodda, haddan tashqari.
außerhalb *Adv.* tashqarisi, tashqari tomoni, sirti.
äußern *vt. (fikr)* bildirmoq, ifodalamoq; **sich** ~ o'z fikrini ifoda etmoq.
äußerst *Adv.* g'oyat, juda ham, nihoyatda, haddan tashqari.
Äußerung *f; -; -en;* (fikr) ifodalash, fikr bildirish.
aussetzen *vt.* 1. (ko'chat) ekmoq. 2. (yo'lovchini) tushirib qoldirmoq.
Aussicht *f; -; -en;* 1. manzara, ko'rinish. 2. imkoniyat, (kelajakka) umid.
aussichtlos *Adj.* umidsiz, ishonchsiz.
Aussiedlung *f; -; -en;* ko'chib kelish.
aussortieren *vt.* saralamoq, xillarga ajratmoq.
Aussortierung *f; -; -en;* saralash.
ausspannen *vt.* 1. egarni olib qo'ymoq (yechmoq). 2. (vaqtinchalik) ishlamaslik.
Ausspannung *f; -; -en;* dam, hordiq.

Aussprache *f; -; -n;* 1. *Ling.* talaffuz. 2. fikr, munozara.

aussprechen *vt.* 1. talaffuz qilmoq. 2. fikr bildirmoq. 3. e'lon qilmoq. 4. (oxirigacha) gapirmoq.

ausspucken *vt.* tupurmoq, tupurib tashlamoq.

ausspülen *vt.* chayib tashlamoq.

ausstatten *vt.* 1. ta'minlamoq. 2. (vakolat) bermoq. 3. (xonani) jihozlamoq. 4. (farzandga) mol-mulk ajratib bermoq.

Ausstattung *f; -; -en;* 1. ta'minlash. 2. jihozlash.

aussteigen *vi.* 1. chiqmoq, tushmoq *(transport vositasidan).* 2. (hamkorlikdan) chiqib ketmoq.

Aussteiger *m; -s; -;* (hamkorlikdan chiqqan) sherik.

ausstellen *vt.* ko'rgazmaga qo'ymoq, namoyish qilmoq.

Ausstellung *f; -; -en;* ko'rgazma.

aussterben *vi.* qirilib ketmoq, yo'q bo'lib ketmoq.

Ausstieg *m; -(e)s; -e;* 1. chiqish *(tranportda).* 2. (hamkorlikdan) chiqib ketish.

ausstrahlen *vt.* 1. (radio, televedeniya orqali) uzatmoq, olib ko'rsatmoq. 2. nur sachratmoq, yarqiratmoq. 3. ~ **sich** yarqiramoq, nur tarqalmoq.

Ausstrahlung *f; -; -en;* 1. nurlanish. 2. ta'sir.

Ausstrahlungskraft *f; -; -kräfte;* ta'sir kuchi.

ausstrecken *vt.* uzatmoq, cho'zmoq, yoymoq; **sich** ~ cho'zilib yotmoq yoyilmoq.

aussuchen *vt.* tanlamoq, tanlab olmoq.

Austausch *m; -(e)s; -;* almashuv, ayirboshlash, almashtirish.

austauschen *vt.* almashmoq, almashtirmoq.

austeilen *vt.* bo'lmoq, bo'lib bermoq, taqsimlamoq.

Austeilung *f; -; -en;* bo'lish, taqsimlash.

austiefen *vt.* chuqurlashtirmoq.

Austrag *m; -(e)s; -;* qaror, bitim; **zum ~ bringen** tugatmoq, bitimga kelmoq.

austragen *vt.* 1. (ko'tarib) chiqmoq. 2. (homilani) ko'tarib yurmoq. 3. kiyib to'zitmoq. 4. daromad keltirmoq. 5. (muammoni) hal qilmoq. 6. tarqatmoq *(gazeta).* 7. o'tkazmoq *(sport tadbiri).* 8. **sich** ~ hosil bermoq. 9. ro'yxatdan o'chmoq.

Austragung *f; -; -en;* 1. (sport tadbiri) o'tkazish. 2. yechim *(muammoga oid).*

austreiben *vt.* haydamoq, quvmoq, quvg'in qilmoq.

Austreibung *f; -; -en;* haydash, quvg'in.

austreten *vi.* 1. (qatordan, tashqariga) chiqmoq. 2. (tashkilotdan) chiqmoq. 3. qirg'oqdan chiqmoq *(suvga oid).* 4. chiqib turmoq, ko'rinib qolmoq. 5. hojatga chiqmoq. *vi.* 6. *(oyoq bilan)* bosib tashlamoq.

austrinken *vt.* ichib bo'shatmoq, oxirigacha ichmoq.

Austritt *m; -(e)s; -e;* 1. chiqish *(a'zolikdan).* 2. chiqish *(joyga oid)*

austrocknen 1. *vt.* quritmoq. 2. *vi.* qurimoq, qurib qolmoq.

ausüben *vt.* 1. shug'ullanmoq. 2. amalga oshirmoq. 3. bosim o'tkazmoq

Ausverkauf *m; -s; -;* sotuv *(arzon narxda).*

ausverkaufen *vt.* (arzon narxda) sotib yubormoq.

Auswahl *f; -; -;* tanlash, tanlab olish, saralash; **eine ~ treffen** tanlamoq, tanlab olmoq.

auswählen *vt.* saylamoq, tanlamoq, tanlab olmoq.

Auswanderer *m; -s; -;* muhojir, emigrant.

auswandern *vi.* (mamlakatdan) chiqib ketmoq, muhojirlik qilmoq.

auswärtig *Adj.* tashqi; **das Auswärtige Amt** tashqi ishlar vazirligi.

auswärts *Adv.* tashqariga, tashqari tomoni, sirti.

auswaschen *vt.* yuvib tashlamoq.
auswechseln *vt.* almashtirmoq, almashtirib qo'ymoq.
Ausweg *m; -es; -e;* (vaziyatdan, muammodan) chiqish yo'li.
ausweglos *Adj.* umidsiz, ilojsiz.
Ausweis *m; -es; -e;* guvohnoma, shaxsni aniqlaydigan hujjat.
ausweisen *vt.* 1. (mamlakatdan) chiqarib yubormoq. 2. ko'rsatmoq, isbotlamoq.
auswendig *Adj.* yod, yoddan; **~ lernen** yod olmoq.
auswerten *vt.* baholamoq; **seine Kenntnisse ~** bilimini baholamoq.
Auswertung *f; -; -en;* 1. foydalanish. 2. tahlil, baholash.
auswiegen *vt.* 1. tarozida tortmoq, tortib taqsimlamoq, tortib qo'ymoq. 2. baravarlashtirmoq, muvozanatlashtirmoq.
auswirken: sich ~ o'z ifodasini (ta'sirini) ko'rsatmoq.
Auswirkung *f; -; -en;* natija, ta'sir.
auswischen *vt.* tozalamoq, artmoq, changini artmoq.
auszahlen *vt.* sanab bermoq, to'lamoq.
auszählen *vt.* sanab ko'rmoq, sanab chiqmoq.
Auszahlung *f; -; -en;* to'lov, to'lash.
auszeichnen *vt.* 1. taqdirlamoq, mukofotlamoq. 2. belgilamoq. 3. ajralib turmoq. 4. narxlamoq. 5. *vi.* chizib tugatmoq; **sich ~** o'zini ko'rsatmoq, ishda o'rnak ko'rsatmoq.
Auszeichnung *f; -; -en;* 1. mukofotlash, nishonlash, taqdirlash. 2. belgilash. 3. narx qo'yish.
ausziehen *vt.* 1. tortmoq, tortib chiqarmoq. 2. yechmoq (kiyimni) *vi.* 3. ko'chib ketmoq. 4. jo'nab ketmoq; **sich ~** yechinmoq.
Auszubildende *m; -n; -n;* shogird, hunar o'rganadigan yosh o'quvchi.
Auszug *m; -es; -züge;* 1. ko'chish. 2. asardan parcha.
authentisch *Adj.* asl, qo'l urilmagan.
Auto *n; -s; -s;* avtomobil, mashina; **~ fahren** mashina haydamoq.
Autobahn *f; -; -en;* avtostrada, avtomagistral.
Autobiographie *f; -; -n;* tarjimayi hol, avtobiografiya.
autonom *Adj.* avtonom, mustaqil.
Autonomie *f; -; -n;* avtonomiya, mustaqillik.
Autor *m; -s; -en;* muallif; **zeitgenössischer ~** zamondosh muallif.
Autorität *f; -; -en;* nufuz, obro'.
Axt *f; -; Äxte;* og'ir to'mtoq bolta; **wie die ~ im Walde** o'zini yovvoyilarcha tutmoq.
azurblau *Adj.* havorang, moviy, ko'm-ko'k.

B

B.b. Der zweite Buchstabe des deutschen Alphabets.
babbeln *vi.* 1. bidirlab gapirmoq, g'udurlab so'zlamoq. 2. vaysamoq, vijirlamoq, ko'p gapirmoq, mahmadonalik qilmoq.
Babelgedanke *m; -ns,-n;* ulkan g'oya, dohiyona fikr.
Baby *n; -s; -s;* [be:bi] chaqaloq, emizikli bola.
Babynahrung *f; -; -en;* chaqaloqlar ovqati, ozuqasi.
Bachelor *n; oder m; -s; -s; Syn: Bakkalaurues* 1. bakalavr, eng quyi akademik daraja. 2. *Syn: Bakkalaureat* bakalavr darajasi sohibi.
Bach *m; -(e)s; Bächer;* soy, ariq; **entlang dem ~** soy bo'ylab ariq yoqalab.
Bache *f; -; -n; Zool.* urg'ochi tong'iz.

Back *f; -; -en;* 1. bak, suv idish. 2. kema palubasining tumshuq qismi.
Backapfel *m; -s; -äpfel* olmali pishiriq.
Backblech *n; -es; -e;* tunuka tova *(pishiriq uchun).*
Backe *f; -; -n;* 1. chakka, yuz. 2. jag'.
Backenbart *m; -es; -bärte* chekka soqol, bakenbart.
backen 1. *vt.* yopmoq, pishirmoq *(non, pishiriq);* 2. *vi.* yopilmoq, pishirilmoq.
Bäcker *m; -s; -;* novvoy.
Bäckerei *f; -; -en;* novvoyxona.
Backfisch *m; -es; -e;* 1. qovurilgan baliq. 2. o'smir qiz.
Bacchant *m; -en; -en;* hamshisha, hamtovoq, ulfat.
backig *Adj.* yopishqoq, yelimshak.
Backofen *m; -s; -öfen* duxovka *(pishirish moslamasi).*
backsen 1. *vt.* nariga (chekkaga) surmoq, siljitmoq. 2. *vi.* orqaga yurmoq *(transport)*
Backstein *m; -(e)s; -e;* pishiq g'isht.
Backsteinmauer *f; -; -n;* pishiq g'ishtdan qurilgan devor.
Bad *n; -(e)s; Bäder;* 1. cho'milish. 2. hammom, vanna. 3. kurort; ~ **nehmen** vannaga tushmoq, vanna qabul qilmoq.
Badeanstalt *f; -; -en;* basseyn, cho'milish havzasi.
Badekur *f; -; -en;* suv bilan davolanish.
baden 1. *vt.* cho'miltirmoq. 2. *vi.* cho'milmoq; ~ **sich** cho'milmoq. **kalt** ~ sovuq suvga cho'milmoq.
Badenixe *f; -; -n;* suv parisi.
Badewanne *f; -; -n;* vanna.
Badezimmer *n; -s; -;* vannaxona.
Bagage: *(bagasch), [-ʒə], f; -; -;* bagaj, yo'lga olingan yuk.
bagatelliesieren *vt.* bahosini pasaytirmoq, nomunosib baholamoq.
Bagger *m; -s; -;* ekskavator.
baggern *vt.* (ekskavator bilan) kovlamoq.
Bahn *f; -; -en;* 1. yo'l. 2. orbita. 3. *Sport.* yo'lka.
Bahnangestelle *m; -n; -n;* temiryo'l xodimi.
Bahnbrecher *m; -s; -;* novator (yangilik ijod qiluvchi), ijodkor.
bahnen *vt.* yo'l ochmoq.
BahnCard *f; -; -s;* imtiyozli temiryo'l chiptasi.
Bahnfahrt *f; -; -en;* poyezdda sayohat, yurish.
Bahngleis *n; -es; -e;* perron, temiryo'l bekati.
Bahnhof *m; -(e)s; -höfe;* vokzal, stansiya; **auf dem** ~ vokzalda.
Bahnlinie *f; -, -n;* temiryo'l (liniyasi).
Bahnpolizei *f; -; -n;* temiryo'l politsiyasi.
Bahnsteig *m; -(e)s; -e;* perron, platforma.
Bahnverkehr *n; -(e)s;* temiryo'l transporti harakati.
Bahre *f; -; -n;* 1. zambil. 2. tobut.
Bahrtuch *n; -es; -tücher* (tobut ustiga qo'yiladigan) yopqich, choyshab.
Bajonett *n; -es; -e;* miltiq nayzasi.
Bakkalaureat n; *-es; -s;* 1. bakalavr darajasi 2. imtihon. *(bakalavr darajasi uchun).*
Bakterie *f; -; -n; Bio. Med.* bakteriya.
bakteriel *Adj.* bakteriyali.
Balance *f; -; -n;* [balanąnə] 1. muvozanat. 2. balans, daromad nisbati.
balancieren 1. *vi.* muvozanat turmoq. 2. *vt.* muvozanatni saqlamoq.
bald 1. *Adv.* yaqinda. 2. *Konj.* goh-goh.
baldig *Adj.* tez orada, yaqin ora; ~**e Ankunft** yaqin orada yetib kelish.
baldmöglichst *Adv.* iloji boricha tez.
Balg *m; -(e)s; Bälge;* teri *(hayvon).*
balgen sich talashib o'ynashmoq *(hayvonlar va bolalar).*
Balken *m; -s; -;* yog'och ustun, to'sin.
Balkon *n; -s; -s/-e;* balkon, boloxona.
Ball *m; -(e)s; Bälle;* 1. koptok, to'p; ~ **spielen** koptok o'ynamoq. 2. bal *(raqs kechasi).*
Ballade *f; -; -n;* ballada *(adabiy asarning bir turi).*

Ballast *m; -es; -e;* ortiqcha yuk; ~ **sein** ortiqcha bo'lmoq, boshiga balo bo'lmoq.
ballen *vt.* dumaloq shaklga keltirmoq, barmoqlarni bukmoq.
Ballerina *f; -; Ballerinnen;* raqqosa, balerina.
Ballett *n; -s; -e;* balet, raqs guruhi.
Ballettmeister *m; -s; -;* balet ustasi, baletmeyster.
Ballon *m; -s; -s/-e;* [-lo:n] ballon.
Ballspiel *n; -(e)s.-e;* koptok o'yini.
Balsam *m; -s; -e;* balsam, malham; ~ **auf (in) j-s Wunde giessen** kimnidir yarasiga malham qo'ymoq.
balsamieren *vt.* malham qo'ymoq.
banal *Adj.* siyqasi chiqqan, beqadr.
Banane *f; -; -n; Bot.* banan.
Bananenbaum *m; -(e)s; -bäume;* banan daraxti.
Band I *m; -es; Bände* jild, tom.
Band II *m; -es; Bände* lenta, tasma.
Band III *n; -es; Bände* rishta; ~ **der Freundschaft** do'stlik rishtasi.
Band IV *(baent) f; -; -s; Mus.* musiqiy guruh.
Bande I *f; -; -n;* jinoyatchilar guruhi.
Bande II *f; -; -n;* 1. chekka qism. 2. *Sport.* bort *(billyard, xokkeyga oid).*
bang(e) *Adj.* xavotirli, jur'atsiz, yuraksiz, qo'rqinchli.
Bange *f; -; -;* xavotir, qo'rquv.
bangen I *vi.* 1. *um, für Akk.* xavotir olmoq. 2. *vor Dat.* qo'rqmoq, dahshatga tushmoq. 3. *(nach D.)* ~ **sich** sog'inmoq. **II** *vt.* qo'rqitmoq, dahshat solmoq.
Bank I *f; -; Bänke* o'rindiq.
Bank II *f; -; Banken; Finanz.* bank.
Bankbeamte *m; -n; -n;* bank xodimi.
Banker *m; -s; -s;* bankir.
Bankbruch *m; -(e)s, -e;* - brüche 1. bankrotlik, tanazzulga uchrash kasod bo'lish. 2. asossizlik, qodir emaslik.
bannen *vt.* 1. haydamoq, badarg'a qilmoq, qonundan tashqari deb topmoq. 2. o'zini majbur qilmoq, bo'ysundirmoq, afsunlamoq, avramoq.
Banknote *f; -; -n;* banknot, qog'oz pul.
bankrott *Adj.* tanazzulga uchragan, kasod; ~ **werden** kasodga uchramoq.
Banner *n; -s; -;* bayroq.
bar *Adj.* naqd; ~**es Geld** naqd pul.
Bar I *f; -; -s;* bar *(ichimlik quyib sotiladigan joy).*
Bar II *n. -; -;* bar, bosim o'lchov birligi.
Bär *m; -en; -en; Zool.* ayiq; **brauner** ~ qo'ng'ir ayiq.
Barbar *m; -en; -en;* shafqatsiz odam, varvar.
Barbarei *f; -; -;* 1. shafqatsizlik, varvarlik. 2. yovvoyilik.
barbarisch *Adj.* shafqatsizlarcha, varvarlarcha.
Bärendienst *m; -(e)s; -e;* **einen** ~ **erweisen** qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish, yaxshilik qilaman deb noxush ish qilib qo'yish.
Bärenhunger *m; -s; -;* o'ta ochlik; ~ **haben** bo'riday och bo'lmoq, o'lguday och bo'lmoq.
bärenstark *Adj.* ayiqdek baquvvat.
barfuß *Adj.* oyoq kiyimsiz, yalangoyoq; ~ **gehen** yalangoyoq yurmoq.
Bargeld *n; -es; -;* naqd pul.
bargeldlos *Adj.* naqd pulsiz.
barhäuptig *Adj.* boshyalang, bosh kiyimsiz.
Barkauf *m; -(e)s; -käufe;* naqd pulga sotib olish.
barmherzig *Adj.* rahmdil, mehribon.
Barmherzigkeit *f; -; -en;* rahmdillik, oliyjanoblik, mehribonlik.
Barock *m;, n; -(s); -;* barok *(serhasham badiiy uslub).*
barsch *Adj.* qo'pol, dag'al, qo'rs.
Bart *m; -(e)s; Bärte;* soqol.
bärtig *Adj.* soqolli.
bartlos *Adj.* soqolsiz.
Bartmesser *n; -s; -;* ustara.
Barverkauf *m; -(e)s; -käufe;* naqd pulga sotish.
Barzahlung *f; -; -en;* naqd to'lov.

Basar *m; -s; -e;* bozor *(sharq mamlakatlarda).*

Basis *f; -; Basen;* asos, negiz, baza.

Baseball [bɛɪsbo:l] *m; -(e)s; -bälle; Sport.* beysboll.

basieren *auf Akk.* 1. asoslanmoq, suyanmoq. 2. joylashmoq.

Basilikum *n; -; Bot.* rayhon.

Basketball *m; -(e)s; -; Sport.* 1. basketbol. 2. *-bälle* basketbol koptogi.

basteln *vt.* yasamoq *(hunarmandlikka oid).*

Bastler m. *-s; -;* usta, buyum yasovchi.

Batterie *f; -; -n;* 1. batareya. 2. akkumulyator. 3. *Milit.* harbiy qism.

batteriebetrieben *Adj.* batareya bilan ishlaydigan.

Bau I. *m; -(e)s; -;* 1. qurilish, binokorlik. 2. qurish. 3. qiyofa, gavda tuzilishi **II.** *m; -(e)s; ten;* qirilish binosi.

Bauarbeiten *Pl.* qurilish ishlari.

Bauarbeiter *m; -s; -;* quruvchi, binokor.

Baubranche *f; -; -n;* qurilish sohasi.

Bauch *m; -(e)s; Bäuche;* qorin; **sich auf den ~ legen** qorni bilan yotmoq.

Bauchschmerzen *Pl.* qorin og'rig'i.

Bauchtanz *m; -es; -tänze;* qorin raqsi, arabcha raqs.

Baudenkmal *n; -s; -denkmäler;* me'moriy yodgorlik.

bauen *vt.* qurmoq, yaratmoq, barpo qilmoq.

Bauer *m; -n; -n;* dehqon.

Bäuerin *f; -; -nen;* 1. dehqon ayol. 2. dehqonning rafiqasi.

Bauernhof *m; -(e)s; -höfe;* dehqon xo'jaligi.

Bauernschaft *f; -; -en;* dehqonchilik.

baufällig *Adj.* eskirgan, chirigan.

Baufirma *f; -; -firmen;* qurulish firmasi.

Baugelände *n; -s; -;* qurilish hududi.

Baugerüst *n; -es; -e;* havoza.

Baujahr *n; -(e)s; -e;* qurilgan, ishlab chiqarilgan yil.

Bauleiter *m; -s; -;* qurilish boshlig'i.

Baum *m; -(e)s; Bäume;* daraxt; **einen ~ pflanzen** daraxt ekmoq.

Baumarkt *m. -(e)s; -märkte;* qurilish mollari bozori.

Baumaterial *n; -s; -ien;* qurilish materiali.

Baumwolle *f; -; -;* paxta; **~ pflücken** paxta termoq *(qo'l bilan).*

Baumwollernte *f; -; -n;* paxta terimi.

Baumwollfeld *n; -(e)s; -er;* paxta dalasi.

Baumwollpflanze *f; -; -n;* g'o'za.

Baumwollstoff *m; -(e)s; -e;* paxta gazlamasi.

beabsichtigen *vt.* niyat qilmoq, ahd qilmoq, maqsad qilmoq.

beachten *vt.* 1. e'tibor bermoq. 2. amal qilmoq. 3. hisobga, e'tiborga olmoq.

beachtenswert *Adj.* e'tiborga sazovor, hurmatga loyiq.

Beachtung *f; -; -en;* e'tibor, diqqat e'tibor.

Beamte *m; -n; -n;* davlat xizmatchisi, amaldor, mansabli shaxs.

Beamtin *f; -; -nen; (ayolga oid)* davlat xizmatchisi, amaldor, mansabli shaxs.

Beamtenpension *f; -; -en;* amaldorlik nafaqasi.

beängstigen *vt.* qo'rqitmoq, bezovta qilmoq.

beanspruchen *vt.* 1. band qilmoq, egallamoq, talab qilmoq, olmoq *(joyni, vaqtni).* 2. kerak bo'lmoq *(biror narsaga).* 3. yuklamoq, zimmasiga qo'ymoq.

Beanspruchung *f; -; -en;* 1. talab (da'vo) qilish. 2. yuklash, zimmasiga qo'yish.

beantragen *vt.* ariza bermoq, nomzodlikka hujjat topshirmoq, da'vogarlik qilmoq.

Beantragung *f; -; -en;* 1. ariza. 2. ariza berish.

beantworten *vt.* javob bermoq; **die Fragen ~** savollarga javob bermoq.

bearbeiten *vt.* tayyorlamoq, qayta ishlamoq, ishlov bermoq.

Bearbeitung *f; -; -en;* ishlab chiqish, qayta ishlash.

beargwöhnen *vt.* shubhalanmoq, shubha ostiga olmoq.
beatmen *vt. Med.* (sun'iy) nafas oldirmoq.
beaufsichtigen *vt.* qarab turmoq, nazorat qilib turmoq.
beauftragen *vt.* topshiriq bermoq; **er ist beauftragt** u topshiriq olgan.
beäugen *vt.* ko'z tashlamoq, nazar tashlamoq.
Beautragte *m; -n; -n;* vakil, (maxsus) topshiriq olgan shaxs.
bebauen *vt.* yerga ishlov bermoq.
beben *vt.* qimirlamoq, titramoq, qaltiramoq; **die Erde bebt** yer qimirlayapt.
Beben *n; -s; -;* 1. titrash, qaltirash. 2. zilzila.
Bebenstärke *f; -; -n;* zilzila kuchi.
Becher *m; -s; -;* qadah, (ichimlik) idishi.
Becken *n; -s; -;* 1. hovuz, basseyn. 2. chanoq *(yuz, qo'l yuvish idishi).*
bedanken sich *für A. bei D.* tashakkur aytmoq, rahmat aytmoq, minnatdorchilik bildirmoq.
Bedarf *m; -(e)s; -;* ehtiyoj, zaruriyat, talab; ~ **haben** muhtoj bo'lmoq.
bedauerlicherweise *Adv.* afsuski, afsuslanarli hol.
bedauern *vt.* achinmoq, afsuslanmoq.
Bedauern *n; -s; -;* achinish, afsuslanish.
bedauernswert *Adj.* achinishga loyiq (arzirli).
bedecken *vt.* yopmoq, bekitmoq; ~ **sich** yopinmoq *(kiyim bilan)*, bekilmoq.
bedeckt *Part.* qoplangan, yopilgan.
Bedeckung *f; -; -en;* 1. yoping'ich *(kiyimga oid).* 2. bosh kiyim. 3. qoplama. 4. pana, pana joy.
bedenken *vt.* 1. (har tomonlama, chuqur) o'ylab ko'rmoq. 2. eslatmoq. 3. ~ **sich** ikkilanmoq, shubhalanmoq.
Bedenken *n; -s; -;* 1. ikkilanish. 2. shubha.
bedenklich *Adj.* xavotirli, o'ychan, tashvishli
bedenklos *Adj.* betashvish, bexavotir.
bedeuten *vt.* ahamiyatli bo'lmoq, ma'no kasb etmoq.
bedeutend *Adj.* 1. keng ko'lamli, muhim, ahamiyatli 2. taniqli, mashhur.
bedeutsam *Adj.* katta (muhim) ahamiyatli.
Bedeutung *f; -; -en;* ahamiyat, ma'no, mazmun.
bedienen *vt.* xizmat qilmoq, xizmat ko'rsatmoq.
Bedienung *f; -; -en;* xizmat ko'rsatish.
bedingen *vt.* sabab bo'lmoq, asos bo'lmoq, asoslanmoq.
bedingt *Adj.* 1. shartli, sharti bilan. 2. bog'liq; ~ **sein** bog'liq bo'lmoq.
Bedingung *f; -; -en;* shart-sharoit, asos, zamin.
bedingugslos *Adj.* so'zsiz, shartsiz.
Bedrängnis *f; -; -nisse;* qiyin ruhiy holat; **in ~ geraten** qiyin vaziyatga tushib qolmoq.
bedrohen *vt.* xavf solmoq, do'q qilmoq, po'pisa qilmoq.
Bedrohung *f; -; -en;* do'q, qo'rqitish, tahdid, po'pisa.
bedrohlich *Adj.* xavfli, tahdidli.
bedürfen *vi. D.* muhtoj bo'lmoq *(biror narsaga)*, kerak bo'lmoq; **Er bedarf deiner Hilfe** u sening yordamingga muhtoj.
Bedürfnis *n; -ses; -se;* zaruriyat, talab, ehtiyoj.
bedürftig *Adj.* 1. muhtoj, zarur. 2. kambag'al, qashshoq; ~ **sein** muhtoj bo'lmoq.
beeiden *vi.* qasam ichdirmoq, qasam bilan tasdiqlamoq.
beeilen sich shoshilmoq; **Er muß sich** ~ u shoshilishi kerak.
beeindrucken *vt.* taassurot qoldirmoq, hayron qoldirmoq, hayratlantirmoq.
beeinflussen *vt.* ta'sir ko'rsatmoq.
Beeinflussung *f; -; -en;* ta'sir, ta'sir ko'rsatish.
beeinträchtigen *vt.* (yomon, salbiy) ta'sir ko'rsatmoq, zarar ko'rsatmoq.

beengen *vt.* siqmoq, siqib qo'ymoq.
Beengung *f; -; -en;* siqish, siqib chiqarish, chegaralash.
beendigen *vt.* tamom qilmoq, tugatmoq, bitirmoq, nihoyalamoq.
Beendigung *f; -; -en;* tamomlash, tugatish, nihoyalash.
beerben *vt.* meros olmoq, merosga ega bo'lmoq.
beerdigen *vt.* dafn qilmoq, ko'mmoq.
Beerdigung *f; -; -en;* dafn qilish, ko'mish.
Beere *f; -; -n;* meva, reza meva; **~n lesen (pflücken)** reza meva termoq.
Beet *n; -(e)s; -e;* jo'yak, ariq.
Befähigung *f; -; -en;* qodirlik, yaroqlilik.
befahrbar *Adj.* (transportda) yurishga yaroqli.
befahren *Adj.* gavjum; **~e Straße** gavjum yo'l (ko'cha).
Befall *m; -(e)s; -;* 1. chalinish *(kasallikka).* 2. zararkunanda, kushanda *(o'simlik).*
befallen *vt.* 1. hujum qilmoq, qamrab olmoq, zug'um qilmoq. 2. chalinmoq *(kasallikka).*
befangen *Adj. Jur.* tarafkash; **~ sein** tarafkashlik qilmoq.
Befangenheit *f; -; -;* tortinchoqlik, qimtinish, tortinish.
befassen sich *mit D.* shug'ullanmoq.
Befehl *m; -(e)s; -e;* buyruq, farmon; **auf ~** buyruqqa binoan.
befehlen *vt.* buyruq bermoq, buyurmoq.
befehligen *vt.* qo'mondonlik qilmoq, boshqarmoq.
Befehlsbunker *m; -s; -;* boshqaruv bunkeri *(qo'mondonlik),* dala istehkomi.
Befehlshaber *m; -s; -;* qo'mondon.
Befeilen *n; -s; -;* qipiq, to'pon.
befeilen *vt.* qipiq chiqarmoq.
befeinden *vt.* dushman bo'lmoq, dushmanlik qilmoq, adovat saqlamoq.
Befeindung *f; -; -en;* adovat, dushmanlik.
befestigen *vt.* mustahkamlamoq.
befetten *vt.* moylamoq, moy surmoq.
befeuchten *vt.* namlamoq, ho'llamoq.
Befeuchtung *f; -; -en;* namlash.
befinden 1. *vt.* topmoq, hisoblamoq. 2. **~ sich** joylashmoq, bo'lmoq *(joyda).*
befindlich *Adj.* joylashgan; **~ sein** bo'lmoq; **im Betrieb ~ sein** harakatdagi, ishlayotgan.
Befinden *n; -s; -;* 1. sog'liq, hol-ahvol, salomatlik holati 2. fikr, mulohaza, ixtiyor; **nach Ihrem~** ixtiyoringizga havola.
befischen *vt.* baliq ovlamoq, tutmoq.
Befischung *f; -; -en;* baliq tutish.
beflaggen *vt.* bayroq osmoq, bayroqlar bilan bezamoq.
beflecken *vt.* 1. bulg'amoq. 2. sharmanda qilmoq, dog' tushirmoq; **seinen (guten) Namen ~** o'z nomini bulg'amoq.
befleißigen sich *G.* hafsala qilmoq, qunt qilmoq, tirishmoq.
befliegen *vt.* uchib o'tmoq, uchmoq *(yo'nalish bo'ylab).*
beflügeln *vt.* 1. qanot o'rnatmoq. 2. qanotlantirmoq, qanot baxsh etmoq.
befluten *vt.* suv toshirmoq, suv bostirmoq.
befolgen *vt.* amal qilmoq, bajarmoq.
befolgungswert *Adj.* o'rnak olishga arziydigan.
befördern *vt.* 1. jo'natmoq, yubormoq; **die Kinder zu Bett ~** bolalarni joyiga yotqizmoq (uxlatmoq). 2. (lavozimga) ko'tarmoq. 3. rag'batlantirmoq, qo'llab-quvvatlamoq, homiylik qilmoq.
Beförderung *f; -; -en;* 1. jo'natish. 2. (lavozimga) ko'tarish. 3. rag'batlantirish. 4. jadallashtiruv.
beforsten *vt.* daraxtlar ekmoq, daraxtzorga aylantirmoq.
befrachten *vt.* yollamoq *(kemani).*
Befrachter *m; -s; -;* (kemani) ijaraga olgan kishi yoki tashkilot.
befragen *vt.* so'rab chiqmoq, so'rov o'tkazmoq.

Befragung *f; -; -en;* so'rov *(ijtimoiy)*, so'rovnoma.

befreien *vt.* ozod qilmoq, qutqarmoq; **sich** ~ ozod bo'lmoq; **j-n aus einer schwierigen Lage**~ kimnidir qiyin ahvoldan qutqarmoq.

Befreier *m; -s; -;* xaloskor, qutqaruvchi; **er war mein** ~**aus der Not** u meni ofatdan xalos etdi

Befreiung *f; -; -;* ozod qilish; ozod bo'lish.

befremden *vt.* (salbiy vaziyatlarda) hayratda qoldirmoq, hayron qoldirmoq; ~ **sich** hayratlanmoq, lol qolmoq *(salbiy ma'noda)*.

befressen *vt.* kemirmoq, g'ajimoq.

befreunden *vt.* 1. do'stlashtirmoq. 2. ~ **sich** *vt.* do'st bo'lmoq, do'stlashmoq.

befreundet *Part.* 1. ~ **sein** do'stlashmoq. 2. yaqin, yaxshi tanish.

befrieden 1. *vt.* tinchlantirmoq, yarashtirmoq, murosaga keltirmoq. 2. ~ **sich** yarashmoq, murosaga kelmoq.

befriedigen *vt.* qoniqtirmoq, qondirmoq *(ehtiyojni)*.

befriedigend *Adj.* qoniqarli; ~**e Note** qoniqarli baho.

Befriedigung *f; -; -en;* qondirish, qoniqtirish, qanoatlantirish.

Befriedung *f; -; -en;* yarashish, tinchlik o'rnatish.

Befriedigungspolitik *f; -; -;* tinchlikparvarlik siyosati.

befristen *vt.* vaqt belgilamoq, muddat belgilamoq.

befristet *Adj.* muddat bilan chegaralangan; ~**er Arbeitsvertrag** muddati chegaralangan mehnat shartnomasi.

Befristung *f; -; -; Jur.* muddatini ko'rsatish.

befruchten *vt.* 1. urug'lamoq. 2. hosildor qilmoq. 3. mevalar bilan bezamoq.

befruchtend *Adj.* samarali, foydali.

Befruchter *m; -s, -;* mahsuldor qiluvchi, unumli qiluvchi, serhosil qiluvchi, boyituvchi, sabab bo'luvchi, sharoit tug'diruvchi.

befügen *vt.* huquq bermoq, vakolat bermoq.

Befügnis *f; -; -se;* kafolat, huquq; **dazu hat er keine** ~ uning bunga haqqi yo'q.

befugt vakolatli; ~ **sein** vakolatga ega bo'lmoq.

befühlen *vt.* paypaslamoq, ushlab ko'rmoq, paypaslab ko'rmoq.

Befüllung *f; -; -en;* to'ldirish, quyish.

Befund *m; -(e)s; -e;* 1. ahvol, vaziyat. 2. (ekspert) xulosasi.

Befundbuch *n; -es; -bücher; Buch.* inventar kitob *(mol-mulk ro'yxati)*.

befurchen *vt.* egat ochmoq, ariq solmoq, ariq tortmoq.

befürchten *vt.* xavotirlanmoq, qo'rqmoq.

Befürchtung *f; -; -en;* xavotir, qo'rquv.

befürsorgen *vt.* parvarish qilmoq, qaramoq, boqmoq.

befürworten *vt.* homiylik qilmoq, qo'llamoq.

Befürworter *m; -s; -;* tarafdor, homiy, yonini oluvchi.

Befürwortung *f; -; -en;* iltimosnoma, (birovni qo'llab) vositachilik qilish.

begaben *vt. mit D.* mukofotlamoq, in'om etmoq, hadya qilmoq.

begabt *Adj.* qobiliyatli, iqtidorli; ~**es Kind** qobiliyatli bola.

Begabtenauslese *f; -; -n;* iqtidorlilar tanlovi.

Begabtenförderung *f; -; -en;* iqtidorlilarni qo'llab-quvvatlash.

Begabung *f; -; -en;* iqtidor, qobiliyat.

Begangenschaft *f; -; -en; Jur.* sudlanganlik.

Begängnis *n; -ses; -se;* 1. (tantanali) jarayon. 2. dafn marosimi.

begatten 1. *vt.* urug'lantirmoq. 2. ~ **sich** urug'lanmoq *(o'simlik, hayvolar)*.

Begattung *f; -; -en;* urug'lanish.

begeben 1. *vt.* muomalaga chiqarmoq, sotmoq. 2. ~ **sich** *vi.* yo'lga chiqmoq, otlanmoq.

Begebenheit *f; -; -en;* voqea, hodisa; **eine seltsame** ~ g'alati voqea.

Begebung *f; -; -en;* muomalaga chiqarish, emissiya.

begegnen *vi. D.* uchratib qolmoq, ko'zga tushmoq.

Begegnung *f; -; -en;* uchrashuv, uchrashish.

Begegnis *n; -ses; -se;* 1. uchrashuv. 2. hodisa, sarguzasht.

begehen *vt.* 1. chetlab o'tmoq. 2. bayram qilmoq, nishonlamoq.

Begehr *m; -s; -e;* istak, talab.

Begehren *n; -s; -;* istak, nafs, hirs; ~ **erfüllen** xohishini, talabini qondirmoq.

begehren *vt. nach D.* xiralik qilmoq, qo'yarda-qo'ymay talab qilmoq.

begehrenswert *Adj.* istalgan, xohlangan; **eine ~ Frau** ko'ngildagi ayol.

begehrlich *Adj.* xasis, ziqna, qurumsoq.

Begehrlichkeit *f; -; -en;* xasislik, ziqnalik, qurumsoqlik.

begeistern 1. *vt.* ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq, g'ayratini oshirmoq. 2. *für A.* **sich ~** (biror narsaga) berilmoq, ishqivoz bo'lib qolmoq.

begeistert *Adj.* ruhlangan, ilhomlangan; **~ sein** ilhomlanmoq.

Begeisterung *f; -; -;* zavqlanish, ruhlanish.

Begier(de) *f; -; -n;* nafs, tashna.

begierig *Adj. nach D. auf A.* 1. tashna. 2. qurumsoq, xasis, baxil.

begießen *vt.* sug'ormoq, suv qo'ymoq.

Beginn *m; -s; -;* boshlanish, boshlash; **von ~ an** avval (eng) boshidan.

beginnen *vt. vi.* boshlamoq, boshlanmoq.

beglaubigen *vt.* muhr bilan tasdiqlamoq *(asl nusxani).*

beglaubigt *Adj.* (muhr bilan) tasdiqlangan.

begleichen *vt.* 1. tenglashtirmoq. 2. hal qilmoq *(bahs).* 3. qarzni yopmoq *(to'lamoq).*

begleiten *vt.* kuzatmoq, kuzatib qo'ymoq.

Begleiter *m; -s; -;* kuzatuvchi, kuzatib qo'yuvchi, hamroh.

Begleitung *f; -; -en;* kuzatish, kuzatib qo'yish.

beglücken *vt.* baxtli qilmoq, baxt keltirmoq.

beglückwünschen *vt.* tabriklamoq, qutlamoq.

begnaden *vt.* xayrixoh bo'lmoq, ko'ngli yaqin bo'lmoq, iltifotli bo'lmoq.

begönnern *vt.* homiylik qilmoq, himoyasiga olmoq, rahnamolik qilmoq.

begnadigen *vt.* afv etmoq, kechirmoq, gunohidan o'tmoq.

Begnadigung *f; -; -en;* afv etish, kechirish, gunohidan o'tish.

begnügen sich qoniqmoq, qoniqish hosil qilmoq.

begraben *vt.* ko'mmoq, dafn qilmoq.

Begräbnis *n; -ses; -se;* dafn qilish (marosimi).

begradigen *vt.* to'g'rilamoq, tekislamoq.

begrasen 1. *vt.* (urug') sepmoq, ekib qo'ymoq. 2. o'tlamoq, o'tlatmoq. 3. **~ sich** o't bosmoq, o'smoq.

begreifbar *Adj.* tushunarli, tushunsa bo'ladigan, anglashiladigan.

begreifen *vt.* anglamoq, tushunmoq.

begreiflich *Adj.* tushunarli, anglab bo'ladigan, idrok qilinadigan.

Begreifung *f; -; -en;* 1. paypaslash. 2. qamrab olish.

begrenzen *vt.* 1. chegaralanmoq, cheklanmoq. 2. chegaralab olmoq.

begrenzt *Adj.* chegaralangan, cheklangan.

Begrenzung *f; -; -en;* chegaralash, chegaralanish.

Begriff *m; -(e)s; -e;* 1. tushuncha, g'oya. 2. tasavvur.

begrinsen *vt.* ustidan kulmoq, masxara qilmoq.

begründen *vt.* 1. asoslanmoq. 2. asos solmoq, yaratmoq.

Begründer *m; -s; -;* asoschi, asos soluvchi.

Begründung *f; -; -en;* asos, dalil, isbot.
begrüßen *vt.* salomlashmoq; **einander** ~ salomlashmoq, ko'rishmoq.
Begrüßung *f; -; -en;* salomlashish, qutlash.
Begrüßungsansprache *f; -; -n;* tabrik so'zi (nutqi).
begünstigen *vt.* 1. homiylik qilmoq, himoyasiga olmoq, rahnamolik qilmoq. 2. imkoniyat, qulaylik tug'dirmoq.
Begуß *m. -sses, -;* sirlangan *(idish).*
Begußkachel *f; -; -n;* sirlangan koshin.
begutachten 1. *vi.* taqriz bermoq. 2. nazar solmoq.
Begutachter *m; -s; -;* taqrizchi.
Begutachtung *f; -; -en;* taqriz, xulosa.
begütert *Adj.* boy, o'ziga to'q.
begütigen *vt.* tinchlantirmoq, hovridan tushirmoq.
behaaren sich jun bosmoq, jun qoplamoq.
behaart *Adj.* jun bosgan, jun qoplagan.
behäbig *Adj.* 1. shinam, qulay. 2. og'ir, bosiq, toshi og'ir.
behagen *vt.* quvontirmoq, xursand qilmoq.
behalten *vt.* saqlamoq; **im Kopf** ~ yodda saqlamoq.
Behälter *m; -s; -;* idish, bak, konteyner, sistema.
behandeln 1. muomala qilmoq, munosabatda bo'lmoq. 2. davolamoq.
Behandlung *f; -; -en;* 1. muomala, munosabat. 2. davolash.
behandschuhen *vt.* qo'lqop kiymoq.
Behang *m; -(e)s; -hänge;* parda.
behängen *vt. mit D.* pardani osmoq.
Beharren *n; -s; -;* sabot, qunt, matonat, qat'iyat.
beharren 1. *vt.* qattiq turib olmoq, bajartirmoq, qildirmoq. 2. *vi.* so'zida turmoq, o'jarlik qilmoq.
beharrlich *Adj.* o'jar, qat'iyatli, tirishqoq.
Beharrlichkeit *f; -; -;* o'jarlik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik.
Beharrung *f; -; -en;* 1. doimiylik. 2. *Phys.* inersiya *(jismlarning tashqi ta'sir bo'lmasa, tinch yoki tekis holatdagi harakatini saqlash hususiyati).*
behärten *vt.* qotirmoq, toblamoq.
behauchen *vt.* nafas olmoq, puflamoq.
behäufeln *vt.* chopmoq, chopiq qilmoq *(g'o'zani).*
behaupten *vt.* ta'kidlamoq, uqtirmoq.
Behauptung *f; -; -en;* ta'kidlash, uqtirish.
beheben *vt.* bartaraf etmoq, tugatmoq.
Beheber *m; -s; -;* oluvchi, (pulni) qabul qilib oluvchi.
Behebung *f; -; -en;* bartaraf etish, yengib o'tish.
beheizen *vt.* isitmoq, ilitmoq.
behelfen sich *mit D.* muomala qilmoq, kifoyalanmoq, qanoat qilmoq.
behelligen *vt.* urintirmoq, ovora qilmoq.
behend(e) *Adj.* tez, chaqqon, shaxdam.
beherbergen *vt.* boshpana bermoq, bag'riga olmoq, (yashirin) saqlamoq.
beherrschen *vt.* 1. egallamoq, bilmoq. 2. hukmronlik qilmoq.
Beherrschung *f; -; -en;* egallash, bilish.
beherzt *Adj.* jasur, mard, mardona.
beheucheln *vt.* ikkiyuzlamachilik qilmoq, aldamoq.
behilflich: ~ **sein** yordamga tayyor bo'lmoq.
behindern *vt.* bartaraf qilmoq, yo'l qo'ymaslik.
Behinderte *m, -n; -n;* nogiron, majruh.
Behör *f; -; -en; m. oder n. -es; -e;* asbob-uskuna, buyum, ashyo, jihoz.
Behörde *f; -; -n;* hokimiyat organi, idora, muassasa.
behördlich *Adj.* rasmiy, biror idoraga qarashli, hukumatga tegishli, sudga daxldor.
behüten *vt.* qo'riqlamoq, saqlamoq.
behutsam *Adj.* ehtiyotkor, ehtiyotli, ehtiyot bilan.
bei -ga; 1. *(xonaga nisbatan)* ~**m Fenster** deraza oldida. 2. *(shaxsga nis-*

batan) ~ **j-m. wohnen** *(kimnikidadir)* yashamoq. 3. *(vaqtga nisbatan)* ~ **Nacht** tunda. 3. *(holat, vaziyatga nisbatan)* ~ **der Gefahr** xavf tug'ilganda. 4. *(jarayonga nisbatan)* ~ **der Arbeit** ishlayotgan paytda.

beibehalten *vt.* saqlab qo'ymoq.

beibringen *vt.* 1. o'rgatmoq, o'qitmoq. 2. taqdim qilmoq.

Beichte *f; -; -n;* tavba-tazarru, afsus.

beichten *vt.* tavba-tazarru qilmoq.

beide *Adv.* (har) ikkala(si).

beidemal *Adv.* har ikki safar.

beidenseitig *Adj.* o'zaro, ikki taraflama, ikki tomonli.

beidenthalben *Adv.* har ikki tomondan.

beidentwegen *Adv.* ikki sababga ko'ra, ikki mulohazaga ko'ra.

beiderseits *Präp.* ikki tomondan, ikki taraflama.

beides *Pron.* u ham, bu ham; ~ **taugt nicht** unisi ham, bunisi ham yaramaydi

beieinander *Adv.* bir-birinikida.

Beifahrer *m; -s; -;* hamroh, yo'ldosh.

Beifall *m;. -(e)s; -;* olqish, qarsaklar; **anhaltender** ~ davomli qarsaklar.

beifällig *Adj.* ma'qul, maqtovli.

beifügen *vt.* ilova qilmoq.

Beigabe *f; -; -n;* 1. qo'shimcha, ustama. 2. qo'shimcha qilib berish, ustiga qo'yib berish.

beigeben *vt.* qo'shimcha qilmoq, ilova qilmoq; **klein** ~ tisarilmoq, cho'chimoq.

Beigeschmack *m; -(e)s; -geschmäcke* (qo'shimcha) ta'm.

Beiheft *n; -(e)s; -e;* ilova qism, kitobga ilova.

beiheften *vt.* tikib qo'ymoq *(hujjatni)*.

Beihilfe *f; -; -n;* yordam, (beriladigan) yordam puli, moliyaviy yordam, qo'llab-quvvatlash.

beikommen *vi.* yo'lamoq, yaqinlashmoq, yoniga (oldiga) kelmoq.

Beil *n; -(e)s; -e;* kichik bolta; **das ~ ausgraben** urush e'lon qilmoq.

Beilage *f; -; -n;* 1. ilova, qo'shimcha. 2. *Kulin.* garnir. 3. ziravor.

beiläufig yo'l-yo'lakay; ~ **gesagt!** Aytmoqchi!

beilegen *vt.* 1. ilova qilmoq. 2. ahamiyat bermoq. 3. *(bahsni)* hal qilmoq.

beileibe *Adv.* aniq, ravshan, chindan, haqiqatan.

Beileid *n. -(e)s; -;* ta'ziya; **herzliches ~!** ta'ziyamni qabul qiling!

Bein *n; -(e)s; -e;* oyoq; **kalte ~e kriegen** qo'rqmoq.

beinahe *Adv.* sal bo'lmasa.

Beiname *m; -ns; -n;* laqab, taxallus.

Beinbruch *m; -(e)s; -brüche;* oyoq suyagining sinishi; **das ist kein** ~ bu yomon emas. **Hals und** ~! Omad tilayman! Sizga omad!

Beirat *n; -(e)s; Beiräte;* maslahat kengashi.

beisammen *vt.* jam bo'lib o'tirmoq; ~ **stehen** to'p bo'lib turmoq.

Beisein *n; -s;* borlik, mavjudlik.

beiseite *Adv.* yon tomon, chekka.

beisetzen *vt.* ko'mmoq, dafn etmoq.

Beisetzung *f; -; -en;* dafn, dafn qilish.

Beispiel *n; -es; -e;* misol, namuna; **zum** ~ masalan, misol sifatida.

Beispielsatz *-(e)s; -sätze; m* misol uchun keltirilgan gap.

beispielweise *Adv.* misol uchun.

beißen *vt.* tishlamoq; **auf die Lippen** ~ tilini tishlamoq.

Beistand *m; -(e)s; Beistände;* yordam, ko'mak, qo'llov.

beistehen *vt.* yordam bermoq.

Beistelltisch *m; -(e)s; -e;* jurnal stoli.

beistimmen *vt.* qo'shilmoq *(fikrga)*, ma'qullamoq.

Beitrag *m; -(e)s; Beiträge;* 1. hissa, badal. 2. maqola.

beitragen *vt.* hissa qo'shmoq.

beitragsfrei *Adj.* a'zolik badalisiz.

beitragspflichtig *Adj.* (azolik badal) to'lashga burchdor.

beitreten *vi.* kirmoq, a'zo bo'lmoq.

Beitritt *m; -(e)s; -e;* kirish, a'zo bo'lish.
beiwohnen *vt.* qatnashmoq, ishtirok etmoq.
beizeitig *Adv.* erta, o'z vaqtida.
bejahen *vt.* tasdiqlamoq, ma'qul deb topmoq.
bejahrt *Adj.* yoshi ulug', keksa.
bejammern *vt.* ko'z yoshi to'kmoq, achinmoq.
bekämpfen *vt.* kurashib yengmoq; ~ **sich** bir-biriga qarshi kurashmoq.
Bekämpfung *f; -; -;* kurashib yengish.
bekannt *Adj.* taniqli, mashhur.
Bekannte *m; -n; -n;* tanish; **ein ~ von mir** tanishlarimdan biri.
Bekanntgabe *f; -; -en;* e'lon; ~ **geben** e'lon bermoq.
Bekanntheit *f; -; -en;* taniqlilik, mashhurlik.
bekanntlich *Adv.* ma'lumki, bilamizki.
bekanntmachen 1. tanishtirmoq; ~ **mit etw.** biror narsa bilan tanishtirmoq. 2. (rasmiy) e'lon qilmoq, nashr qilmoq. 3. *Mit D.* ~ **sich** tanishmoq.
Bekanntmachung *f; -; -en;* 1. e'lon qilish, tanishtirish. 2. plakat.
Bekanntschaft *f; -; -en;* tanishuv, tanishish.
bekehren *vt. Rel.* ishontirmoq, da'vat etmoq.
bekennen *vt.* aybini tan olmoq, aybini bilmoq.
Bekennerschreiben *n; -s; -;* reklamatsiya, biror tashkilot yoki muassasa biror narsaga mas'ulligini e'tirof etgan xat.
beklagen sich *vi.* shikoyat qilmoq.
Beklagter *m; -s; -;* da'vogar.
beklauen *vt.* o'g'irlamoq.
bekleben *vt.* yopishtirmoq *(yelim bilan).*
bekleiden 1. kiyintirmoq; **sich** ~ kiyinmoq. 2. mansab egallamoq.
bekleidet *Adj.* kiyingan; **sie ist nur leicht** ~ u yengil kiyingan.
Bekleidung *f; -; -en;* 1. kiyim. 2. kiyinish.
beknien *vt.* (tiz tushib) iltimos qilmoq, iltijo qilmoq, yalinmoq.
bekommen *vt.* olmoq; **einen Brief** ~ xat olmoq.
beladen *vt.* yuklamoq, yuk ortmoq.
Beladung *f; -; -en;* 1. yuklash. 2. yuk.
bekräftigen *vt.* kuchaytirmoq.
bekennen *vt.* 1. tan olmoq, bo'yniga olmoq, mansublikni e'tirof etmoq. 2. tasdiqlamoq. 3. **sich** ~ *Rel.* (dinga) sig'inmoq, birovga sig'inmoq.
bekriegen *vt.* qarshi urush olib bormoq.
bekümmern *vt.* tashvishga qo'ymoq, tashvish orttirmoq.
belächeln *vt.* ustidan kulmoq, mazax qilmoq.
belagern *vt.* joylashtirmoq, o'rnashtirmoq.
Belagerung *f; -; -en;* joylashtirish, o'rnashtirish.
Belang *m; -es; -e;* muhimlik, qiziqish.
belassen *vt.* o'z holicha qoldirib turmoq.
belasten *vt.* 1. yuklamoq, ortmoq. 2. qaytadan yuklamoq, og'irlashtirmoq. 3. birovga og'irligi tushmoq. 4. *Buch.* debet, kirimga kiritmoq.
belästigen *vt.* bezovta qilmoq, joniga tegmoq, nochor ahvolga solmoq, qiynab qo'ymoq; **mit seinen Fragen** ~ savollari bilan qiynab qo'ymoq.
Belastung *f; -; -en;* yuklash, ortish, og'irlashtirish.
belfern *vi.* 1. akillamoq, vovillamoq. 2. so'kinmoq.
beleben *vt.* 1. jonlantirmoq, hushiga keltirmoq. 2. jonlantirmoq, jozibali qilmoq. 3. istiqomat qilmoq.
belebt *Adj.* jonli, gavjum.
Belebtheit *f; -; -en;* jonlanish, gavjumlik.
Belebung *f; -; -en;* jonlantirish, hushiga keltirish.
belecken *vt.* yalamoq, yalab qo'ymoq.
beledern *vt.* charm bilan qoplamoq.
Belederung *f; -; -en;* qoplash *(charm).*

Beleg *m; -(e)s; -e;* 1. ma'lumotnoma, guvohnoma, oqlovchi hujjat. 2. dalil, isbot

belegbar *Adj.* daliliy, isbotlovchi *(hujjatli).*

belegen *vt.* 1. qoplamoq, o'ramoq. 2. soliqqa tortmoq. 3. xonani egallamoq, yollamoq. 4. isbotlamoq, dalil keltirmoq.

Belegschaft *f; -; -en;* jamoa, kollektiv.

Belegschein *m; -(e)s; -e;* yozma dalil, oqlovchi hujjat.

belegt *Adj.* 1. surilgan; **~es Brötchen** (yog') surilgan kulcha. 2. band *(joy).* 3. isbotlangan *(hujjat, misol, dalil).*

belehren *vt.* o'rgatmoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq.

Belehrung *f; -; -en;* o'git, o'rgatish, yo'l-yo'riq.

beleibt *Adj.* to'la, miqti, semiz.

Beleibtheit *f; -; -en;* to'lalik, semizlik.

beleidigen *vt.* haqorat qilmoq, xafa qilmoq.

beleidigt *Adj.* haqoratlangan, xafa qilingan.

Beleidigung *f; -; -en;* haqorat, xafa qilish.

beleihen *vt.* garovga bermoq.

Orient *m; -s; -;* sharq, mashriq.
orientalisch *Adj.* sharqiy (til), sharqona, mashriqqa oid.
Orientalist *m; -en; -en; Ling.* sharqshunos.
Orientalistik *f; -; -;* sharqshunoslik.
orientieren *vt* yo'l ko'rsatmoq, yo'naltirmoq; **sich ~** yo'l topmoq, ma'lumot olmoq, xabar topmoq.
Orientierung *f; -; -en;* 1. yo'l topish. 2. yo'nalish.
Orientteppich *m; -s; -e;* sharqona gilam.
Original *n; -s; -e;* 1. asl nusxa. 2. o'ziga xoslik.
original *Adj.* asl, chin; haqiqiy.
Originaldokument *n; -es; -e,* hujjatning asl nushasi.
Originaltext *m; -es; -e;* asl (haqiqiy) matn.
originell *Adj.* o'ziga xos, boshqacha.
Orkan *m; -s; -e;* to'zon; dovul.
Ort *m; -es; -e;* 1. o'rin; joy. 2. aholi turarjoyi.
Orthoepie *f; -; -; Ling.* orfoepiya *(so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qoidalari).*
Orthographie *f; -; -; Ling.* orfografiya, imlo.
örtlich *Adj.* mahalliy, yerli.
ortsansässig *Adj.* tub joy, yerli.
Ortsbevölkerung *f; -; -en;* shu yerli, mahalliy aholi.
Ortschaft *f; -; -en;* aholi yashaydigan joy.
Ortskrankenhaus *n; (-es, Krankenhäuser)* mahalliy kasalxona.
Ortszeit *f; -; -en;* mahalliy vaqt.
Oskar *m; -s; -s;* Oskar *(eng yaxshi filmlar uchun xalqaro mukofoti).*
Öse *f; -; -n;* halqa, ilmoq, ilgak.
Ost *m; -en; -;* 1. sharq. 2. sharqdan esgan shamol; **in ~ und West** hamma yerda.
Osten *m; -s; -;* 1. sharq. 2. sharq mamlakatlari.
Ostermonat *m; -s; -e; Rel.* pasxa oyi.
Ostern *n; -; -Osterfeste* (xristian) pasxa hayiti.
osteuropäisch *Adj.* sharqiy yevropacha.
östlich *Adj.* sharqiy; **~e Gegend** sharqiy hudud.
Ostsee *f; -; -;* Boltiq dengizi.
ostwärts *Adv.* sharqqa (tomon).
Out *n; -s; -s; Sport.* aut, chekka, to'pning maydon chetiga chiqishi.
Outsider *m; -s; -s; Sport.* autsayder *(eng orqada qolgan, keyinda borayotgan jamoa sportchisi).*
Ouvertüre *f; -; -n; Mus.* kirish, muqaddima, debocha.
oval *Adj.* tuxum shaklidagi, yassi shakldagi.
Ovation *f; -en;* olqish; **~en erhalten** olqishlar olmoq.
Ozean *m; -s; -e;* okean, ummon; **der Stille ~** Tinch okeani.
Ozon *m; -s; -e; Chem.* ozon, vodorod shakli.
Ozonschicht *f; -; -en;* ozon qatlami.

Pp

P. p. Der sechszehnte Buchstabe des deutschen Alphabets

Paar *n; -(e)s; -e;* 1. juft, juftlik. 2. *Math.* juft son.

paar 1. *Adj.* juft; **paar~ Zahlen** juft sonlar. 2. *Num.* **ein ~** bir necha; **nur ein~Worte** faqat ikki og'iz so'z.

paarig *Adj.* juft, qo'shaloq.

paarmal *Adv.* **ein ~** bir necha marotaba.

Paarung *f; -; -en;* 1. *Sport.* juft bo'lib o'ynash. 2. juftlashish *(hayvonlarga oid).*

Paarungstabelle *f; -n; Schax.* turnir jadvali.

paarweise *Adv.* juft bo'lib.

Pacht *f; -; -en;* ijara; **etw. in; ~ geben** ijaraga bermoq. **in ~ haben** 1. ijaraga olmoq. 2. ijara haqi.

pachten *vt.* ijaraga olmoq *(yerni);* **einen Betrieb ~** korxonani ijaraga olmoq.

Pächter *m; -s; -;* ijarachi.

Pachtvertrag *m; -(e)s; -verträge Jur.* ijara shartnomasi.

Pack I *m; -(e)s; -e; oder päcke* dasta, bog'lam, taxlam, to'p; **mit Sack und ~** butun lash-lushlari bilan.

Pack *n; -(e)s; -;* 1. past tabaqaga xos odam; tagi past odam. 2. razil, yaramas odam.

Päckchen *n; -s;* qog'oz xaltacha, pochta paketi.

packen *vt.* 1. o'ramoq, joylamoq (bog'lamoq). 2. ushlamoq, tutmoq, chang solmoq. 3. (xayol) chulg'ab olmoq, o'ramoq; **sich ~** jo'nab qolmoq; **Pack dich!** Yo'qol! Daf bo'l!

Packen *n; -s; -;* joylash, o'rash, o'rab qo'yilgan narsa.

Packung *f; -; -en;* (qadoqlangan) o'rama.

Pädagoge *m; -n; -n;* 1. pedagog, tarbiyachi. 2. pedagog-olim.

Pädagogik f; -; -; pedagogika, tarbiyashunoslik fani.

Paddelboot *n; -es; -e;* baydarkali (eshkakli) qayiq.

paddeln *vi.* eshkak eshmoq.

Paket *n (e)s; -e;* 1. bo'xcha, tuguncha. 2. pochta paketi.

Pakt *m; -(e)s; -e,* bitim, ahdnoma, shartnoma.

paktieren *vi. mit (D)* shartnoma tuzmoq.

Palais *n; -; -; [-'le:]u [-'le:s]* saroy.

Palast *m; -(e)s; -paläste* 1. saroy. 2. koshona.

Palastrevolution *f; -; -en;* saroy to'ntarishi.

Palette *f; -; -n;* 1. ranglar xilma-xilligi. 2. lagan.

paletti *Adj.* **alles ~** hammasi joyida.

Palme *f; -; -n; Bot.* palma daraxti.

Palmöl *n; -(e)s; -e;* palma yog'i.

pampig *Adj.* 1. bo'tqasimon. 2. surbetlarcha; **~ werden** surbet bo'lmoq; **Werde nicht ~!** Surbet bo'lma!

Panik *f; -; -en;* hovliqish, qo'rquv; **in ~ geraten** hovliqqa tushmoq, hovliqmoq.

Panne *f; -; -n;* 1. halokat, avariya, fojia. 2. omadsizlik.

Panorama *n; -s; -ramen;* panorama, manzarali ko'rinish.

Panoramafilm *m; -(e)s; -e;* keng ekranli film.

Panther *m; -s; -; Zool.* qoplon, pantera.

Pantoffel *m; -s; -n;* shippak. 2. xotiniga tobe erkak; **unter dem, ~ stehen** xotinining sovuniga kir yuvmoq.

Pantomime *f; -; -n; Theat. Pantomime* so'zlamay, faqat imo-ishora bilan tomosha ko'rsatish.

Panzer *m; -s, -;* 1. *Milit.* tank. 2. aslaha, ritsarlik aslahasi.

Panzerabwehr *f; -; -; Milit.* tank hujumiga qarshi mudofaa.

Panzerabwehrkanone *f; -; -n; Milit.* tankka qarshi otadigan to'p.

Panzerkraftwagen *m; -s; -;* zirhli mashina, bronemashina.
Panzerschrank *m; -(e)s; -schränke* seyf, temir shkaf.
Papa *m; -s; -s; (bola tilida)* dada, ada.
Papagei *m; -s, -en; Zool.* to'tiqush.
Paparazzo *m; -s; -razzi* paparatsi, shovshuv izlovchili suratchi.
Papier *n; -(e)s; -e;* 1. qog'oz. 2. hujjat; **zu ~ bringen** qog'ozga tushirmoq.
Papierfabrik *f; -; -en;* qog'oz fabrikasi.
Papiertüte *f; -; -n;* qog'oz xalta(cha).
Pappe *f; -; -n;* 1. karton qog'oz. 2. qalin qora qog'oz.
Pappel *f; -; -n; Bot.* terak.
pappen *vt.* yelimlab yopishtirmoq.
Paprika *m; -s; -s;* 1. *Bot.* qalampir. 2. qalampir hosili.
Papst *m; -(e)s; -Päpste Rel.* Rim papasi.
Parabolantenne *f; -; -n;* parabolik antennasi.
Parade *f; -; -n; Milit.* namoyish, parad; **eine ~ abhalten** parad o'tkazmoq.
paradieren *vt.* 1. parad bo'lib (tantanavor) o'tmoq. 2. o'zini ko'rsatmoq.
Paradeuniform *f; -; -en;* parad libosi.
Paradies *n; -es; -e;* 1. jannat. 2. go'zal joy, jannatmonand.
Paradoxon *n; -s, -doza* paradoks, mantiqqa zid holat.
parallel *Adj.* 1. *Math.* parallel. 2. yondosh, yonma-yon.
Parallellinie *f; -; -n;* parallel chiziq.
Parasit *m; -en; -en;* 1. *Bio.* zararkunanda, parazit. 2. tekinxo'r odam.
parat *Adj.* tayyor, shay, tayyor holda; **sich immer ~ halten** doim shay turmoq.
par avi.on *fr. [-a'vjõ]* avia, aviapochta orqali.
Pardon *m; -s; [-'dõ]* uzr, kechirim; ~! kechirasiz!
Parfüm *n; -s; -s; od. -e;* atir; **sich mit ~ besprühen** (o'ziga) atir sepib olmoq.
Parfümerie *f; -; -n;* atir-upa (kosmetika) magazini.
parfümieren *vt.* atir sepmoq.
parieren *vi.* 1. quloq solmoq, itoat qilmoq. 2. *Sport.* hujumni qaytarmoq.
Parität *f; -; -;* baravarlik, tenglik, teng qadrlilik, paritet.
Park *m; -s; -s;* 1. park, katta tomoshabog'. 2. avtopark, avtoulovlar turadigan joy, garaj.
parken 1. *vt.* mashinani (maxsus) joyga qo'ymoq. 2. *vi.* avtoto'xtash joyida turmoq.
Parkett *n; -es; -e;* 1. parket. 2. teatr zalining old qismi.
Parkhaus *n; -es; -häuser* ko'p qavatli garaj.
Parkplatz *m; -es; -plätze* avtomashina qo'yish joyi.
Parkverbot *n; -(e)s; -e;* avtoulov to'xtash taqiqi.
Parlament *n; -(e)s; -e;* 1. parlament, qonun chiqaruvchi organ. 2. parlament binosi.
Parlamentarier *m; -s; -;* parlament a'zosi.
Parlamentsabgeordnete *m; -n; -n;* deputat.
Parlamentssprecher *m; -s; -;* parlament raisi.
parlamentieren *vi.* muzokara olib bormoq.
Parlamentsausschuss *(der, -es, -schüsse)* parlament; **komissizasiüsse** parlament komissiyasi.
Parodie *f; -; -n;* parodiya, o'xshatish.
parodieren *vt.* parodiya qilmoq, komik o'xshatmoq.
Parole *f; -; -n;* 1. shior. 2. maxfiy so'z, parol; **eine ~ ausgeben** parolni belgilamoq. 2. shior.
Partei *f; -; -en; Polit.* 1. partiya. 2. (raqib) tomon.
parteilos *Adj.* partiyasiz, partiya a'zosi emas.
Parteimitglied *m; -es; -er,* partiya a'zosi.
Parteitag *m; -(e)s; -e;* partiya qurultoyi, syezdi.
Partie *f; -; -n;* 1. qism, bo'lak. 2. *Sport.* o'yin, partiya. 3. *Mus.* yakka ovoz.

partiell *Adj.* qisman, bo'laklab.
Partikel *f; -; -n; Gramm.* yuklama.
Partizip *n; -s; -pien; Gramm.* sifatdosh.
Partner *m; s; -;* sherik, hamkor.
Partnerschaft *f; -; -en;* sherikchilik, hamkorlik.
Partnerstadt *f; -; -städte* birodarlashgan shahar.
Party *f; -; -s,* tantanali kecha, bayram oqshomi.
Pass *m; -sses; -pässe* 1. passport. 2. *Sport.* to'p uzatish. 3. dovon.
passabel *Adj.* bir navi., durust, yomon emas.
Passage *f; -; -n;* 1. o'tmish joyi. 2. savdo rastasi. 3. matn lavhasi.
Passagier *m; -s; -e;* yo'lovchi *(transportda).*
Passant *m; -en; -en;* 1. yo'lovchi *(yayov).* 2. o'tkinchi.
Paßbild *n; -es, -er;* pasport rasmi.
passé *Adj.* o'tgan; o'tib ketgan, (modadan) qolib ketgan.
passen 1. *vi.* to'g'ri kelmoq, yarashmoq. 2. *vt.* joylashmoq. 3. *Sport.* pas bermoq, to'pni sherigiga uzatmoq. 4. (kartada) o'yindan chiqmoq.
passierbar *Adj.* o'tib bo'ladigan.
passieren I. *vi.* sodir bo'lmoq, ro'y bermoq. **II.** *vt.* 1. (chiziqdan, chegaradan) o'tmoq, kesib o'tmoq. 2. (oldinga) qo'yib yubormoq. 3. (elakdan, suzgichdan) o'tkazmoq.
Passiv *n; -s; -e, Gramm.* fe'lning majhul darajasi (nisbat).
passiv *Adj.* sust, sustkash.
Passwort *n; -(e)s; -wörter EDV.* **passwort** shifr, maxfiy so'z (raqam).
Paßkontrolle *f; -; -n;* pasport nazorati.
Pasta *f; -; -n; Kulin.* pasta.
Pastete *f; -; -n; Kulin.* pashtet.
Pate *m; -n, -n;* 1. *Rel.* cho'qintirgan ota *(xristianlarda).* 2. homiy, vasiy.
Patenbetrieb *m; -es; -e;* otaliq korxona, otaliqqa olgan korxona.
Patengeschenk *n; -es; -e;* homiylik sovg'asi.
Patenschaft *f; -; -en;* otaliq, homiylik; **~ übernehmen** otaliqqa olmoq.
Patenschaftshilfe *f; -; -n;* otaliq (homiylik) yordami.
Patent *n; -(e)s; -e;* 1. patent, ixtiro himoyasi hujjati. 2. tadbirkorlik ruxsatnomasi.
patent *Adj.* yordamga tayyor, suyansa bo'ladigan.
patentamtlich *Adj.* patent bilan himoyalangan.
Patentanmeldung *f; -; -en;* patent olishga ariza.
patentieren *vt.* patentlamoq, patent bilan biriktirmoq.
Patentrecht *n; -es; -e;* patentlik huquqi.
Patentschutz *m; -es; -e;* patentlik himoyasi.
pathetisch *Adj.* jo'shqin, ta'sirli, ko'tarinki ruhda, patetik.
Pathos *n; -; -;* shavq-zavq, jo'shqinlik.
Patient *m; -en; -en;* mijoz (davolanayotgan) kasal, bemor.
Patriarch *m; -en; -en;* 1. patriarx, oila boshlig'i. 2. (biror sohada) taniqli va keksa odam. 3. *Rel.* (cherkovda) katta ruhoniy.
Patriarchat *n; -(e)s; -e;* 1. erkaklar hukmronligidagi ishtimoiy jamiyat. 2. (katolik) cherkov lavozimi.
Patriot *m; -en; -en;* vatanparvar.
patriotisch *Adj.* vatanparvarlarcha, vatanparvarlik tuyg'usi bilan to'lgan.
Patriotismus *m; -; -;* vatanparvarlik, patriotizm.
Patron *m; -(e)s; -e;* 1. homiy, tarafdor. 2. xo'jayin.
Patronat *n; -(e)s; -e;* homiylik, qo'llab-quvvatlash.
Patrone *f; -; -n;* 1. patron, o'q. 2. siyohdon.
Patronengurt *m; -(e)s; -e;* o'qdon.
Patrouille *f; -; -n,* patrul, ko'cha (yo'l) nazorati; **auf ~ gehen** patrulga chiqmoq.
patrouillieren *vi. [-tru(l)'ji:-]* patrullik qilmoq.
Patsche *f; -; -n,* panja.
patschen *vt.* shapillatmoq, shapillatib urmoq.

Patt *n; -s; -s.* 1. *Sport.* durang. 2. teng holat.
patzen *vt.* qo'l uchida qilmoq; **bei der Arbeit** ~ yengil-yelpi ish qilmoq, nari-beri ishlamoq, qo'l uchida ishlamoq.
Patzer *m; -s; -;* pala-partish, xo'jako'rsinga ishlaydigan odam.
patzig *Adj.* qo'pol, dag'al, qo'rs.
Patzigkeit *f; -; -en;* qo'pollik, dag'allik, qo'rslik.
Pauke *f; -; -n;* 1. nog'ora, nog'ora qoqmoq. 2. ta'zir, kaltak.
pauken *vi.* (ko'r-ko'rona) yod olmoq.
pauschal *Adj.* umumiy. *Adv.* birvarakayiga, umumiy holda.
Pauschale *f; -; -n;* umumlashtiruv.
pauschalisieren *vt.* umumlashtirmoq.
Pauschalsumme *f; -; -n;* umumlash-(tiril)gan summa (miqdor).
Pauschalurteil *n; -(e)s; e;* (yuzaki) umumlashgan hukm, mulohaza.
Pause *f; -; -n;* 1. (qisqa) tanaffus, dam; **Pause machen** tanaffus qilmoq. 2. kalka, (nusxa ko'chirishda ishlatiladigan) shaffof qog'oz.
pausen *vt.* (kalka usuli bilan) nusxa ko'chirmoq.
pausenlos *Adj.* betinim, surunkali, uzluksiz.
pausieren *vi.* tanaffus qilmoq, dam olmoq.
Pavillon *m; -s; -s;* pavilon, ko'rgazma bo'limi.
Pazifik *m; -s; -;* Tinch okeani.
Pazifismus *m; -; -;* tinchlikparvarlik, patsifizm.
pazifistisch *Adj.* tinchliksevar; **~e Gesellschaft** tinchliksevar jamiyat.
Pech *n; -(e)s; -;* 1. omadsizlik; **er hatte ~** uning omadi chopmadi. 2. *Chem.* yelim, smola.
pechfinster *Adj.* qop-qora.
Pechvogel *m; -(e)s; -vögel* omadsiz odam.
Pedal *n; -(e)s; -e;* pedal; **das ~ treten** pedalni bosmoq.
Pedant *m; -en; -en;* maydakash, (haddan tashqari) sinchkov odam.
Pedantismus *m; -; -;* (haddan tashqari) sinchkovlik, rasmiyatchilik, pedantizm.
Pein *f* azob, qiynalish, uqubat.
peinigen *vt.* azoblamoq, qiynamoq.
Peiniger *m; -s; -;* zolim, qiynovchi.
peinlich *Adj.* noqulay (ahvol), ko'ngilsiz, yomon; **eine ~e Situation** noqulay vaziyat.
Peinlichkeit *f; -; -en;* noqulaylik, ko'ngilsizlik; **jemandem eine ~ ersparen** yomon ahvoldan qutqarmoq.
peinvoll azob-uqubatli, qiynoqqa to'la.
Peitsche *f; -; -n;* qamchi, darra.
peitschen *vt.* qamchilamoq, darra bilan urmoq.
pejorativ *Adj.* (ma'nosi) pasaytirilgan, quyidagi (tilga oid).
Pejorativum *n; -s; -; Pejorativa Ling.* peyorativ, (vulgar ma'noli) so'z.
Pelle *f; -; -;* po'st, po'choq *(meva, sabzavotning).*
pellen *vt.* po'stini, po'chog'ini archmoq.
Pelz *m; -es; -e;* teri, mo'yna.
pelzbesetzt *Adj.* mo'yna bilan qoplangan.
pelzen *vt.* teri tashlamoq *(hayvonlarga nisbatan).*
pelzen *Adj.* mo'ynali.
pelzig *Adj.* mo'ynasimon.
Pelzmantel *m; -s; -mäntel,* mo'ynali palto.
Pelztier *m; -es; -e;* mo'ynali hayvon.
Pelzzucht *f; -; -en,* mo'yna yetishtirish.
Penalty *m; -s; -s; (engl.) Sport.* o'n bir metrlik jarima to'pi *(futbolda).*
PEN-Club *m; -s; -s; Kurzw.* penklub, shoir va yozuvchilar uyushmasi.
Pendel *n; -s; -;* tebrangich, mayatnik.
pendeln *vi.* 1. tebranmoq. 2. tentiramoq, qatnamoq.
Pendeluhr *f -; -en;* tebranish yordamida ishlovchi soat.
Pendler *m; -s; -;* boshqa joyga qatnab ishlovchi.
Pension *f; -en;* 1. nafaqa. 2. kichik mehmonxona; **in ~ gehen** nafaqaga chiqmoq.

pensionieren *vt.* (biror kishini) nafaqaga chiqarmoq; **pensioniert sein** nafaqada bo'lmoq.
Pensionierung *f; -; -en;* 1. nafaqaga chiqarish. 2. iste'fo.
Pensionsalter *n; -s; -;* nafaqa yoshi, nafaqa; **das ~ erreichen** nafaqa yoshiga yetmoq.
per *prp (A)* bilan, orqali; **~ Auto** avtomobil bilan; **~ Post** pochta orqali.
perfekt *Adj.* mukammal, a'lo.
Perfekt *n; -s; e; Ling.* perfekt, o'tgan zamon *(suhbat)* fe'li.
Perfektion *f; -; -en;* mukammallik, yuqori mahorat.
Perfektionismus *m; -; -;* mukammallikka intilish, perfektionizm.
Periode *f; -; -n;* davr, vaqt.
Periodensystem *n; -s; -; Chem.* davriy tizim (sistema).
periodisieren *vt.* davr(lar)ga bo'lmoq, davrlashtirmoq.
periodisch *Adj.* vaqti-vaqti bilan.
Peripherie *f; -; -;* chekka hudud, chekka soha.
Periphrase *f; -; -n; Ling.* perifraza, boshqacha aytish.
Perle *f; -; -n;* marvarid, dur.
perlen *vi.* yaltiramoq, tovlanmoq.
perlen *Adj.* marvaridli, durli.
Perlenkette *f; -; n;* marvarid (dur) zanjir.
Perlendiadem *n -s; -e;* marvarid toj.
perlmuttern *Adj.* sadaf rangli.
permanent *Adj.* doimiy, muntazam.
perplex *Adj.* garang, boshi qotgan; **ganz ~ sein** butunlay boshi qotmoq.
Persianer *m; -s; -; Zool.* 1. qorako'l qo'y. 2. qorako'l teri.
Persianermantel *m; -s; -mäntel* qorako'l po'stin, palto.
Person *f; -; -en;* 1. shaxs. 2. qiyofa *(teatr, kinoda).* 3. *Ling.* shaxs. 4. *Jur.* jismoniy shaxs; **in eigener ~** men o'zim (kamtarin qullari).
Persona non grata *Lat. f; -; -; Dipl.* persona non grata, mamlakatdan chiqib ketishga tavsiya etilgan chet ellik diplomat.
Personal *n; -s; -;* xodimlar tarkibi, kadrlar.
Personalabbau *m; -(e)s; -;* xodimlarni qisqartirish.
Personalabteilung *f; -; -en,* xodimlar bo'limi.
Personalausweis *m; -es; -e;* (shaxsni isbotlovchi) guvohnoma.
Personalcomputer *m; -s; -;* (kichik) shaxsiy kompyuter.
Personalchef *m; -s; -s;* kadrlar bo'limi boshlig'i.
Personalmangel *m; -s; Mängel* xodimlar yetishmovchiligi.
Personalpronomen *n; -s; -; Gramm.* kishilik olmoshi.
personell *Adj.* shaxsiy, shaxsga oid.
Personenbeförderung *f; -; -en;* passajirlarni tashish.
Personenkraftwagen *m; -s; -;* yengil avtomobil.
personifizieren *vt.* gavdalantirmoq, jonlantirib ko'rsatmoq.
persönlich I *Adv.* shaxsan, o'zi; **der Kanzler ~ ist da** kanslerning shaxsan o'zlari shu yerda. **II** *Adj.* shaxsiy; **~es Eigentum** shaxsiy mulk.
Persönlichkeit *f; -; -en;* 1. shaxs, kishi, odam, shaxsiyat. 2. shaxs, arbob; **führende ~en des Staates** davlat arboblari; **eine ~ des öffentlichen Lebens** jamoat arbobi.
Perspektive *f; -; -n;* kelajak, istiqbol.
perspektivisch *Adj.* istiqbolli.
Perspektivplan *m; -es; -plöne* istiqbolli reja.
Pessimismus *m; -; -;* tushkunlik, umidsizlik.
pessimistisch *Adj.* tushkun; umidsiz.
Pest *f; -; -; Med.* vabo (kasali).
Petersilie *f; -; -n; Bot.* petrushka *(kashnichsimon ko'kat).*
Petition *f; -; -en;* arznoma, ariza.
Pfad *m; -(e)s; -e;* so'qmoq.

pfadlos *Adj.* yo'lsiz; **~e Gegend** yo'lsiz hudud.
Pfahl *m; -(e)s; -Pfähle* qoziq, ustun.
pfählen *vt.* 1. ustunga (qoziqqa) o'rnatmoq. 2. qoziqqa o'tkazib qatl etmoq.
Pfand *n* garov; **(als) zum geben** garovga bermoq. 2. kafolat, dalil, garov; **ein Ring als ~ der Treue** uzuk vafodorlikning garovi. sifatida.
pfänden *vt.* xatga olmoq, (mol-mulkni) ro'yxatga olmoq.
Pfandgeld *n; -es; -er;* garov puli.
Pfandhaus *n; -es; -häuser* lombard, garovxona.
Pfändung *f; -; -en;* (mol-mulkni) xatga olish.
Pfanne *f; -; -n;* 1. tova, qozoncha. 2. (tomga yopiladigan) sopol, cherepitsa.
Pfannkuchen *m; -s; -;* (yog'da ko'pchib pishgan) kulcha, ponchik.
Pfarrer *m; -s; -; Rel.* (xristian dinida) ruhoniy, kashish, pop, pastor.
Pfarrhaus *n; -es; -häuser* butxona, ibodatxona.
Pfau *m; -(e)s; -en; Zool.* tovus; **stolz wie ~** tovusdek kekkaygan.
Pfaufeder *f; -; -n;* tovus pat(lar)i.
Pfauhahn *m; -(e)s; -hähne* tovus nari (xo'roz).
Pfauhenne *f; -; -n;* tovus modasi.
Pfeffer m; *-s; -; Bot.* qalampir, garmdori.
Pfefferdose *f; -; -n;* qalampirdon, garmdoridon, murchdon.
pfefferig *Adj.* qalampirli, murchli, garmdori solingan.
pfeffern *vt.* qalampir solmoq.
Pfeife *f;* 1. hushtak. 2. qamishsurnay. 3. chilim.
pfeifen *vt.* hushtak (nay) chalmoq.
Pfeil *m; -(e)s; -e;* nayza, kamon o'qi.
Pfeilbrücke *f; -; -n;* ustunli ko'prik.
Pfeiler *m; -s; -;* ustun.
pfeilgerade *Adv.* kamon o'qiday to'g'ri.
Pferch *m; -(e)s; -e;* o'tar, qo'ton, molxona.
pferchen *vt.* qo'ton, molxonaga haydamoq.
Pferd *n; -(e)s, -e;* 1. *Zool.* ot. 2. *Sport.* (ustidan) sakrash va mashq qilish uskunasi.
Pferdefleisch *n; -es; -;* ot go'shti.
Pferdestärke *f; -; -; Phys.* ot kuchi *(o'lchov birligi).*
Pfiff *m; -(e)s; -e;* hushtak ovozi, chinqiriq, chiyillagan ovoz.
pfiffig *Adj.* ayyor, topqir.
Pfiffigkeit *f; -; -en;* ayyorlik, topqirlik.
Pfirsich *m; -(e)s; -e;* shaftoli mevasi.
Pfirsichbaum *m; -(e)s; -bäume Bot.* shaftoli daraxti.
Pflanze *f; -; -n;* o'simlik; **mehrjährige ~** ko'p yillik o'simlik.
pflanzen *vt.* ko'chat ekmoq.
Pflanzenzucht *f; -; -e;* ko'chat yetishtirish.
Pflanzer *m; -s; -;* plantatsiya egasi.
Pflänzling *m; -s; -e;* ko'chat.
Pflanzung *f; -; -en;* 1. ko'chat ekish. 2. ko'chat.
Pflaster *n; -s; -;* 1. to'shama yo'l *(mastosh yotqizilgan).* 2. *Med.* plastir, yara bog'lag'ich.
pflastern *vt.* tosh yotqizmoq. 2. bog'lag'ich bilan yarani bog'lamoq. 3. shapaloq urmoq.
Pflaume *f; -; -n;* olxo'ri mevasi.
Pflaumenbaum *m; -es, -bäume Bot.* olxo'ri daraxti.
Pflaumenkuchen *m; -s; -;* olxo'ri pirogi.
Pflege *f; -; -;* boqish, qarash, parvarish qilish, g'amxo'rlik.
Pflegeheim *n; -es; -e;* qariyalar (nogironlar) uyi.
pflegen *vt.* boqmoq, qaramoq, parvarish qilmoq, g'amxo'rlik qilmoq.
Pflegepersonal *n; -s, -;* parvarishga jalb etilgan xodimlar, hamshiralar.
Pfleger *m; -s; -;* 1. boquvchi. 2. *Med.* sanitar. 3. *Jur.* vasiy.
Pflegemutter *f; -; -mütter* 1. (kun davomida) bolaga qarab turuvchi ayol. 2. *Jur.* (bola) asrab olgan ona.
Pflegesohn *m; -es; -söhne* asrandi o'g'il.

Pflegevater *m; -s; -väter* asrab olgan ota.
Pflegling *m; -s; -e;* 1. tarbiyalanuvchi, vasiylikka olingan bola. 2. boqilayotgan hayvon.
Pflegschaft *f; -; -en;* vasiylik; ~ **ausüben** vasiylik qilmoq.
Pflicht *f; -; -en,* burch, majburiyat; **seine ~ erfüllen** o'z burchini bajarmoq; **der ~zuwieder handeln** burchni buzmoq, burchiga xiyonat qilmoq.
pflichtbewusst *Adj.* o'z burchini anglagan; **~e Einstellung zur Arbeit** mehnatga ongli munosabatda bo'lish.
Pflichteifer *m; -s;* tirishish, g'ayrat qilish, qunt, hafsala.
Pflichterfüllung *f; -; -en;* burchni bajarish; **~exemplar** *n; -s; -e;* majburiy nusha; **~gefühl** burch hissi.
Pflichtfach *n; -(e)s; -fächer* majburiy o'quv fani; **~literatur** *f; -;* majburiy (o'quv) adabiyoti.
pflichtschuldig *Adj.* (xizmat burchiga ko'ra) majbur; **ich füle mich ~, diese Sitzung zu besuchen** xizmat burchimga ko'ra bu anjumanda qatnashishim shart.
Pflichtsoll *n; -n; -s;* belgilangan me'yor (norma), belgilangan miqdor.
pflichttreu *Adj.* o'z burchiga sodiq.
Pflock *m; -(e)s,* **Pflöcke** pona yog'och pona, qoziq; **er steht da wie ein~** u bu yerda qoqqan qoziqday turibdi.
pflöcken *vt.* pona bilan mustahkamlamoq.
pflücken *vt.* termoq, yig'moq, uzmoq.
Pflug *m; -(e)s; -pflüge* plug, yer haydash moslamasi.
pflügen *vt, vi.* yer haydamoq.
Pforte *f; -; -n;* ko'cha eshigi.
Pförtner *m; -s; -;* 1. darvozabon, eshik qorovuli. 2. *Anat.* qorin bo'yni *(qorinning o'n ikki barmoqli ichakka o'tadigan (boradigan) joyi).*
Pfosten *m; -s; -;* 1. kesaki (eshik, rom). 2. *Sport.* ustun, shtanga.
Pfote *f; -; -n;* oyoq, panja *(hayvonlarda).*
Propfen *m; -s; -;* 1. po'kak, probka. 2. tiqin, po'kak.
pfropfen *vt.* 1. po'kak bilan bekitmoq. 2. payvandlamoq, payvand qilmoq.
Pfuhl *m; -(e)s; -e;* ko'lmak, ko'lob.
pfui *int* tuf, **schäme dich!** Tuf, suf (senga), uyalmaysanmi!
Pfund *n; -(e)s; -e;* funt *(500 gramlik og'irlik birligi).*
Pfütze *f; -; -n;* (kichik) ko'lmak.
Phänomen *n; -s; -e;* hodisa; **soziales ~** ijtimoiy hodisa.
phänomenal *Adj.* g'aroyib, zo'r.
Phantasie *f; -; -n;* fantaziya, xayolga berilish.
phantasieren *vi.* xayol qilmoq, xayolga berilmoq.
Phantast *m; -en; -en;* xayolparast.
phantastisch *Adj.* 1. g'aroyib. ajoyib. 2. *Lit.* fantastik (janr).
Phantom *n; -s; -e;* sharpa, ko'lanka, arvoh.
Pharao *m; -s; -raonen Hist.* fir'avn *(qadimgi Misr podshohlarining nomi yoki unvoni).*
Pharmazeut *m; en; en;* farmasefl, dorishunos.
Phase *f; -; n;* faza, bosqich, bo'lim.
Philantrhop *m; -en; -en;* saxovatpesha, filantrop, xayr-saxovat qiladigan kishi.
Philharmonie *f; -; -n; Mus.* filarmoniya.
Philologe *m; -n; -n;* filolog.
Philologie *f; -; -;* filologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik.
philologisch *Adj.* tilshunoslikka oid, filologik.
Philosoph *m; -en, -en;* faylasuf.
Philosophie *f; -; -n;* falsafa.
philosophisch *Adj.* falsafiy, falsafaga oid.
Phonetik *f; -; -; Ling.* fonetika, talaffuz.
phonetisch *Adj.* fonetik, fonetikaga oid.
photographieren *vt., vi.* suratga olmoq, tushirmoq; **sich ~ lassen** suratga tushmoq.
Phonologie *f; -; -;* fonologiya *(tovushlar haqidagi fan).*
Photo *n; -s; -s;* (foto) surat, rasm.

Photoalbum *n; -s;* **-alben** rasmlar albomi.
photographieren *vt.* suratga (rasmga) olmoq.
Phrase *f; -; -n;* ibora, jumla, gap.
Phraseologie *f; -; -n. Ling.* frazeologiya, turg'un so'z birikmalari haqidagi fan.
phraseologisch *Adj.* frazeologik, frazeologiyaga oid.
Physik *f; -; -;* fizika; **Institut für ~** fizika instituti.
physikalisch *Adj.* fizikaviy, fizikaga oid.
Physiker *m; -s; -;* fizik olim.
Pianist *m; -en; -en;* pianinochi, pianino chaluvchi.
Picke *f; -; -n;* cho'kich, metin, ketmonsimon asbob.
picken *vt.* cho'qilamoq, cho'qilab yemoq.
Picknick *n; -(e)s; -e; und -s;* sayr paytidagi (dala, yaylov, o'rmonda) ovqatlanish.
Pietät *f; -; -;* hurmat, ehtirom.
pikant *Adj.* 1. ta'mi o'tkir, nordon. 2. axloqqa to'g'ri kelmaydigan, behayo.
Pilger *m; -s; -; Rel.* ziyoratchi.
Pilgerfahrt *f; -; -en; Rel.* ziyorat, ziyorat safari.
pilgern *vt.* 1. *Rel.* ziyorat qilmoq, ziyoratga chiqmoq. 2. tentiramoq.
Pille *f; -; -n;* hapdori, yumaloq dori, tabletka.
Pilot *m; -en; -en;* uchuvchi, pilot.
Pilz *m; -es; -e;* qo'ziqorin.
Pilzgift *n; -(e)s; -e;* qo'ziqorin zahri.
pimpeln *vi.* 1. hiqqillamoq, hiqqillab yig'lamoq. 2. nolimoq, ming'irlamoq.
Pingpong *n; -s; -s; Sport.* ping-pong, stol tennisi.
Pinguin *m; -s; -e; Zool.* pingvin.
Pinke *f; -; -;* tiyin, tanga; **er hat keine ~** uning bir tiyini ham yo'q.
pinkeln *vi.* hojatga chiqmoq, yozilmoq.
Pinsel *m; -s; -;* cho'tka, bo'yoq cho'tka.
pinseln *vt.* 1. bo'yamoq. 2. moylamoq, (cho'tka bilan) moy surmoq.
Pionier *m; -(e)s; -e,* 1. kashshof, ilk yangilik yaratgan, sohada birinch bo'lgan kishi. 2. *Milit.* harbiy injener.
Pipeline [ˈpaiplain] *f; -; -n;* ulkan quvur, neft yoki gaz quvuri.
Pipette *f; -; -n;* dori tomizg'ich, pipetka.
Pirat *m; -en, -en,* dengiz qaroqchisi.
Pistole *f; -; -n;* pistolet; **mit der ~ schießen** pistoletdan otmoq.
Pistolenkugel *m; -s, -;* pistolet o'qi.
Pizza *f; -; -s, -Pizzen Kulin.* pitsa; **italienische ~** italyancha pitsa.
Personenkraftwagen *(Abk:PKW) m; -s; -;* yengil avtomobil.
plädieren *vi. Rechtw.* (sudda) oqlovchi yoki qoralovchi nutq bilan chiqmoq.
Plädoyer *n; -s, -s; Rechtsw.* (suddagi) nutq.
Plage *f; -n; -n;* azob, jafo, aziyat.
plagen *vt.* azoblamoq, aziyat chektirmoq; **sich ~** azoblanmoq, aziyat chekmoq.
Plagiat *n; -(e)s; -e;* ko'chirib olish orqali o'g'irlik, ko'chirmachilik.
plagiieren *vt.* (o'zganing asarini) yozib o'zlashtirib olmoq.
Plakat *n; -(e)s; -e;* plakat, keng qamrovli rasmli qog'oz.
plakatieren *vt.* plakat orqali yetkazmoq.
Plan *m; -(e)s; -pläne* 1. reja, plan. 2. loyiha.
planen *vt.* rejalashtirmoq, loyihalashtirmoq.
Planentwurf *m; -es; -entwürfe* reja loyihasi.
Planet *m; -en; -en;* planeta, sayyora.
planetarisch *Adj.* global, planeta miq yosida.
plangemäß *Adj.* reja asosida.
planlos *Adj.* rejasiz, rejalashtirilmagan.
Plantage *f; -; -n;* plantatsiya *(qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan maxsus maydon).*
Planung *f; -; -en;* rejalashtirish, rejalash.
Plapperer *m; -s, ~in f; -, -nen;* vaysaqi, sergap.
plastisch *Adj.* 1. egiluvchan. 2. plastik.

Pläsier *n; -s; -e;* xursandlik, mamnunlik, mamnuniyat, rohat, maza, huzur, halovat, lazzat.

Platane *f; -; -n; Bot. -; -n;* chinor, platan.

Plateau *{plato} n; -s; -s;* plato, balandlik, yassi hudud.

Platin *n; -s; -;* platin, nodir metal.

Platinhochzeit *f; -; -en;* platin to'y, yetmish yillik nikoh to'yi.

platonisch *Adj.* 1. *Philos.* yunon faylasufi Aflotun (Platon)ga oid. 2. ruhiy, qalbga oid.

platt *Adj.* tekis, yassi.

Plattdeutsch *n; -en, -; Ling.* quyi nemis shevasi.

Platte *f; -; -n;* 1. yassi lagan. 2. o'choq, plita.

Plattform *f; -; -en,* maydon *(temiryo'l hududida),* platforma.

Platz *m; -es; -plätze* 1. joy, maydon. 2. o'rin, bo'sh joy; **Nehmen Sie bitte ~!** marhamat, o'tiring!

platzen *vi.* yorilmoq, darz ketmoq, chatnamoq.

platzieren *vt.* joylashtirmoq, o'ringa o'tkazmoq.

Platzkarte *f; -; -n;* plaskarta *(joy raqami ko'rsatilgan poyezd chiptasi).*

Platzverweis *m; -es; -e; Sport.* maydondan chiqarib yubormoq.

plaudern *vi.* gap sotmoq, valdiramoq.

Playboy *m; -s; -s;* 1. huzurini o'ylagan o'ziga to'q kishi. 2. ayollar bilan sarguzashtga moyil kishi, pleyboy.

Play-off *n; -s; -s; (auch: Playoff) (engl.) Sport.* musobaqadan (yutqazib) chiqib ketish, pley-off.

Pleite *f; -; -n;* 1. inqiroz, sinish, barbod bo'lish; kasod bo'lish. 2. omadsizlik.

pleite *Adv.* kasod, singan; **~ sein** kasod bo'lmoq, sinmoq.

Plenum *n; -s; -Plenen* (bosh) yalpi majlis, plenum.

plombieren *vt.* 1. (qo'rg'oshin) tamg'a bosmoq, plombalamoq. 2. *Med.* tish kavagini (plomba bilan) bekitmoq.

plötzlich *Adj.* to'satdan, birdan, kutilmaganda.

Pluderhose *f; -; -n;* cholvor, shalvar (ishton).

plump *Adj.* beso'naqay, beo'xshov, kelishmagan, qo'pol.

Plunder *m; -s, -n;* eski-tuski (kiyim), uvada, lash-lush.

plündern *vt.* talamoq, talon-taroj qilmoq, o'g'irlamoq.

Plural *m; -s; -e; Gramm.* ko'plik kategoriyasi, ko'plikdagi ot.

Pluralismus m; -; *Philos.* plyuralizm, turfa xillik, turli fikr va g'oyalarga asoslangan jamiyat.

plus *Konj.* plyus, qo'shuv.

Plus *n; -; -;* foyda, daromad; **~ erzielen** daromad olmoq.

Plusquamperfekt *n; -(e)s; -e; Gramm.* (suhbat) o'tgan zamon, plyuskuamperfekt.

Pneumonie *f; -; -n; Med.* pnevmaniya, zotiljam.

Pöbelei *f; -; -en,* bezorilik.

pochen *vt.* 1. taqillatmoq, qoqmoq *(eshikni).* 2. urmoq *(yurak, puls).* 3. qoqmoq *(devorga).*

Pocke *f; -; -n; Med.* chechak.

pockig *Adj.* cho'tir, bujur.

Podest *m;* und *n; -(e)s; -e;* 1. zinali maydoncha. 2. taxtasupa, minbar, shoxsupa, taxti ravon.

Podium *n; -s; -Podien* minbar, shoxsupa, taxtiravon.

Podiumsdiskussion *f; -; -en;* (biror) mavzu doirasida tomoshabinlar ishtirokidagi munozara.

Poem *n; -s; -e;* 1. poema, doston. 2. epik she'r.

Poesie *f; -; -n;* poeziya, she'riyat, nazm.

Poet *m; -en; -en;* shoir.

poetisch *Adj.* she'riy, poetik.

Pogrom *m; und n; -s; -e;* qirg'in, yoppasiga o'ldirish.

Pokal *m; -(e)s; -e;* 1. *Sport.* kubok, sovrin. 2. qadah, jom.

Pokalspiel *n; -(e)s; -e;* kubok uchun o'yin.
Pökel *m; -s; -;* namakob, tuzli suv.
pokern *vt.* poker (karta) o'ynamoq.
Pol *m; -s; -e; Astron.* qutb.
polar *Adj.* qutbga oid.
Polarforscher *m; -s; -;* qutb tadqiqotchisi.
Polarität *f; -; -en;* qarama-qarshilik.
Polarnacht *f; -; -nächte* qutb tuni.
Polemik *f; -; -en,* bahs, munozara.
Poliklinik *f; -; -en;* (oilaviy) shifoxona, poliklinika.
Politik *f; -; -;* siyosat; **friedliche ~** tinchliksevar siyosat.
Politiker *m; -s; -;* siyosatchi, siyosiy arbob; **ein führender ~** yetakchi siyosatchi.
politisch *Adj.* siyosiy; **~e Partei** siyosiy partiya.
Politologe *m; -n; -n;* siyosatshunos, politolog.
Polizei *f; -; -en;* 1. politsiya. 2. politsiya binosi.
Polizeinotruf *m; -(e)s; -e;* favqulodda holatda politsiyaga qo'ng'iroq qilish.
Polizist *m; -en; -en;* politsiya xodimi.
Polster *n; -s; -;* und *Pölster* jild, qoplam.
Polstermöbel *n; -s; -;* yumshoq mebel.
Polsterabend *m; -(e)s; -e;* nikoh, to'y arafasidagi marosim.
polstern *vt.* jildlamoq, jild bilan qoplamoq.
Polterer *m; -s; -;* baqiroq odam, shang'i.
poltern *vt.* 1. taraqlatmoq, taraqlatib tushirib yubormoq. 2. nikoh to'yidan oldin bayram qilmoq.
polyglott *Adj.* 1. ko'p tillarda. 2. ko'p tilni biluvchi.
Pommes frites *Pl. fr. Kulin.* (yupqa qirqilgan) qovurilgan kartoshka.
Popcorn *n; -s; -; Kulin.* bodroq, pop-korn.
Popstar *m; -s; -s;* mashhur qo'shiqchi, yulduz.
popular *Adj.* 1. ommabop. 2. mashhur.
Popularität *f; -n; -;* 1. ommaboplik. 2. mashhurlik.
populärwissenschaftlich *Adj.* ilmiy-ommabop.
Populismus *m; -; -;* populizm, quruq va'dabozlik; **populist** *m; -en;* xalq ko'ziga yaxshi ko'rinishga intiluvchi.
Portal *n; -s; -e; Archit.* peshtoq, ravoq, katta darvozali kirish joyi.
Portemonnaie *n; {portmone} -s; -s;* hamyon.
Portion *f; -; -en;* (bir kishiga mo'ljallangan) ovqat miqdori, portsiya.
Porto *n; -s; -s;* pochta xizmati uchun pul yig'imi.
Porträt *n; -(e)s; -e;* portret, kishi rasmi.
porträtieren *vt.* portret chizmoq.
Porträtmaler *m; -s, -;* portret ishlovchi rassom.
Portwein *m; -(e)s; -e;* portveyn vinosi.
Porzellan *n; -s; -e;* farfor, chinni.
Porzellanladen *m; -s; -läden* chinni idishlar do'koni; **sich wie ein Elefant im ~ benehmen** beso'naqaylik qilmoq.
Porzellankrug *m; -es; -krüge* chinni ko'za.
Pose *n; -; -n;* gavda holati.
posieren *vt.* gavdasini tutmoq, qomatini namoyish qilmoq.
Position *f; -; -en;* 1. holat, o'rin. 2. nuqtayi nazar, pozitsiya.
positiv *Adj.* ijobiy, yaxshi; **~es Ergebnis** ijobiy natija.
Positiv *m; -s; -e; Gramm.* sifatning oddiy darajasi.
Posse *f; -; -n; Theatr.* 1. fars *(hajviy asar).* 2. qo'pol hazil, qilmish, qiliq, ish, kirdikor, nayrang.
Possen *m; -s; -;* qo'pol hazil, qilmish, **(ach) ~** bo'lmag'ur gap! safsata; **j-meinen ~ spielen** kimgadir qo'pol hazil qilmoq.
Possessivpronomen *n; -s; -; Gramm.* egalik olmoshi.
Post *f; -; -;* 1. pochta, pochta idorasi; **~fach** pochta orqali; **~gebür** *f; -; -en;* pochta yig'imi (tushum, xizmat to'lovi). 2. xat, paket.

Postament *n; -(e)s; -e;* tagkursi, asos, postament.
Postamt *n; -(e)s; -ämter* pochta bo'limi, pochtaxona.
Postangestellte *m; -n; -n;* pochta xodimi.
Postbote *m; -n; -n;* pochtachi, kuryer.
Posten *m; -s; -;* 1. qorovullik joyi. 2. mansab, lavozim.
Postenjäger *m; -s; -;* shuhratparast, amalparast, mansabparast.
Postkasten *m; -s; -kästen* pochta qutisi.
Postkarte *f; -; -n;* ochiq xat, otkritka.
postlagernd *Adv.* yo'qlama, yo'qlab olinadigan xat yoki telegramma.
Postleitzahl *f; -; -en;* pochta indeksi.
Postpaket *n; -(e)s; -e;* pochta paketi.
Potenz *f; -; -en;* 1. qobiliyat, layoqat. 2. qurb, qodirlik, qudrat.
Potenzial *n; -s; -e;* imkoniyat, qobiliyat.
potenziell *Adj.* yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan, layoqatli.
Power *f; -; -;* 1. yutuq, samara, muvaffaqiyat. 2. kuch, qudrat.
Präambel *f; -; -n;* shartnomaning kirish qismi, preambula.
Pracht *f; -; -;* ko'rkamlik, hashamatlik.
Prachtexemplar *n; -(e)s; -e;* noyob, ko'rkam nusxa.
prächtig *Adj.* hashamatli, dabdabali.
Prädikat *n; -(e)s; -e;* 1. *Gramm.* kesim. 2. baho natijasi.
Präfix *n; -es; -e; Gramm.* prefiks, old qo'shimcha.
prägen *vt.* 1. zarb qilmoq, o'ymoq, bosmoq. 2. iz qoldirmoq, ta'sir o'tkazmoq.
Prägestempel *m; -s, -;* muhr, tamg'a.
Pragmatismus *m; -; -;* maqsadga muvofiqlik, pragmatizm.
Prägung *f; -; -en;* zarb qilish, bosish *(tanga, chaqa).*
prahlen *vi.* maqtanmoq, kerilmoq, maqtanib gapirmoq.
Prahlhans *m; -es, -hänse* maqtanchoq, manman.
Praktik *f; -; -en,* amaliyot, amal, praktika. 2. tajriba, amaliyot. 3. tajriba, malaka.
Praktikant *m; -en; -en;* amaliyot o'tovchi, praktikant.
Praktiker *m; -s; -;* amaliyotchi, amalda qo'llovchi.
praktisch *Adj.* amaliy, praktik; **~e Anwendung** amalda qo'llash.
praktizieren *vt.* 1. amaliyotda qo'llamoq. 2. *Med.* davolamoq; **~er Arzt** davolovchi shifokor.
Praline *f; -; -n;* shokolad, konfet.
prallen *vi.* urilmoq, o'zini urmoq, duch kelmoq.
Prämie *f; -; -n;* mukofot, mukofot puli; **eine ~ bekommen** mukofot olmoq.
Prämiengelder *n Pl.* mukofot puli.
prämieren *vt.* mukofotlamoq, mukofot bilan taqdirlamoq.
Präposition *f; -; -en; Gramm.* predlog.
Präsens *n; -; -; Gramm.* hozirgi zamon, fe'lning hozirgi zamon shakli.
Präsent *n; -(e)s; -e;* sovg'a; **~ überreichen** sovg'a bermoq.
präsent *Adj.* bevosita ishtirok, qatnashishga oid.
Präsentation *n; -; -en;* taqdimot.
präsentieren *vt.* taqdim qilmoq, namoyish qilmoq.
Präsenzbibliothek *f; -; -en;* (faqat o'quv zalida foydalanish uchun kitob beradigan) kutubxona.
Präsident *m; -en; -en;* prezident.
präsidieren *vt.* majlisga raislik qilmoq.
Präsidiumssitzung *f; -; -en;* prezidium majlisi, hay'at majlisi.
Praxis *f* 1. amaliyot, tajriba to'plash. 2. amaliyot *(nazariya emas).* 2. amaliy faoliyat *(shifokor, advokat).*
praxisnah *Adj.* amaliyotga yaqin.
predigen *vt. Rel.* va'zxonlik qilmoq; xutba o'qimoq.
Prediger *m; -s; -; Rel.* va'zgo'y, va'zxon, voiz.
Predigt *f; -; -en; Rel.* va'z, xutba.
Preis *m; -es; -e;* 1. narx, baho. 2. mukofot, sovrin.
Preisabbau *m;* -s; -; narxning pasayishi.

Preisbildung *f; -; -en;* narx-navoning shakllanishi.
preisen *vt.* ko'klarga ko'tarmoq, tasanno o'qimoq.
Preiserhebung *f; -; -en;* narxning oshishi.
preisgeben *vt.* (nochor ahvolda) tashlab ketmoq. 2. duchor qilmoq, mahkum qilmoq.
Preisgebung *f; -; -en;* narx qo'yish, belgilash.
Preispolitik *f; -; -;* narx-navo siyosati.
Preisträger *m; -s; -;* laureat, mukofot (sovrin) sohibi.
Preisunterschied *m; -es; -e;* narx-navodagi farq.
preiswert *Adj.* arzon, bahosiga loyiq; ~ **sein** arzon bo'lmoq.
preiswürdig *Adj.* maqtovga loyiq.
Preiszuschlag *m; -es; -zuschläge* ustama (pul, haq).
prellen *vi.* 1. urilmoq, duch kelmoq. 2. lat yemoq .
Premiere *f; -n;* ilk namoyish *(teatr, film).* premyera.
Premierminister *m; -s; -;* bosh vazir, premyer ministr.
Presse *f; -; -n;* 1. matbuot; ommaviy axborot vositasi. 2. nashr uskunasi. 3. press *(tekkislaydigan moslama).*
Presseagentur *f; -; -en;* matbuot agentligi.
Pressefeiheit *f; -; -;* matbuot erkinligi.
Pressemeldung *f; -en;* matbuot xabari.
pressen *vt.* 1. iskanjalamoq, preslamoq. 2. ezib chiqarmoq *(meva sharbatini).* 2. yopishmoq, qapishmoq, pinjiga kirmoq.
Pressesekretär *m; -s; -;* matbuot kotibi.
Pressezentrum *n; -s; -zentren;* matbuot markazi.
Prestige *n;* {preßtisch} *-s; -;* obro', e'tibor, nufuz.
Priester *m; -s; -; Rel.* ruhoniy, kashish, pop.
prima *adj. Adv.* a'lo, zo'r.
Primadonna *f; -; -Primadonnen;* primadonna *(opera yoki operettada asosiy rolni ijro etuvchi ayol).*
primär *Adj.* 1. ustuvor. 2. ilk, qadimiy.
Primärliteratur *f; -; -;* ilk manba.
primitiv *Adj.* sodda, oddiy, ibtidoiy, jo'n.
primitieren *vt.* soddalashtirmoq, jo'nlashtirmoq.
Primus *m; -; -Primusse* od. *Primi* sinfning yetakchi o'quvchisi.
Prinz *m; -en; -en;* shahzoda.
Prinzessin *f; -; -en;* malika.
Prinzip *n; -s; -ien;* prinzipen tamoyil, printsip, tarz.
prinzipiell *Adj.* asosan, asosiy jihatdan, ko'p jihatdan.
Priorität *f; -; -en;* ustuvorlik.
privat *Adj.* xususiy, shaxsiy.
Privatadresse *f; -; -n;* uy manzili.
Privatbesitz *m; -es; e;* xususiy mulk.
Privatisierung *f; -; -en;* privatizatsiya qilmoq, xususiylashtirmoq.
Privatleben *n; -s; -;* shaxsiy hayot.
Privileg *n; -(e)s; -ien;* imtiyoz, yengillik.
privilegieren *vt.* imtiyoz bermoq.
pro *Adv.* 1. har bir; ~ **Person** har kishiga. 2. rozi; ~ **und kontra** rozi va qarshi.
Probe *f; -; -n;* 1. sinov. 2. tekshiruv.
Probeexemplar *n; -(e)s; -e;* sinov, tekshiruv nusxasi.
probefahren *vt.* haydab sinab ko'rmoq.
proben *vt.* sinab ko'rmoq, tekshirib ko'rmoq.
probieren *vt.* 1. tatib sinamoq, yeb ko'rmoq, kiyib ko'rmoq. 2. harakat qilib ko'rmoq.
Problem *n; -s; -e;* muammo, problema.
problemlos *Adj.* muammosiz, qiyinchiliksiz.
Produkt *n; -(e)s; -e;* mahsulot, natija, hosila.
Produktion *f; -; -en;* ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish.
Produktionsbetrieb *m; -es; -e;* ishlab chiqarish korxonasi.
Produktionszweig *m; -es; -e;* ishlab chiqarish sohasi.
Produzent *m; -en; -en;* ishlab chiqaruvchi.

produzieren *vt.* (mahsulot) ishlab chiqarmoq.
professionell *Adj.* mahoratli, (yuksak) malakali.
Professor *m; -s; -en;* professor.
Professur *f; -; -en;* kafedra, professura.
Profit *m; -(e)s; -e;* foyda, daromad.
profitieren *vt.* foyda ko'rmoq, daromad olmoq.
Prognose *f; -; -n;* oldindan aytish, bashorat.
Programm *n; -(e)s; -e;* 1. dastur, reja. 2. tadbirlar ketma-ketligi *(radio, televi. deniyeda).*
programmieren *vt.* dastur yaratmoq, dastur tuzmoq, dasturlamoq.
programmäßig *Adv.* dasturga binoan.
programmatisch *Adj.* dasturga oid.
Programmentwurf *m; -es; -entwürfe* dastur loyihasi.
Projekt *n; -es; -e;* loyiha, reja; **ein neues ~ entwerfen** yangi loyiha tuzmoq.
projektieren *vt.* 1. loyiha tuzmoq, loyihalashtirmoq. 2. mo'ljallamoq.
Projektor *m; -s; -en;* proyektor, optik uskuna.
projizieren *vt.* (optik uskuna bilan) devorga rasm tushirmoq.
proklamieren *vt.* (tantanali) e'lon qilmoq, hammaga ma'lum qilmoq.
Pro-Kopf: kishi boshiga; **~ Einkommen** *n; -s; -;* kishi boshiga daromad.
Prolog *m; -(e)s; -e;* so'zboshi, kirish, muqaddima.
Promenade *f; -; -en;* sayr, tomosha; aylanib kelish.
promenieren *vt.* sayr qilmoq, sayrga chiqmoq.
Promille *s; -s; -;* 1. mingdan bir qismi. 2. qondagi alkogol o'lchovi.
prominent *Adj.* taniqli, yuqori mansabga oid, mashhur.
Prominenz *f; -; -en;* yuqori doiraga mansub, taniqli kishilar.
Promoter *m; -s; -;* tashkilotchi, sport va san'at tadbirlarini uyushtiruvchi shaxs, moderator, promoter.
Promotion *f; -; -en;* ilmiy daraja berish.
promovieren *vt.* nomzodlik dissertatsiyasini yoqlamoq. 2. ilmiy daraja bermoq.
Pronomen *n. -s;* od. *promina Gramm.* olmosh.
Propaganda *f; -; -;* targ'ibot, tashviqot.
propagieren *vt.* targ'ib qilmoq, tashviqot qilmoq.
Propan *n; -s, -;* propan gazi.
Prophet *m; -en; -en;* 1. *Rel.* payg'ambar. 2. bashorat qiluvchi, karomat qiluvchi.
Prophetie *f; -; -n;* bashorat, karomat, oldindan aytish.
prophetisch *Adj.* bashoratli, dohiyona, payg'ambarona.
Prosa *f; -; -; Lit.* nasr, proza.
prosaisch *Adj.* nasriy, prozaik; **~es Werk** nasriy asar.
prosit *Int.: S*og'liq uchun; **~ Neujahr!** Yangi yil bilan!
Prospekt *m; -es; -e;* (rasmli) reklama kitobchasi, prospekt.
Protege *m; [-ʒe]-n; -n;* birovning himoyasidagi (qanotidagi) odam qo'nqaytma, qo'nqaytma.
protegieren *vt.* (birovni) qo'llab-quvvatlamoq, mansabga ko'tarmoq.
Protest *m; -(e)s; -e;* qat'iy norozilik; protest; **~ einlegen** e'tiroz bildirmoq.
Protestbrief *m; -es; -e;* norozilik xati.
protestieren *vi.* norozilik (e'tiroz) bildirmoq.
Prothese *f; -; -n;* protez, sun'iy tana a'zosi.
Protokoll *n; -(e)s; -e;* protokol, qaror, bayonnoma; **ein ~ anfertigen** protokol tuzmoq.
protokollieren *vt.* protokol yuritmoq, bayonnoma tuzmoq.
Provinz *f; -; -en;* (markazdan) chekka hudud, chet joy, provinsiya.
provinziell *Adj.* 1. chekka hududga oid. 2. orqada qolgan, ko'p narsadan xabarsiz.
Prozedur *f; -; -en;* 1. protsedura; bajariladigan ish tartibi, rasmiy marosim. 2. *Med.* protsedura, davolash tadbirlari.

Prozent *n; -(e)s; -e;* protsent, foiz.
Prozess *m; -es; -e;* 1. jarayon, protsess. 2. *Jur.* sud ishi, protsess.
prüfen *vt.* tekshirmoq, sinamoq, imtihon qilmoq.
Prüfer *m; -s; -;* 1. imtihon qiluvchi, sinovchi. 2. tekshiruvchi.
Prüfling *m; -s; -e;* imtihon topshiruvchi.
Prüfstand *m; -es; -e;* sinov uskunasi.
Prüfung *f; -; -en;* imtihon, sinov; **eine ~ ablegen** imtihon topshirmoq.
Prüfungstermin *m; -(e)s; -e;* imtihon muddati, imtihon vaqti.
Prügel *m; -s; -;* kaltak, tayoq.
prügeln *vt.* tayoq bilan urmoq, kaltaklamoq.
Prunk *m; -es; -;* hasham, zeb-ziynat, dabdabalik.
Prunkraum *m; -(e)s, -räume* hashamatli xona.
Psychologie *f; -; -;* ruhshunoslik, psixologiya.
Publikation *f; -; -en;* nashr, nashr qilish.
Publikum *n; -s; -;* 1. tomoshabin, tinglovchi. 2. jamoat.
publizieren *vt.* nashr qilmoq, matbuotda e'lon qilmoq.
Publizist *m; -en; -en;* publisist, ijtimoiy-siyosiy mavzuda yozuvchi shaxs.
Puder *m; -s; -;* upa; **~ streuen** upa sepmoq.
Puderdose *f; -; -n;* upa qutisi.
pudern *vt.* sepmoq; **sich ~** o'ziga pudra sepmoq.
Puff *m; -(e)s; -Püffe* turtki, zarba.
puffen *vt.* turtmoq, zarba bermoq.
Pullover *m; -s; -;* sviter, pullover, qomatga yopishib turadigan yoqasiz kiyim.
Puls *m; -es; -e;* (qon) tomir urishi, puls.
pulsieren *vi.* tomir urmoq, tepmoq.
Pulver *n; -s; -;* porox, miltiqdori.
Pulverfass *n; -es; -fässer* poroxli bochka; **auf einem ~ sitzen** o'ta xavfli vaziyatda bo'lmoq.
Pulverkaffee *m; -s; -s;* yanchilgan qahva.
Pumpe *f; -; -n;* nasos, dam urgich; **Wasser von der ~** nasosda tortilgan suv.
pumpen 1. dam urmoq, bosmoq. 2. qarz bermoq. 3. **sich ~** qarz olmoq.
Punkt *m; -(e)s; -e;* 1. *Ling.* nuqta. 2. joy, punkt. 3. bo'lim, qism. 4. muhimlik, o'ta ahamiyatlilik.
punkten 1. *vt.* nuqta bilan belgilamoq. 2. *vi. Sport.* ochko olmoq.
pünktlich *Adj.* o'z vaqtida, puxta; **Bitte seien Sie ~** Iltimos, kechikmay keling.
Punktsieg *m; -es; -e;* ochkolar bo'yicha g'alaba.
Pupille *f; -; -n;* ko'z qorachig'i, qorachig'.
Puppe *f; -; -n;* qo'g'irchoq; **mit ~n spielen** qo'g'irchoq o'ynamoq.
puppen *vt.* qo'g'irchoq o'ynamoq.
Puppenfilm *m; -es; -e;* qo'g'irchoq film.
puppenhaft *Adj.* (qo'g'irchoqdek) chiroyli, lekin sovuq.
Puppenspiel *n; -s; -e;* qo'g'irchoq o'yini, teatri.
Puppentheater *n; -s; -;* qo'g'irchoq teatri.
pur *Adj.* sof, toza.
Püree *n; -s; -s; Kulin.* pyure.
Purismus *m; -; -; Ling.* purizm, ona tilini chet tillaridan kirib kelgan so'zlardan himoyalash harakati.
puritanisch *Adj.* an'analarga, odatlarga sodiq.
Purpur *m; -s; -;* (qimmatbaho) to'q qizil bo'yoq.
purpurn *Adj.* qirmizi rang.
pusten *vt.* dam bermoq, puflamoq, puflab dam bermoq.
Pute *f; -; -n; Zool.* kurka (moda); **~er** *m;* kurka (nar).
Putsch *m; -(e)s; -e; Polit.* putch, davlat to'ntarishiga qaratilgan fitna.
putzen *vt.* tozalamoq, artmoq.
Putzfrau *f; -; -en;* farrosh ayol.
Puzzlespiel *n; -es, -e,* boshqotirma *(o'yin).*
Pyramide *f; -; -n, Archit.* piramida.
Python *m; -s; -s; Zool.* bo'g'ma ilon, piton.

Q

Q. q. Der sienbzehnte Buchstabe des deutschen Alphabets

quabbelig *Adj.* do'mboq, lo'ppi, yumshoq; **ein ~er Hängebauch** mesh-qorin.

quackeln *vi.* gap sotmoq.

Quackelei *f; -en;* safsata, bema'ni (bemaza behuda) gap, g'iybat, bo'hton.

Quacksalber *m; -s; -;* aldoqchi, tovlamachi, firibgar, lo'ttivoz.

Quacksalberei *f; -en;* tabib, dam soluvchi duoxon.

quacksalbern *vi.* lo'ttivozlik qilmoq, aldamchilik bilan (avrab) davolamoq.

Quadrat *n; -(e)s; -e; Math.* kvadrat.

quadratförmig *Adj.* kvadrat shaklida.

Quadratmass *n; -es; -e;* kvadrat o'lchovi.; **~ meter** *n; -s;* kvadrat metr.

Quadratzahl *f; -; -en;* kvadratli son.

Quadrinum *n; -s; -e;* to'rt raqamli son.

quaken *vi.* qurullamoq, vaqirlamoq.

Quakfrosch *m; -(e)s; -frösche* baqa.

Qual *f; -; -en;* azob, uqubat, qiynoq.

quälen *vt.* qiynamoq; azob bermoq; **sich ~** qiynalmoq, azoblanmoq.

Quälgeist *m; -(e)s; -er;* azob beruvchi, zolim, sitamgar.

Qualifikation *f; -; -en;* 1. malaka, mahorat. 2. *Sport.* saralash musobaqasi.

Qualifikationsspiel *n; -s; -e; Sport.* saralash o'yini.

qualifizieren *vt.* mutaxassis tayyorlamoq; **sich ~** 1. kasb egallamoq. 2. *Sport.* saralanmoq.

qualifiziert *Adj.* 1. malakali. 2. *Sport.* saralashdan o'tgan.

Qualifizierung *f; -; -en;* 1. malaka. 2. malaka oshirish.

Qualität *f; -; -en;* sifat; **von guter ~** yuqori sifatli; **Nachfrage nach allen ~en** barcha navlarga talab.

Qualitätswein *m; -(e)s; -e;* yuqori navli vino.

qualitativ *Adj.* sifatiga ko'ra.

Qualitätsarbeit *f; -; -en;* sifatli ish.

Qualitätskontrolle *f; -; -n;* sifat nazorati.

Qualitätsware *f; -; -n;* sifatli mol.

Qualm *m; -(e)s; -;* (quyuq) tutun.

qualmen 1. *vi.* tutamoq, tutun chiqarmoq. 2. *vt.* tutatmoq *(sigaretni).*

qualmig *Adj.* tutunli.

qualvoll *Adj.* azobli, qiynoqli.

Quant *n; -s; -en; Phys.* kvant.

Quantenmechanik *f; -; -; Phys.* kvant mexanikasi.

Quantentheorie *f; -; -n;* kvant nazariyasi.

Quantität *f; -; -en;* son; **~ und Qualität** son va sifat.

quantitativ *Adj.* soniga ko'ra.

Quark *m; -s; -;* suzma, tvorog.

Quarktorte *f; -; -n;* tvorogli tort.

Quart *n;* -(e)s1 to'rtdan bir kattaligidagi; **ein Buch in ~** varaqning to'rtdan biri kattaligidagi (formatidagi) kitob. 2. *f; -en;* kvarta *(qilichbozlik).* 3. suyuqlikni o'lchash birligi.

Quartal *n; -s; -e;* 1. kvartal *(yilning to'rtdan choragi).* 2. mavze, turarjoy.

Quartalsabschluß *m; -sses; -abschlüsse* kvartal natijalarini chiqarish.

quartalsweise *Adv.* har kvartalda.

Quartett *n; -(e)s; -e; Mus.* kvartet *(to'rt kishilik musiqa guruhi).*

Quartier *n; -(e)s; -e;* 1. yashash xonasi, boshpana *(tunash uchun).* 2. *Milit.* harbiylar uchun turar joy.

Quarz *m; -es; -e; Min.* kvars *(rangsiz mineral).*

Quarzuhr *f; -; -en;* kvarsli soat.

quasi *Adv.* go'yoki, xuddi.

Quatsch *m; -(e)s; -;* 1. behuda gap, safsata. 2. ahmoqlik, jinnilik.

quatschen *vt.* 1. gap sotmoq, valdiramoq. 2. sirni ochib qo'ymoq.

Quatschkopf *m; -(e)s; -köpfe* mahmadona, vaysaqi, ko'p gapiradigan odam.
Quenn *f; -; -s;* qirolicha (ingliz qirolichasi).
Quelle *f; -; -n;* 1. buloq, chashma. 2. manba.
quellen 1. *vi.* oqmoq, oqib chiqmoq. 2. *vt.* (suvga) ivitmoq.
Quellenangabe *f; -; -n;* adabiyotlar ro'yxati.
Quelwasser *n; -s; -;* buloq suvi.
quer *Adj., Adv.* ko'ndalang, ko'ndalangiga; **kreuz und** ~ boshdan oyoq.
querdurch *Adv.* ko'ndalangiga.
Quere *f; -; -;* **in die** ~ ko'ndalangiga.
Querelle *f; -; -n;* 1. kelishmovchilik, (kichik) janjal. 2. shikoyat.
queren *vt.* kesib o'tmoq *(yo'lni).*
Quergasse *f; -; -n;* tor ko'cha, boshi berk ko'cha.
querlegen *vt.* qiyshiq qo'ymoq.
querschreiben *vt.* qiyshiq (egri-bugri) yozmoq; **sich** ~ qorishmoq.
Queue *n; -; -n;* bilyard tayog'i.
quetschen *vt.* 1. ezib qorishtirmoq, pishitmoq. 2. iylamoq, yumshatmoq.
quick {*kwik*} *Adj.* tez.
quieren *vi.* chiyillamoq.
quietschen *vi.* g'archillamoq, g'arch-g'urch qilmoq.
Quitte *f; -; -n; Bot.* behi.
Quittenmarmelade *f; -; -;* behi murabbosi.
quittengelb *Adj.* behirang.
quittieren *vt.* kvitansiya bermoq.
Quittung *f; -; -en;* kvitansiya.
Quiz *n; -es; -e;* vi.ktorina *(savol-javob o'yini).*
Quizsendung *f; -; -en;* vi.ktorina ko'rsatuvi.
Quote *f; -; -n;* kvota, hissa, ulush.
Quivi.ve auf dem~sein ko'z-quloq bo'lmoq, quloqni ding qilmoq.
Quodlibet *n; s; -s;* 1. qorishma aralashma. 2. popuri *(turli musiqa asarlaridan olib tuzilgan musiqiy pyesa).*

R

R. r. Der achtzehnte Buchstabe des deutschen Alphabets
Rabatt *m; -(e)s; -e;* chegirma, kamaytirilgan narx.
Rabe *m; -n; -n; Zool.* qarg'a; **ein weißer** ~ oq qarg'a.
Rabenaas *n; -es; -e;* 1. o'limtik, o'laksa. 2. *-es; -; -äser* ablah, iflos, razil, palid; ~ **botschaft** shum xabar, xunuk xabar; ~ **eltern** *Pl.* qattiqqo'l ota-onalar.
Rache *f; -; -;* o'ch, qasos; ~ **nehmen** qasos olmoq; **aus** ~ qasddan; ~ **schwören**; o'ch olishga qasamyod qilmoq; **die Stunde der~ist gekommen** qasd olish payti keldi.
Rachen *m; -s;* hayvon og'zi, jag'.
Rachenbräune *f;* -; angina (tomoq og'rig'i); ~ **böhle** *f; -; Anat.* halqum, esnoq, og'iz; ~ **katarch** yuqori nafas yo'llarining katari (yallig'lanishi).
rächen *vi.* o'ch (qasos) olmoq; **sich** ~ jazosini olmoq, (aybiga) javob bermoq.
Rächer *m; -s; -;* qasoskor.
Rachitis *f; -; -; Med.* raxit kasalligi.
rachzüchtig *Adj.* qasoskor, kek saqlovchi.
Racket *n; -s; -s; Sport.* tennis raketkasi.
Rackerei *f; -; -;* mashaqqatli mehnat, qora mehnat.
rackern *vi.* og'ir mehnat qilmoq.
Rad *n; -(e)s; Räder* 1. g'ildirak. 2. velosiped; ~ **fahren** velosipedda yurmoq.
radfahren *vi.* velosipedda yurmoq.
Radfahrer *m; -s; -;* velosipedchi, velosiped haydovchi.

Radfahrtweg *m; -(e)s; -e;* yo'lning velosiped yurishi uchun ajratilgan qismi.
Radfernfahrt *f; -; -en; -en;* velopoyga.
Radiator *m; -s; -Radiatoren;* radiator.
radieren *vt.* o'chirg'ich bilan o'chirmoq.
Radierergummi *m; -s; -s;* o'chirg'ich.
Radieschen *n; -s; -;* rediska; **ein Bund ~ kaufen** bir bog'lam rediska sotib olmoq.
radikal *Adj.* keskin, tubdan, radikal.
Radikalismus *m; -; -; Polit.* radikalizm, keskin harakatga moyillik.
Radio *n; -s; -s;* 1. radio apparati. 2. radio stansiyasi; **im ~ hören** radio orqali eshitmoq.
Schicksalfrage *f; -; -n;* hayot-mamot masalasi.
schieben *vt.* 1. surmoq, siljitmoq. 2. turtmoq, itarmoq. 3. suqmoq. 4. (muddatni) cho'zmoq. 5. (ishni) orqaga surmoq, *vi.* (navbatda) surilmoq; **~ sich** sudralmoq, asta-sekin qimirlamoq.
Schieber *m; -s; -;* 1. *Tech.* qopqoq. 2. chayqovchi.
Schiebetür *-; -en;* surilma eshik.
Schiebewand *f; -; -wände* surilma devor.
Schiebung *f; -; -en;* (savdoda, sportda) aldov, firibgarlik.
Schiedsgericht *n; -es; -e; Jur.* hakamlar sudi, arbitraj.

Schiedsrichter *m; -s; -; Sport* hakam, sudya.
schief *Adj.* 1. qiyshiq, yonlama, qiya, egri. 2. soxta, yolg'on.
Schiefe *f; -; -;* qiyalik, qiyshiklik.
Schiefer *m; -s; -;* shifer; **das Dach ist mit ~ bedeckt** tom shifer bilan yopilgan.
schiefergedeckt *Adj.* shifer bilan qoplangan.
schieferig *Adj.* kulrang.
schiefgehen *vi.* barbod bo'lmoq, amalga oshmaslik.
Schiefheit *f; -; -en;* qiyshiklik.
schieflachen sich qotib kulmoq.
schiefliegen adashmoq, xato qilmoq.
Schielauge *n; -s; -n;* qiyshiq (g'ilay) ko'z.
schieläugig *Adj.* g'ilay ko'zli.
schielen 1. *Med.* qiyshiq ko'z bilan qaramoq. 2. ko'z olaytirmoq.
Schiene *f; -; -n;* rels; **~n legen** rels yotqizmoq.
schienen *vt. Med.* taxtakachlab qo'ymoq.
Schienenfahrzeug *n; -(e)s; -e;* relsda yuruvchi transport vositasi.
schier 1. *Adj.* toza, sof; chin. 2. *Adv.* deyarli, qariyb.
Schierling *m; -s; -e; Bot.* bodiyoni rumi, zangpoya *(go'ng atrofida o'suvchi zaharli o't)*
Schießbefehl *m; -(e)s; -e;* otishga (ruxsat) berilgan buyruq.
Schießbude *f; -; -n;* tir, otish mashqi uchun nishon.
schießen *vi.* 1. otmoq, o't ochmoq. 2. otib o'ldirmoq. 3. otib tushirmoq. 4. *Sport.* to'p urmoq, gol urmoq. 6. (tez) o'sib chiqmoq. 7. **~ sich** otishmoq.
Schießen *n; -s; -;* otishma, otishuv; **das ist zum ~!** Kulgidan yorilay dedim!
Schießplatz *m; -es; -plätze Milit.* poligon, otishma joyi.
Schießpulver *n; -s; -;* porox, miltiqdori.
Schießscheibe *f; -; -n;* nishon.
Schießstand *m; -es; -stände;* tir, otish mashq joyi.
Schiff *n; -(e)s; -e;* kema; **an Bord des ~es** kema bortida.
Schiffahrt *f; -; -en;* 1. kema qatnovi. 2. paroxodda sayohat qilish.
schiffbar *Adj.* kema va paroxod yura oladigan.
Schiffbau *m; -(e)s; -;* kemasozlik.
schiffen *vi.* suzmoq *(kemaga oid).*
Schiffsarzt *m; -es; -ärzte;* kema vrachi, shifokori.
Schiffbrauch *m; -(e)s; brüche;* kema halokati; **~ (er)leiden** 1. kema halokatiga uchramoq. 2. halokatga yo'liqmoq.
Schiffseigner *m; -s; -;* kema egasi, kemachi.
Schiffsbrücke *f; -; -n;* kemaga chiqadigan ko'prik.
Schiffsgut *n; -es; güter;* kema yuki.
Schiffskoch *m; -(e)s; -köche;* kema oshpazi.
Schiffsmannschaft *f; -; -en;* kema ekipaji.
Schiffstreppe *f; -; -n;* kema zinapoyasi.
Schikane *f; -; -n;* xo'rlash, tahqirlash, mazax qilish.
schikanieren *vt.* xo'rlamoq, mazax qilmoq.
Schilauf *m; -(e)s; -läufe;* chang'i, chang'ida yurish, chang'i sporti.
Schild I *m; -(e)s; -er; Geschich.* qalqon, g'ov, to'siq; **j-n auf den ~heben** kimnidir qalqon qilmoq, qalqon qilib ko'tarmoq.
Schild II *n; -(e)s; -e;* 1. e'lonlar taxtasi, biror ma'lumot yozilgan) taxtacha. 2. belgi, nishona.
Schilddach *n; -(e)s; dächer;* ayvoncha.
Schilddrüse *f; -; -n; Anat.* qalqonsimon bez.
schildern *vt.* tasvirlamoq, bayon qilmoq; **eine Gegend ~** biror joyni tasvirlamoq; **die Natur ~** tabiatni tasvirlamoq.

Schilderung *f; -; -en;* tasvirlash, bayon qilish.
Schildkröte *f; -; -n; Zool.* toshbaqa.
Schildpatt *n; -(e)s; -;* toshbaqa kosasi.
Schilf *n; -(e)s; -e;* qamish.
Schilfbewachsen qamish bosgan.
Schilfrohr *n; -(e)s; -e;* qamish.
schillern *vi.* tovlanmoq, jilvalanmoq, mavj urmoq.
schilpen *vt.* chug'urlamoq, chiriqlamoq, chirqillamoq *(qushlarga oid).*
Schimmel I *m; -s; -;* mog'or.
Schimmel II *m; -s; -;* o'q ot.
schimm(e)lig *Adj.* mog'or bosgan, mog'orlagan.
schimmeln *vi.* mog'orlamoq.
Schimmer *m; -s; -;* yaltirash, tovlanish, jilva.
schimmern *vi.* yaltiramoq, tovlanmoq.
Schimpanse *m; -n; -n; Zool.* shimpanze.
Schimpf *m; -(e)s; -e;* haqorat, haqorat qilish, so'kish.
schimpfen *vi.* haqorat qilmoq, so'kmoq.
Schimpferei *f; -; -en;* haqorat, so'kish.
schimpflich *Adj.* haqoratli, uyatli.
Schimpfwort *n; -es; -wörter;* haqoratli so'z, so'kish so'zi.
schinden *vt.* qiynamoq, azoblamoq; ~ **sich** qiynalmoq, azoblanmoq.
Schinder *m; -s; -;* azob beruvchi, ozor beruvchi.
Schinken *m; -s; -;* (dudlangan) son go'shti.
Schinkenspeck *m; -(e)s; -;* dumba yog'i.
Schippe *f; -; -n;* belkurak.
Schippen *n; -s; -;* belkurak bilan kuramoq, belkurak ishlatmoq.
Schirm *m; -(e)s; -e;* 1. soyabon. 2. homiylik, himoya; **jmdm. Schutz und ~ gewähren** birovni o'z himoyasiga olmoq.
Schirmdach *n; -es; -dächer,* peshayvon, ayvoncha.
schirmen *vt.* himoya qilmoq, mudofaa qilmoq.
Schirmherr *m; -en; -en;* homiy, homiylik qiluvchi.
Schirmherrschaft *f; -; -en;* homiylik; **unter der ~ stehen** homiyligida, himoyasida bo'lmoq.
Schizopherinie *f; -; -; Med.* shizofreniya, ruhiy kasalliik.
Schlabberei *f; -; -en;* 1. yalab, shalap-shalap qilib yeyish, xo'rillatib ichish, *(it, mushuk).* 2. tatib ko'rish.
schlabberig *Adj.* suyuq, suvli.
schlabbern *vt.* 1. yalab, shalap-shalap qilib yemoq, xo'rillatib ichmoq. 2. tatib ko'rmoq.
Schlacht *f; -; -en;* jang, kurash, urush.
schlachten *vt.* 1. so'ymoq; **das Vieh ~** mol so'ymoq. 2. o'ldirmoq.
Schlächter *m; -s; -;* qassob.
Schlächterei *f; -; -en;* 1. qushxona. 2. xunrezlik, qirg'in.
Schlachtfeld *n; -es; -er;* jang maydoni.
Schlachthaus *n; -es; -häuser;* qushxona, qassobxona.
Schlachtordnung *f; -; -en; Milit.* jangovar tartib.
Schlachtvieh *n; -(e)s; -e;* so'yiladigan mol.
Schlacke *f; -; -n;* 1. kuygindi, lava, shlak. 2. keraksiz, ortiqcha narsa, uvada, lash-lush.
schlackern *vi.* qaltiramoq, titramoq .
Schlaf *m; -(e)s; -;* uyqu; **fester ~** qattiq uyqu; **keinen ~ finden** uyqusini yo'qotmoq.
Schlafanzug *m; -(e)s; -anzüge;* pijama, tungi ko'ylak.
Schläfchen *n; -s; -;* qisqa uyqu; **ein ~ halten** mudrab olmoq.
schlafen *vi.* 1. uxlamoq; **fest ~** qattiq uxlamoq. 2. tunamoq. 3. (birov bilan) yotmoq.
schläfern *vi.* uyqu tortmoq; **es schläfert** uyqu tortyapti.
schlaff *Adj.* 1. bo'sh; **die Saite war ~** sim bo'sh tortilgan. 2. kuchsiz, bo'shashgan. 3. sust.

Schlaffheit *f;* 1. bo'shlik, kuchsizlik. 2. bo'shashganlik, sustlik.
Schlaflied *n; -es; -er;* alla qo'shig'i.
schlaflos *Adj.* uyqusiz; **eine ~e Nacht** uyqusiz kecha (tun).
Schlaflosigkeit *f; -; -en;* uyqusizlik, bedorlik.
Schlafmütze *f; -; -n;* 1. uyquchi. 2. dangasa. 3. tungi do'ppi.
schläfrig *Adj.* uyquli, uyqusiragan.
Schlafrock *m; -(e)s; -röcke;* uy xalati, tungi ko'ylak.
Schlaftablette *f; -; -n;* uyqu dori.
schlaftrunken *Adj.* uyquga to'ymagan, chala uxlagan.
Schlafwagen *m; -s; -;* (poyezdda) uxlab ketadigan vagon.
schlafwandeln *vi.* uyqu(si)da yurmoq.
Schlafzimmer *n; -s; -;* 1. yotoqxona. 2. yotoqxona mebeli.
Schlag *m; -(e)s; -Schläge;* 1. zarba; **starker ~** kuchli zarba. 2. urish, (yurak urishi). 3. yer maydoni. 4. daraxt kesish.
Schlagader *f; -; -n; Med.* arteriya, qon tomiri.
Schlaganfall *m; -(e)s; -anfälle; Med.* miyaga qon quyilishi natijasida falaj bo'lish, apopleksiya.
schlagartig *Adj.* to'satdan, qo'qqisdan, daf'atan, dabdurustdan, ittifoqo.
Schlagbaum *m; -es; -bäume;* shlagbaum, yog'och to'siq.
schlagen *vt.* 1. urmoq; zarba bermoq. 2. urib sindirmoq. 3. o'ldirmoq, so'ymoq *(hayvonni).* 4. (yurak) urmoq. 5. *Sport. Milit.* mag'lubiyatga uchratmoq, tormor qilmoq. 6. *(daraxtga oid)* kesib qulatmoq. 7. **~ sich** urishmoq, kaltaklashmoq.
schlagend *Adj.* o'rinli, ishonchli; **eine ~e Antwort** o'rinli javob.
Schlager *m; -s; -;* 1. *Mus.* ommabop qo'shiq. 2. *Wirtsch.* ommabop, ko'p sotiladigan mahsulot bozorbop, xaridorgir mol, mahsulot.
Schläger *m; -s; -;* 1. urushqoq, yo'lto'sar. 2. *Sport.* 1. raketka. 2. xokkey tayog'i.
Schlägerei *f; -; -en;* mushtlashish, urishish, yoqalashish.
Schlägermusik *f; -; -;* estrada musiqasi.
Schlägersänger *m; -s; -;* estrada qo'shiqchisi.
schlagfertig hozirjavob, o'rinli so'z.
Schlagkraft *f; -; -kräfte* 1. zarba beruvchi kuch. 2. ta'sir kuchi.
schlagkräftig 1. zarbdor. 2. ta'sirchan.
Schlaginstrument *n; -(e)s; -e; Mus.* (zarb urib chalinadigan) musiqa asbobi.
Schlagseite *f; -; -n;* qiyshayish, og'ish.
Schlaguhr *f; -;* -uhren; bong uradigan soat.
Schlagwort *n; -es; -wörter;* 1. shior. 2. umumiy gap, siyqasi chiqqan jumla.
Schlagzeile *f; -; -n;* shov-shuvli sarlavha; **~ machen** gazetalarda yirik sarlavha ostida chiqmoq, matbuotda shov-shuv ko'tarmoq.
schlaksig 1. uzun. 2. beso'naqaylik.
Schlaksigkeit *f; -; -en;* 1. uzunlik. 2. beso'naqaylik.
Schlamassel *m;* oder *n; -s; -;* balo, falokat; **ein schöner ~!** Balo-ku!
Schlamm *m; -(e)s; -e;* und *Schlämme* 1. loy, balchiq, loyqa, botqoq. 2. (davolash vositasi) balchiq.
schlammig *Adj.* loyqa, balchiqli.
Schlampe *f; -; -n;* 1. axloqsiz (jirkanch, yaramas) ayol. 2. chirkin, nopok ayol.
schlampen *vt.* 1. qo'l uchida ishlamoq. 2. g'ijimlanmoq.
schlampig *Adj.* beso'naqay, pala-partish.
Schlampigkeit *f; -; -en;* beparvolik, beso'naqaylik, pala-partishlik.
Schlange *f; -; -n;* 1. ilon; **giftige ~** zaharli ilon; **junge ~** ilon bolasi. 2. *Tech.* o't o'chiradigan shlang. 3. navbat; **~ stehen** navbatda turmoq. 4. varrak. 5. makkor ayol. 6. *Tech.* burama (spiral), naycha.
schlängeln sich 1. o'rmalamoq, sudralib yurmoq. 2. burilib-burilib (ilon izi bo'lib) yurmoq.

schlängelig *Adj.* ilon izi, ilon izli.
Schlangengift *n; -es; -e;* ilon zahri.
schlangenhaft *Adj.* ilonsifat, ilonsimon.
Schlangenhaut *f; -; -häute;* ilon po'sti.
schlangenzügig *Adj.* makkor, hiylagar.
schlank *Adj.* 1. xushbichim, qaddi-qomati kelishgan. 2. nafis, chiroyli.
schlankengewachsen *Adj.* qotmadan kelgan.
Schlankheit *f; -; -;* xushbichimlik.
Schlankheitskur *f; -; -en;* ozish uchun davolanish.
schlankweg qat'iy, to'ppa-to'g'ri, dangal, oshkora, ro'yirost.
Schlappe *f; -; -n;* (alamli) mag'lubiyat, omadsizlik.
schlappen *vi.* osilib (ilinib, liqillab) turmoq.
schlappig *Adj.* osiqliq, ilingan.
Schlaraffenleben *n; -s; -;* to'kin, beg'am va betashvish hayot.
Schlaraffenmatratze *f; -; -n;* yumshoq to'shak.
schlau *Adj.* mug'ambir; ayyor; **ein ~er Mensch** mug'ambir (ayyor) odam.
Schlaube *f; -; -n;* yupqa teri, po'st, po'stloq, po'choq.
Schlauch *m; -(e)s; -Schläuche* 1. shlanga. 2. g'ildirak(ning) kamerasi.
schlauchartig *Adj.* ichaksimon.
Schlauchboot *n; -es; -e;* puflab shishirilgan rezinali qayiq.
schlauchen *vt.* 1. charchatmoq. 2. shlang orqali suv yubormoq, birovlar hisobiga yashamoq.
Schläue *f; -; -;* ayyorlik, mug'ambirlik.
Schlaufe *f; -; -n;* ilmoq, halqa, ilgak, tugma teshigi.
Schlauheit *f; -; -;* mug'ambirlik, ayyorlik.
Schlaukopf *m; -es; -köpfe* mug'ambir, ayyor odam.
schlecht *Adj.* 1. yomon, qabih. 2. aynigan. 3. fe'li yomon.
schlechtgelaunt *Adj.* yomon kayfiyatli.
schlechthin *Adv.* 1. xuddi o'zi, tipik. 2. oddiy, sodda, to'pori.
Schlechtigkeit *f; -; -;* pastkashlik, ablahlik.
schlechtweg *Adv.* og'rinmasdan, betakalluf, shunday.
Schlechtwetter *n; -s; -;* noqulay ob-havo.
Schlechtwetterflug *m; -es; -flüge;* murakkab ob-havoda uchish.
schlecken *vt. (shirin narsa)* yeb maza qilmoq, lazzatlanmoq.
Schlecker *m; -s; -;* shirinxo'r, shirintomoq, shirinlikka o'ch.
Schleckerei *f; -; -en;* shirinlik, shiravor.
schleck(e)rig *Adj.* shirin, mazali.
schleckern *vt.* 1. yeb maza qilmoq. 2. ishtahasi bo'lmoq, yegisi kelmoq.
Schlegel I *m; -s; -;* 1. bolg'a. 2. *Mus.* tayoqcha (baraban uchun).
Schlegel II *m; -s; -;* 1. *Anat.* dumg'aza. 2. (hayvon, qushning) son go'shti.
Schlehe *f; -; -n;* 1. *Bot.* (mevasi mayda olxo'riga o'xshagan) buta. 2. mayda olxo'ri mevasi.
schleichen *vi.* 1. sekin-asta (pisib, bekinib) yurmoq. 2. sudralmoq, sekin o'tmoq.
schleichen sich sudralib yurmoq, o'rmalamoq, emaklamoq.
schleichend *Adj.* sekingina, yashirinib, ohista.
Schleicher *m; -s; -;* olg'ir, firibgar, muttaham odam.
Schleichweg *m;* aylanma, yashirin yo'l; **auf ~en vorgehen** egri (g'ayriqonuniy) yo'l bilan ish tutmoq.
Schleie *f; -; -n; Zool.* (botqoqlikda yashaydigan) zog'orabaliqning bir turi, lin.
Schleier *m; -s; -;* 1. yopinchiq. 2. *Rel.* paranji.
schleierhaft *Adj.* sirli, sehrli.
Schleife *f;* 1. (kapalak nuscha) tugun. 2. ilmoq, sirtmoq, halqa.
schleifen I *vt.* qayramoq, charxlamoq, o'tkir qilmoq.
schleifen II *vt.* tashimoq, olib bormoq, olib kelmoq, sudramoq; **~ sich** sudralmoq.

Schleifer *m; -s; -;* charxlovchi, charxlaydigan ishchi, qayrovchi, silliqlovchi, pardozlovchi, jilo beruvchi. 2. (o'ta) talabchan rahbar.

Schleifpapier *n; -s; -;* qumqog'oz.

Schleifstein *m; -es; -e;* qayroqtosh.

Schleim *m; -(e)s; -e;* 1. (yopishqoq) shilliq modda. 2. *Kulin.* Qayla.

schleimen *vt.* 1. shilliq ajratib chiqarmoq. 2. (yuqori lavozimdagilarga) xushomadgo'ylik qilmoq.

Schleimer *m; -s; -;* tilyog'lama, xushomadgo'y odam.

schlemmen *vi.* bazm qilmoq, bazmda ishtirok etmoq.

Schlemmer *m; -s; -;* bazmga (ziyofatga) o'ch, ishqivoz odam.

Schlemmermahl *n; -(e)s; -e;* bazmbop ovqat.

Schlendergang *m; -es; -gänge;* ohista qadam bosish, sekin yurish.

schlendern *vi.* kezmoq, (asta) aylanib yurmoq.

Schlendrian *m; -(e)s; -;* chala-chulpa ish, betartiblik, sansalorlik.

schlenkern *vt.* 1. (qo'l, oyoqni) silkitmoq. 2. *vi.* sekin (bemalol) yurmoq.

Schlepp: in ~ nehmen tortmoq, buksirga olmoq.

Schleppe *f; -; -n;* 1. ustki kiyimning yerga osilgan holati. 2. mola (tekislash).

Schleppen I *vt.* 1. tortmoq, buksirga olmoq. 2. (kiyimni uzoq vaqt) kiyib yurmoq. 3. yerni tekislamoq. **II** *vi.* 1. tortilib turmoq; **~ sich** (zo'rg'a) qo'zg'almoq, sudralmoq. 2. ovora bo'lmoq, qiynalmoq.

schleppend *Adj.* og'ir, sudralgan, osilgan.

Schlepper *m; -s; -;* 1. shatakchi avtoulov. 2. buksir, shatakchi avtoulov. 3. *Bergb.* (shaxtada transport vositalarni boshqaradigan) ishchi.

Schleppschiff *n; -es; -e;* buksir, (shatakka oluvchi) kema.

Schleuder *f; -; -n;* 1. cho'zma, rogatka. 2. kir osadigan tortma sim.

schleudern *vt.* **I** 1. otmoq, irg'itmoq, tashlab yubormoq; **einen Stein ~** tosh otmoq. 2. (separatdan) o'tkazmoq, (kirni) siqmoq. 3. tortilib, siljib ketmoq. **II** *vi.* (yuqori tezlik sababli) yo'ldan chiqib ketmoq.

schleunig *Adj.* juda tez, bir zumda, hoziroq; **Aber ~st!** Hoziroq yo'qol!

schleunigst I *Adj.* tez; **die ~e Hilfe** tez yordam.

schleunigst II *Adv.* iloji boricha tezroq.

Schleuse *f; -; -n; Tech.* 1. shlyuz *(kemalar uchun gidrotexnik inshoot).* 2. to'g'onlardagi suv darvozasi. 3. (oqava) suv oqar inshooti.

Schleusen *vt.* kemani shlyuz orqali o'tkazib yubormoq.

Schleusenmeister *m; -s; -;* shlyuz nazoratchisi.

schlicht 1. *Adj.* oddiy, kamtar; **ein ~er Mensch** kamtar odam. 2. *Adv.* kamtarlik bilan, oddiygina.

Schlichte *f; -; -n; Text. Chem.* shlixta, ohor *(to'qimachilik sanoatida o'rish ipini puxta va silliq qilish uchun unga singdiriladigan ohorli modda).*

schlichten *vt.* 1. *Tech.* (ohor bilan) silliqlamoq. 2. yarashtirmoq, kelishtirmoq, murosaga keltirmoq.

Schlichter *m; -s; -;* 1. yarashtiruvchi, kelishtiruvchi, murosaga keltiruvchi sud. 2. hakamlar sudi.

Schlichtung *f; -; -en;* silliqlash, to'g'irlash.

schlichtweg *Adv.* juda sodda, rosa oddiy.

Schlick *m; -(e)s; -e;* balchiq, loyqa, loy.

schlick(e)rig *Adj.* loyqali, balchiqli.

Schlickermilch *f; -; -;* qatiq.

schlieren *vi.* sirg'anmoq, toymoq.

schlierig *Adj.* sirg'anchiq, toyg'oq.

schießbar *Adj.* yopiladigan, qulflanadigan.

Schließe *f; -; -n;* ilgak, tugma. 2. to'qa, kamar to'qasi.

schließen *vt.* **I** 1. yopmoq, qulflamoq, berkitmoq; **Türen ~!** Eshikni bekiting! 2. yakun yasamoq; tugatmoq. 3. (shartnoma) tuzmoq. **II** *vi.* 1. **~ sich** yopilmoq, bekilmoq. 2. (ish vaqti tugamoq) yopilmoq. 3. tugamoq.

Schließer *m; -s; -;* 1. eshik og'asi, darvozabon. 2. zulfin, tamba, tirgak.

Schließfach *n; -(e)s; -fächer;* 1. (qulflanadigan) pochta qutisi. 2. *Bankw.* seyf.

schließlich *Adv.* 1. nihoyat, oxir-oqibatda. 2. axir, juda bo'lmaganda, xullas.

Schließtag *m; -es; -e;* (korxona, do'konning) yopiq, ishlamaydigan kuni.

Schließung *f; -; -en;* 1. (korxonaning) yopilish. 2. (shartnoma) tuzish.

Schliff *m; -(e)s; -e;* 1. charx, egov. 2. silliqlash, pardozlash; **~ einer Schere** qaychini charxlash. 3. fazilat, yaxshi axloq.

schlimm *Adj.* yomon, yaramas; **eine ~e Angewohnheit** yomon odat.

schlimmstenfalls *Adv.* juda bo'lmaganda.

Schlinge *f; -; -n;* 1. ilmoq, ilgak. 2. *Med.* (yarani) o'rab bog'lash. 3. qopqon; **in die ~ gehen** qopqonga tushmoq.

Schlingel *m; -s; -;* sho'x, to'polonchi.

schlingen *vt.* 1. (qizg'anib) yutib yubormoq. 2. bog'lamoq, o'ramoq, eshmoq. 3. **~ sich** chirmashmoq, eshilmoq, o'ralmoq.

schlingern *vi.* 1. (yo'ldan) chiqib ketmoq. 2. chayqalib yurmoq.

Schlips *m; -es; -e;* galstuk, bo'yinbog'; **auf den ~ treten** (birovning) nozik joyiga tegmoq.

schlissig *Adj.* yag'iri chiqqan, kiyib to'zigan.

Schlitten *m; -s; -;* chana; **mit dem ~ fahren** chanada yurmoq.

Schlittenfahrt *n; -s; -;* chanada yurmoq, uchmoq.

Schlittenhund *m; -es; -e;* chana tortadigan it.

Schlittern *vi.* yaxmalak uchmoq.

Schlittschuh *m; -(e)s; -e;* konki; **~ laufen** konkida uchmoq.

Schlittschuhbahn *f; -; -en;* yaxmalak.

Schlittschuhläufer *m; -s; -;* chang'i uchuvchi.

Schlitz *m; -es; -e;* teshik, tuynuk, yoriq; **langer ~** uzun teshik.

schlitzen *vt.* teshik teshmoq, yormoq.

schlohweiß *Adj.* oppoq, qordek oq.

Schloß I *n; -es; Schlösser,* qasr, saroy; **ein barockes ~** barok usulidagi qasr.

Schloß II *n; -es; Schlösser;* qulf; **~ einer Tür** eshik qulfi.

Schlosser *m; -s; -;* chilangar, slesar.

Schlosserei *f; -; -en;* slesarlik ustaxonasi.

schlossern *vi.* chilangarlik qilmoq.

Schloßgarten *m; -s; -gärten;* qasr qoshidagi bog'.

Schlot *m; -(e)s; -e;* selten *Schlöte* (tutun chiqadigan) uzun truba, mo'ri.

schlottern *vi.* 1. titramoq, qaltiramoq; **die Glieder ~ ihm vor Kälte (vor Angst)** u sovuqdan (qo'rquvdan) titrayapti. 2. osilib turmoq; **die Kleider schlotterten um seinen (mageren) Leib** ko'ylaklar uning gavdasida osilib turardi.

Schlucht *f; -; -e;* dara, jar.

schluchzen *vi.* ho'ngrab yig'lamoq, fig'oni chiqmoq.

Schluchzer *m; -s; -;* bo'zlab yig'lash, nola, yig'i-sig'i.

Schluck *m; -(e)s;* qultum, yutum, ho'plam; **einen ~ tun** ho'plamoq.

Schluckauf *m; -s; -;* hiqichoq, hiqichoq tutish; **~ haben** hiqichiq tutmoq.

schlucken *vt, vi.* 1. ho'plamoq, yutmoq. 2. yutib yubormoq, singdirmoq.

Schlucker *m; -s; -;* bechora, nochor odam; **ein armer ~** bechora.

schluckweise *Adv.* qultumlab, yutumlab.

Schluderarbeit *f; -; -en;* pala-partish ish.

Schluderer *m;* yengil-yelpi ishlab pul topuvchi odam.

schlud(e)rig *Adj.* beparvo, pala-partish.

schludern *vi.* pala-partish ish qilmoq.
Schlummer *m; -s; -;* mudroq, mudrash, mudroq bosish.
schlummerkissen *n; -s; -;* kichik yostiq.
Schlummerlied *n; -es; -er;* alla, alla qo'shig'i.
schlummern *vi.* mudramoq, birpas uxlab olmoq.
Schlumperei *f; -; -;* isqirtlik, ifloslik irkitlik.
Schlund *m; -(e)s; -Schlünde;* 1. *Anat.* halqum, tomoq, bo'g'iz, (hayvon) og'zi; **j-m ist der ~ trocken** kimningdir tomog'i qaqragan. 2. (vulkan, krater) og'iz, ochilish.
Schlupf *m; -(e)s; -Schlüpfe;* 1. *Zool.* (tuxumdan) yorib chiqish. 2. sirg'anish.
schlüpfen 1. (tiqilinchdan) surib chiqmoq. 2. *Zool.* (tuxumdan) yorib chiqmoq. 3. juda tez kiyinmoq.
schlüpfrig *Adj.* sirg'anchiq, toyg'oq.
Schlüpfrigkeit *f; -; -en;* sirg'anchlik, toyg'inchoqlik.
Schlüpfer *m; -s; -;* kalta ishton.
schlürfen *vt.* 1. ho'plab ichmoq; **die Suppe ~** sho'rva ichmoq. 2. nafas olmoq.
Schluß *m; -ses; Schlüsse;* 1. tugash, tamom bo'lish, yakun, oxir(i); **~des Buches** kitobning oxiri; **~ machen** tugatmoq, yakunlamoq. 2. Xulosa.
Schlußbericht *m; -es; -e;* yakuniy hisobot.
Schlüssel *m; -s; -;* 1. kalit. 2. kod, shifr; **ein geheimer ~** yashirin kod.
Schlüsselbein *n; -(e)s; -e; Anat.* o'mrov, o'mrov suyagi.
Schlüsselfigur *f; -; -en;* hal qiluvchi, asosiy shaxs.
Schlüsselfrage *f; -; -n;* asosiy masala.
Schlüsselperson *f; -; -en;* hal qiluvchi shaxs.
Schlüsselwort *n; -es; -e;* und *wörter;* 1. (kodni ochish uchun) kalit so'z. 2. asosiy, muhim so'z.
Schlußfolge *f; -; -n;* 1. oxirgi seriya. 2. yakun, xulosa.
schlußfolgen *vt.* xulosa qilmoq, yakun yasamoq.
Schlußfolgerung *f; -; -en;* xulosa, yakun, natija; **~ ziehen** xulosa chiqarmoq.
Schlußetappe *f; -; -n;* yakuniy bosqich.
Schlußsitzung *f; -; -en;* yakunlovchi majlis.
schlüssig *Adj.* mantiqiy, izchil.
Schlußwort *n; -(e)s; -e;* yakuniy so'z.
Schmach *f; -; -;* uyat, sharmanda; **~ und Schande** sharmandayi sharmisor.
schmachbedeckt *Adj.* sharmandasi chiqqan.
schmachten *vt.* 1. azob chekmoq, qiynalmoq. 2. chanqamoq. 3. zoriqmoq.
schmächtig *Adj.* ozg'in, oriq, nozik; **ein ~er Knabe** ozg'in bola.
Schmächtigkeit *f; -; -;* ozg'inlik.
Schmachtlappen *m; -; -;* noziktabiat odam, tegmanozik.
schmachvoll *Adj.* sharmandalarcha; **~es Ende haben** sharmandalarcha yakunlanmoq.
schmackhaft *Adj.* mazali, lazzatli, shirin.
Schmackhaftigkeit *f; -; -en;* lazzat, huzurlanish, mazali ta'm.
schmähen *vt.* haqorat qilmoq, badnom qilmoq.
schmählich *Adj.* haqoratomuz, uyatli, sharmanda qiladigan.
Schmähwort *n; -es; -e;* und *-wörter;* haqorat so'zi.
schmal *Adj.* ensiz, tor.
schmaläugig *Adj.* qisiq ko'zli, qiyiq-ko'zli.
schmälern *vt.* 1. kamsitmoq, qadriga yetmaslik, yerga urmoq. 2. (imtiyozni) qirqmoq, kamaytirmoq, qisqartirmoq. 3. (xarajatlarni) kamaytirmoq.
Schmälerung *f; -; -en;* kamsitish, kamaytirish.
Schmalheit *f; -; -;* torlik, ensizlik, noziklik.
schmallippig *Adj.* yupqa labli.
schmalschulterig *Adj.* tor yelkali.

Schmalspurbahn *f; -; -en;* tor g'ildirak izli temiryo'l.
Schmalwand *f; -; -wände;* yupqa devor.
Schmalz *n; -es; -e;* 1. eritilgan yog'; eritilgan charvi. 2. (yurakni ezuvchi) hissiyot.
Schmalzbutter *f; -; -;* eritilgan yog' (moy).
schmalzig *Adj.* 1. yog'li. 2. chuqur hissiyotli.
schmarotzen *vi.* tekinxo'rlik qilmoq, tekinxo'rlik bilan kun ko'rmoq.
Schmarotzer *m; -s; -;* 1. tekinxo'r, parazit. 2. zararkunanda o'simlik yoki hayvon.
schmarotzerisch *Adj.* tekinxo'rlarcha, zararkunandalarcha.
Schmarre *f; -; -n;* chandiq, yamoq.
Schmatz *m; -es; -e;* und *Schmätze;* cho'pillatib o'pish.
schmatzen *vt.* 1. chapillatmoq; **beim Essen ~** ovqatni chapillatib yemoq. 2. cho'pillatib o'pmoq.
schmauchen *vt.* (miriqib) chekmoq, buruqsitmoq.
Schmaus *m; -es; -schmäuse;* ziyofat, bazm; **einen ~ geben** ziyofat bermoq.
schmausen *vt.* (ziyofatda) mehmon bo'lmoq, to'yib yemoq.
schmecken *vi.* 1. ta'mi, mazasi bo'lmoq, mazasini bermoq; **der Tee schmeckt nach Zitrone** choydan limonning mazasi kelyapti. 2. mazali bo'lmoq, mazasi yoqmoq; **Lassen Sie es sich ~!** yeb ko'ring! *vt.* 1. sezmoq, his qilmoq. 2. tatib ko'rmoq.
Schmeichelei *f; -; -en;* xushomadlik, tilyog'lamalik.
schmeichelhaft *Adj.* maqtovli, manzur bo'ladigan.
schmeicheln *vi.* 1. xushomad qilmoq, xushomadgo'ylik qilib maqtamoq, tilyog'lamalik qilmoq. 2. yoqmoq, manzur bo'lmoq.
Schmeichelwort *n; -es; -e;* und *-wörter;* tilyog'lama so'z (gap), xushomadli so'z(lar).
Schmeichler *m; -s; -;* xushomadgo'y, tilyog'lamachi.
schmeichlerisch *Adj.* xushomadgo'ylarcha, tilyog'lamalarcha.
schmeißen *vt.* 1. otib yubormoq, irg'itmoq, tashlamoq. 2. uddalamoq.
Schmelz *m; -es; -e;* 1. sir, emal. 2. mayin ovoz, nozik nigoh.
schmelzbar *Adj.* eruvchan.
Schmelzbarkeit *f; -; -en;* eruvchanlik.
Schmelzbutter *f; -; -;* eritilgan yog', (moy).
Schmelze *f; -; -n;* 1. erish; **~des Schnees** qorning erishi. 2. eritma.
schmelzen 1. *vt.* eritmoq; **Metall ~** metalni eritmoq. 2. *vi.* erimoq.
Schmelzer *m; -s; -;* metall erituvchi (mutaxassis).
Schmelzhütte *f; -; -n;* cho'yan zavodi, cho'yan erituvchi korxona.
Schmerbauch *m; -(e)s; -bäuche;* 1. (semiz) qorin. 2. qorni semiz odam.
schmerbäuchig *Adj.* semiz qorinli.
Schmerz *m; -es; -en;* og'riq; azob, ziqirash; **Wo haben Sie ~en?** Qayeringiz og'riyapti?
schmerzen *vt, vi.* 1. og'rimoq, kasal bo'lmoq. 2. xafa qilmoq, ranjitmoq.
schmerzfrei *Adj.* og'riqsiz, og'ritmaydigan.
schmerzhaft *Adj.* kasalmand, dardchil, qayg'uli, achinarli.
schmerzlich *Adj.* qiynaydigan, og'ir.
schmerzlos *Adj.* og'riqsiz, beog'riq.
Schmerzmittel *n; -s;* og'riqni qoldiradigan vosita.
Schmerztablette *f; -; -n;* og'riqqa qarshi tabletka (dori).
Schmetterling *m; -s; -e;* 1. *Zool.* kapalak. 2. *Sport.* batterflay *(suzish usuli).*
schmettern 1. irg'itib yubormoq. 2. jaranglatmoq. 3. jaranglamoq.
Schmied *m; -es; -e;* temirchi; **jeder ist seines Glückes ~** har kimning o'z taqdiri o'z qo'lida.
Schmiede *f; -; -n;* temirchilik ustaxonasi.

Schmiedeeisen *n; -s; -;* cho'ziluvchan temir.

schmiedeeisern *Adj.* bolg'alab yasalgan temirdan.

Schmiedhammer *m; -s; -hämmer* temirchi bolg'asi.

schmieden *vt.* bolg'alamoq, bolg'alab yasamoq, toblamoq, taqalamoq, taqa qoqmoq.

schmiegen sich suyanmoq, yopishmoq, bukilib olmoq.

schmiegsam *Adj.* 1. egiluvchan, bukiluvchan elastik. 2. yumshoq. 3. moslanuvchan.

Schmiegsamkeit *f; -; -;* egiluvchanlik, elastiklik, yumshoqlik.

Schmiere *f;* 1. moylash. 2. etik moyi. 3. (yopishgan) axlat. 4. *Theat.* yomon teatr, sayyoh guruh; **in der ~ sitzen** yomon ahvolga tushmoq.

schmieren *vt, vi.* 1. (yog') surmoq. 2. moylamoq, moy surtmoq; **die Stiefel ~** etikni moylamoq. 3. (toza) ish qilmaslik. 4. kir qilmoq, bo'yab ish qilmoq. 5. qo'l uchida ish qilmoq. 6. shapaloq urmoq. 7. pora bermoq.

Schmiergeld *n; -(e)s; -er;* pora; **~ geben** pora bermoq.

Schmierheft *n; -es; -e;* xomaki (ilk) yozuvlar daftari.

Schmierkäse *m; -s; -;* (nonga) surib yeyiladigan pishloq (sir).

Schmierpapier *n; -(e)s; -;* xomaki yozuvlar qog'ozi.

Schmierstoff *m; -es; -e;* moylash vositasi.

Schmierung *f; -; -en;* moylash, moy surish.

Schmierzettel *m; -s; -;* xomaki yozuv qog'ozi.

Schminke *f; -; -n;* 1. pardoz, kosmetika. 2. *Theat.* grim, yuzni bo'yash.

schminken *vt.* bo'yamoq, bo'yab pardoz bermoq, grim qilmoq.

Schminktopf *m; -(e)s; -e;* pardoz-andoz qutichasi.

Schmirgel *m; -s; -;* qumqayroq, qumqog'oz, jilvir, qayroq.

schmirgeln *vt.* tozalamoq, qum qog'oz bilan ishlov bermoq.

Schmirgelpapier *n; -s; -;* qum qog'oz.

Schmiß *m; -sses; -sse;* 1. chok. 2. tirtiq, bitgan yara o'rni, chandiq.

schmissig *Adj.* sho'x, jonli, o'ynoqi; **~s Lied** sho'x qo'shiq.

schmollen *vi.* arazlamoq, qovog'ini solmoq.

Schmollmund *m; -(e)s; -münder;* (norozilikdan) aftini burishtirish; **einen ~ machen** aftini burishtirmoq.

Schmorbraten *m; -s; -; Kulin.* dimlab pishirilgan go'sht

Schmoren 1. *vt.* dimlab pishirmoq. 2. *vi.* dimlanib pishmoq, issiqdan dimib ketmoq.

Schmorenlassen (birovni) o'z holiga tashlab qo'ymoq, o'z yog'iga o'zi qovurilmoq.

Schmorfleisch *n; -es;* dimlab pishiril(adi)gan go'sht.

Schmorkohl *m; -(e)s; -;* dimlab pishiriladigan karam.

schmuck *Adj.* yasangan, chiroyli, ko'rkam, toza.

Schmuck *m; -(e)s;* bezak, ziynat, dekoratsiya.

Schmuckartikel *m; -s; -;* zargarlik mollari.

schmücken *vt.* bezamoq; **die Wohnung ~** xonani bezamoq; **sich ~** yasanmoq, o'ziga oro bermoq. *m; -s; käsien* zeb-ziynat qutichasi.

schmucklos *Adj.* bezaksiz, oddiy.

Schmucksachen *Pl.* zeb-ziynat, qimmatbaho buyumlar.

Schmuckwarengeschäft *n; -es; -e;* zargarlik mollari do'koni.

schmuddelig *Adj.* iflos, nopok, isqirt, irkit, chirkin.

Schmuggel *m; -s; -;* noqonuniy mol olib kirish (olib chiqish), kontrabanda.

schmuggeln *vt.* kontrabanda bilan shug'ullanmoq.
Schmuggelware *f; -; -n;* kontrabanda yo'li bilan keltirilgan mol.
schmunzeln *vi.* miyig'ida kulmoq.
Schmus *m; -es; -;* 1. xushomad. 2. safsata, quruq gap.
schmusen 1. (bir-biriga) xushomadgo'ylik qilmoq. 2. vaysamoq, gap sotmoq.
Schmuser *m; -s; -;* xushomadgo'y odam, laganbardor, tilyog'lamachi. 2. sergap odam, ezma, vaysaqi.
Schmutz *m; -es; -;* axlat, iflos (narsa), kir; ~ **machen** iflos qilmoq; ~ **und Schund** hamma yoq iflos.
Schmutzarbeit *f; -; -en;* iflos ish, nopok ish.
schmutzen *vt.* iflos qilmoq, ifloslamoq, kir qilmoq.
Schmutzfink *m; en*; und *-es; -en*; iflos odam, isqirt, irkit.
Schmutzfleck *m; -es; -en;* dog'; **voller ~en** hamma yeri dog'.
schmutzig iflos, kir, nopok; **sich ~ machen** (biron joyini) iflos qilmoq; ~ **werden** iflos bo'lmoq.
Schmutzigkeit *f; -; -en;* 1. ifloslik. 2. nopoklik.
Schmutzwäsche *f; -; -;* kir yoki foydalanib bo'lingan buyumlar.
schmutzwasser *n; -s; -;* ishlatilgan (iflos) suv.
Schnabel *m; -s; -schnäbel* 1. *Zool.* tumshuq. 2. og'iz; **den ~ halten** og'zini yummoq. 3. kema tumshug'i.
schnabelartig *Adj.* tumshuqsimon.
schnäbeln sich o'pishmoq, tumshuq urishtirmoq *(qushlarga oid).*
Schnabeltier *n; -s; -e; Zool.* o'rdakburun *(tuxumidan bola ochadigan sut emizuvchi hayvon).*
schnabelartig *Adj.* tumshuqsimon.
schnacken/schnackeln *vt.* (barmoq bilan) shaqillatmoq.
Schnake *f; -; -n; Zool.* uzunoyoqlar, ikki qanotli hasharot *(karam zararkunandasi).*
schnall qars; **~, und die Tür schloss sich** eshik qars etib yopildi.
Schnalle *f; -; -n;* taqa *(mayda teshik).*
schnallen *vt.* taqmoq; **den Gürtel (Riemen) ~** kamar taqmoq.
schnalzen *vt.* chapillatmoq, shaqillatmoq, qarsillatmoq.
Schnäppchen *n; -s; -;* (foydali, yaxshi) xarid.
schnappen I 1. (biron narsani) qo'lga olmoq, ushlamoq. 2. (it, mushuk) ushlab olib kelmoq. **II** *vi.* 1. tashlanmoq *(it, baliq).* 2. bo'g'ilmoq. 3. irrillamoq *(it).*
Schnaps *m; -es; -schnäpse*; shnaps (aroq), kuchli spirtli ichimlik.
Schnapsbruder *m; -s; -brüder;* aroqxo'r.
schnapsen/schnäpseln *vi.* shnaps (aroq) ichmoq.
schnarchen *vi.* xurrak otmoq, xirillamoq.
Schnarcher *m; -s; -;* xurrakchi, xurrak otuvchi.
Schnarherei *f; -en*; xurrak, xurrak otish.
schnarren *vt.* qarsillamoq, qursillamoq.
Schnatterente *f; -; -n;* 1. *Zool.* g'ag'iloq o'rdak. 2. *Zool.* kulrang o'rdak. 3. sergap ayol.
schnattern *vi.* 1. g'ag'illamoq. 2. vaysamoq.
schnatterhaft, schnatterig *Adj.* vaysaqi, shallaqi, tartarak, shaqildoq, bidillab gapiruvchi.
schnauben 1. *vi. (hayvonlarga oid)* pishqirmoq. 2. **sich die Nase ~** burnini qoqmoq.
schnaufen *vi.* 1. xo'rsinmoq, uf tortmoq. 2. (hayvon) pishqirmoq.
Schnaufer *m; -s; -;* uflab nafas olish, xo'rsinish, uf tortish.
Schnauzbart *m; -(e)s; -bärte*; 1. mo'ylov. 2. qo'pol, dag'al *(kishi).*
Schnauzbärtigkeit *f; -; -en;* qo'pollik, dag'allik.
Schnauze *f; -; -n;* 1. aft, angor, turq, bet, bashara; **in die ~ hauen** basharaga tushirmoq; **die ~ halten** jim bo'lmoq,

og'zini yummoq. 2. (hayvonlarga oid) tumshuq.

schnauzen *vi.* bo'kirmoq, qattiq baqirmoq, shang'illamoq.

Schnauzer *m; -s; -;* 1. *Zool.* serjun it, pincher. 2. mo'ylov.

Schnecke *f; -; -n;* 1. *Zool.* chig'anoq, shilliqqurt. 2. *Anat.* quloq ichining tovush qabul qiladigan qismi. 3. *Tech.* spiralsimon naycha. 4. sustkash, imirsilagan odam.

Schneckengang *m; -(e)s; gänge* 1. ilonizi yo'l, labirint. 2. sekin harakat, toshbaqa yurish; **mitder ~ post** favqulodda sekin toshbaqa yurish bilan.

Schnee *m; -s; -;* 1. qor. 2. tuxumning oqi; **~ von gestern sein** eski bo'lmoq, eskirmoq.

schneeballen *vi. (bir-biriga)* qor otmoq, qorbo'ron o'ynamoq.

schneebeladen *Adj.* qor bilan burkangan.

Schneefall *m; -(e)s; -fälle,* qor yog'ishi.

Schneeflocke *f; -; -n;* qor uchquni.

Schneegestöber *n; -s; -;* qor bo'roni.

Schneeglöckchen *n; -s; -; Bot.* boychechak.

shneelos *Adj.* qorsiz.

Schneemann *m; -(e)s; -männer;* qorbobo, qordan yasalgan odam figurasi.

Schneesturm *m; -(e)s; -stürme;* qor bo'roni.

Schneewasser *n; -s; -;* erigan qor suvi.

schneeweiß *Adj.* qordek oq (oppoq).

Schneewetter *n; -s; -;* qorli ob-havo.

schneidbar *Adj.* kesiladigan, kessa bo'ladigan.

Schneide *f; -; -n;* o'tkir qirra, tig' uchi.

Schneidemühle *f; -; -n;* taxta tiladigan zavod.

schneiden *vt.* 1. kesmoq, o'ymoq. 2. kesib tashlamoq, kesib olmoq. 3. (soch) olmoq. 4. o't o'rmoq. 5. jarrohlik qilmoq. **II ~ sich** 1. kesib yaralanmoq. 2. (yo'llari) kesishmoq, bir biriga duch kelmoq. 3. (bir-birini) mensimaslik, atayin sezmaslik.

schneidend *Adj.* achchiq (sovuq), o't-kir (ovoz), qattiq.

Schneider *m; -s; -;* (kiyim) tikuvchi; **frieren wie ein ~** sovuqda qotmoq (muzlamoq).

Schneideratelier *n; -s; -s;* tikuvchilik atelyesi.

Schneidergeselle *m; -n; -n;* tikuvchi shogirdi.

Schneidermeister *m; -s; -;* (shogird tayyorlash huquqiga ega) tikuvchi usta.

schneidern *vt.* tikuvchilik qilmoq, tikmoq.

Schneiderzahn *m; -(e)s; -zähne;* kurak tish, oldingi tish.

schneidig *Adj.* 1. azamat, jasur. 2. kelishgan, chiroyli.

schneien *vi.* qor yog'moq; **es ~** qor yog'yapti.

schnell *Adj.* 1. tez; tezkor. 2. chaqqon, ildam, epchil. 3. hoziroq, tez; **~e Hilfe** tez yordam.

schnelläufig *Adj.* tez yuradigan, chopqir.

schnellen *vt.* 1. tezlik bilan qo'l urmoq. 2. tezlik bilan otib yubormoq; **einen Stein ~** tosh otmoq. 3. *vi.* sakramoq; **in die Höhe ~** balandga sakramoq.

Schnellbahn *f; -; -en;* 1. (yaqin atrofda harakatlanuvchi) tezyurar qatnov. 2. (juda) tez yuradigan poyezd.

Schnellbau *m; -s;* jadal qurilish, tezkorlik usuli bilan qurish.

schnellebig *Adj.* 1. qisqa muddatli. 2. umri qisqa.

Schnelligkeit *f; -; -en;* tezlik, tezkorlik.

Schnellkurs *m; -es; -e;* qisqa muddatli o'quv tadbiri, kursi.

schnellstens *Adv.* o'ta tez, iloji boricha tez.

schnellwüchsig *Adj.* tez o'sadigan.

Schnellzug *m; -es; -züge;* tez yurar poyezd.

schneuzen sich burun qoqmoq.

Schnickschnack *m; -(e); -;* 1. bema'ni (behuda) gap, safsata. 2. keraksiz narsa.

schniegeln *vt.* yasatmoq; ~ **sich** yasanmoq, o'ziga oro bermoq.

Schnipp: sharaq; ~, **schnapp** sharaq-shuruq.

Schnippel *m*; und *n; -s; -;* bo'lak, qism.

schnippen *vt.* 1. sharaqlatmoq. 2. qoqmoq, silkib tashlamoq.

schnippeln *vt.* bo'lmoq, qirqmoq, bo'laklarga ajratmoq.

schnipseln *vt.* maydalamoq, bo'lmoq.

Schnitt *m; -(e)s; -e;* 1. kesim, qirqim. 2. chekka. 3. burda, parcha.

Schnittbrot *n; -es; -e;* bo'lingan, kesilgan non.

Schnitte *f; -; -n;* (bir) burda, (bir) tilim, (bir) parcha.

Schnitter *m; -s; -;* o'roqchi, o'roq bilan o'ruvchi.

schnittfest *Adj.* mustahkam, qattiq.

schnittig *Adj.* 1. o'rishga yaroqli, (o'rishga) yetilgan. 2. chiroyli, ko'rkam.

Schnittigkeit *f; -; -;* 1. pishganlik, yetishganlik. 2. ko'rkamlik.

Schnittmuster *n; -s; -;* (bichish uchun) andaza.

Schnittpunkt *m; -es; -e;* kesishgan joy, chorraha.

schnittreif pishgan, yetishgan; **die Getreide ist** ~ bug'doy o'rishga yetishgan.

Schnitzarbeit *f; -; -en;* o'ymakorlik (ishi) san'ati.

Schnitzel *n; -s; -;* 1. *Kulin.* shnitsel; **Wiener** ~ venacha (pishirilgan) shnitsel. 2. qirqim, bo'lak.

schnitzeln *vt.* kesmoq, qirqmoq, kesib olmoq.

schnitzen *vt.* o'ymakorlik qilmoq, o'ymoq.

Schnitzer *m; -s; -;* 1. o'ymakor. 2. xato, noo'rin gap.

Schnitzerei *f; -; -en;* 1. o'ymakorlik, naqsh solish. 2. o'ymakorlik ustaxonasi.

Schnitzkunst *f; -; -künste;* o'ymakorlik san'ati.

Schnitzwerk *n; -es; -e;* o'yma naqsh mahsuloti.

schnobern *vi.* hidlab ko'rmoq, iskab ko'rmoq, iskamoq.

schnodderig *Adj.* surbet, shartaki, adabsiz.

Schnodderigkeit *f; -; -;* surbetlik, shartakilik.

Schnöde *Adj.* noshukr, ayanchli, nochor, achinarli, nopok; ~r **Gewinn** nopok foyda.

schnorren *vt.* tilanmoq, yalinmoq, yolvormoq.

Schnorrer *m; -s; -;* tilanchi, gadoy.

Schnorrerei *f; -; -en;* tilanchilik, gadoylik.

Schnösel *m; -s; -;* bezbet, surbet, beor odam.

schnöselig *Adj.* bezbet, surbet, beor.

Schnuck/Schnuckelchen/Schnucki: *Kosename* **Mein** ~**!** Asalim! Shirinim!

schnüffeln *vt.* 1. hidlab ko'rmoq. 2. (narkotik moddani) burunga tortmoq. 3. josuslik qilmoq.

Schnüffelstoff *m; -es; -e;* burunaki (narkotik) modda.

Schnüffler *m; -s; -;* 1. josus. 2. bangi, giyovand, og'ufurush.

Schnupfen *m; -s; -;* tumov; **sich einen** ~ **holen** tumov ortirmoq, bo'lmoq.

Schnupfenfieber *n; -s; -;* shamollash (tumov) harorati.

Schnupftabak *m; -s; -;* burunaki (burunga tortadigan) tamaki.

Schnupftuch *n; -es; -tücher;* dastro'mol, ro'molcha.

Schnuppe: das ist mir ~**!** (bu) menga baribir, farqi yo'q.

Schnur *f; -; schnüre;* 1. arqon, arg'amchi, chilvir, shnur. 2. elektr shnuri.

schnüren *vt.* 1. shnurni o'tkazmoq, bog'lamoq, tortmoq; **sich** ~ shnur bilan bog'lab qo'ymoq. 2. tizmoq, shoda qilmoq.

schnurgerade *Adj.* tamoman to'g'ri, to'ppa-to'g'ri.

Schnurrbart *m; -(e)s; -bärte* mo'ylov.
schnurrbärtig *Adj.* mo'ylovli.
Schnürriemen *m; -s; -;* shnur, kamar, tasmacha.
schnurrig *Adj.* g'alati, qiziq, ajoyib.
Schober *m; -s; -;* g'aram, to'p, uyum.
schobern *vt.* g'aramlamoq, to'plamoq, uymoq.
Schock *n; -(e)s; -e; Hist.* dona, nafar; **ein** ~ 12 dona, nafar.
Schock *m; -(e)s; -e;* und *-s; Med.* shok, kuchli hayajon holati, esankirash.
schocken *vt.* 1. *Med.* shokka tushirmoq. 2. esankiratmoq.
schockieren *vt.* ajablantirmoq, hayron qoldirmoq.
Schofel *-s; -;* 1. razil, pastkash. 2. xasis, qizg'anchiq. 3. yag'iri chiqqan, eski.
Schöffe *m; -n; -n;* xalq maslahatchisi (sudda).
Schokolade *f; -; -n;* shokolad; **aus** ~ shokoladli.
Schokoladeneis *n; -es; -;* shokoladli muzqaymoq.
schokoladenfarbig *Adj.* shokolad-rang(li).
Schokoladentafel *f; -; -n;* taxtacha shokolad.
Schokoladentorte *f; -; -n;* shokoladli tort.
Scholle *f;* 1. guvala, kesak, yer bo'lagi; **heimatliche** ~ jonajon o'lka, zamin. 2. *Zool.* dumaloqsimon dengiz balig'i, kombala. 3. katta muz parchasi.
schon *Adv.* 1. allaqachon, endi. 2. albatta. 3. hatto, ...ning o'ziyoq.
schön *Adj.* 1. chiroyli, go'zal. 2. yaxshi, ajoyib; **~e Literatur** badiiy adabiyot. 3. chin dildan, samimiy; **~en Dank!** Chin dildan minnatdormon! **Danke ~!** Katta rahmat! 4. ko'p, mo'l; **~e Ernte** Hosilingiz mo'l bo'lsin! Xirmonga baraka!
Schonarbeit *f; -; -en;* yengil ish.
Schonbezug *m; -(e)s; -bezüge* g'ilof, jild.
Schöne *f; -; -n;* go'zal ayol, suluv, sohibjamol ayol.
schonen *vt.* ayamoq, avaylamoq, rahm qilmoq; ~ **sich** o'zini asramoq (ayamoq).
schönen *vt.* yarqiratmoq, yorqin bo'yoq bermoq.
schönfärben *vt.* bo'yab ko'rsatmoq.
schöngeistig estetik; **~e Literatur** badiiy adabiyot.
Schonkost *f; -; -;* (yengil hazmli) parhez.
Schonkostgericht *n;* parhez taom.
Schönheit *f; -; -en;* go'zallik, chiroylilik.
Schönheitskönigin *f; -; -nen;* go'zallik malikasi.
Schönheitswettbewerb *m; -(e)s; -e;* go'zallik musobaqasi.
schönmachen *vt.* bezamoq; **das Zimmer** ~ uyni bezamoq.
schönreden *vi.* 1. bo'yab-chatib gapirmoq. 2. tilyog'lamalik qilmoq.
Schönrederei *f; -; -en;* 1. boyab gapirish. 2. tilyog'lamalik.
schönrednerisch *Adj.* tilyog'lamalarcha.
schönschreiben *vt.* husnixat bilan yozmoq.
Schönschrift *f; -; -en;* 1. husnixat. 2. kalligrafiya.
schönsten *Adv.* eng yaxshi; **~ danken** chin qalbdan minnatdor bo'lmoq.
schöntun *vt.* yoqadigan, manzur gapni aytmoq.
Schöntuer *m; -s; -;* laganbardor, xushomadgo'y.
Schonung *f; -; -en;* 1. rahm, shafqat, g'amxo'rlik; **um ~ bitten** rahm-shafqat so'ramoq. 2. yosh daraxt.
Schönung *f; -; -en;* ko'rkamlash, go'zallashtirish.
schonungslos *Adj.* rahm-shafqatsiz, ayovsiz.
Schonungslosigkeit *f; -; -en;* rahmsizlik, shafqatsizlik, ayovsizlik.
schonungsbedürftig *Adj.* rahm-shafqatga muhtoj.

schonungsvoll *Adj.* g'amxo'r, ehtiyotkor.
Schonzeit *f; -; -en;* 1. taqiqlangan ov mavsumi. 2. rahm-shafqat.
Schopf *m; -(e)s; Schöpfe* 1. hurpaygan qalin soch. 2. g'aram, uyum.
Schöpfeimer *m; -s; -;* quduq chelagi.
schöpfen *vt* 1. botirib olmoq; to'ldirib olmoq; **Wasser** ~ suvga botirib olmoq. 2. nafas olmoq; **frische Luft** ~ toza havodan nafas olmoq. 3. yaratmoq, barpo etmoq, bunyod etmoq.
Schöpfer *m;* 1. ijodkor, bunyodkor. 2. *Rel.* yaratgan, xudo, tangri.
schöpferisch *Adj.* ijodkorona, ijodiy; **~e Arbeit** ijodiy mehnat.
Schöpferkraft *f; -; -kräfte;* ijodiy kuch, ilhom.
Schöpfkelle *f; -; -n;* cho'mich.
Schöpfung *f; -; -en;* 1. yaratish, barpo etish. 2. ijod maxsuli. 3. *Rel.* dunyo; **die ganze** ~ butun dunyo.
Schoppen *m; -s; -;* 1. krujka, suyuqlik idishi. 2. *Hist.* (yarim litrga teng) o'lchov birligi.
schoppenweise *Adv.* (idishga) quyib; ~ **verkaufen** quyib sotmoq.
Schornstein *m; -(e)s; -e;* mo'ri; **die ~e rauchen (wieder)** ishlar joyiga tushmoq.
Schornsteinfeger *m; -s; -;* mo'ri tozalovchi.
Schoß *m; -es; -schöße* 1. tizza, tirsak. 2. ona qorni. 3. *Bot.* nihol, kurtak.
schossen *vi.* kurtak otmoq.
Schoßhund *m; -es; -e;* uy kuchugi.
Schoßling *m; -s; -e;* 1. nihol. 2. erka bola, erkatoy.
Schote *f;* 1. hazil, quvnoq voqea. 2. *Bot.* po'choq, qo'zoq.
schräg *Adj.* 1. qiyshiq, egri. 2. g'ilay; **ein ~er Blick** sovuq qarash.
Schräge *f; -; -n;* qiyshiqlik, qiyalik, nishablik.
schrägen *vt.* qiyshaytirmoq.
Schrägheit *f; -; -en;* qiyalik, nishablik.
Schrägschrift *f; -; -en;* 1. qiyshiq yozuv. 2. kursiv yozuv (shrift).
schrägüber *Adv.* qiyasiga, qiyasida, qiyalab.
Schramme *f; -; -n;* tirnalgan joy, tirnoq iz.
schrammen *vt.* tirnamoq, timdalamoq.
Schrank *m; -es; -schränke;* shkaf, javon; **Er ist ein richtiger** ~ u haqiqiy pahlavon.
Schrankbett *n; -es; -en;* yig'ma (qurilma) krovat.
Schranke *f; -; -n;* to'siq, yo'l to'sig'i, shlagbaum.
schrankenlos 1. to'siqsiz. 2. cheksiz, chegarasiz, bepoyon.
Schrankenlosigkeit *f; -; -;* cheksizlik, bepoyonlik.
Schrankwand *f; -; -wände;* stenka, (devorga qurilgan) shkafli mebel.
Schraube *f; -; -n; Tech.* vint, bolt.
schrauben *vt.* buramoq, burab mustahkamlamoq.
Schraubenmutter *f; -; -mütter;* gayka.
Schraubenschlüssel *m; -s; -;* bolt (gayka) kaliti.
Schraubenzieher *m;* otveyortka, burab chiqaruvchi uskuna.
Schraubglas *n; -es; -gläser;* (burab bekiladigan) shisha banka.
Schrebergarten *m; -s; -gärten;* kichik bog', bog'cha.
Schreck *m; -(e)s; -en;* qo'rqinch, dahshat, vahima; **einen ~ bekommen** qo'rqmoq, vahimaga tushmoq.
schrecken 1. *vt.* qo'rqitmoq, cho'chitmoq. 2. **sich** ~ qo'rqmoq, cho'chimoq.
Schrecken *n; -s; -;* qo'rquv, dahshat; **in ~ halten** qo'rquvga solmoq.
schreckensbleich *Adj.* dahshatdan rangi oqargan.
Schreckensnachricht *f; -; -en;* qo'rqinchli xabar, shumxabar.
schreckhaft *Adj.* 1. qo'rqoq, qo'rqa-pisa. 2. qo'rqinchli.
schrecklich *Adj.* qo'rqinchli, dahshatli.
Schrei *m; -(e)s; -e;* qichqiriq, hayqiriq.

Schreibblock *m; -(e)s; -s;* und *-blöcke* bloknot.
Schreiben *n; -s; -;* xat, maktub, noma.
schreiben *vt.* yozmoq; **ein Wort groß** ~ so'zni bosh harf bilan yozmoq; **sich mit jemandem** ~ xat yozishmoq.
Schreiber *m; -s; -;* 1. muallif, yozuvchi. 2. yozuv asbobi.
Schreiberei *f; -; -en;* yozuv-chizuv, yozuv ishlari.
Schreibfehler *m; -s; -;* imlo xato.
Schreibheft *n; -es; -e;* yozuv daftari.
Schreibmaschine *f; -; -n;* yozuv mashinkasi.
Schreibpapier *n; -(e)s; -;* yozuv qog'ozi.
Schreibtisch *m; -es; -e;* yozuv stoli.
schreien *vi.* qichqirmoq, baqirmoq, dodlamoq.
Schreien *n; -s; -;* qichqirish, baqirish.
Schreier *m; -s; -;* baqiroq, janjalkash kishi.
Schreihals *m; -es; -hälse;* chinqiroq, baqiroq kishi.
Schrein *m; -(e)s; -e;* sandiq, quti.
Schreiner *m; -s; -;* duradgor usta.
Schreinerei *f; -; -en;* 1. yog'och ustaxonasi. 2. duradgorlik.
schreiten *vi.* qadam tashlamoq, odimlamoq, siljimoq; **vorwärts** ~ oldinga siljimoq.
Schrift *f; -; -en;* I 1. yozuv; **lateinische** ~ lotin yozuvi. 2. husnixat. 3. ariza; ~ **eingeben** ariza bermoq. 3. asar. II *Polygr.* shriftning turi.
Schriftgut *n; -(e)s; -güter* yozma yodgorlik.
Schriftleiter *m; -s; -;* muharrir.
Schriftleitung *f; -; -en;* tahririyat.
schriftlich *Adj.* yozma; **~e Arbeit** yozma ish.
Schriftsprache *f; -; -n;* adabiy til.
Schriftsteller *m; -s; -;* yozuvchi.
Schrifttum *n; -s; -;* 1. yozuv. 2. yozma yodgorlik(lar).
Schriftzug *m; -(e)s; -züge;* dastxat, yozuv, xat, yozuv usuli.
schrill *Adj.* o'tkir, quloqni teshadigan, qattiq, kuchli.
schrillen *vi.* kuchli ovoz chiqarmoq.
Schrippe *f; -; -n; Kulin.* kulcha (non).
Schritt *m; -es; -e;* 1. qadam. 2. chora, tadbir; ~ **für** ~ qadamma-qadam.
Schrittmacher *m; -s; -;* 1. *Sport.* velopoygada yo'l boshlovchi. 2. yangilikka intiluvchan, novator.
schrittweise *Adv.* asta-sekin.
schroff *Adj.* 1. tik, tikka. 2. keskin, qat'iyan.
Schroffheit *f; -; -en;* tikkalik, qat'iylik.
schröpfen *vt.* 1. (ortiqcha shoxlarni) kesib tashlamoq. 2. *Med.* banka qo'ymoq.
Schrot *m; oder n; -(e)s; -e;* 1. sochma o'q. 2. yanchilgan bug'doy uni, jaydari bug'doy uni.
Schrotbrot *n; -es; -e;* jaydari bug'doy unidan yopilgan non.
schroten *vt. (dag'al tarzda)* maydalamoq.
Schrotmühle *f; -; -n;* maydalash mashinasi.
Schrott *m; -(e)s; -e;* temir-tersak, chiqindi, qora (eski) metall.
Schrotthandel *m; -s; -;* temir-tersak (chiqindi) savdosi.
schrottreif *Adj.* eskirgan, faqat eski metalga yaroqli.
schrottwert *Adj.* yaroqsiz, tashlab yuborsa bo'ladigan.
schrubben *vt.* 1. (cho'tka bilan) tozalamoq. 2. yo'nmoq, tekislamoq.
Schrubber *m; -s; -;* shvabra, polni artadigan cho'tka.
Schrulle *f; -; -n;* 1. g'aroyibot, antiqalik, g'alatilik. 2. antiqa xotin.
schrullig *Adj.* antiqa, g'alati.
Schrumpel *f; -; -n;* 1. ajin. 2. qari kampir.
schrumpelig *Adj.* ajinli, serajin, tirishgan.
schrumpfen 1. *vt.* peshonani burishtirmoq, tirishtirmoq. 2. *vi.* kirishmoq *(materialga oid),* qisqarmoq.
Schrumpfprozess *m; -sses* qisqartirish jarayoni, qisqarish, tugatilish.

Schrumpfung *f; -; -en;* 1. burishish, tirishish. 2. *Wirt.* qisqarish.

Schub *m; -(e)s; -schübe* 1. turtki, siljitish, zarba. 2. to'plam, uyum; ~ **auf** ~ to'p-to'p (bo'lib).

Schubbejack *m; -(e)s; -en; Pl. -s; -e; -en;* chuvrindi, yalangoyoq, juldurvoqi, qabih, yaramas, iflos, ablah, muttaham.

Schubkarre *f; -; -n;* zambilg'altak, g'altakarava.

Schublade *f; -; -n;* tortma, surilma quti.

Schubsack *m-(e)s; säcke;* cho'ntak, kissa.

schubsen *vt.* surmoq, surib qo'ymoq, itarmoq.

schubweise *Adv.* to'p-to'p, uyumlab.

schüchtern *Adj.* tortinchoq, uyatchan, xijolatomuz.

Schüchternheit *f; -; -;* tortinchoqlik, uyatchanlik.

Schuckelei *f; -; -en;* chayqalish, silkinish.

schuckeln 1. **sich** ~ chayqalmoq, silkinmoq. 2. *vt.* chayqatmoq, silkitmoq.

Schuft *m; -(e)s; -e;* ablah, razil, muttaham, qabih, yaramas kishi.

schuften *vi.* (tinmay) qattiq ishlamoq, ter to'kmoq; ~ **lassen** qattiq ishlatmoq, ezmoq.

Schufterei *f; -; -en;* 1. razillik, muttahamlik, qabihlik. 2. og'ir ish.

schuftig *Adj.* ablahlarcha, razillik bilan.

Schuh *m; -(e)s; -e;* poyabzal, tufli, kovush; **den** ~ **ausziehen** poyabzalni yechmoq.

Schuhabsatz *m; es; -absätze* poyabzal poshnasi.

Schuhfabrik *f; -; -en;* poyabzal fabrikasi.

Schuhgeschäft *n; -es; -e;* poyabzal do'koni.

Schuhmacher *m; -s; -;* etikdo'z.

Schumacherwerkstatt *f; -; -*stätte poyabzal ustaxonasi.

Schuhputzer *m; -s; -;* poyabzal tozalovchi.

Schuhwerk *n; -es; -;* poyabzal.

Schulabgänger *m; -s; -;* maktab bitiruvchisi.

Schulabschluß *m; -sses; -abschlüsse;* maktabni bitirish.

Schulamt *n; -es; -ämter* maktab ma'muriyati.

Schulatlas *m; -; und -es; -atlanten;* o'quv kartasi.

Schulbank *f; -; bänke* maktab partasi.

Schulbesuch *m; -es; -e;* maktabga borish (o'qish).

Schulbildung *f; -;* maktab ta'limi.

Schulbuch *n; -es; -bücher* maktab darsligi.

schuld: ~ **haben (sein)** aybdor bo'lmoq; **Du bist daran selbst** ~ o'zing aybdorsan.

Schuld *f; -; -en;* 1. ayb, aybdorlik, gunoh. 2. garz; **in den ~en geraten** qarzga botmoq; **eine schwebende** ~ uzilmagan qarz; **eine** ~ **abtragen (bezahlen)** qarzni uzmoq qarzni uzmoq. 3. burch, vazifa, majburiyat.

schuldbewußt *Adj.* aybini tan olgan, sezgan.

schulden *vt.* **(j-m)** 1. qarzdor bo'lmoq. 2. burchga ega bo'lmoq. 3. minnatdor bo'lmoq.

schuldenfrei *Adj.* qarzdan xolis, qarzsiz.

Schuldentilgung *f; -; -en;* qarzlarni uzish.

schuldfrei *Adj.* aybsiz, beayb.

Schuldgeständnis *n; -ses, -se;* aybni tan olish.

schuldhaft *Adj.* aybdor, aybli.

schuldig *Adj.* 1. aybdor; **sich** ~ **bekennen** o'z aybini bo'yniga olmoq. 2. qarzdor; ~ **sein** qarzdor bo'lmoq. 3. majbur. 4. zaruriy.

Schuldige *m; -n; -n;* aybdor shaxs.

Schuldigkeit *f; -; -en;* 1. qarz. 2. burch, majburiyat.

schuldlos *Adj.* beayb, aybsiz, begunoh.

Schuldlosigkeit *f; -; -en;* aybsizlik, gunchsizlik.

Schuldner *m; -s; -;* qarzdor, debitor.

Schuldspruch *m; -(e)s; -sprüche* aybdor hukmi, hukmnoma.

Schule *f; -; -n;* 1. maktab; **allgemeinbildende** ~ umumiy ta'lim maktabi; **zur** ~ **gehen** maktabga bormoq. 2. saboq, tajriba, maktab; **die bittere** ~ **des Lebens** hayotning achchiq sabog'i. 3. maktab, yo'nalish; **die** ~ **der Romantik** romantik yo'nalish.

schulen *vt.* 1. o'qitmoq; o'rgatmoq, tayyorlamoq; **sich** ~ o'qimoq, malaka oshirmoq. 2. mashq qildirmoq.

schulentwachsen *vi.* maktab yoshidan chiqmoq.

Schüler *m; -s; -;* 1. o'quvchi; **begabter** ~ qobiliyatli o'quvchi. 2. shogird.

Schüleraustausch *m; -(e)s; -;* o'quvchilar almashish; almash(in)uvi.

Schülertagebuch *n; -es; -bücher;* o'quvchi kundaligi.

Schülerzeitung *f; -; -en;* o'quvchilar gazetasi.

Schulerziehung *f; -; -;* maktab tarbiyasi.

Schulfach *n; -(e)s; -fächer* maktabda o'qitiladigan fan.

Schulferien *Pl.* maktab ta'tili.

schulfrei *Adj.* dars bo'lmaydigan, darsdan ozod.

Schulfreund *m; -es; -e;* maktabdosh.

Schulfunk *m; -e; -;* 1. o'quvchilar uchun radioeshittirish. 2. maktab radio uzeli.

Schulgarten *m; -s; -gärten;* maktab bog'i.

Schulgebäude *n; -s;* maktab binosi.

Schuldgeldfreiheit *f; -; -;* (maktabda) bepul o'qish, bepul maktab ta'limi.

Schuljahr *n; -es; -e;* 1. o'quv yili. 2. sinf; **im dritten** ~ uchinchi sinfda.

Schuljunge *m; -n; -n;* maktab o'quvchisi *(o'g'il bola).*

Schulkind *n; -es; -er;* maktab yoshidagi bola, o'quvchi.

Schulkleidung *f; -; -en;* maktab (kiyinish) formasi.

Schullehrer *m; -s; -;* maktab o'qituvchisi.

Schulleitung *f; -; -en;* maktab ma'muriyati, rahbariyati.

Schulpflicht *f; -; -;* ta'lim olishsh majburiyati.

Schulplan *m; -es; -pläne;* o'quv rejasi.

Schulranzen *m; -s; -;* maktab papkasi.

Schulrat *m; -(e)s; -räte* xalq ta'limi mudiri.

Schulsprecher *m; -s; -;* maktabning (jamiyat bilan aloqa) sardori.

Schulschwänzer *m; -s; -;* (muntazam) sababsiz kelmaydigan, davomati yomon o'quvchi, osma sumka.

Schultag *m; -es; -e;* o'qish (dars) bo'ladigan kun.

Schulter *f; -; -n;* yelka; **j-m auf die** ~ **klopfen** (birovning) yelkasiga qoqmoq; ~ **an** ~ yelkama yelka.

schultern *vt.* yelkasidan olmoq, quchmoq.

Schultertasche *f; -; -n;* yelka osha osadigan sumka.

Schulterwurf *m; -(e)s; -würfe Sport.* yelkadan oshirish.

Schulterzucken *n; -s; -;* yelka qisish.

Schultüte *f; -; -n;* (birinchi sinf o'quvchisi uchun) sovg'a solingan xaltacha.

Schulung *f; -; -en;* 1. ta'lim berish, tayyorlash. 2. mashq.

Schulungskurs *m; -es; -e;* malaka oshirish kursi.

Schulunterricht *m; -es; -;* 1. o'qitish jarayoni. 2. ma'ktab ta'limi.

Schulzeit *f; -; -en;* maktab davri.

Schulzeugnis *n; -ses; -se;* maktab (baholar) tabeli.

schummeln *vt.* hiyla ishlatmoq, aldamoq, aldamchilik qilmoq.

schummerig/schummrig *Adj.* g'irashira, nimqorong'i.

schummern *vi.* qorong'i tushmoq.

Schund *m; -(e)s; -;* lash-lush, keraksiz, arzimas narsa.

Schundbuch *n; -es; -bücher,* bema'ni, maza-matrasiz kitob.

Schunkellied *n; -es; -lieder;* (qo'l ushlashib, ohangga jo'r) ashula.

schunkeln *vi.* 1. ohangga moslashib chayqalmoq. 2. tebranmoq, chayqalmoq.

Schuppe *f; -; -n;* qazg'oq, bosh kepagi.
Schuppen *m; -s; -;* 1. saroy, (ochiq) omborxona. 2. eski va ko'rimsiz bino.
schuppen *vt.* **I** 1. (baliq tangasini) tozalamoq. **II** 1. **sich** ~ tanga bosmoq. 2. *(boshga oid)* kepaklanmoq, kepak bosmoq.
schuppig *Adj.* tangali, kepak bosgan.
schupsen *vt.* (birovni) turtmoq, turtib yubormoq.
Schur I *f; -; -en;* (junli hayvonga, o'simlikka oid) qirqish; **die ~ der Schafe** qo'ylarning junini qirqish.
Schur II *m; -;* **j-m einen ~ tun** yomonlik qilmoq, zarar ko'rsatmoq.
Schüreisen *n; -s; -;* otashkurak.
schüren *vt.* olovni kovlamoq, aralashtirmoq.
schürfen 1. *vt. Bergb.* qidiruv ishlarini olib bormoq. 2. **sich** ~ timatmoq. 3. (biron narsaga) chuqur kirishmoq.
Schürfer *m; -s; -;* qidiruvchi, izlovchi.
Schürfung *f; -; -en;* 1. qidiruv ishlari. 2. *Med.* shilingan, timdalangan joy.
schurigeln *vt.* timoq tagidan kir qidirmoq, birovga (ikir-chikir bilan) yopishmoq.
Schurke *m; -n; -n;* ablah, muttaham, firibgar, tovlamachi.
Schurkerei *f; -; -en;* muttahamlik, firibgarlik.
schurkisch *Adj.* ablahlarcha, muttahamlarcha.
Schürze *f; -; -n;* etak, peshband, fartuk; **eine ~ wegtun** etakni yechmoq.
schürzen *vt.* 1. bog'lamoq, tugmoq. 2. yig'ishtirmoq.
Schürzenjäger *m; -s; -;* xotinboz.
Schürzenkleid *n; -es; -er;* uy xalati.
Schuß *m; -sses; -sse;* 1. o'q otish, o'q uzish. 2. o'q; **einen ~ bekommen** o'q yemoq. 3. *Sport.* zarba. 4. qultum, ulush, yeyishli, bir kishiga mo'ljallangan me'yor, miqdor. 5. gumburlash, gumburlagan ovoz.
Schüssel *f; -; -n;* kosa; **tiefe ~** chuqur kosa.
schusseln 1. *vt.* qo'l uchida ishlamoq. 2. *vi.* jahl bilan bir joydan boshqa joyqa yurmoq.
schußlig *Adj.* hovliqma, shoshma-shoshar. 2. parishonxontir, asabiy; **~ werden** hovliqmoq.
Schußlichkeit *f; -; -;* 1. hovliqmalik, shoshma-shosharlik. 2. parishonxotirlik.
Schußverletzung *f; -; -en;* o'qdan yaralanish.
Schuster *m; -s; -;* 1. etikdo'z. 2. dangasa.
Schusterjunge *m; -n; -n;* etikdo'z shogirdi.
schustern *vi.* 1. etikdo'zlik qilmoq. 2. dangasalik qilmoq.
Schutt *m; -(e)s; -;* 1. axlat uyumi, xarobazor. 2. mayda tosh; **in ~ und Asche legen** kulini ko'kka sovurmoq.
Schuttabladeplatz *m; -es; -plätze,* axlat to'kish joyi.
schütteln *vt.* 1. siltamoq, silkitmoq. 2. qoqmoq, chayqamoq.
schütten *vt.* 1. to'kmoq, to'kib tashlamoq. 2. (hosil) bermoq. 3. **es schüttet** yomg'ir quymoq.
schütter *Adj.* 1. kamyob, nodir. 2. nozik, bo'sh.
Schutz *m; -es; -schutze,* mudofaa, qo'riqlash, himoya qilish, saqlash; **in ~ nehmen** himoyaga olmoq.
Schütz *n; -es; -e;* 1. *Tech.* (ochib-yopuvchi) qurilma. 2. *El.* kontaktor.
Schutzanzug *m; -es; -anzüge;* himoya kostyumi.
schutzbedürftig *Adj.* himoyaga muhtoj.
Schutzbrille *f; -; -n;* himoya ko'zoynagi.
Schütze *m; -n; -n;* o'qchi, o'q otuvchi.
schützen *vt.* himoya qilmoq, saqlamoq; **sich ~** o'zini biron narsadan saqlamoq.
Schutzherr *m; -en; -en;* rahnamo, homiy.
Schützling *m; -s; -e;* vasiylikka olingan shaxs.
schutzlos *Adj.* himoyasiz, ojiz, bechora.
Schutzlosigkeit *f; -; -;* ojizlik, chorasizlik, himoyasizlik.

schwabbelig *Adj.* 1. xomsemiz. 2. ilviragan.

schwabbeln *vi.* 1. qaltiramoq. 2. vaysamoq, valdiramoq.

schwäbeln *vi.* shwab shevasida gapirmoq.

schwach *Adj.* bo'sh, kuchsiz, bo'sh; **Mach mich nicht ~!** Jig'imga tegma! Jahlimni chiqarma!

schwachbevölkert *Adj.* aholisi siyrak.

Schwäche *f; -; -n;* kuchsizlik, ojizlik, bo'shlik.

schwächen *vt.* kuchsizlantirmoq, zaiflashtirmoq, bo'shashtirmoq, susaytirmoq.

Schwächung *f; -; -en;* 1. kuchsizlanish. 2. qadrsizlanish.

Schwaden *m; -s; -;* 1. (tutunga oid) parcha, pag'a. 2. dimiqtiradigan, nafasni qaytaradigan gaz. 3. g'aram.

schwadenweise *Adv.* 1. parchalab, pag'a-pag'a. 2. g'aramlab.

schwadronieren *vi.* valdiramoq, vaysamoq, maqtanmoq.

Schwafelei *f; -; -en;* safsata, bekorchi gap.

schwafeln *vi.* aljiramoq, vaysamoq, gap sotmoq.

Schwager *m; -s; -Schwäger;* 1. qaynog'a, qaynini, (qayni). 2. boja. 3. (singilning eri) kuyov.

Schwägerin *f; -; -nen;* 1. qaysingil. 2. (akaning xotini) yanga, kelinoyi. 3. (ukaning xotini) kelin.

Schwägerschaft *f; -; -en;* quda-andalik, quda tomondan qarindoshlik.

Schwalbe *f; -; -en;* 1. *Zool.* qaldirg'och. 2. *Sport.* (atayin) yiqilish; **eine ~ machen** (maydonda raqibni jazolash maqsadida ataylab) yiqilmoq.

schwalben *vi.* shapaloq tushirmoq.

Schwall *m; -es; -e;* oqim, shiddatli oqim.

Schwamm *m; -(e)s; -schwämme Zool.* 1. bulut *(suv hayvoni).* 2. zamburug'.

Schwammtuch *n; -es; -tücher* idish yuvadigan latta, qozonsochiq, dasmol.

Schwan *m; -(e)s; -schwäne Zool.* oqqush; **Mein lieber ~!** Ana xolos! Voy-bo'y!

Schwanengesang *m; -(e)s; -gesänge;* hayotdagi so'nggi asar (ish va h.k).

schwanger *Adj.* 1. homilador; **~ sein** homilador bo'lmoq. 2. (g'oyani ichida) rejalashtirib yurmoq.

Schwangere *f; -; -n;* homilador ayol.

Schwangerenberatung *f; -; -en;* homilador ayollar konsultasiyasi.

schwängern *vi.* 1. homilador qilmoq. 2. to'yintirmoq.

Schwangerschaft *f; -; -en;* homiladorlik.

Schwangerschaftsgeld *n; -es; -er;* homiladorlik nafaqasi.

Schwangerschaftsurlaub *m; -(e)s; -e;* homiladorlik ta'tili.

Schwank *m; -(e)s; -schwänke* 1. *Theat.* hazil-mutoyiba, sketch, estradada namoyish qilinadigan kichik kulguli pyesa. 2. g'aroyib voqea.

schwanken *vi.* 1. silkinmoq, chayqalmoq, tebranmoq. 2. gandiraklamoq, kalovlanmoq. 3. (goh tushib, goh ko'tarilib) o'zgarib turmoq.

Schwankung *f; -; -en;* 1. tebranish. 2. o'zgarish, o'zgarib turish.

Schwanz *m; -es; -schwänze* dum; **mit dem ~ wedeln** dumini likillatmoq; **kein ~** hech kim.

schwänzeln *vi.* 1. dumini silkitmoq. 2. noz-karashma qilmoq.

schwänzen *vt.* (dangasalikdan darsni, tadbirni) o'tkazib yubormoq, kelmay qolmoq.

Schwänzer *m; -s; -;* (maktabga muntazam) kech qoluvchi o'quvchi.

Schwapp cho'lp; **~ machen** cho'lp etmoq.

Schwappen *vi.* toshib ketmoq, toshib chiqmoq.

Schwarm *m; -(e)s; -schwärme* 1. (hayvonlar) gala, to'da. 2. (odamlar) to'p, to'da. 3. yaxshi ko'radigan narsa, jonu dil(i).

schwärmen 1. ~ **sich** (hayvonlar) bir uyaga yig'ilmoq, gala bo'lib uchmoq. 2. zavqlanmoq, xursand bo'lmoq.
Schwärmer *m; -s; -;* xayolparast, orzumand odam.
Schwärmerei *f; -; -en;* xayolparast; **sich der ~en hingeben** xayolparastlikka berilmoq.
Schwarte *f; -; -n;* 1. hayvon terisi. 2. eski(rgan) kitob.
schwartig *Adj.* dag'al terili, qalin terili.
schwarz *Adj.* qora; **~e Wolken** qora bulutlar.
Schwarzarbeit *f; -; -en;* ruxsatsiz ish.
schwarzarbeiten *vi.* beruxsat ishlamoq.
schwarzäugig *Adj.* qora ko'zli.
Schwarzbrot *n; -es; -;* qora non.
Schwärze *f; -; -;* 1. qoralik. 2. qorong'ilik, zulmat.
Schwarzerde *f; -; -n;* qora tuproq.
schwarzfahren *vi.* chiptasiz yurmoq, guvohnomasiz mashina haydamoq.
Schwarzfahrer *m;* 1. chiptasiz yo'lovchi. 2. guvohnomasiz haydovchi. 3. chetda (noqonuniy) pul ishlovchi haydovchi.
schwarzgekleidet *Adj.* qora (kiyimga) kiyingan.
schwärzlich *Adj.* qoramtir.
Schwarzmarkt *m; -(e)s; -märkte* chayqov bozori.
Schwarzmarktpreis *m; -es; -e;* chayqov bozori narxi.
schwarzsehen 1. faqat yomonlikni ko'rmoq. 2. (bepul) televizor ko'rmoq.
Schwarzseherei *f; -; -en;* tushkunlik holati, pessimizm.
Schwärzung *f; -; -en;* qoraytirish, qorayish.
Schwarz ~ weiß *Adj.* oq-qora.
Schwarzweißfernseher *m; -s; -;* oq-qora ko'rsatuvchi televizor.
schwarzweißmalen *vt.* (voqelikni) oq yoki qora (yaxshi yoki yomon) shaklda bayon qilmoq.
Schwarzwild *n; -(e)s; -; Zool.* to'ng'iz, yovvoyi cho'chqa.
Schwatz *m; -es; -e;* safsata, bekorchi gap.
schwatzen *vi.* valdiramoq, gap sotmoq.
Schwatzer *m; -s; -;* sergap odam, ezma, vaysaqi.
Schwatzerei *f; -; -en;* safsata, bekorchi gap.
schwatzhaft *Adj.* 1. sergap, ezma, vaysaqi. 2. og'zi bo'sh, sir saqlay olmaydigan odam.
Schwebe *f; -; -;* osig'lik holati; **sich in der ~ halten** havoda osig'lik qolmoq.
schweben *vi.* 1. (havoda) osilmoq. 2. (masala) hal bo'lmaslik.
Schwefel *m; -s; -; Chem.* oltingugurt, sulfat.
Schwefeläther *m; -s; -; Chem.* oltingugurt efiri.
schwefeln *vt.* oltingugurt bilan ishlov bermoq.
schweifen *vi.* kezmoq, tentiramoq, izg'imoq.
schweigen *vi.* jim turmoq, indamay turmoq, sukut saqlamoq; **Schweig (still)!** Jim bo'l!
Schweigen *n; -s; -;* 1. jim turish, sukut saqlash. 2. sukunat, jimjitlik.
Schweiger *m; -s; -;* kamgap odam.
schweigsam *Adj.* kamgap, indamas(dan).
Schwein *n; -es; -e;* 1. *Zool.* cho'chqa. 2. cho'chqa go'shti. 3. razil, yaramas odam; **Kein ~!** Hech kim!
Schweinefleisch *n; -es; -;* cho'chqa go'shti.
Schweinestall *m; -(e)s; -ställe;* cho'chqaxona.
Schweinezucht *f; -; -en;* cho'chqachilik.
Schweiß *m; -es; -;* 1. ter; **kalter ~** sovuq ter. 2. qon.
schweißen *vt.* payvandlamoq, payvandlab biriktirmoq.
Schweißer *m; -s; -;* payvandlovchi.
schweißig *Adj.* 1. terlagan. 2. qonli, qonagan.
Schwießhund *m; -es; -e;* izquvar it.
schwelen 1. *vi.* tutab yonmoq, buruqsimoq. 2. *vt.* gazini chiqarib yubormoq.

schwelgen *vi.* 1. dabdabali hayot kechirmoq. 2. huzurlanmoq.

Schwelger *m; -s; -;* 1. ishratparast, takasaltang odam, kayf-safoda yashaydigan odam. 2. mayxo'r, ichkilikboz.

schwelgerisch *Adj.* dabdabali, hashamatli, dang'illama.

Schwelle *f; -; -n;* ostona, bo'sag'a; **an der ~** bo'sag'asida (boshida).

schwellen I *vi.* 1. shishmoq. 2. to'lishmoq. 3. ko'paymoq, bo'rtmoq, bo'rtib chiqmoq. **II** *vt.* shishirmoq, dam urmoq.

Schwellung *f; -; -en;* 1. shish, g'urra. 2. *Med.* shish, o'sma.

Schwemme *f; -; -n;* 1. mo'llik, ko'plik, seroblik. 2. otlarni cho'miltiradigan joy.

schwemmen *vt.* 1. cho'miltirmoq, yuvmoq (*otlarni*). 2. oqizib ketmoq, yuvib ketmoq.

Schwenk *m; -(e)s; -s;* und *-e;* (tomonga) burilish, (qarab) aylanish.

schwenken 1. *vt.* qo'l silkitib chaqirmoq, ishora qilmoq; **im Wasser ~** suvda chayqamoq. 2. (raqsda yuqoriga) aylantirib otmoq. 2. *vi.* yo'l olmoq, aylanib ketmoq.

Schwenker *m; -s; -;* ryumka, kichik hajmli suyuqlik ichish idishi.

Schwenkung *f; -; -en;* burilish, muyulish; **eine ~ nach rechts** o'ngga burilish.

schwer *Adj.* 1. og'ir; **eine ~e Last** og'ir yuk. 2. kuchli, qudratli. 3. mashaqqatli.

Schwerathletik *f; -; -; Sport.* og'ir atletika.

schwerbeschädigt *Adj.* og'ir zararlangan, majruh; **~!** (ogohlantiruvchi e'lon) Diqqat! Nogironlar!

schweratmig *Adj.* nafas siqilish kasaliga chalingan.

schwerbeladen *Adj.* 1. og'ir yukli. 2. ezilgan, ruhi tushgan, ruhsiz, dilxasta.

schwerbewaffnet *Adj.* kuchli qurollangan.

Schwere *f; -; -;* og'irlik, mashaqqat, vaznlilik.

schwerelos *Adj.* 1. vaznsiz; **~er Zustand** vaznsizlik holati. 2. qiyinchiliksiz. 3. beg'am.

Schwerelosigkeit *f; -; -;* vaznsizlik.

schwererziehbar *Adj.* tarbiyasi og'ir.

schwerfallen *vi.* og'irlik qilmoq, qiyinlik qilmoq.

schwerfällig *Adj.* o'ng'aysiz, qo'pol, beo'xshov, kelishmagan.

Schwerfälligkeit *f; -; -;* 1. qo'pollik, o'ng'aysizlik. 2. (gapning) beo'xshovligi, g'alizlik.

schwerflüssig *Adj.* quyuq.

Schwergewicht *n; -es; -er; Sport.* og'ir vazn.

schwerhörig *Adj.* qulog'i og'ir, eshitishi zaif, kar, garang.

Schwerhörigkeit *f; -; -;* qulog'i og'irlik, karlik.

Schwerindustrie *f; -; -;* og'ir sanoat. 2. beg'amlik.

Schwerkraft *f; -; -kräfte; Phys.* tortilish kuchi, og'irlik kuchi.

Schwermut *f; -; -;* mayuslik, noxushlilik.

schwermütig *Adj.* mayus, noxush, g'amgin.

schwernehmen *vt.* biron narsani ko'ngliga qattiq (yaqin) olmoq.

Schwerpunkt *m; -es; -e;* 1. asosiy e'tibor. 2. ustuvor soha. 3. asosiy vazifa. 4. masalaning mohiyati.

Schwerstarbeit *f; -; -en;* o'ta og'ir ish.

Schwert *n; -es; -e;* 1. qilich, tig'. 2. *Sport.* shamshir; **ich bin das Schwert, ich bin die Flamme** *(H.Heine)* Men shamshirman, mendir alanga.

schwertartig *Adj.* qilichsimon, qilichga o'xshash.

schwertun sich qiynalmoq.

Schwerverbrecher *m; -s; -;* og'ir jinoyatchi.

schwerverletzt *Adj.* og'ir yaralangan.

schwerwiegend *Adj.* jiddiy, asosli, ishonchli.

Schwester *f; -; -n;* 1. opa, singil. 2. tibbiyot hamshirasi.

Schwesterbetrieb *m; -es; -e;* sho'ba korxona, filial.
schwesterlich *Adj.* opa-singillardek, opa-singillarcha.
Schwesternschule *f; -; -n;* hamshiralar maktabi.
Schwiegereltern *Pl.* qaynona va qaynota.
Schwiegermutter *f; -; -mütter;* qaynona.
Schwiegersohn *m; -es; -söhne;* kuyov *(qizining eri).*
Schwiegertochter *f; -; -töchter;* kelin *(o'g'lining xotini).*
Schwiegervater *m; -s; -väter;* qaynota.
Schwiele *f; -; -n;* qadoq, qavariq.
schwielig *Adj.* qadoqli, qadoq bosgan, qavargan.
schwierig *Adj.* qiyin, og'ir, murakkab; **eine ~e Aufgabe** og'ir ish, mushkul vazifa.
Schwierigkeit *f; -; -en;* qiyinchilik, qiyinlik, og'irlik, mushkullik.
Schwimmbad *n; -(e)s; -bäder* basseyn, hovuz.
Schwimmeister *m; -s; -;* 1. suzishni o'rgatuvchi shaxs. 2. besseyn kuzatuvchisi.
schwimmen *vi.* 1. suzmoq. 2. suzib yurmoq. 3. suvda tashimoq.
Schwimmen *n; -s; -;* suzish.
Schwimmer *m; -s; -;* 1. suzuvchi. 2. po'kak, qalqi.
Schwimmwettkampf *m;* suzish musobaqasi.
Schwindel *m; -s; -;* 1. aldamchilik, tovlamachilik, firibgarlik. 2. bosh aylanish. 3. lash-lush, uvada.
schwindelerregend *Adj.* boshni aylantiradigan, gangitadigan.
schwindeln *vt.* aldamoq, firibgarlik qilmoq; **~ sich** vaziyatdan chiqib ketmoq.
schwinden *vi.* 1. kamaymoq, pasaymoq. 2. o'tmoq *(vaqt).* 3. yo'qolmoq, g'oyib bo'lmoq.
Schwindler *m; -s; -;* yolg'onchi, tovlamachi, firibgar.
schwingen *vi.* 1. tebranmoq. 2. *Tech.* vibratsiyaga tushmoq. 3. eshitilmoq. *vt.* 1. silki(t)moq. 2. tebratmoq; **~ sich** sakrab chiqmoq.
Schwinkung *f; -; -en;* 1. tebranish. 2. qaltirash.
Schwips *m; -es; -e;* shirakayflik, sarmastlik.
Schwirl *m; -es; -e;* qora chigirtka.
schwirren *vi.* g'uvillab uchmoq, vizillamoq. 2. g'o'ng'illamoq, g'uvvilamoq.
schwitzen *vi.* 1. terlamoq, ter chiqarmoq. 2. namlanmoq, nam bosmoq. 3. (yengil) qovurib olmoq.
schwitzig *Adj.* terlagan, ter bosgan.
schwören *vt, vi.* 1. qasam ichmoq. 2. qasamyod qilmoq, ont ichmoq.
schwül *Adj.* dim *(havo).* 2. boshni aylantiradigan, his uyg'otadigan, qo'zg'aydigan. 4. og'ir, g'amgin.
Schwüle *f; -; -;* 1. dimlik, dim havo. 2. tushkunlik, mayuslik, dili xuftonlik.
Schwulst *m; -es; -schwülste* balandparvozlik, jimjimadorlik *(nutq).*
schwulst *Adj.* balandparvoz, jimjimador.
Schwund *m; -(e)s; -;* pasayish, kamayish. 2. yo'qotish.
Schwung *m; -es; -schwünge,* 1. qo'zg'alish, tebranish; **in ~ kommen** joyidan qo'zg'almoq. 2. keskin harakat. 3. yuksalish, o'sish.
schwunghaft *Adj.* avjiga chiqqan, qizg'in *(savdoga oid).*
schwunglos *Adj.* sust, lanj, shashti past.
schwungvoll *Adj.* 1. alangali, jo'shqin, otashin *(nutq).* 2. yoysimon. 2. ildam (qadam). 3. serg'ayrat. 4. keng, yirik.
schwupp *Adv.* bir pasda, bir lahzada.
Schwupps *m; -es; -schwüpse* zarba; **auf einen ~** bir zarba bilan.
Schwur *m; -(e)s; -Schwüre;* 1. qasamyod; **einen ~ abgeben** qasamyod qilmoq. 2. qasam, ont; **den ~ brechen** qasamni buzmoq.
Schwurfinger *m; -s; -;* o'rta barmoq.
Schwurhand *f; -; -hände;* o'ng qo'l.

Science-fiction; ~ Film *m; -es; -e;* ilmiy fantastik film.
Seal *m;* und *n; -s; -s;* 1. dengiz mushugi. 2. dengiz mushugi terisi.
sechs olti ~ **mal** ~ olti karra olti.
sechseinhalb olti yarim.
sechshundert *Num.* olti yuz.
Sechstel *n; -s; -;* oltidan biri.
Secondhandladen *m; -s; -läden* kiyilgan kiyimlar bilan savdo qiluvchi do'kon.
Sediment *n; -(e)s; -e; Geol.* cho'kindi, quyqa, quyqum.
See I *f; -; -Seen;* dengiz; **zur See** dengiz bo'ylab, dengizga.
See II *m; -s; -Seen;* ko'l; **am** ~ ko'l bo'yida.
Seefahrt *f; -; -en;* dengiz bo'ylab sayohat, dengiz safari.
Seefisch *m; -es; -e;* dengizda (sho'r suvda) yashaydigan baliq.
Seefracht *f; -; -en;* kema bilan jo'natiladigan yuk.
Seehund *m; -es; -e;* tyulen *(sut emizuvchi dengiz hayvoni).*
Seeklima *n; -s; -s;* und ~ **klimata** dengiz iqlimi.
seekrank *Adj.* dengiz kasali.
Seekrankheit *f; -; -en;* dengiz kasalligi.
Seele *f; -; -n;* 1. ko'ngil, qalb, yurak. 2. jon, nafar; **die Familie hat fünf ~n** oilada besh jon bor; **keine** ~ hech kim.
Seelenruhe *f; -; -;* xotirjamlik, ko'ngil xotirjamligi.
Seelenzustand *m; -(e)s; -zustände* ruhiy holat.
seelisch *Adj.* ruhiy, ma'naviy.
Seeluft *f; -; -;* dengiz havosi.
Seemacht *f; -; -mächte;* kuchli dengiz flotiga ega mamlakat, dengiz hukmroni.
Seemann *m; -es; -männer, -leute* dengizchi.
Seeweg *m; -es; -e;* dengiz yo'li, suv yo'li.
Segel *n; -s; -;* yelkan; **mit vollen ~n fahren** barcha yelkanlarni ochgan holda yurmoq.
Segelregatta *f; -; -regatten;* yelkanli kemalar sport musobaqasi.
segeln *vi.* 1. yelkanli kemada yurmoq, suzmoq. 2. yelkanni boshqarmoq.
Segeljacht *f; -; -en;* yelkanli yaxta *(kichik sport kemasi).*
Segelschiff *n; -es; -e;* yelkanli kema.
Segeltuch *n; -es; -tücher;* yelkan uchun (kanopdan to'qilgan) mato.
Segen *m; -s; -;* 1. *Rel.* duo, oq fotiha. 2. baxt, omad.
Segensformel *f; -; -n;* duo so'z(lar).
segensreich *Adj.* foydali, ezguli, baxtsaodatli.
segensvoll *Adj.* xudo yarlaqagan, duo ketgan, xizr nazari tushgan.
Seemöve *f; -; -n;* baliqchi qush, dengiz chaykasi, oq chorlog'i.
Segment *n; -es; -e;* 1. *Anat.* segment, bo'g'im. 2. *Geomet.* qism, bo'lak.
segnen *vi.* duo qilmoq, oq fotiha bermoq.
sehbehindert *Adj.* ko'rishi cheklangan, ko'rishi ojiz.
sehen *vi., vt.* 1. ko'rmoq. 2. qaramoq, tomosha qilmoq, nazar tashlamoq. 3. o'ylamoq, o'ylab ko'rmoq. 4. kutmoq; **Wir werden** ~ ko'ramiz.
sehenswert *Adj.* ko'rishga arziydigan.
sehenswürdig *Adj.* diqqatga sazovor.
Sehenswürdigkeit *f; -; -en;* diqqatga sazovor joy, qiziqarli joy.
Seher *m; -s; -;* bashorat qiluvchi, karomat qiluvchi, uzoq ko'ruvchi, bashoratchi, karomatchi.
seherisch *Adj.* 1. payg'ambarga oid. 2. bashoratli, dohiylarcha.
Sehne *f; -; -n; Anat.* pay, chandir. 2. (tarang tortilgan) kamon ipi. 3. *Geom.* xorda, egri chiziqning ikki nuqtasini tutashtiruvchi to'g'ri chiziq.
sehnen sich 1. sog'inmoq. 2. talpinmoq, intilmoq.
sehnig *Adj.* chandir, tirishqi.
Sehnsucht *f; -; -;* sog'inch, qo'msash, nastalgiya; ~ **haben nach D.** sig'inmoq.

sehnsüchtig *Adj.* astoydil, ehtiros bilan, jahd bilan, jo'shqin.
sehr *Adv.* juda; **~ gut** juda yaxshi; **Bitte ~!** Marhamat!
Sehschwäche *f; -; -;* ko'rishdagi zaiflik.
seicht *Adj.* 1. sayoz, chuqur emas. 2. yengil-yelpi, yuzaki, sayoz.
Seichtheit *f; -; -;* yuzakilik, sayozlik.
Seide *f; -; -n;* 1. ipak. 2. shoyi.
seiden *Adj.* shoyi; **ein ~er Stoff** shoyi mato.
Seidenbau *m; -s; -;* ipakchilik.
Seidenkleid *n; -es; -er;* shoyi ko'ylak.
Seidenspinner *m; -s; -; Zool.* ipak qurti.
seidig *Adj.* ipaksimon, ipakdek mayin.
Seife *f; -; -;* und *(Sorten) -n;* sovun.
seifen *vt.* sovunlamoq, sovunlab yuvmoq.
Seifenblase *f; -; -n;* sovun ko'pigi.
Seifennapf *m; -e(s); -näpfe* sovundon, sovun qutisi.
seifig *Adj.* sovunli; **~es Wasser** sovunli suv.
seihen *vt.* filtrdan o'tkazmoq, suzib olmoq.
Seihe *f; -; -n;* 1. suzgich. 2. filtrda qolgan qoldiq.
Seihtuch *n; -es; -tücher;* suzishda qo'llaniladigan mato.
Seil *n; -es; -e;* yug'on arqon, kanat; **auf dem ~ tanzen** olov bilan o'ynamoq.
Seilbahn *f; -; -en;* po'lat arqonli osma yo'l.
seilen *vt.* arqon bilan bog'lamoq.
Seiler *m; -s; -;* arqonchi, arqon ishlab chiqaruvchi.
seilspringen *vi.* arqonda sakramoq.
seiltanzen *vi.* arqonda raqsga tushmoq, dorbozlik qilmoq.
Seiltänzer *m; -s; -;* dorboz.
sein I *vi.* bo'lmoq, hozir bo'lmoq, mavjud (bor) bo'lmoq.
sein II *Pron. poss. m; (-e f; -n; seine Pl.)* uning.
Sein *n; -s; -;* borliq, mavjudot.
seinerseits *Adv.* o'z navbatida.
seinerzeit *Adv.* o'z davrida.
seit *Präp. (D):* **~ diesem Tage** bugundan boshlab; **~ damals** o'shandan beri.
Seite *f; -; -n;* 1. tomon; taraf. 2. yon, yonbosh. 3. bet, varaq; **(mit Rat und Tat) zur ~ stehen** yordam bermoq.
Seiten: auf ~ tomonida, tarafida.
Seitenfenster *n; -s; -;* yon deraza.
seitens *Präp. mit G.* tomonidan, tarafidan.
Seitensprung *m; -(e); -sprünge* (o'zga bilan) ishqiy sargushast.
Seitengasse *f; -; -n;* tor ko'cha, boshi berk (kichkina) ko'cha.
seither *Adv.* o'shandan beri.
Seitpferd *n; -es; -e; Sport.* eshak, gimnastika uskunasi.
Sekretär I *m; -s; -e;* 1. kotib. 2. tashkilot rahbari. 3. (Afrikada yashovchi) qush.
Sekretär II *m; -s; -e;* yozuv stoli.
Sekt *m; -(e)s; -e;* shampan vinosi.
Sekte *f; -; -n;* diniy guruh, sekta.
Sektion *f; -; -en;* 1. seksiya, bo'lim; sho'ba. 2. *Med.* seksiya, jasadni yorish.
Sektor *m; -s; -sek'toren* 1. soha, jabha. 2. hudud, sektor.
Sekundant *m; -en; -en;* 1. (duelda) tomonlar vakili. 2. *Sport.* bokschi yordamchisi.
sekundär *Adj.* ikkilamchi, ikkinchi darajali.
Sekunde *f; -; -n;* sekund, soniya.
Sekundenschnelle *f; -; -en;* **in ~** bir zumda, bir necha soniyada.
sekundieren *vi.* yordam bermoq, qo'llab-quvvatlamoq, sekundantlik qilmoq.
selber *Pron.* o'zi(m), shaxsan.
Selbermachen: etw. ist zum ~ o'zi bajarsa (qilsa) bo'ladigan.
selbst 1. *Pron.* o'zi(m), shaxsan; **von sich ~** o'z-o'zidan. 2. *Adv.* **~ er das nicht gewußt** hatto buni uning o'zi bilmagan.
Selbstachtung *f; -; -;* o'z qadriga yetish, o'zini hurmat qilish.
selbständi *Adj.* mustaqil; **~e Arbeit** mustaqil ish; **sich ~ machen** mustaqil bo'lmoq.

Selbständige *m; -n; -n;* 1. mustaqil tadbirkor. 2. erkin, mustaqil odam.
Selbständigkeit *f; -; -;* mustaqillik, tobe bo'lmaslik; **nationale** ~ milliy mustaqillik.
Selbstbedienung *f; -; -;* o'z-o'ziga xizmat qilish.
Selbstbestimmung *f; -; -;* o'z taqdirini o'zi belgilash.
Selbstbestimmungsrecht *n; -es;* o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi.
Selbstbetrug *m; -es;* o'z-o'zini aldash.
selbstbewußt *Adj.* o'ziga ishongan, qat'iytli.
Selbstbewußtsein *n; -s; -;* o'z-o'ziga ishonch.
Selbstentlader *n; -s; -;* ag'darma mashina, samosval.
Selbstkosten *Pl.* tannarx.
Selbstkostensenkung *f; -; -en;* tannarxini kamaytirish.
Selbstkritik *f; -; -en;* o'z-o'zini tanqid.
selbstlos *Adj.* beg'araz, xolis.
Selbstlosigkeit *f; -; -;* beg'arazlik, xolislik.
Selbstmord *m; -es; -e;* o'z-o'zini o'ldirish, o'z joniga qasd qilish.
selbstredend *Adj.* albatta, o'z-o'zidan ma'lumki (ravshanki).
Selbstunterricht *m; -es; -e;* o'zi o'qib bilim orttirish, mustaqil o'qish.
selbstverständlich *Adj.* o'z-o'zidan ravshan, tabiiy.
Selbstverwaltung *f; -; -en;* o'z-o'zini idora qilish, boshqarish.
Selbstziel *n; -es; -e;* birdan-bir maqsad.
selektieren (zotdor nav uchun) tanlamoq, tanlab olmoq, saralamoq.
Selektion *f; -; -en;* tanlab olish, saralash.
selektionieren saralamoq, tanlab olmoq.
selig 1. *(g'oyat)* baxtli, baxtiyor, shodxurram; ~ **sein** rohatlanmoq, huzur qilmoq. 2. marhum, rahmatli.
Seligkeit *f; -; -;* 1. baxt-saodat, baxtiyorlik, farog'at. 2. *Rel.* umrboqiy huzur-halovat.
selten *Adj.* kamdan-kam, ba'zan, nodir, kamyob; ~**es Metall** nodir metal.
Seltenheit *f; -; -en;* 1. kamlik, nodirlik. 2. kam uchraydigan hodisa.
seltsam *Adj.* ajib, ajoyib, alomat, g'ayrioddiy, g'alati.
Seltsamkeit *f; -; -en;* g'ayritabiatlilik, g'alatilik, ajoyiblik.
Sem *n; -s; -e; Ling.* sema, so'zning eng kichik ma'no bildiruvchi birligi.
Semantik *f; -; -; Ling.* semantika, ma'nolar haqidagi ta'limot.
semantisch *Adj.* semantik, ma'noga oid; ~**e Analyse** semantik tahlil.
Semem *n; -s; -e;* semema, sema orqali ifodalanadigan til birligi.
Semester *n; -s; -;* semester, yarim yillik *(o'qish davri)*.
Semesterferien *Pl.* semestr ta'tili.
Semikolon *n; -s; -s; Ling.* nuqtali vergul.
Seminar *n; -s; -e;* 1. ilmiy anjuman. 2. ma'ruzaning amaliy mashg'uloti.
Seminarleiter *m; -s; -;* seminar rahbari, seminar olib boruvchi.
Semiotik *f; -; -; Philos. Ling.* belgilar haqidagi fan.
Semmel *f; -; -n;* kulcha, kulcha non; **geröstete** ~ suxari, quritilgan non.
Semmelmehl *n; -s; -;* suxari, quritilgan non.
Senat *m; -(e)s; -e;* 1. senat *(ba'zi mamlakatlarda qonun chiqaruvchi oliy palata)*. 2. davlat kengashi. 3. sud kollegiyasi.
Senator *m; -s; -Senatoren;* senat a'zosi, senator.
Senatspräsident *m; -en; -en;* senat raisi.
Sendbote *m; -n; -n;* chopar, vakil.
Sendeanlage *f; -; -n;* efirga uzatish uskunasi.
Sendefolge *f; -; -n;* eshittirish (ko'rsatuv) dasturi.
senden *vt.* 1. yubormoq, jo'natmoq. 2. radio orqali eshittirmoq, televideniya orqali ko'rsatmoq.

Sender *m; -s; -;* 1. o'z dasturiga ega radio, televedeniye stansiyasi. 2. *Tech.* (signal) uzatuvchi.

Senderaum *m; -es; -räume*, radiostudiya.

Sendezeit *f; -; -en;* radio eshittirish (ko'rsatuv) payti (vaqti).

Sendung *f;* 1. eshittirish; **musikalische ~** musiqiy eshittirish. 2. (diplomatik) noma, maktub, missiya topshiriq.

Senf *m; -(e)s; -e;* 1. *Bot.* xantal *(o'simlik).* 2. gorchitsa *(xantal o'simligi va urug'idan tayyorlanadigan ziravor).*

senffarben/senffarbig *Adj.* xantalrang.

Senfpflaster *m; -s; -;* gorchichnik *(xantal qatlami bilan o'ralgan qog'oz yoki mato).*

sengen *vt.* kuydirmoq, yondirmoq; **~de Hitze** kuydiradigan jazirama.

Senior *m; -s; -Senioren;* keksa odam, qariya.

senior *Adj.* 1. katta, katta yoshda, to'ng'ich. 2. aka-ukalarning kattasi; **Meier ~** aka-uka Mayerlarning kattasi.

Senke *f; -; -n;* past-tekislik, pastlik.

Senkel *m; -s; -;* shnur, bog'ich *(eshilgan yoki to'qilgan, chiyratma ip).*

senken *vt.* 1. tushirmoq, egmoq. 2. kamaytirmoq, pasaytirmoq.

senkrecht *Adj.* tik chiziq, perpendekulyar.

Senkung *f; -; -en;* 1. pasayish, kamayish. 2. *Med.* pasayish, pastga tushib qolish. 3. cho'kish, o'tirish, botish. 4. pastlik.

Sensation *f; -; -en;* shov-shuv, vahima; hayratomuz taassurot.

sensationell *Adj.* shov-shuvli, vahimali, hayratga solarli, sensatsion.

Sense *f; -; -n;* chalg'i, chalg'i o'roq.

sensen *vt.* chalg'i bilan o'rmoq, chalg'ilamoq.

sensibel *Adj.* o'ta ta'sirlanuvchan, hassos.

sensibilisieren *vt.* ta'sirchan qilmoq, ta'sirlantirmoq.

Sensibilisierung *f; -; -;* ta'sirlantirish.

Sensibilität *f; -; -;* ta'sirlanuvchanlik, hassoslik.

sentimental *Adj.* ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan, hassos.

Sentimentalität *f; -; -;* ko'ngli bo'shlik, hassoslik.

separat *Adj.* alohida, ajralib chiqishga oid.

Separatfrieden *m; -s; -;* separat, (bir tomonlama) sulh.

Separatismus *m; -; -; Polit.* (tarkibdan) ajralib chiqish, separatizm.

Separator *m; -s; -Separatoren; Tech.* separator, ajratib oluvchi uskuna.

Separatvertrag *m; -es; -verträge;* separat, (bir tomonlama) shartnoma.

separieren *vt. Tech.* ajratib olmoq, separatordan o'tkazmoq.

sepia *Adj.* to'q jigarrang *(bo'yoq).*

Sepia *f; -; -Sepien* 1. *Zool.* boshoyoqli molyuska. 2. jigarrang bo'yoq.

September *m; -s; -;* sentyabr; **der erste ~** birinchi sentyabr.

Sequenz *f; -; -en;* 1. *Chem.* ketma-ketlik, izchillik. 2. *Mus.* sekvensiya. 3. *Film.* epizod, kadr.

sequentiell *Adj.* ketma-ket, izchil.

Serenade *f; -; -n; Mus.* 1. serenada, muziqali kompozitsiya. 2. ochiq havodagi konsert.

Sergeant {*Ber(t)schent*} *m; -s; -s; Milit.* serjant, harbiy unvon.

Serial *n; -s; -s;* serial, rukn, televideniye yoki radiodagi (bir) qator dastur.

Serie *f; -; -n;* qator, ketma-ketlik, seriya.

seriell *Adj.* ketma-ket, qatorasiga.

Serienheld *m; -en; -en;* (serialdagi) ijobiy shaxs, asosiy qahromon.

serienmäßig *Adj.* bir xil rusumda, seriyali ravishda.

seriös *Adj.* jiddiy, o'ta muhim.

Seriosität *f; -; -;* jiddiylik, o'ta muhimlik.

Service *n;* oder *m; -; -s;* 1. idishlar yig'masi. 2. xizmat ko'rsatish.

Servicennetz *n; -es; -e; Wirt.* xizmat ko'rsatish tarmog'i.

servieren *vt.* dasturxon yasamoq, tuzatmoq.

Serviette *f; -; -n;* salfetka *(qo'l sochiq).*
Servus *Int.*. servyuz *(asosan Avstriyada uchrashuv va xayrlashuvda aytiladigan so'z).*
Sesam *m; -s; -s;* kunjut, kunjut urug'i; **~, öffne Dich!** Sim-sim, ochil!
Sesambrot *n; -es; -e;* kunjutli non.
Sesambrötchen *n; -s; -;* kunjutli kulcha.
Sesamkuchen *m; -s; -;* kunjutli pirog.
Sesamöl *n; -es; -e;* kunjut moyi.
Sessel *m; -s; -;* kreslo *(yumshoq o'rindiq).*
Sessellehne *f; -; -n;* kresloning suyanchig'i.
seßhaft *Adj.* o'troq; **~e Lebensweise** o'troq turmush tarzi.
Seßhaftigkeit *f; -; -;* o'troqlik, o'troq bo'lib yashash.
Session *f; -; -en;* sessiya, parlament majlisi davri.
Set *m;* oder *n; -s; -s;* (bir xil mahsulotlar) to'plami, sidra, komplekt.
Setter *m; -s; -; Zool.* ovchi it, setter.
setzen 1. *vt.* 1. qo'ymoq. 2. o'tqizmoq, o'tqizib qo'ymoq. 3. *(kiyimga oid)* mos kelmoq, to'g'ri kelmoq. 4. (ko'chat) ekmoq. 5. **sich ~** (joyga) o'tirmoq, joy olmoq; **Setzen Sie sich bitte!** Marhamat, o'tiring!
Setzer *m; -s; -; Druchw.* harf teruvchi.
Setzfehler *m; -s; -; Druchw.* tipografik xato.
Setzling *m; -es; -e;* 1. yosh nihol. 2. (tuxumdan chiqqan) yosh baliqlar.
Seuche *f; -; -; Med.* epidemiya, yuqumli kasallik.
Seuchenartig *Adj.* yuqumli, epidemik.
Seuchenausbruch *m; -s; -brüche,* epidemiyaning avj olishi (yoyilishi, tarqalishi).
Seuchengefahr *f; -; -en;* epidemiologik xavf.
Seuchenherd *m; -(e)s; -e;* epidemiyaning kelib chiqishi.
seufzen *vi.* xo'rsinmoq, uf tortmoq, uflamoq.
Seufzer *m; -s; -;* xo'rsinish, uf tortish.
Sex *m; -es; -;* seks *(jinsiy hayotga, shahvoniy munosabatlarga oid).*
Sexta *f; -; -Sexten;* gimnaziyaning birinchi qismi.
sexuell *Adj.* jinsiy, shahvoniy.
sexy *Adj.* (shahvoniy jihatdan) yoqimli, jozibali.
Shampoon *(schampu) n; -s; -s;* shampun *(soch yuvish vositasi).*
Shirt *n; -s; -s;* yengi kalta ko'ylak.
Shop *m; -s; -s;* maxsus mollar do'koni.
Shopping *n; -s; -s;* xarid, xarid qilish.
Shopping-Center *n; -s; -;* savdo markazi.
Shorts (Pl) short, kalta shim.
Show *f; -s; -s;* shov, (tantanali, rang-barang) tomosha.
Showgirl *n; -s; -s;* tantanali tadbirlarga maxsus taklif etiladigan raqqosa.
Showman *m; -s; -s;* shoumen, shouni (davrani) olib boruvchi, uyushtiruvchi, o'rtakash.
Showmaster *m; -s; -;* moderator, shouni olib boruvchi.
sibyllenhaft *Adj.* sirli, ajib.
sich *Reflexivpron.*: **~ waschen** yuvinmoq.
Sichel *f; -; -n;* o'roq; **~ schärfen** o'roqni charxlamoq; **~ und Hammer** o'roq va bolg'a.
sichelförmig *Adj.* o'roqsimon, o'roq shaklida.
sicheln *vt.* 1. o'roq bilan o'rmoq. 2. qirqmoq, kesmoq, butamoq.
sicher 1. *Adj.* 1. ishonchli. 2. xavfsiz. 3. aniq. **II** *Adv.* albatta.
sichergehen *vi.* aniq harakat qilmoq, tavakkal qilmaslik.
Sicherheit *f; -; -en;* 1. xavfsizlik, ta'minot; **soziale ~** ijtimoiy ta'minot. 2. butlik, saqlanganlik. 3. ishonchlilik.
Sicherheitsgurt *m; -(e)s; -e;* xavfsizlik kamari.
sicherheitshalber *Adv.* har ehtimolga qarshi.
Sicherheitsmaßnahme *f; -; -n;* xavfsizlik chorasi.

Sicherheitsvorschrift *f; -; -en;* xavfsizlik qoidalari.
Sicherheitstechnik *f; -; -;* xavfsizlik texnikasi.
sicherlich *Adv.* albatta, so'zsiz, shakshubhasiz, muqarrar.
sichern *vt.* 1. kafillik bermoq. 2. saqlamoq, himoya qilmoq. 3. saqlab berishni ta'minlamoq.
sicherstellen 1. yetkazib bermoq. 2. musodara qilmoq. 3. ta'minlamoq, ta'minlab bermoq. 4. aniqlab bermoq.
Sicherung *f;* 1. ta'minlash, ta'minot. 2. miltiqning saqlagichi (predoxranitel). 3. qo'riqlash. 4. aniqlab olish. 5. kafolat.
Sicht *f; -; -en;* 1. ko'rinish. 2. nuqtayi nazar; **aus dieser ~ betrachtet** bu nuqtayi nazardan qaraganda. 3. ko'rsatish; **auf ~, bei ~** *Wirt.* (hujjat) ko'rsatish asosida.
sichtbar *Adj.* ko'rinarli. 2. aniq, shubhasiz, ko'rinib turgan; **~er Beweis** aniq dalil.
sichten *vt.* 1. (to'satdan) ko'rib qolmoq. 2. ko'rib chiqmoq, ko'z yugurtirmoq **flüchtig ~** yuzaki ko'rib chiqmoq.
sichtlich *Adj.* oshkora, sezilarli.
Sichtweise *f; -; -n;* qarash, qarash usuli.
Sichtweite *f; -; -n;* kori(ni)sh masofasi.
Sichtung *f; -; -en;* ko'rib chiqish, ko'zdan kechirish.
sie *Pron.* 1. u *(xotin-qizlarga oid);* **~ ist verheiratet** u turmushga chiqqan. 2. ular; **~ spielen Fußball** ular futbol o'ynashyapti.
Sie *Pron.* siz *(hurmat belgisi);* **Wann sind ~ angekommen?** Siz qachon yetib keldingiz?
Sieb *n; -(e)s; -e;* elak, g'alvir.
sieben I *vt.* elamoq; **das Mehl ~** unni elamoq.
sieben II *Num.* yetti; **er ist ~ Jahre alt** u yetti yoshda.
siebenfach *Adj.* yetti marta, yetti karra.
Siebenkampf *m; -(e)s; -kämpfe; Sport.* yetti kurash.
Siebensachen *Pl.* (shaxsiy) maydachuydalar.
siebentägig *Adj.* yetti kunlik.
Siebentel *n;* und *m; -s; -;* yettidan bir qism.
siebentens *Adv.* (sanash tartibi) yettinchidan.
Siebziger I *m; -s; -;* 70 – 79 yosh o'rtasidagi kishi.
Siebziger II *f; -; -;* asrning 70 – 79 yillardagi davri.
siechen *vi.* kasalmand bo'lmoq, uzoq yillar davomida bedavo kasallikka chalinmoq.
Siechtum *n; -s; -;* bedavo kasalmandlik.
siedeheiß *Adj.* qaynoq, qaynoq darajada issiq.
sieden 1. *vi.* qaynamoq; **sein Blut siedet** uning qoni qaynaypti. 2. *vt.* qaynatmoq.
Siedepunkt *m; -es; -e; Phys.* qaynash nuqtasi.
Siedetemperatur *f; -; -en;* qaynash harorati.
Siedler *m; -s; -;* 1. ko'chib kelgan, kelgindi. 2. kichik poliz (bog') egasi.
Siedlung *f; -; -en;* turar joy, qishloq, ovul.
Siedlungspolitik *f; -; -; Polit.* ko'chirish siyosati.
Sieg *m; -(e)s; -e;* g'alaba, yutuq; **den Sieg erringen** g'alabaga erishmoq.
Siegel *n; -s; -;* muhr; **das ~ aufdrücken** muhr bosmoq.
Siegellack *m; -(e)s; -e;* surg'uch.
siegeln 1. surg'ichlamoq. 2. muhrlamoq.
siegen *vi.* g'alaba qilmoq, g'alaba qozonmoq, yutmoq.
Sieger *m; -s; -;* g'olib; **~ werden** g'olib bo'lmoq.
Siegerkranz *m; -es; -kränze* g'alaba (gul)chambari.
Siegermacht *f; -; -mächte; Polit.* g'olib mamlakat.
Siegermannschaft *f; -; -en; Sport.* g'olib jamoa.
Siegespreis *m; -es; -e;* g'alaba sovrini.

siegessicher *Adj.* g'alabaga ishonadigan.
Siegestreffer *m; -s; -; Sport.* g'alaba keltirgan gol (to'p).
siegreich *Adj.* g'olibona, zafarli.
Siele *f; -; -n;* egar-jabdug'.
sielen sich dumalab, ag'anab yotmoq, uzala tushib yotmoq.
Sienafarben *Adj.* qizil-qoramtir (rang).
siezen *vt.* sizsiramoq, «siz» deb murojaat qilmoq.
Sigthseeling {ßeitßi-ing} *n; -; -;* diqqatga sazovor joylarni borib ko'rish.
Signal *n; -(e)s; -e;* signal, belgi; **ein ~ geben** signal bermoq.
signalisieren *vt.* 1. signal bermoq. 2. (yo'lni) ko'rsatkich bilan belgilamoq.
Signatur *f; -; -en;* 1. belgi, shifr. 2. imzo. 3. mahsulot haqida qisqa ma'lumot.
signieren *vt.* 1. imzolamoq. 2. shifrlamoq.
Signierung *f; -; -en;* 1. imzolash, avtograf qo'yish. 2. shifrlash.
Signifikant *Adj.* 1. muhim, ahamiyatli. 2. *Ling.* ma'nodor, ma'noga ega.
Signum *n; -s; -signa* 1. imzo. 2. *Med.* kasallik belgisi. 3. belgi.
Silbe *f; -; -n;* bo'g'in; **offene ~** ochiq bo'g'in; **geschlossene ~** yopiq bo'g'in.
Silbentrennung *f; -; -en; Ling.* bo'g'in ajratish.
Silber *n; -s; -;* kumush; **mit ~ überziehen** kumush suvi. bermoq.
silberfarben *Adj.* kumushrang.
Silbergeschirr *n; -(e)s; -e;* kumush idish.
Silberhochzeit *f; -; -en;* kumush to'y *(ellik yillik turmush).*
Silbermedaille *f; -; -n;* kumush medal.
Silhouette *(siluette) f; -; -n;* siluet *(bir rangda ishlangan kontur surat).*
Silo *m;* und *n; -s; -s;* 1. (bug'doy, ko'mir uchun) katta omborxona. 2. xashak saqlanadigan qurilma, xashakxona.
Silofutter *n; -s; -;* silos, maydalab maxsus tayyorlangan xashak.
Silvester *m;* und *n; -s; -;* (eski) yilning oxirgi kuni (31-dekabr); **~ feiern** yangi yilni kutib olmoq.
Silvesterabend *m; -s; -e;* yangi yil kechasi.
Simpel oddiy, soda; **~ein simpler Mensch** oddiy odam.
Simpel *m;* soddadil odam, go'l odam.
simplifizieren *Adj.* soddalashtirmoq, oddiylashtirmoq.
Sims *m;* und *n; -es; -e;* karniz, dor (parda osish uchun dor).
Simulant *m; -en; -en;* mug'ambir, simulyant *(o'zini yolg'on kuyga soluvchi kishi).*
Simulation *f; -; -en;* mug'ambirlik.
simulieren *vt.* mug'ambirlik qilmoq.
simultan *Adj.* bir vaqtning o'zida, ayni paytda.
Simultandolmetscher *m; -s; -;* tilmoch, (og'zaki) tarjimon.
Simultanschach *n; -s; -; Sport. (bir o'yinchi bir paytning o'zida bir necha o'yinchi bilan o'ynaydigan)* shaxmat o'yini.
Sinfonie *f; -; -n; Mus.* simfoniya, simfonik muziqa.
singen *vi., vt.* kuylamoq, ashula aytmoq.
Single *(singl) m; -s; -s;* yolg'iz yashaydigan odam.
Singsang *m; -(e)s; -;* bir xil ohangdagi zerikarli qo'shiq.
Singular *m; -s; -e; Gramm.* birlik.
singulär *Adj.* yagona, birgina, nodir, kamdan-kam.
Singularetantum *n; -s; -s; Ling.* (ko'plik shaklisiz, faqat birlikda qo'llaniladigan) so'z.
Singvogel *m;* **-s;** *-vögel* sayroqi qush.
sinken *vi.* (*s*) 1. yiqilmoq, tushmoq. 2. pasaymoq *(quyosh, suv sathi).* 3. (loyga) botmoq.
Sinn *m; -(e)s; -e;* 1. ma'no, mazmun. 2. sezgi, tuyg'u, his; **Das Sehen, sehen; Riechen, Tasten und Schmecken sind fünf ~e.** eshitish, ko'rish, hidlash, paypaslash va tatib ko'rish his qilishning besh xilidir. 3. ong. 4. aql, farosat.

Sinnbild *n; -(e)s; -er;* ramziy holat.
sinnen *vi.* o'ylamoq, fikrlamoq.
Sinnesorgan *n; -(e)s; -e;* sezgi organi.
sinnfällig *Adj.* aniq, ravshan, yaqqol.
sinnlig *Adj.* hissiy, hisni qo'zg'atadigan.
Sinnlichkeit *f; -; -en;* 1. hissiyotga beriluvchanlik. 2. ta'sirchanlik.
sinnlos *Adj.* 1. ma'nosiz, mazmunsiz. 2. bema'ni, befoyda, bemulohaza, o'ylamay qilingan.
Sinnlosigkeit *f; -; -en;* 1. ma'nosizlik. 2. bema'nilik, foydasizlik.
sinnvoll *Adj.* mantiqli, maqsadga muvofiq, ma'nodor.
sinnwidrig *Adj.* maqsadga muvofiq emas, bema'ni, tuturiqsiz.
Sinnwidrigkeit *f; -; -;* maqsadga muvofiq emaslik, bema'nilik, tuturiqsizlik.
Sinologie *f; -; -;* xitoyshunoslik.
Sinter *m; -s; -; Geol.* cho'kindi, qasmoq (qaynagandan keyin o'tirib qolgan qatlam).
sintern 1. *vt. Geol.* qizdirib pishirmoq. 2. *vi.* qizib pishmoq.
Sinflut *f; -; -;* 1. toshqin, suv bosish, to'fon. 2. olamni suv bosishi, Nuh to'foni; **Nach mir ist ~** menga desa, dunyoni suv bosmaydimi.
Sinflutartig *(o'ta)* kuchli yomg'ir, jala.
Sinus *m; -; -; Math.* sinus.
Sippe *f; -; -n;* 1. urug', qabila. 2. urug', aymoq, nasl, zot, avlod, sulola.
Sippenordnung *f; -; -en;* urug'doshlik tuzumi.
Sippschaft *f; -; -en;* qarindosh-urug'chilik, urug'-aymoqlar.
Sirene *f; -; -n;* 1. sirena. 2. *Myth.* sirena (yunon afsonalarida: boshi ayol, tanasi qush qiyofasidagi suv parisi). 3. *Zool.* sirena (sut emizuvchi suv hayvoni).
Sirup *m; -s; -e;* sirop, sharbat, qiyom.
Sitte *f; -; -n;* 1. urf-odat, rasm-rusum, taomil. 2. xulq-atvor, o'zini tutish.
sittenlos *Adj.* axloqsizlarcha, beaxloq, axloqsiz.
Sittenlosigkeit *f; -; -en;* axloqsizlik, axloqi buzuqlik, fosiqlik.
Sittengesetz *n; -es; -e;* odob-axloq qoidasi.
sittenstreng *Adj.* odob-axloqqa qattiq rioyaga oid.
sittlich *Adj.* 1. ma'naviy, ruhiy. 2. odobli, xushaxloq.
Sittlichkeit *f; -; -;* 1. ma'naviyat, ruhiyat. 2. odob, xushaxloqlik.
sittsam *Adj.* odobli, axloqli, xushaxloq, xushfe'l.
Situation *f; -; -en;* vaziyat, ahvol, holat.
situativ *Adj.* vaziyatga oid.
Sitz *m; -es; -e;* 1. joy, o'rin; **leerer ~** bo'sh joy (o'rin). 2. joylashuv; **~ der Regierung ist die Haupstadt** hukumat poytaxtda joylashgan.
Sitzbank *f; -; -bänke* o'rindiq, skameyka.
sitzen *vi.* 1. o'tirmoq; **bequem ~** qulay (yaxshi) o'tirmoq. 2. (kiyimga oid) to'g'ri kelmoq.
sitzenbleiben *vi.* (o'zlashtirmaslik sababli) sinfda qolmoq.
Sitzfalte *f; -; -n;* kiyim g'ijimi.
Sitzfleisch *n; -es; -;* **~ haben** sabr-toqatli bo'lmoq; **kein ~ haben** (bir joyda) turmaslik, tinib-tinchimas.
Sitzplatz *m; -es; -plätze* (transportda) o'tirib ketadigan joy.
Sitzung *f; -; -en;* 1. majlis, kengash. 2. seans (rassom oldida o'tirish).
Sitzungssaal *m; -es; -säle* majlislar zali.
Skala *-; -s;* und *-skalen* shkala, o'lchov darajasi ko'rsatkichi.
Skalpell *n; -s; -e;* skalpel, o'tkir xirurgik pichoq.
Skandal *m; -(e)s; -e;* mojaro, janjal, mashmasha.
skandalös *Adj.* janjalli, mojarali.
skandieren *vt.* (so'z bilan) olqishlamoq.
Skat *m; -(e)s; -s;* und *-e;* skat *(uch kishi ishtirokidagi karta o'yini).*
skaten *vi.* karta o'ynamoq.

Skatbruder *m; -s; -brüder;* ashaddiy kartaboz, qimorboz.
Skelett *n; -es; -e; Anat.* skelet.
Skelettenbauweise *f; -; -n;* karkas, sinch asosidagi qurilish usuli.
Skepsis *f; -; -;* shubha bilan; ishonmasdan qarash.
Skeptisch *Adj.* shubha bilan, ishonchsizlik bilan, skeptik.
Ski/Schi {*schi*} *m; -s; -er;* chang'i; ~ **fahren** chang'ida yurmoq.
Skifahrer {*schi-*} *m; -s; -;* chang'ichi.
Skisport {*schi-*} *m; -es; -;* chang'i sporti.
Skinhead {*skinhäd*} *m; -s; -s;* skinhid, *(jinoyatga moyil)* sochlari olingan yosh yigit.
Skizze *f; -; -n;* xomqolip, xomaki reja, xomaki loyiha.
skizzieren *vt.* (xomaki) reja, loyiha tuzmoq.
Sklave *m; -n; -n;* qul; **zum ~n machen** qul qilmoq.
Sklavenhandel *m; -s; -;* qul savdosi.
Sklavenordnung *f; -; -;* quldorchilik tuzimi.
Sklaverei *f; -; -;* quldorlik.
sklavisch *Adj.* qullarcha, quldek.
Sklerose *f; -; -n; Med.* skleroz kasalligi (yurak, miya sklerozi).
Skorpion *m; -s; -e;* 1. *Zool.* chayon. 2. chayon yilida tug'ilgan odam.
Skript *n; -n; -en;* und *-s;* 1. qo'lyozma. 2. film ssenariysi, ma'ruza konspekti.
Skrupel *m; -s; -;* shubha, gumon, shak-shubha, vijdon azobi.
skrupellos *Adj.* vijdonsiz, uyatsiz, surbet.
Skrupellosigkeit *f; -; -;* vijdonsizlik.
skrupulös *Adj.* puxta, sinchkov.
Skrupulösität *f; -; -;* puxtalik, sinchkovlik.
Skulpteur *m; -s; -e;* skulptor, haykaltarosh.
Skulptur *f; -; -en;* skulptura, haykaltaroshlik asari.
Slalom *m; -s; -s; Sport.* slalom *(chang'ida tepalikdan tezlik bilan tushadigan sport turi).*
Slang {*släng*} *m; -s; -s; Ling.* sleng *(og'zaki nutq iborasi).*
Slip *m; -s; -s;* kalta ishton.
Slogan *m; slogen; -s; -s;* reklama shiori, shior so'zi.
Smaragd *m; -(e)s; -e;* zumrad *(nodir, qimmatbaho tosh).*
smaragden *Adj.* zumradga oid, zumraddan.
smaragdgrün *Adj.* zumradrang (yashil).
smart *Adj.* epchil, chaqqon, abjir.
Smog *m; -s; -s;* und *-e;* smog *(sanoat chiqindilaridan chiqadigan zaharli havo).*
Smocking *m; -s; -s;* smoking *(tantanali vaziyatlarda kiyiladigan erkaklarning xushbichim kostyumi).*
Snack *m; -s; -s;* tamaddi, qisqa ovqatlanish.
Sniff *m; -s; -s;* 1. og'uni (narkotik modda) burun orqali hidlash. 2. hidlanadigan og'u.
sniffen *vt.* og'u hidlamoq.
Snob *m; -s; -s;* o'qimishligini pesh qiladigan dimog'dor odam.
Snobismus *m; -; -snobismen;* dimog'dorlik, o'zini ustuvor qo'yadigan xulq.
so I *Adv.* shunday; **~ ist das?** Shundaymi? **II** *Pron.* qanday; **~ ein Unglück!** Qanday baxtsizlik!
sobald *Adv.* zahoti(yoq), -gach, -gandan keyin .
Socke *f; -; -n;* paypoq; **sich auf die ~n machen** yo'lga chiqmoq.
Sockel *m; -s; -;* 1. devorning pastki qalin qismi. 2. haykal o'rnatilgan supa, tagkursi, shohsupa.
Soda *f; -; -;* und *n; -s; -;* 1. *Chemie.* 1. soda. 2. sodali suv.
sodann *Adv.* 1. bundan tashqari. 2. so'ngra, keyin.
Sodawasser *n; -s; -wässer;* sodali suv.
Sodbrennen *n; -s; -;* me'da (jig'ildon) qaynashi, zarda.

Sonntagskind *n; -es; -er;* 1. yakshanba kuni tug'ilgan odam. 2. omadli odam.
Sonntagsruhe *f; -; -;* yakshanbada dam olish.
sonntagvormittags *Adv.* yakshanba kunlari tushdan oldin.
Sonntagszeitung *f; -; -en;* yakshanba kunlari chiqadigan gazeta.
sonor *Adj.* 1. jarangdor. 2. *Ling.* jarangli *(tovushga oid).*
sonst *Adv.* bundan tashqari, boshqa; **ich habe ~ keine Probleme** boshqa muammolarim yo'q; **~ nichts?** Boshqa hech narsa kerak emasmi?
sonstwas *Pron.* nima bo'lsayam.
sonstwer *Pron.* kim bo'lsayam.
Sooft *Konj.* har doim.
Sorge *f; -; -n.* g'amxo'rlik, qayg'urish, tashvish, notinchlik; **Machen Sie bitte keine ~n!** Tashvish chekmang!
sorgen *vi.* 1. g'amxo'rlik qilmoq, qayg'urmoq. 2. **sich ~** tashvishlanmoq.
sorgenfrei *Adj.* betashvish, g'am-tashvishsiz.
Sorgenkind *n; -es; -er;* (ko'p) tashvish keltiradigan bola.
Sorgenlast *f; -; -en;* g'am-tashvish, jabr-jafo.
sorgenlos *Adj.* 1. betashvish; **~es Leben** betashvish hayot. 2. beg'am, beparvo.
Sorgfalt *f; -; -;* 1. puxtalik, sinchiklab bajarishlik. 2. g'amxo'rlik.
sorgfältig *Adj.* puxta, aniq; **eine ~ Arbeit** puxta ish.
Sorgfältigkeit *f; -;* puxtalik, sinchkovlik, e'tiborlilik, halollik, insoflilik.
sorglos *Adj.* beg'am, betashvish.
Sorglosigkeit *f; -; -en;* beg'amlik, betashvishlik, beparvolik.
sorgsam *Adj.* 1. g'amxo'r. 2. puxta. 3. ehtiyotkor.
Sorgsamkeit *f; -; -en;* 1. g'amxo'rlik. 2. puxtalik. 3. ehtiyotkorlik.
Sorte *f; -; -n;* 1. nav, tur; **erste ~** birinchi nav. 2. tip, xil. 3. *Wirt.* naqd valyuta.
sortenrein *Adj.* toza navli, sof, sarxil.
sortieren *vt.* saralamoq, xillamoq, navlarga ajratmoq, sortlamoq.
Sortierer *m; -s; -;* 1. navlarga ajratuvchi shaxs. 2. sortlaydigan uskuna.
sortiert *Adj.* saralangan, saralab taxlangan.
Sortiment *n; -(e)s; -e;* 1. assortiment, navga boy. 2. *Wirt.* chakana savdo.
SOS *Abk. n; -; -; {save our sous/ship}:* **~ funken** radio orqali falokat haqida signal bermoq.
SOS-Ruf *m; -(e)s; -e;* falokat haqida signal, belgi.
Soße/Sauce *f; -; -n; Kulin.* sous, qayla, ziravor.
Souffeur *m; -s; -e; Theat.* suflyor.
soufflieren *vt. [zu-]* 1. *Theat.* suflyorlik qilmoq. 2. (birovga) aytib berib turmoq. 3. fikrini uqtirmoq.
soupiren 1. kechki ovqat yemoq. 2. (tantanali) kechki ovqatda ishtirok etmoq.
Souvenir {suwerän} *n; -s; -s;* suvenir, esdalik sovg'asi.
Souvenirladen *m; -s; -läden;* sovg'alar do'koni.
souverän *Adj.* 1. mustaqil, suveren. 2. o'ziga ishonadigan. 3. ishonchli; **~er Sieg** ishonchli g'alaba.
Souveränität *f; -; -; Polit.* suverenitet, mustaqillik.
Souveränitätsrecht *n; -(e)s; -e;* mustaqillik huquqi.
sovi.el *Konj.* 1. qanchalik, nechog'lik. 2. shuncha, yetar(li); **~ für heute** bugunga yetadi.
soweit *Konj.* 1. umuman olganda, ma'lum darajada. 2. **~ sein** 1) tayyor bo'lmoq, 2) vaqti keldi. 3. -cha; **~ ich weiß** bilishimcha.
sowie *Konj.* 1. shuningdek. 2. zahoti(yoq).
sowieso *Konj.* baribir, nima bo'lganda ham.
sowohl *Konj.* **~, als auch** ... ham, ... ham; **~ der Vater, als auch die Mut-**

ter treiben Sport ota ham, ona ham sport bilan shug'ullanadilar.

sozial *Adj.* sotsial, ijtimoiy.

Sozialarbeit *f; -; -;* ishtimoiy himoyaga qaratilgan faoliyat.

Sozialamt *n; -es; -ämter* ijtimoiy (sotsial) ta'minot bo'limi.

Sozialdemokratie *f; -; -; Polit.* sotsial (ijtimoiy) demokratiya.

sozialisieren *vt.* umumlashtirmoq, sotsializatsiyia qilmoq.

Sozialisierung *f; -; -en;* umumlashtiruv, sotsialisatsiya.

sozialistisch *Adj. Polit.* sotsialistik, sotsializmga asoslangan.

Sozialpolitik *f; -; -;* ijtimoiy (himoyaga qaratilgan) siyosat.

Sozialstaat *m; -es; -en;* (ijtimoiy himoyaga qaratilgan) sotsial davlat.

Sozialversorgung *f; -; -en;* ijmoiy ta'minot.

Soziolinquistik *f; -; -; Ling.* sotsiolinvistika, tilning jamiyat bilan bog'liq masalalari bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Soziologe *m; -n; -n;* jamiyatshunos, sotsiolog.

Soziologie *f; -; -;* jamiyatshunoslik, sotsiologiya.

Sozius *m; -; -se;* 1. *Wirt.* sherik. 2. mototsikl yo'lovchisi.

Soziussitz *m; -es; -e;* mototsikldagi o'rindiq.

sozusagen *Adv.* aytgandek, aytishlaricha.

Spachtel *m; -s; -;* 1. belkurakcha. 2. *Med.* shpatel.

spachteln *vt.* 1. suvamoq. 2. (to'yib) yemoq.

Spaghetti *f; -; -s; Kulin.* spagetti, makaronli (italyancha) ovqat.

spähen *vt.* 1. (mo'ralab) qidirmoq. 2. ko'z tashlamoq, nazar solmoq. 3. (uzoqlarga) tikilib qaramoq.

Späher *m; -s; -;* 1. nazoratchi (soqchi). 2. *Milit.* razvedkachi.

Späherauge *n; -s; -n;* o'tkir ko'z.

Spalier *n; -(e)s; -;* 1. ishkom, (yo'lning ikki chekkasiga o'tkazilgan) qator daraxtlar. 2. ikki qator (bo'lib) saflanish.

Spalierbaum *m; -es; -bäume;* ishkomli daraxt.

Spalt *m; -(e)s; -e;* 1. kovak, tirqish, yoriq. 2. kesaki oralig'i. 3. darz, yoriq, yorilgan joy. 4. *Med.* oraliq.

spaltbar *Adj.* parchalanadigan, maydalanadigan.

Spaltbarkeit *f; -; -; Chem.* parchalanish, bo'linish.

Spaltbreit *m; -; -;* qiya ochiqlik.

Spalte *f; -; -en;* 1. ustun. 2. yoriq. 3. *Tech.* Tirqish.

spalten *vt.* 1. yormoq, maydalamoq. 2. *Chem.* parchalamoq. 3. (ikkiga) bo'lmoq, bo'lib tashlamoq. 4. eritmoq. 5. kesib tashlamoq.

Spalter *m; -s -;* ajratuvchi, ixtilofchi, buzg'unchi.

Spaltung *f; -; -en;* 1. bo'linish. 2. *Chem.* parchalanish; ~ **sbestrebungen** *Pl.* ajratishga (parchalashga) urinishlar; ~ **spolitik** parchalash siyosati.

spaltweit; **die Tür ~aufmachen** eshikni biroz ochmoq.

Span *m; -(e)s; -Späne* qirindi, payraxa, tarasha, payraha.

spanen *vt.* qirindini olmoq, kesib tashlamoq.

spänen *vt.* qirmoq, qirib tashlamoq, qirtishlamoq.

Spanferkel *n; -s; -;* emizikli cho'chqa bolasi.

Spange *f; -; -n;* 1. soch to'g'nag'ichi. 2. g'altak. 3. bilaguzuk.

Spangenschuh *m; -(e)s; -e;* to'qali tufli.

Spann *m; -(e)s; -e; Anat.* do'ngsa, oyoqning do'ng joyi.

Spannbettuch *n; -es; -tücher;* ko'rpajild, jildli choyshab.

Spanne *f; -; -n;* 1. oraliq davr, ora(si) dagi muddat; **eine kurze (Zeit)** ~ qisqa davr mobaynida. 2. masofa. 3. (o'lchov belgisi) qarich.

spannen I *vt.* 1. (tarang) tortmoq. 2. asabiylashmoq; **die Nerven sind gespannt** asablar tarang tortilgan. 3. *Tech.* (orasiga) qo'ymoq. 4. (otni) qo'shmoq. **II** *vi.* 1. (tarang) tortilmoq. 2. (kiyim) tor kelmoq. 3. (uzoq) kutmoq. 4. hushyor tortmoq, sergak bo'lmoq. **III** 1. ~ **sich** (tarang) tortilmoq. 2. sakrashga tayyorlanmoq. 3. yoyilmoq. 4. joy egallamoq, tarqalmoq.

spannend 1. maroqli, qiziqarli, zavqli, jozibador. 2. cho'zilgan; **Mach's nicht so ~!** Cho'zmasdan tezroq gapir!

spannenlang *Adj. (bir)* qarich, qarichlab.

Spanner *m; -s; -;* 1. taranglovchi uskuna. 2. *Zool.* kapalaksimonlar oilasiga kiruvchi odimlovchi qurt.

Spannkraft *f; -; -kräfte,* 1. energiya. 2. taranglik, elastiklik. 3. g'ayrat.

Spannung *f; -; -en;* 1. diqqat-e'tibor, qizg'inlik, g'ayrat. 2. bosim. 3. keskinlik. 4. *El. Phys., Tech.* kuchlanish.

Spannungsgebiet *n; -es; -e;* keskinlik sohasi.

Spannungsmesser *m; -s; -;* kuchlanishni o'lchaydigan asbob, voltmetr.

spannungsvoll *Adj.* (asablar) tarang tortilgan.

Spannweite *f; -; -n;* 1. quloch yoyish, qanotlar ko'lami. 2. oraliq masofa, kenglik, uzunlik.

Sparbuch *n; -es; -bücher;* omonat daftarchasi.

sparen *vt., vi.* 1. tejamoq, jamg'armoq, yig'moq; **die Zeit ~** vaqtni tejamoq. 2. asramoq, ayamoq.

Sparer *m; -s; -;* omonatda saqlovchi, omonatchi, pul qo'yuvchi.

Spargel *m; -s; -;* und *f; -; -; Bot.* sarsabil *(ko'p yillik sabzavot o'simligi);* **~ stechen** sarsabil kesmoq (yig'ib olmoq).

Spargelder *Pl.* to'plangan (jamg'arilgan) pul.

Sparkasse *f; -; -n;* omonat kassa.

Sparkassenbuch *n; -es; -bücher;* omonat kassa daftarchasi.

spärlich *Adj.* kam, taqchil, tanqis, kam uchraydigan.

Sparmaßnahme *f; -; -n;* tejamkorlik tadbir-chorasi.

Sparren *m; -s; -;* 1. to'sin, cherdak to'sini. 2. siqilish, zerikish, ko'ngil g'ashlik.

sparrig *Adj.* (qaqqayib) chiqib turgan, qaqqaygan.

Sparring *n; -s; -; Sport.* sparring, sherik, juftlikda (sherik bo'lib) mashq qilish.

Sparringspartner *m; -s; -; Sport.* (juftlikdagi) sherik.

sparsam *Adj.* 1. tejamkor, tejamli. 2. kam, kamchil, yetarli emas, nochor, kambag'al.

Sparsamkeit *f; -; -en;* tejamkorlik, tejab-tergash.

Sparsamkeitsprogramm *n; -s; -e;* tejamkorlik dasturi.

Sparschwein *n; -(e)s; -e;* (cho'chqa shaklidagi) mayda pul yig'adigan g'aladon, aqchadon.

Spartakiade *f; -; -n;* spartakiada, sport o'yinlari (tadbiri).

spartanisch *Adj.* qanoatli, sabr-bardoshli, qiyinchiliklarga chidaydigan; **ein ~er Mensch** qattiqchiliklarga o'rgangan odam.

Sparte *f; -; -n;* 1. soha, jabha, sport turi. 2. uyushma, bo'lim. 3. sarlavha, rubrika.

spas(mat)isch *Adj.* (talvasa darajasida) titraydigan, tomir tortishadigan.

Spasmus *m; -; -Spasmen; Med.* talvasa, tomir tortishish, changak bo'lish.

Spaß *m; -es; Späße;* 1. mamnuniyat, huzur-halovat, lazzat. 2. xursandchilik, ko'ngil ochish. 3. hazil; hazil-huzul, ermak, hangoma; **~ machen** hazil qilmoq, hazillashmoq; **das ist ein ~!** Ana hangoma-yu, mana hangoma! **~ beiseite!** Hazilingni qo'y!

spaßen *vi.* hazillashmoq; **damit ist nicht zu ~** bu bilan hazillashib bo'lmaydi.

Spaßerei *f; -; -en;* hazil-huzul.

spaßeshalber *Adv.* hazilomuz, hazil tariqasida.

spaßhaft *Adj.* 1. hazillashadigan, hazilkash. 2. kulgili, kuldiruvchi.

Spaßhaftigkeit *f; -; -;* 1. xursandchilik, hazilkashlik. 2. kuldirishga moyillik.

Spaßmacher *m; -s; -;* hazilkash, qiziqchi, masxaraboz.

Spaßverderber *m; -s; -;* hazilni tushunmaydigan odam; **Sei doch kein ~!** Hazilni beliga tepma!

Spaßvogel *m; -s; -vögel;* hazilkash, xushchqchaq, ochiq odam; **den ~ spielen** chaqchaqlashmoq, hazil-huzul qilmoq.

spät *Adj.* kech; kechki; **zu ~er Zeit** kechki payt; **zu ~ kommen** juda kech kelmoq; **~im Jahr** yilning oxirida; **Also bis ~er!** Hozircha xayr!

spätabends *Adv.* kech oqshom paytlari.

Spätdienst *m; -es; -e;* kechki navbatchilik.

Spatel *m; -s;* oder *f; -; -n; Med.* spatel, kichik tayoqcha.

Spaten *m; -s; -;* belkurak.

späterhin *Adv.* keyinchalik, oqibatida, natijasida.

spätestens *Adv.* (eng) kechi bilan; **~ in zwei Wochen** kechi bilan ikki haftada.

Spätgemüse *n; -s; -;* kechki sabsavot.

Spätherbst *m; -(e)s; -;* kech kuz.

Spätlese *f; -; -n;* 1. kechki uzum terimi. 2. kechki hosil (uzum) vinosi.

Spätling *m; -es; -e;* 1. kechki, kuzaki, kuzgi meva. 2. kuzgi o'simlik. 4. kech tug'ilgan bola. 4. kech yaratilgan asar.

Spätnachrichten *Pl. Medien.* oqshom xabarlari.

spätreif *Adj.* kechpishar, kechki.

Spätstunde *f; -; -n;* kechki vaqt, allamahalgi vaqt.

Spätwinter *m; -s; -;* kech qish.

Spatz *m; -en; -en;* 1. *Zool.* chumchuq. 2. *Kosename.* jo'ja, suyukli farzand.

Spätzchen *n; -s; -;* chumchuqcha *(qizlarga oid erkalatadigan so'z).*

Spätzeit *f; -; -en;* 1. kech vaqt, kechki davr. 2. (ijodning) kechki (oxirgi) davri.

Spätzünder *m; -s; -;* kaltafahm, befahm odam.

Spätzündung *f; -; -en;* 1. *Tech.* kechikib o't ol(dir)ish. 2. sekinlashgan (kech) reaksiya.

spazieren/spazierengehen *vi.* sayrga chiqmoq. 2. (yo'lga) otlanmoq.

Spaziergang *m; -es; -gönge;* sayr, tomosha, aylanib kelish.

Specht *m; -(e)s; -e; Zool.* qizilishton.

Speck *m; -(e)s; -e;* charvi, yog', charvi.; **Ran an den ~!** Qani, ishni boshlaylik!

Speckbauch *m; -(e)s; -bäuche;* meshqorin.

speckig *Adj.* 1. moydan yaltiragan, yarqiragan; **~ und dreckig** juda iflos. 2. (qo'l uraverib) kir qilingan. 3. to'zgan, uringan, eskirgan, uvadasi chiqqan.

Spediteur *m; -s; -e;* yuk jo'natuvchi, ekspeditor.

Speditionsfirma *f; -; -firmen;* yuk jo'natuvchi firma.

Speech *m; {ßpitsch} -es; -e(s);* qisqa tabrik nutqi.

Speer *m; -(e)s; -e;* 1. nayza, ov quroli; **~ werfen** nayza otmoq. 2. *Sport.* nayza.

Speerwurf *m; -(e)s; -würfe Sport.* nayza uloqtirish.

Speiche *f; -; -n;* kegay, sim *(velosiped spitsasi).*

Speichel *m; -s; -;* so'lak, so'lakay, tupuk; **der ~ im Mund laufen** og'zidan so'lagi oqmoq.

Speichellecker *m; -s; -;* laganbardor, xushomadgo'y; **ein ~ sein** xushomadgo'ylik qilmoq.

Speichelleckerei *f; -; -en;* laganbardorlik, xushomadgo'ylik.

speicheln *vt.* so'lak oqmoq.

Speicher *m; -s; -;* 1. ombor. 2. (suv saqlanadigan) rezervuar. 3. akkumulyator.

Speicherbecken *n; -s; -;* suvombor.

speichern *vt.* 1. saqlamoq, (saqlash uchun) yig'moq, to'plamoq. 2. (energiya) yig'moq, jamg'armoq.

Speicherung *f; -; -en;* 1. saqlash. 2. akkumulyatsiya. 3. to'plash.

speien *vt.* 1. tupurmoq, tuflamoq; **Blut ~** qon tuflamoq. 2. ot(il)ib chiq(ar)moq. 3. qusmoq, qayt qilmoq.

Spell *m; -s; -e;* chivi.q, xivi.ch, novda.

Speise *f; -; -n;* 1. ovqat, taom, oziq; **~ und Trank** suv va non.

Speisefett *n; -(e)s; -e;* ovqatga ishlatadigan yog'.

Speiseeis *n; -es; -;* muzqaymoq.

Speisekammer *f; -; -n;* oziq-ovqat ombori.

Speisekarte *f; -; -n;* taomnoma, menyu.

speisen 1. *vi.* yemoq, ovqatlanmoq. 2. *vt.* boqmoq, ovqatlantirmoq. 3. *Tech.* ta'minlamoq, yetkazib bermoq.

Speiseröhre *f; -; -n; Anat.* qizilo'ngach.

Speisesalz *n; -es; -e;* osh tuzi.

Speisesaal *m; -(e)s; -säle;* ovqatlanadigan xona, oshxona.

speiübel *Adj.* ko'ngli ayniydigan, ko'ngli behuzur; **~ sein** (kongli) behuzur bo'lmoq.

Spektakel *n; -s; -;* 1. shovqun-suron, to'polon; **einen ~ machen** to'polon qilmoq. 2. *Theat.* sahna asari, tomosha, spektakl.

spektakeln *vi.* to'polon qilmoq, shovqun ko'tarmoq.

spektakulär *Adj.* shov-shuvli.

Spektrum *n; -s; Spektren* und *Spektra* spektr, turfa xillik, turli-tumanlik.

Spekulant *m; -en; -en;* spekulyant, olibsotar, chayqovchi.

Spekulation *f; -; -en;* 1. spekulyatsiya, olibsotarlik. 2. subyektiv (asossiz) muhokama, quruq safsata.

spekulieren *vi.* 1. (birovdan) foydalanmoq. 2. olibsotarlik qilmoq; **an der Börse ~** birjada spekulyatsiya qilmoq.

Spelunke *f; -; -n;* 1. qovoqxona, (o'g'ri va qimorbozlar yig'iladigan) yomon joy. 2. katalak uy, kulba, ivirsigan xarob joy.

Spende *f; -; -n;* xayr-ehson, hadya, sadaqa, nazr, tuhfa; **eine ~ machen** tuhfa qilmoq.

spenden *vt.* 1. hadya qilmoq, tuhfa qilmoq. 2. (chiroq, issiqlik) bermoq.

Spendenaktion *f; -; -en;* hadya (tuhfa) yig'ish tadbiri.

Spender *m; -s; -;* xayr-ehson qiluvchi, muhtojlarga yordam qiluvchi shaxs.

spendieren *vt.* 1. mehmon qilmoq, ziyofat qilmoq, pul sarflamoq. 2. hadya qilmoq.

Spenderblut *n; -es; -;* donor(lik) qoni.

Spendier: ~ hosen anhaben saxiylik qilmoq, ziqnalik qilmasdan pul sarflamoq.

Sperber *m; -s; -; Zool.* bedana ovlovchi qiyg'ir, yirtqich qush.

Sperling *m; -s; -e; Zool.* chumchuq.

sperrangelweit *Adv.* lang ochiq, butunlay, katta.

Sperre *f; -; -n;* 1. to'siq, g'ov. 2. *Tech.* stopor, to'xtatish (ushlab qolish) moslamasi. 3. embargo, eksport va importning taqiqlanishi. 4. *Sport.* diskvalifikatsiya.

sperren *vt.* 1. to'smoq, to'sib qo'ymoq, yopib qo'ymoq, bekitmoq. 2. taqiqlamoq, embargo e'lon qilmoq. 3. to'lovni to'xtatib qo'ymoq. 4. diskvalifikatsiya qilmoq. 5. (gaz, elektrni) o'chirib qo'ymoq.

sperrig *Adj.* bahaybat, beso'naqay.

Sperrkonto *n; -s; -konten* to'xtatib qo'yilgan hisob raqami.

Sperrung *f; -; -en;* 1. to'sib bekitish. 2. taqiqlab ko'yish. 3. (hisobni) to'xtatish. 4. diskvalifikazsiya.

Sperrzone *f; -; -n;* to'silgan, taqiqlangan hudud.

Spesen *Pl.* sarf-xarajatlar.

Spesenerstattung *f; -; -en;* xarajatlarni qoplash.

spesenfrei *Adj.* sarf-xarajatsiz, tekin.

Spezerei *f; -; -en;* (xushta'mlik va xushbo'ylik uchun) ziravor, dorivor.

Spezialabteilung *f; -; -en;* alohida (maxsus) bo'lim.

Spezialaufgabe *f; -; -n;* maxsus topshiriq.

Spezialfach *n; -es; -fächer* mutaxassislik, kasb, ixtisos.
spezialisieren *vt.* mutaxassis tayyorlamoq; ~ **sich** mutaxassislikka o'qimoq.
Spezialisierung *f; -; -en;* ixtisoslashtirish.
Spezialist *m; -en; -en;* mutaxassis.
Spezialität *f; -; -en;* 1. o'ziga xoslik. 2. (sevilgan) kasb, mutaxassislik. 3. milliy, o'ziga xos (maxsus) taom.
Spezialschule *f; -; -n;* maxsus maktab.
Spezialwörterbuch *n; -es; -bücher* maxsus lug'at.
speziell *Adj.* 1. *Adj.* maxsus, alohida; **~e Wünsche** alohida istaklar. 2. *Adv.* shaxsan, bevosita. 3. ataylab, atayin. 4. aynan shuning uchun.
Spezifik *f; -; -;* o'ziga xoslik.
Spezifikum *n; -s; -Spezifika* o'ziga xoslik (xususiyat).
spezifisch *Adj.* o'ziga xos, spetsifik.
Sphäre *f; -; -n;* soha, doira.
Spiegel *m; -s; -;* 1. oyna; ko'zgu 2. reflektor. 3. aks, tasvir. 4. yorqiroq, silliq yuza, sath.
Spiegelbild *n; -(e)s; -er;* oynadagi tasvir, aks etish, ko'rsatish; **j-m sein ~vorhalten (entgegenhalten)** kimgadir uning asl qiyofasini ko'rsatmoq.
spiegelblank *Adj.* oynadek toza, oynadek yarqiragan.
Spiegelei *n; -(e)s; -er;* qovurilgan tuxum.
spiegelglatt *Adj.* oynadek tep-tekis.
spiegeln *vt.* 1. aks ettirmoq; tasvirlamoq. 2. ~ **sich** aks etmoq. 3. yarqiramoq.
Spiegelung *f; -; -en;* aks, aks etish.
Spiel *n; -(e)s; -e;* 1. o'yin, musobaqa, ijro; **die Olympischen ~e** olimpiada o'yinlari. 2. sahna ko'rinishi. 3. to'plam, sidra. 4. karta o'yini.
Spielalter *n; -s; -;* bolalik yoshi.
Spielart *f; -; -en;* 1. tur, xil. 2. o'yin usuli.
Spielball *m; -(e)s; -bälle* 1. to'p, koptok. 2. *Sport.* (tennisdagi) g'alaba topi, oxirgi zarba.
spielen *vt., vi.* 1. o'ynamoq; **Ball ~** koptok o'ynamoq; **Puppenmutti ~** qo'g'irchoq o'ynamoq. 2. ijro etmoq, namoyish etmoq, ko'rsatmoq; **Heute spielt man Faust** bugun Faust spektaklini ko'rsatishadi. 3. sodir bo'lmoq. 4. o'zini ko'rsatmoq.
spielend *Adj.* oson, qiyinchiliksiz.
Spieler *m; -s; -;* 1. o'yinchi. 2. muziqa (kuy) ijrochisi. 3. artist. 4. qimorvoz.
Spielerei *f; -; -en;* 1. o'yin. 2. ermak. 3. arzimagan narsa (voqea).
spielerisch *Adj.* 1. oson, qiyinchiliksiz. 2. o'yinga tegishli. 3. yuzaki, jiddiy emas.
Spielfeld *n; -es; -er;* sport maydoni.
Spielfilm *m; -(e)s; -e;* badiiy film.
Spielführer *m; -s; -;* jamoa sardori.
Spielkasino *n; -s; -s;* kazino, qimorxona.
Spielleiter *m; -s; -;* 1. rejissyor. 2. o'yin boshqaruvchisi.
Spielplan *m; -s; -pläne* 1. o'yinlar jadvali. 2. *Theat.* repertuar.
Spielregel *f; -; -n;* oyin qoidasi.
spielstark *Adj.* kuchli *(o'yinda).*
Spielwaren *Pl.* o'yin anjomlari, mahsulotlari, sport mollari.
Spielzeit *f;* 1. tomosha vaqti. 2. *Sport.* o'yin davom etadigan vaqt.
Spielzeug *n; -es; -e;* o'yinchoq.
Spielzimmer *n; -s; -;* oyin xonasi.
Spieß *m; -es; -e;* 1. kabob sixi. 2. nayza, uzun nayza.
Spießbürger *m; -s; -;* 1. mahalliy, tub joyli kishi. 2. tor manfaatni o'ylovchi, meshchan.
Spießbock *m; -(e)s; -böcke Zool.* bug'u.
Spießchen *n; -s; -;* qilich, shpaga.
spießen *vt.* 1. sanchmoq, tiqmoq. 2. (sanchib) mahkamlamoq.
Spießer *m; -s; -;* mahalliy (tub) aholi. 2. *Zool.* bug'u.
spießerhaft *Adj.* 1. mahalliy, tub. 2. tor fikrlab, meshchanlarcha.
Spike {*βpaik*} *m; -s; -s;* 1. tishli (sirg'anmaydigan) yugurish shippagi, tuflisi. 2. tishli pokrishka.

Spinal orqa miyaga oid; **~e Kinderlähmung** bolalarning orqa miya falaji.

Spinat *m; -(e)s; -e; Bot.* ismaloq.

Spind *m;* und *n; -(e)s; -e;* tor shkaf, javon.

Spindel *f; -; -n;* 1. (aylanma) o'q. 2. *Tech.* shpindel. 3. *Chem.* areometr. 4. vintning tirgagi, ustuni.

spindeldürr *Adj.* tarashadek ozg'in.

Spinne *f; -; -n; Zool.* o'rgimchak; **Pfui ~!** Qanday rasvolik!

spinnenfeind *Adj.* ashaddiy dushman; **einander ~ sein** bir birini o'limdan battar yomon ko'rmoq, bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q.

spinnen I *vt.* 1. yigirmoq, ip yigirmoq. 2. to'qimoq, o'rmoq. 3. o'ylab topmoq, to'qib tashlamoq. **II** *vi.* uydirma, bo'lmagan narsani to'qib tashlamoq; **Du spinnst?** Aqling joyidami?

Spinnennetz *n; -es; -e;* o'rgimchak uyasi.

Spinnentier *n; -es; -e;* o'rgimchaksimonlar oilasiga kiruvchi hayvon.

Spinner *m; -s; -;* 1. yigiruvchi. 2. yolg'onchi, uydirmachi; **Du ~!** Aqling joyidami! 3. qarmoqqa bog'lanadigan yaltiroq baliqcha. 4. *Zool.* ipak qurti.

Spinnerei *f; -; -en;* 1. ip yigiruv fabrikasi. 2. yudirma fikrlar.

Spinnerin *f; -; -nen;* 1. ip yigiruvchi ayol. 2. yudirmachi, yolg'onchi ayol.

Spinnfaden *m; -s; -fäden* yigirish (o'rish) ipi.

Spinnfaser *f; -; -n;* yigirilgan (eshilgan) tola.

Spinnrad *n; -(e)s; -räder* (ip yigiradigan) charx; **sich ans ~ sitzen** charxda ip yigirmoq.

Spintisieren *vi.* bilimdonlik qilmoq, bilarmonlik qilmoq, o'zini bilarmon qilib ko'rsatmoq, falsafa sotmoq.

Spion *m; -(e)s; -e;* 1. josus, shpion. 2. (eshikdagi) tuynukcha, teshikcha.

Spionage *f; {spionasche} -; -;* josuslik; **~ treiben** josuslik bilan shug'ullanmoq.

Spionageabwehr *f; -; -; Polit.* kontrrazvedka.

spionieren *vi.* 1. josuslik qilmoq. 2. yashirin ta'qib qilmoq.

Spiralbohrer *m; -s; -; Tech.* burama parma.

Spirale *f; -; -n;* 1. spiral, burama chiziq. 2. *Archit.* jimjima, naqsh jimjimasi.

spiralförmig *Adj.* spiral shaklida.

Spiralwindung *f; -; -en;* spiral o'ramlari.

Spirituose *f; -; -n;* spirtli ichimlik.

Spiritus *m; -; -se;* spirt, alkogol.

Spirituslampe *f; -; -n;* spirt (yonilg'isi) bilan yonadigan chiroq.

Spital *n; -s; -Spitäler* shifoxona, kasalxona, gospital.

Spitalkosten *Pl.* (kasalxonada) davolanish xarajatlari.

spitz *Adj.* 1. o'tkir, keskir; **ein ~es Messer** o'tkir pichoq. 2. uchli, qirrali. 3. achchiq (alamli), zaharli; **~e Worte** achchiq so'zlar.

Spitz *m; -es; -e;* 1. (xonaki, kichkina) baroq it, shpits; **mein ~ Spitz!** Gapirchi, aziz do'stim!

Spitzbart *m; -(e)s; -bärte;* (iyakdagi uchli) kalta soqol.

spitzbogen *Adj.* (strelkasimon) uchli gumbaz.

spitzbogig *Adj.* uchli, cho'qqili, ark (peshtoq) shaklida ishlangan.

Spitzbube *m; -n; -n;* 1. mug'ombir, ayyor odam. 2. firibgar, muttaham odam.

Spitzbuberei *f; -; -en;* 1. firibgarlik, muttahamlik. 2. ayyorlik, mug'ambirlik.

Spitzbubenstreich *m; -(e)s; -e;* 1. shumlik, muttahamlik, tovlamachilik, qalloblik. 2. aldamchilik ayyorlk.

Spitzdach *n; -(e)s; -dächer* uchli qubbali tom.

Spitze *f; -; -n;* 1. uch, tig', cho'qqi. 2. mushtuk, mundshtuk. 3. oldingi saf, qator; **an der ~** oldingi safda, (kimningdir) boshchiligida. 4. *Sport.* yetakchi guruh. 5. birinchi o'rin; **die ~**

halten birinchi o'rinni saqlab qolmoq. 6. *Wirt.* **die ~n** ortiqcha, keraksiz narsa.

spitze *Adj.* zo'r, ajoyib.

Spitzel *m; -s; -;* josus, ayg'oqchi, maxfiy agent.

spitzeln *vi.* josuslik, ayg'oqchilik qilmoq.

spitzen *vt.* 1. uchini chiqarmoq, o'tkirlamoq. 2. **~ sich** umid bog'lamoq, (sabrsizlik bilan) kutmoq.

Spitzenarbeiter *m; -s; -;* ilg'or, yetakchi ishchi, peshqadam.

Spitzenbelastung *f; -; -en;* (ish, vazifa) topshiriqning avji.

Spitzenbetrieb *m; -es; -e;* yetakchi korxona, ilg'or muassasa.

Spitzenkönner *m; -s; -;* rekordchi.

Spitzenqualität *f; -; -en;* yuqori (a'lo) nav.

Spitzenzeit *f; -; -en;* 1. tig'iz payt. 2. *Sport.* eng yaxshi vaqt (ko'rsatkich, natija).

spitzfindig *Adj.* aqli o'tkir, ziyrak, topqir, uddoburon, ustamon, quv.

Spitzfindigkeit *f; -; -en;* aqli o'tkirlik, ziyraklik, topqirlik, uddaburonlik, ustamonlik, quvlik.

spitzkriegen *vt.* fahmlamoq, tushunib yetmoq.

Spitzmaschine *f; -; -n;* 1. qayroq, charx. 2. qalam ochadigan asbob.

Spitzname *m; -n; -n;* laqab, taxallus; **einen ~n geben** laqab qo'ymoq.

spitznasig *Adj.* qirraburun, qirg'iyburun.

Spitzwinkel *m; -s; -; Math.* o'tkir burchak.

spitzwinkelig *Adj.* o'tkir burchakli.

spitzzüngig *Adj.* achchiq, zaharhandali, zaharli.

Spleen *(splin) m; -s; -e;* und *-s*; tantiqlik, injiqlik.

spleenig *Adj.* tantiq, injiq; **ein sehr ~er Mann** rosa injiq odam.

spleißen *vt.* suv sepib yuvmoq, chayqamoq.

splendid *Adj.* 1. saxiy, saxovatli, oliyhimmat, hotamtoy. 2. hashamatli, dabdabali, bashang.

Splendidität *f; -; -;* 1. saxovatlilik, saxiylik, hotamtoylik. 2. dabdabalilik, hashamatlilik, bashanglik.

Splintholz *n; -.es; -hölzer Bot.* po'stloq osti qatlami.

Splitt *m; -(e)s; -e;* shag'al (maydalangan tosh).

Splitter *m; -s; -;* 1. parcha, bo'lak, siniq; **die ~ einer Bombe** bomba bo'laklari. 2. zirapcha; **sich einen ~ in den Finger einziehen** barmog'iga zirapcha kirmoq. 3. milk, tirnoqning milki.

splitterfrei *Adj.* parchalanib zarar yetkazmaydigan.

splitt(e)rig *Adj.* 1. parchalanadigan, bo'linadigan. 2. bo'laklarga to'la, milkli.

splittern *vi.* (yog'och) uchib ketmoq, sinib tushmoq.

splitternackt *Adj.* qip yalang'och, yalang'och holda.

sponsern *vt.* homiylik qilmoq, moliyaviy qo'llamoq.

Sponsor *m; -s; -Sponsoren* homiy *(tashkilot, shaxs).*

Sponsorschaft *f; -; -en;* homiylik, moliyaviy qo'llash.

spontan *Adj.* o'z-o'zidan, beixtiyor, stixiyali ravishda, spontan.

Spontanität *f; -; -en;* beixtiyorlik, tartibsiz, o'z-o'zidan ro'y beradigan.

sporadisch *Adj.* onda-sonda, ahyon-ahyonda, ba'zida.

Spore *f; -; -n; Bot.* gulsiz o'simliklarning urchish organi.

Sporn *m; -(e)s; -Sporen* und *-n*; shpora, otliq etigining poshnasiga taqiladigan temir tepki.

spornen *vt.* otni (etik bilan) depsimoq.

Sport *m; -(e)s; -;* sport; **~ treiben** sport bilan shug'ullanmoq.

Sportanzug *m; -es; -anzüge* sport kiyimi.

Sportart *f; -; -en;* sport turi.

Sportartikel *m; -s; -;* sport buyumlari, anjomlari.

Sportfreund *m; -es; -e;* 1. sport ishqibozi, sport shinavandasi. 2. sportchi.

Sportgeschäft *f; -; -e;* sport buyumlari do'koni.
Sportkleidung *f; -; -en;* sport kiyimi (libosi).
Sportlehrer *m; -s; -;* fizkultura (badan tarbiya) o'qituvchisi.
Sportler *m; -s; -;* sportchi; ~ **des Jahres** yilning eng yaxshi sportchisi.
sportlich *Adj.* sportga oid; **in guter ~er Form** yaxshi sport formasida.
Sportplatz *m; -es; -plätze* sport maydonchasi.
Sportwagen *m; -s; -;* sport (poyga) avtomashinasi.
Sportzeitung *f; -; -en;* sport gazetasi.
Spot *m; -s; -s;* (qisqa) reklama e'loni.
Spott *m; -(e)s; -;* piching, istehzo, masxara; **sich zum ~ machen** masxara bo'lmoq.
spottbillig *Adj.* juda arzon, suv tekin.
spötteln *vi.* masax qilib kulmoq, ustidan kulmoq.
spotten *vt.* 1. kalaka (masax, masxara) qilmoq. 2. jirkanmoq, hazar qilmoq.
Spötter *m; -s; -;* mazaxchi *(birovning ustidan kuladigan odam).*
Spottgeld *n; -es; -;* arzimagan pul.
spöttisch *Adj.* kulgili, istehzoli, mazax (mayna) qilib aytilgan; ~ **lächeln** tirjaymoq, ishshaymoq.
Spottpreis *m; -es; -e;* arzon (arzimagan) narx.
sprachbegabt *Adj.* til o'rganishga iqtidorli.
Sprache *f; -; -n;* 1. til; **deutsche ~** nemis tili; **literarische ~** adabiy til. 2. *Ling.* tilga oid belgi va tovushlar tuzimi haqida ta'limot.
Sprachfamilie *f; -; -n; Ling.* tillar oilasi; **indo-europäische ~** hind-yevropa tillari oilasi.
Sprachforscher *m; -s; -;* tilshunos olim, lingvist.
Sprachführer *m; -s; -;* so'zlashuv kitobi, so'zlashgich.
Sprachgeschichte *f; -; -en; Ling.* til tarixi.
Sprachkenntnisse *Pl.* til bilimlari.
Sprachkompetentz *f; -; -en;* til malakasi.
Sprachkunde *f; -; -n;* tilshunoslik fani.
Sprachkurs *m; -es; -e; /* **Sprachkursus** *m; -es; -kurse* til (o'rganish) kursi.
Sprachlehrer *m; -s; -;* til o'qituvchisi.
sprachlich *Adj.* tilga oid, tilga tegishli.
sprachlos *Adj.* 1. tildan qolgan, lol (qolgan); **da bin ich einfach ~** tilim kalimaga kelmay. 2. tilsiz, gung, soqov.
Sprachpflege *f; -; -;* nutq (til) madaniyati.
Sprachunterricht *m; -es; -e;* 1. til o'qitish, o'rgatish. 2. til darsi.
Sprachwissenschaft *f; -; -en;* tilshunoslik fani, lingvi.stika.
Spray {*βprei*} *n;* oder *m;* (bosim bilan purkaluvchi) suyuq modda.
sprayen *vt.* (suv) purkamoq, sepmoq.
Sprechakt *m; -(e)s; -e;* nutq jarayoni (akti).
sprechen I *vt.* gapirmoq, demoq, aytmoq, gaplashmoq, so'zlashmoq.
sprechen II *vt.* hukm chiqarmoq, qaror qilmoq.
Sprecher *m; -s; -;* 1. notiq, orator. 2. guruh vakili. 3. suxandon, diktor. 4. artist. 5. spiker *(parlamentda).*
Sprechkunst *f; -; -künste;* notiqlik san'ati.
Sprechfilm *m; -(e)s; -e;* ovozli film.
Sprechstunde *f; -; -n;* (shifokor, rahbar huzurida) qabul vaqti (soati).
Sprechtag *m; -es; -e;* qabul kuni.
Sprechzimmer *n; -s; -;* 1. shifokor qabulxonasi. 2. rahbar qabulxonasi.
spreizen 1. *vt.* (oyoq, qo'llarni) keng yoymoq, ochmoq. 2. ~ **sich** 1) nozkarashma qilmoq. 2) kekkaymoq, kibrlanmoq.
Sprengbombe *f; -; -n; Milit.* aviabomba, fugas.
sprengen I *vt.* portlatmoq, qo'parmoq. 2. sindirmoq, buzmoq. 3. tarqatib yubormoq, haydab yubormoq. 4. (suv

bilan) yuvib tashlamoq. 5. (majlis, dars) barbod bo'lmoq. **II** *vi.* sakramoq, sakrab o'tmoq, sakrab-sakrab kelmoq, hakkalamoq.

Sprengstoff *m; -es; -e;* portlatish (portlovchi) modda.

Sprengung *f; -; -en;* 1. portlash. 2. buzish, sindirish. 3. (majlis, dars) barbod bo'lish. 4. tarqatish, haydab yuborish *(namoyishni).* 5. qo'porish.

Sprengwagen *m; -s; -;* suv sepish mashinasi.

Sprenkel 1. kichkina dog', dog'cha. 2. mayda xol, ziraxol; **mit ~n** mayda xolli chit. 3. (hayvonlarga oid) ola chipor.

sprenkelig *Adj.* ola-chipor dog'li.

Spreu *f;* chori, to'pon; **die ~ vom Weizen sondern** chorini bug'doydan ajratmoq.

Sprichwort *n; -es; -wörter* maqol; **zum ~ werden** maqolga aylanmoq.

sprichwörtlich *Adj.* 1. maqolga oid; **~e Redensart** matal. 2. taniqli, hamma biladigan.

sprießen *vi.* 1. o'sib chiqmoq, nish urmoq. 2. ochilmoq, gullamoq, kurtak yozmoq. 3. (ekin) unib chiqmoq. 4. ko'karmoq, ko'karib chiqmoq. 5. tug'ilmoq, hosil bo'lmoq, vujudga kelmoq.

Springbrunnen *m; -s; -;* favvora, fontan.

springen *vi.* 1. sakramoq, hakkalamoq. 2. tars etmoq, tarsillamoq. 3. yorilmoq, darz ketmoq, chatnamoq. 4. oqib chiqmoq. 5. to'kilmoq. 6. (mavzudan mavzuga) o'tmoq, sakramoq. 7. (ishdan ishga) o'tmoq, sakramoq, ishni tez-tez o'zgartirib turmoq.

Springer *m; -s; -;* 1. sakrovchi *(sportchi).* 2. turli sohalarga jalb etiluvchi ishchi. 3. *Schach.* ot, asp.

Springinsfeld *-(e)s; -e;* 1. (harakatchan) bola. 2. yengiltak odam.

Springpferd *n; -(e)s; -e;* (to'siqlardan sakrashga o'rgatilgan) ot.

Springseil *n; -(e)s; -e;* sakrabodom, sakramachoq.

Sprint *m; -(e)s; -e; Sport.* sprint, qisqa masofaga yugurish.

Sprinter *m; -s; -; Sport.* sprinter, qisqa masofaga yuguruvchi.

sprintern *vi.* 1. (qusqa masofaga) yugurmoq. 2. tezlikni oshirmoq.

Sprit *m; -s; -;* 1. spirt, sof alkogol. 2. yonilg'i.

Spritze *f; -; -n;* 1. ukol, teri ostiga dori yuborish. 2. shprits.

Spritzbahn *f; -; -en;* yaxmalak, suv sepib yaxlatilgan maydon.

spritzen I *vt.* 1. purkamoq, sepmoq, sachratmoq. 2. purkab sug'ormoq. 3. purkatib (changlatib) sepmoq. 4. rang bermoq. 5. gaz suv qo'shmoq. **II** *vi.* 1. sachramoq. 2. sepalamoq; **es spritzt** yomg'ir sepalayapti.

Spritzfahrt *f; -; -en;* qisqa (davom etadigan) safar.

spritzig 1. fishshillaydigan. 2. dono, oqilona, ajoyib. 3. jonli, sho'x, o'ynoqi; **Spielen Sie bitte etwas ~es!** Iltimos, sho'xrog'idan bo'lsin (chaling)!

Spritzigkeit *f; -; -;* 1. zukkolik, donolik. 2. jonlilik, o'ynoqilik.

Spritzwasser *n; -s; -;* tomchi, qatra.

spröde *Adj.* 1. sinuvchan, tez sinadigan, uvalanuvchan. 2. qurushgan, dag'al quruq (sochga oid). 3. xirillagan. 4. yaqinlashib bo'lmaydigan, mustahkam.

Sprödigkeit *f; -; -;* 1. sinuvchanlik, uvalanuvchanlik. 2. quruqshganlik, dag'allik. 3. xirildoqlik, xirillaganlik. 4. egallanmaslik, yaqinlashib bo'lmaslik.

Sproß *m; -sses; -sse;* 1. qochish, qochib ketish. 2. avlod, nasl, urug'. 3. yolg'iz farzand. 4. novda, butoq.

Sprosse *f; -; -n;* 1. *Sport.* turnik. 2. novda, butoq.

sprossen *vi.* nish urmoq, unib chiqmoq.

Sprößling *m; -s; -e;* 1. novda, shox. 2. nasl, zot, zurriyot, yolg'iz (erkatoy) farzand.

Sprotte *f; -; -n;* shprot *(dudlanib pishirilgan baliq).*

Spruch *m; -(e)s; -sprüche* hikmatli gap, chuqur ma'noli ibora. 2. *Jur.* hukm, hukmnoma; **einen ~ fällen** hukm chiqarmoq.

Spruchband *n; -(e)s; -bänder* yozuvli transparant, banner.

Spruchweisheit *f; -; -en;* xalq zakovati (donishmandligi), xalq hikmati.

Sprudel *m; -s; -;* 1. gazli mineral suv. 2. limonad.

sprudeln *vi.* 1. buloq bo'lib otilib chiqmoq, pufakcha chiqarmoq. 2. burqiramoq, (suv) ayqirab oqmoq. 3. juda tez gapirmoq.

sprudelnd *Adj.* qizg'in, qaynoq, jo'shqin, serg'ayrat.

sprühen I *vt.* (olov, tutun) chiqarmoq, otmoq, tashlamoq. **II** *vi.* 1. to'kilmoq, sochilmoq. 2. yaltiramoq. 3. tomchilamoq; **es sprüht** yomg'ir tomchilaydi, maydalab yog'yapti.

Sprühregen *m; -s; -;* mayda yomg'ir.

Sprung *m; -(e)s; -Sprünge* 1. sakrash, itg'ish. 2. *Philos.* (juda tez ro'y bergan) o'zgarish. 3. yoriq, darz.

Sprungbereit *Adj.* sakrashga tayyor.

Sprungfeder *f; -; -n;* prujina.

sprunghaft *Adj.* 1. yengil, betayin, bekorga lovillab ketadigan. 2. izchil emas, poyma-poy. 3. bir tekis emas, sakrab-sakrab rivojlanish.

Sprunghöhe *f; -; -n;* sakrash balandligi.

Sprungwurf *m; -es; würfe Sport.* sakrab to'p tashlash (otish).

Spucke *f; -; -n;* so'lak, so'lakay, tupuk.

spucken I *vt.* tupurmoq, tuplamoq. 2. o'qchimoq, ko'ngli aynimoq; **Darauf spucke ich!** Men bunga tupuraman! **II** *vi.* tutun chiqarmoq, (olov) otilib chiqmoq.

Spuk *m; -(e)s; -e;* arvoh, ko'lanka, xayoliy sharpa, tasavvurdagi qiyofa. 2. shovqin, to'polon, dahshat.

spuken *vi.* hozir bo'lmoq, paydo bo'lmoq.

Spukgeist *m; -es; -e;* arvoh, ko'lanka.

Spikhaus *n; -es; -häuser* arvohli uy.

Spukschloß *n; -sses; -schlösser;* arvohli qasr.

Spülbecken *n; -s; -;* (suvda) chayqaydigan qurilma (idish).

Spule *f; -; -n; Text.* (kalava o'raladigan) g'altak.

spulen *vt. Text.* o'ramoq, kalava qilmoq, g'altakka o'ramoq.

spülen *vt.* chayqamoq; chaymoq; **den Mund ~** og'izni chayqamoq.

Spüler *m; -s; -;* 1. idish yuvuvchi. 2. yuvish krani.

Spulerei *f; -; -en;* kalava o'rash (kalavalash) sexi.

Spulerin *f; -; -nen; Text.* kalavachi *(ayol).*

Spülmaschine *f; -; -n;* idish yuvish mashinasi.

Spülmittel *n; -s; -;* (idish, kir) yuvish vositasi *(kukun).*

Spülung *f; -; -en;* chayqash, chayish, yuvish, tozalash.

Spülwasser *n; -s; -;* yuvindi, mag'zava, tashlandiq.

Spund *m; -; -spünde;* 1. teshikni yopish uchun tiqin. 2. xom, tajribasiz odam.

Spur *f; -; -en;* 1. iz, yo'l. 2. qoldiq; **frische ~** yangi iz; **~ entdecken** izni topmoq; **einer ~ folgen, eine ~ verfolgen** izidan bormoq, iziga tushmoq.

spürbar *Adj.* sezilarli.

spuren *vi.* 1. quloq solmoq, bo'ysunmoq. 2. yo'l o'tkazmoq.

spüren *vt.* 1. *vt.* sezmoq, his qilmoq; **Schmerz ~** og'riq sezmoq. 2. (hayvonlarga oid) sezmoq; **Wild ~** yovvoyi qushni sezmoq.

Spürhund *m; -es; -e;* iskovuch it.

spurlos *Adj.* izsiz, nomu nishonsiz.

Spurt *m; -(e)s; -e; Sport.* 1. siltash, siltov, siltab (ko'tarish, otish), spurt; **im ~ siegen** siltab (ko'tarishda) yutmoq. 2. siltanish; **in einem ~** bir siltanishda.

spurten *vi.* 1. *Sport.* siltanmoq, siltanib oldinga chiqmoq. 2. shoshilmoq.

spurtschnell *Adj.* juda tez.

Spurweite *f; -; -n;* iz(ning) kengligi.
sputen sich shoshilmoq, shoshmoq, oshiqmoq; **Spute dich!** Shoshil!
Sputum *n; -s; -Sputa Med.* balg'am.
Staat *m; -es; -en;* 1. *Polit.* davlat, saltanat. 2. shtat, viloyat *(AQShda).* 3. *Bot.* oila. 4. dabdaba, hashamat, savlat, saltanat, ko'rkamlik. 5. kiyim bosh, libos; **seinen besten ~ anziehen** o'zining eng ko'rkam libosini kiymoq.
Staatenbund *m; -es; -bünde;* davlatlar ittifoqi.
staatenlos *Adj.* fuqorolikka ega emas.
staatlich *Adj.* davlatga tegishli; **~er Schutz** davlat himoyasida.
Staatlichkeit *f; -; -;* davlatchilik.
Staatsangehörigkeit *f; -; -;* fuqoralik.
Staatsanwalt *m; -(e)s; -anwälte* prokuror, qoralovchi.
Staatsbank *f; -; -en;* davlat banki.
Staatsbeamte *m; -n; -n;* davlat xodimi, amaldor.
Staatsbesuch *m; -es; -e; Polit.* davlat tashrifi.
Staatsbetrieb *m; -es; -e;* davlat korxonasi.
Staatbewußtsein *n;* siyosiy onglilik.
Staatsbudget byd3e:} *n; -s; -s;* davlat byudjeti.
Staatsburger *m; -s; -;* fuqaro.
Staatsflagge *f; -; -n;* davlat bayrog'i.
Staatschef *m; -s; -s;* davlat boshlig'i.
Staatsschuld *f; -; -en;* davlat qarzi.
Staatsprüfung *f; -; -en;* davlat imtihoni.
Staatswappen *n; -s; -;* davlat gerbi.
Stab *m; -(e)s; -stäbe* 1. tayoq, tayoqcha, cho'p. 2. *Milit.* harbiy tuzilma, uyushma. 3. *Tech.* sterjen, tayoqcha. 4. *Sport.* xoda, uzun tayoq.
Stäbchen *n; -s; -;* 1. kichik tayoqcha; **mit ~ essen** tayoqchalar bilan ovqat yemoq. 2. ustuncha. 3. *Sport.* (estafeta) tayoqchasi.
stabförmig *Adj.* tayoqsimon.
Stabhochspringer *m; -s; -;* tayoq (langarcho'p) bilan sakrovchi *(sportchi).*
Stabhochsprung *m; -(e)s; -sprünge Sport.* tayoq bilan balandlikka sakramoq.
stabil *Adj.* barqaror, turg'un, mustahkam, stabil.
Stabilisator *m; -s; -toren Tech.* stabilizator, bir xil ishlashni ta'minlovchi moslama.
Stabilisieren *vt.* barqarorlashtirmoq; **~ sich** barqarorlashmoq.
Stabilität *f; -; -en;* barqarorlik, turg'unlik.
Stabilitätspolitik *f; -; -;* barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan siyosat.
Stabsoffizier *m; -s; -e; Milit.* shtab ofitseri.
Stachel *m; -s; -;* 1. *Bot.* tikan, tikanak. 2. *Zool.* (ari, chayonga oid) nish, nishtar, nayza, tikan. 3. tirnoqli sport poyabzali.
Stacheldraht *m; -(e)s; -drähte* tikanli sim.
Stachelhäuter *Pl. Zool.* ignatanlilar.
stach(e)lig/stachlich *Adj.* 1. tikanli. 2. zaharli, botadigan. 3. (bir) gapdan qolmaydigan, bo'sh kelmaydigan.
stacheln *vi.* sanchilmoq, kirmoq, botmoq.
Stachelschwein *n; -(e)s; -e; Zool.* jayra.
Stadion *n; -s; -stadien* stadion; **im ~** stadionda.
Stadium *n; -s; -Stadien* bosqich, palla, stadiya.
Stadt *f; -; -Städte* shahar; **große ~** katta shahar; **außerhalb der ~** shahar tashqarisida; **in; ~ und Land** hamma joyda, barcha yerda, shahar-u qishloqda.
Stadtarchiv *n; -(e)s; -e;* shahar arxivi.
stadtauswärts *Adv.* shahar tashqarisida.
stadtbekannt *Adj.* barchaga ma'lum, hamma biladigan.
Stadtbevölkerung *f; -; -en;* shahar aholisi.
Stadtbewohner *m; -s; -;* shaharlik, shaharda yashaydigan.
Stadtbezirk *m; -(e)s; -e;* shahar qismi, shaharga qarashli tuman.
Städtebau *m; -(e)s; -;* shaharsozlik, shahar qurilishi.

Städter *m; -s; -;* shaharlik, shaharda yashovchi.

Stadtmitte *f; -; -n;* shaharning ichki qismi, shahar markazi.

Stadtrundfahrt *f; -; -en;* shahar bo'ylab ekskursiya.

Stafette *f; -; -n;* 1. xabar yetkazish aloqasi, estafeta. 2. kuryer, (bevosita) xabar yetkazuvchi shaxs. 3. ekskort, (avtotransport yoki otlardan iborat) kuzatuv guruhi. 4. *Sport.* estafeta, (tayoqcha uzatib) yugurish turi, estafetali yugurish.

Staffel *f; -; -n;* 1. *Sport.* estafeta, estafetali yugurish. 2. *Milit.* eskadrilya, havo qurolli kichlari qismi. 3. teng qator *(mototsikl, kema, samolyotlarga oid).*

Staffellauf *m; -es; -läufe Sport.* estafeta, estafetali yugurish.

staffeln *vt.* 1. differensiyalamoq, farqlamoq, guruhlamoq, ajratib taxlamoq. 2. *Milit.* eshalon shaklida uchmoq. 3. bisqichma-bosqich qurmoq.

Staffelstab *m; -(e)s; -stäbe;* estafeta tayoqchasi.

Stagnation *f; -; -en; Wirt.* turg'unlik, stagnatsiya.

stagnieren *vi.* 1. turg'unlik holatida bo'lmoq, qotib qolmoq. 2. turib (aynib) qolmoq. 3. bir joyda turib qolmoq.

Stahl *m; -(e)s; Stähle* 1. po'lat; **aus ~** po'latdan (yasalgan). 2. xanjar.

Stahlarbeiter *m; -s; -;* po'lat quyvchi, erituvchi.

Stahlbeton *m; -s; -;* temir-beton.

stählen *vt.* chiniqtirmoq, toblamoq; **sich ~** chiniqmoq.

stählern *Adj.* po'latdan; po'latga oid; **~e Nerven** asablari kuchli.

Stahlfeder *f; -; -n;* 1. po'latdan yasalgan pero. 2. po'latdan qilingan prujina.

Stahlgießer *m; -s; -;* po'lat quyuvchi.

Stahlhütte *f; -; -n;* po'lat quyish zavodi.

Stahlkammer *f; -; -n;* seyf.

Stahlwerk *n; -es; -e;* po'lat erituvchi zavod.

staksen *vi.* beso'naqay yurmoq.

staksig *Adj.* 1. besonaqay. 2. uzunoyoq. 3. kamhosil, nimjon.

Stakseligkeit *f; -; -en;* 1. beso'naqaylik. 2. kamhosillik, nimjonlik.

Stall *m;* -(e)s; Ställe molxona, otxona.

Stallfütterung *f; -; -;* mollarni og'ilxonada boqish.

Stallung *f; -; -en;* chorvachilik inshooti.

Stamm *m; -(e)s; Stämme* 1. tana, poya. 2. qabila, urug'. 3. *Ling.* o'zak..

Stammbaum *m; -es; -bäume* 1. genealogiya, nasabnoma, nasl-nasab tarixi. 2. shajara, sanai shajara.

Stammbelegschaft *f; -; -en;* doimiy tarkib (jamoa).

Stammelei *f; -; -en;* duduqlik, soqovlik.

stammeln *vi.* ming'irlamoq, to'ng'illamoq, duduqlanmoq; **~d sprechen** duduqlanib gapirmoq.

stammen *vi.* 1. kelib chiqmoq. 2. qarashli bo'lmoq.

Stammeshäuptling *m; -es; -e;* qabila sardori.

stammhaft *Adj. Ling.* jarangli *(tovushga oid).*

stämmig *Adj.* to'la, to'ladan kelgan, miqti, norg'il *(odam).*

Stammkunde *m; -n; -n;* doimiy mijoz.

Stammutter *f; -; -mütter* 1. asoschi, asos solgan ona. 2. *(hayvonlarga oid)* zotli, nasldor moda.

Stammplatz *m; -es; -plätze* doimiy joy, muntazam o'rin.

Stammtisch *m; -es; -e;* diomiy mehmonlar uchun stol (dasturxon).

Stammvater *m; -s; -väter* urug' boshlig'i, urug' oqsoqoli.

stammverwandt *Adj.* bir qabilaga mansub.

Stammvokal *m; -(e)s; -e; Ling.* o'zakdagi unli tovush.

Stammwort *n; -es; -wörter Gramm.* so'z o'zagi.

stampfen I 1. *vt.* shibbalamoq, zichlamoq. 2. yanchmoq, tuymoq, yormoq.

II *vi.* 1. depsinmoq. 2. qiynalib yurmoq, o'g'ir qadam tashlamoq. 3. (kemaga oid) chayqalmoq. 4. (motorga oid) bo'g'iq ovoz chiqarmoq, taqillab qolmoq.

Stampfer *m; -s; -;* 1. shibbalagich, zichlagich. 2. kelisop, kelidasta.

Stand *m; -(e)s; -Stände* 1. o'rin, joy. 2. hol, ahvol. 3. mavqe, tutgan o'rni. 4. daraja. 5. *Sport.* hisob, natija; **nach dem ~ fragen** o'yin hisobini so'ramoq.

Standard *m; -s; -s;* 1. standart, umumiy talab, me'yor; **zum ~ werden** me'yorga aylanmoq. 2. daraja.

standardisieren *vt.* talab darajasiga tushirmoq, standardizatsiya qilmoq.

Standardsprache *f; -; -n;* adabiy til.

Standardwerk *n; -es; -e;* ilmiy jihatdan namunaviy asar.

Standarte *f; -; -n;* 1. davlat ramzi. 2. kichik bayroq. 3. (bo'ri, tulki) dumi.

Ständchen *n; -s; -;* tabrik qo'shig'i.

standfest *Adj.* mustahkam, baquvvat.

Stander *m; -s; -;* 1. (avtomobilga o'rnatilgan) bayroqcha, vimpel, taniqlik belgisi. 2. tokcha, polka.

Ständer *m; -s; -;* 1. ilgak, kiyim ilgich. 2. tokcha, polka. 3. (qurol uchun) ustun, peshtaxta, tokcha.

Standesamt *n; -(e)s; -ämter* (fuqarolik holati dalolatnomalarini yozuvchi idora

standesamtlich *Adj.* idoraviy, qoniniy; **~ heiraten, sich trauen lassen** qonuniy nikohdan o'tmoq.

Standbild *n; -es; -bilder;* haykal, statuya.

Standgeld *n; -(e)s; -er;* joy puli.

standhaft *Adj.* mahkam, mustahkam, qattiq; chidamli, yengilmas.

Standhaftigkeit *f; -; -;* matonatlik, mardonavorlik.

standhalten *vi.* 1. bardosh bermoq, chidamoq, chekinmaslik. 2. sinovdan o'tmoq.

ständig *Adj.* 1. doimiy, muntazam. 2. qat'iy.

ständish *Adj.* tabaqaga oid, tabaqaga asoslangan.

Standort *m; -(e)s; -e;* 1. joy, turarjoy, joylashuv. 2. *Milit.* dislokatsiya, joylashuv.

Standpunkt *m; -es; -e;* 1. nuqtayi nazar, fikr, qarash, mulohaza. 2. **Joy vom~ der Wissenschaft aus** fan nuqtayi nazardan qaraganda.

Standrecht *n; -(e)s; -;* favquloddagi (harbiy, tabiiy) hodisa.

Standuhr *f; -; -en;* tikka (o'zi turadigan) soat.

standwild *Adj.* o'troq, muqim yashaydigan yovvoyi qush.

Standzeit *f; -; -en;* bekor (to'xtab) turish, bo'sh turish.

Stange *f; -; -n;* 1. xoda, uzun tayoq, (tovuqlar uchun) qo'noq, qo'ndoq. 2. *Tech.* o'q, temir uzatkich, xipchin, chiviq. 3. o'zi turadigan kiyim ilgich. 4. (yulib olingan) shox. 5. *Forstw.* sinch, xodacha, tayoq.

stangenförmig *Adj.* tayoqsimon, tayoq shaklida.

Stänkerei *f; -; -en;* buzuqlik, buzg'unchilik.

stänkern *vt.* 1. sassiq, badbo'y hid tarqatmoq. 2. buzg'unchilik qilmoq.

Stanze *f; -; -n; Tech.* muhr, muhrlab ishlab chiqarish mashinasi.

stanzen *vt.* qoliplamoq, qoliplab (stampovka usulida) ishlab chiqarmoq.

Stapel *m; -s; -;* dasta, bog'lam, tax. 2. *Tech.* tola uzunligi.

Stapelholz taxlangan, sarjin o'tin.

stapeln *vt.* 1. taxlamoq. 2. jamlamoq, yig'moq. 3. **~ sich** yig'ilmoq, to'planmoq.

Stapelung *f; -; -en;* taxlash, taxlab yig'ish.

Stapelware *f; -; -n;* taxlanma (taxlanadigan) mol, mahsulot.

stapelweise *Adv.* taxlangan shaklda, dastalangan.

stapfen *vi.* qiynalib (zo'rg'a) yurmoq.

Star I *m; -(e)s; -e; Zool.* chug'urchiq.

Star II *m; -s; -s; Med.* katarakta *(ko'z kasalligi, ko'z gavharining xiralanishi).*

Star III *m; -s; -s;* taniqli aktyor, yulduz *(kino va teatrda);* ~ **des Theaters** sahna yulduzi.

Starfußballer *m; -s; -;* futbol yulduzi, mashhur futbolchi.

stark *Adj.* 1. kuchli, katta, qudratli; ~**er Wind** kuchli shamol. 2. kuchli, irodali; **ein** ~**er Mann** kuchli odam. 3. ko'p, ko'p sonli; ~ **gesalzen** ko'p tuz sepilgan.

Starenkasten *m; -s; -kästen;* chug'urchuq uyasi.

starkbehaart *Adj.* sersoch, serjun, sochlari hurpaygan.

starkbevölkert *Adj.* aholisi zich.

Stärke I *f; -; -n;* 1. kuch. 2. qalinlik, chidamlilik. 3. qattiqlilik, o'tkirlilik. 4. quvvat.

Stärke II *f; -; -n;* kraxmal, ohor, nishasta.

stärkehaltig *Adj.* kraxmalli, ohorli.

stärken I *vt.* kuchaytirmoq, mustahkamlamoq; ~ **sich** kuchaymoq, mustahkamlanmoq.

stärken II *vt.* kraxmallamoq, ohorlamoq.

Stärkung *f; -; -en;* mustahkamlash, kuchay(tir)ish, kuch-qudratini oshirish.

starr *Adj.* 1. qotib qolgan, harakatsiz. 2. o'jar, qaysar, izchil, qat'iy.

Starre *f; -; -n;* 1. harakatsizlik, sustlik, sustkashlik. 2. o'jarlik, qaysarlik.

starren *vi.* 1. (qotib) qarab qolmoq. 2. qoplanmoq, to'la bo'lmoq.

Starrheit *f; -; -;* 1. harakatsizlik, sustkashlik, tikilish, tikilib qarash, diqqat bilan tikilish. 2. o'jarlik, qaysarlik.

Starrkopf *m; -(e)s; -köpfe* o'jar, qaysar, manman odam.

Starrsinn *m; -es; -;* qaysarlik, o'jarlik.

starrsinnig *Adj.* qaysar, o'jar.

Start *m; -s; -s; selten; -e;* 1. *Sport.* start uchun; **an den** ~ **gehen** startga chiqmoq. 2. boshlanish, boshlanish joyi; **der** ~**ins Leben** (mustaqil) hayotning boshlanishi.

starten I *vi.* 1. (musobaqa); boshlanmoq, start olmoq. 2. yo'l olmoq. **II** *vt.* (raketani) uchirmoq. 2. (motorni) o't oldirmoq. 3. boshlab yubormoq.

Starter *m; -s; -;* 1. *Tech.* starter. 2. musobaqa qatnashchisi.

Startgenehmigung *f; -; -en; Sport.* musobaqada ishtirok etishga ijozat berish.

Startschuß *m; -sses; -schüsse; Sport.* o'q uzib musobaqani boshlash.

Station I *f; -; -en;* stansiya, bekat; ~ **der Eisenbahn** temiryo'l stansiyasi.

Station II *f; -; -en;* 1. bo'lim. 2. *Milit.* o'quv mashg'uloti joyi.

stationieren 1. *vt.* joylashtirmoq. 2. *Milit.* harbiy baza sifatida joylashmoq.

statisch *Adj.* turg'un, jim holat.

Statistik *f; -; -en;* statistika.

statistisch *Adj.* statistikaga oid; ~**e Angaben** statistik ma'lumotlar.

statt *Konj.* o'rniga; ~ **zu weinen, lacht er** yig'lash o'rnoga kulyapti.

Stätte *f; -; -n;* manzilgoh, joy, yer, o'rin.

stattfinden *vi.* bo'lmoq, bo'lib o'tmoq, voqe bo'lmoq sodir bo'lmoq.

stattgeben *vt.* (iltimosni, arizani) qanoatlantirmoq, qondirmoq.

statthaft *Adj.* joiz, yo'l qo'yilgan, ruxsat berilgan.

stattlich *Adj.* qaddi-qomati kelishgan, xushbichim, (bino haqida) haybatli, salobatli.

Stattlichkeit *f; -; -;* xushbichimlilik, salobatlik.

Statue *f; -; -n;* statuya, kichik haykal.

Statuette *f; -; -n;* kichik haykal.

Status *m; -; -;* 1. mavqe. 2. ahvol, vaziyat. 3. status, maqom.

Status quo ayni paytdagi mavqe.

Status quo ante avvalgi mavqe.

Statut *n; -(e)s; -en;* nizom, ustav; **nach dem** ~ nizomga muvofiq.

statutengemäß *Adj.* nizomga muvofiq.

statutenwidrig *Adj.* nizomga zid (qarshi).

Stau *m; -(e)s; -s;* und *-e;* 1. to'planish, yig'ilib qolish, tirbandlik, tiqilinch. 2. suv tirgovchi moslama.

Staub *m; -(e)s; -;* chang; **den** ~ **wischen** changni artmoq; **sich aus dem**

~ **machen** qochib qolmoq, quyon bo'lmoq.

staubbedeckt *Adj.* chang bosgan.

Staubbesen *m; -s; -;* chang supurgich.

stauben *vt., vi.* changitmoq, changimoq, chang bosmoq.

staubig *Adj.* chang(li); **ein ~er Weg** chang yo'l.

Staubsauger *m; -s; -;* changyutgich.

Staubtuch *n; -(e)s; -tücher* changlatta.

Staubzucker *m; -s; -;* qand tolqoni.

stauchen *vt.* 1. urmoq, zarba bermoq; ~ **sich** urib olmoq, zarba yemoq. 2. bosib taxlamoq, zichlamoq. 3. yassilamoq, yassi qilmoq (temirni). 4. silkimoq, silkib zichlamoq.

Staucher *m; -s; -;* tanbeh, qattiq gap, ta'zir, koyish.

Staudamm *m; -(e)s; -dämme* to'g'on, suv to'g'oni.

Staude *f; -; -n;* 1. *Bot.* ko'p yillik o'simlik *(o't, gul).* 2. bosh, bir bosh *(karam).*

staudenartig *Adj.* serpoya, to'p bo'lib o'sadigan.

stauen 1. *vt.* suvni bo'g'moq, suv yo'lini to'smoq. 2. (kemaga) yuk ortmoq; ~ **sich** yig'ilib qolmoq, to'planmoq.

Stauer *m; -s; -;* 1. port ishchisi. 2. portda yuk ortuvchi.

staunen *vi.* (**über A**) ajablanmoq, hayron bo'lmoq.

Staunen *n; -s; -;* ajablanish, hayron qolish.

staunenerregend *Adj.* ajablantiruvchi, g'aroyib.

staunenswert *Adj.* ajablanarli, ajib, ajoyib.

Staupe *f; -; -n;* 1. *Med.* o'lat. 2. qamchi bilan jazolash.

Stausee *m; -s; -n;* suvombor.

Stauwerk *n; -es; -e;* to'g'on.

Steak *n; {βtek} -s; -s; Kulin.* qovurilgan mol go'shti.

stechen *vt.* 1. suqmoq, sanchmoq. 2. o'ymoq. 3. so'ymoq, so'yib o'ldirmoq. 4. (karta o'yinida) karta bilan urmoq. 5. (metalga) o'yib yozmoq. 6. qirqmoq, kesmoq; *vi.* **die Sonne sticht** quyosh qizdirmoqda (kuydirmoqda).

stechend *Adj.* o'tkir, achishtiradigan, tikanakli.

Stecher *m; -s; -;* 1. o'ymakor, hakkok, naqqosh. 2. changak, ilgak. 3. tumshuq.

Stechpalmengewächs *Pl. Bot.* nayzabarglilar.

Stechschritt *m; -es; -e;* safdagi qadam; **im** ~ safdagi (tantanavor) qadam bilan.

Steckbrief *m; -es; -e;* (jinoyatchini) qidiruv haqida e'lon.

Steckdose *f; -; -n; El.* rozetka, elektr asboblarni tarmoqqa ulaydigan moslama.

stecken I *vt.* 1. tiqmoq; suqmoq. 2. mablag' qo'ymoq. 3. (daraxt) o'tkazmoq. 4. pichirlamoq, shivirlamoq. 5. **zu sich** ~ (cho'ntagiga) urmoq. 6. (sanchib) taqib qo'ymoq. **II** *vi.* 1. yotmoq (joylashmoq); **da steckt der Brief** xat bu yerda yotibdi. 2. (reja, g'oyaga) to'la bo'lmoq. 3. (orqasida) turmoq. 4. chiqib turmoq, ko'rinib turmoq. 5. (mablag') qo'yilgan bo'lmoq.

Stecken *n; -s; -;* 1. tayoq. 2. sinch, xoda.

Steckenpferd *n; -es; -e;* o'yinchoq ot.

steckenbleiben *vi.* (*s*) tiqilib qolmoq, botib qolmoq.

Stecker *m; -s; -; El.* stepsel, rozetkaga tiqiladigan moslama (vilka).

Steckkissen *n; -s; -;* chaqaloq o'raladigan kiyim (konvert).

Stecknadel *f; -; -n;* to'g'nag'ich, nina to'g'nag'ich.

Steg *m; -(e)s; -e;* 1. kichik ko'prik. 2. kemani (arqon bilan) bog'lab qo'yadigan joy, prichal, so'qmoq yo'l.

Stegreif: aus dem ~ birdaniga, tayyorgarliksiz, qo'qqisdan.

Stehaufmännchen *n; -s; -;* tekyotmas, (yotqizib qo'ysa o'zi turib ketadigan) o'yinchoq.

steh(e)n I *vi.* turmoq *(vertikal holatda),* turib qolmoq. 2. (yo'nalishga) qaralgan bo'lmoq; **der Wind steht nach dem Westen** shamol g'arb-

ga qarab esmoqda. 3. (hol-ahvolga, vaziyatga tegishli); **Seine Chancen ~ gut** uning imkoniyatlari yaxshi. 4. (kiyimga oid) yarashmoq, to'g'ri kelmoq. 5. (hayvonlarga oid) yashamoq, bor bo'lmoq, uchrab turmoq. **II ~ sich** 1. ahvoli yaxshi bo'lmoq. 2. (birov bilan) munosabatga kirishmoq. 3. **sich müde ~** juda charchamoq.

stehenbleiben *vi.* 1. to'xtab qolmoq, qotib qolmoq. 2. saqlanib qolmoq.

stehend *Adj.* 1. turg'un; **~er Ausdruck** turg'un ibora. 2. turgan joyda, turib. 3. (suvga oid) turib qolgan, ko'lmak.

stehenlassen *vt.* 1. e'tiborsiz qoldirmoq. 2. qo'l urmasdan qoldirmoq. 3. (esdan chiqarib) qoldirmoq.

Stehkneipe *f; -; -n;* gazakxona, qisqa muddatda ovqatlanadigan joy, bir zumda qahvahonasi.

Stehlampe *f; -; -n;* o'zi turadigan qandil, torsher.

stehlen 1. *vt.* o'g'irlamoq, o'g'irlik qilmoq. 2. **~ sich** pisib, asta-sekin ketib qolmoq; **j-m den Schlaf ~** kimnidir uyqusini o'g'irlamoq.

Stehler *m; -s; -;* o'g'ri.

Stehplatz *m; -es; -plätze* (transportda) turib ketadigan, (teatrda, stadionda) turib ko'radigan joy.

steif *Adj.* 1. harakatsiz, qotib qolgan. 2. qattiq, dag'al, qo'pol. 3. kuchli.

steifen *vt.* ohorlamoq (kraxmallamoq), (qaddini) rostlamoq, to'g'irlamoq.

Steifheit *f; -; -;* 1. harakatsizlik, bukilmaslik. 2. bosiqlik, og'irlik, vazminlik.

Steig *m; -(e)s; -e;* tikka so'qmoq.

Steigbügel *m; -s; -;* uzangi.

Steigbügelhalter *m; -s; -;* hamtovoq, sherik.

steigen *vi.* (*s*) 1. ko'tarilmoq, chiqmoq; **auf den Berg ~** toqqa ko'tarilmoq (chiqmoq). 2. (tepadan pastga) tushmoq. 3. chirmashib chiqmoq, suqilib kirmoq. 4. chiqib olmoq. 5. (devordan) oshib tushmoq.

streigern *vt.* 1. oshirmoq, yuksaltirmoq. 2. ko'chaytirmoq; **~ sich** ohmoq, ko'payoq.

Streigerung *f; -; -en;* ko'tarilish, ko'payish, oshirish, yuksalish.

Steigerungsstufe *f; -; -n; Gramm.* sifat darajasi.

steil *Adj.* tik, tikka.

Steilheit *f; -; -;* tiklik, tikkalik.

Stein *m; -es; -e;* 1. tosh; **echter ~** qimmatbaho tosh. 2. g'isht. 3. meva danagi. 4. *Sport.* shashka *(o'yin).*

steinalt *Adj.* juda qari, juda eski.

Steinarbeiter *m;* tosh yotqizuvchi, tosh teruvchi; **~ boden** toshloq yer.

Steinbauer *m; -s; -;* toshtarosh, sangtarosh, tosh yo'nuvchi.

Steinbild *n; -es; -er;* tosh haykal.

steinern *Adj.* toshdan (yasalgan).

steinig *Adj.* toshloq; **ein ~es Ufer** toshli qirg'oq.

steinhart *Adj.* toshdek qattiq.

steinigen *vt.* tosh bilan o'ldirmoq.

Steinigung *f; -; -;* tosh bilan urib, toshbo'ron qilib o'ldirish.

Steinkohle *f; -; -n;* toshko'mir.

Steinkohlebergbau *m; -(e)s; -;* toshko'mir qazib chiqarish.

Steinmauer *f; -; -n;* tosh devor.

Steinobst *n; -es;* danakli meva.

steinreich *Adj.* 1. toshli, toshi ko'p. 2. juda boy; **ein ~er Mann** juda boy kishi.

Steinwurf *m; -(e)s; -würfe;* toshbo'ron; **nur ein ~ entfernt** bir qadam, uzoq emas.

Steinzeit *f; -; -;* tosh asri.

Stele *f; -; -n;* yodgorlik toshi.

Stellage {*stelaʒe*} *f; -; -n;* 1. stellaj. 2. beso'naqay narsa. 3. havoza.

Stelldichein *n; -s; -;* uchrashuv, visol; **ein ~ verabreden** uchrashuv belgilamoq.

Stelle *f; -; -n;* 1. o'rin, joy, ish o'rni. 2. muassasa. 3. **an ~** o'rniga; **an Ort und ~ sein** joyida bo'lmoq.

stellen *w.* 1. qo'ymoq; joyiga qo'ymoq. 2. (vakil) ajratmoq. 3. ushlamoq. 4.

eine Bedingiung ~ shart qo'ymoq. **II** ~ **sich** 1. yig'ilmoq. 2. paydo bo'lmoq, yetib kelmoq. 3. ro'para bo'lmoq. 4. o'zini (boshqa) ahvolga solmoq. 5. munosabatda bo'lmoq.

Stellenangebot *n; -es; -e;* ish o'rni taklif qilish.

Stellengesuch *n; -(e)s; -e;* ishga joylashish haqida ariza.

Stellenmarkt *m; -es; -märkte Wirt.* mehnat bozori.

stellenweise *Adv.* har xil (turli) joyda.

Stellenwert *m; -es; -e;* ahamiyat, muhim o'rin.

Stellung *f; -; -en;* 1. o'rin, martaba, mavqe. 2. *Milit.* pozitsiya; joylashuv. 3. vaziyat, holat. 4. joylashish (o'rnashish) tartibi. 5. ish o'rni.

Stellungnahme *f; -; -n;* fikr (munosabat) bildirish.

Stellungskrieg *m; -es; -e; Milit.* pozitsion urush.

stellungslos *Adj.* ishsiz; ~ **sein** ishsiz bo'lmoq.

stellvertretend *Adj.* o'rniga, 1. **der** ~**e** o'rinbosar. 2. ~ **für jmn. sprechen** birovning o'rniga gapirmoq.

Stellvertreter *m; -s; -;* o'rinbosar, muovin; **einen** ~ **stellen** o'rinbosar tayinlamoq.

Stellvertretung *f; -; -en;* o'rinbosarlik, muovinlik.

Stelzbein *n; -(e)s; -e;* 1. oyoq protezi, yasama oyoq. 2. yasama oyoqli odam.

Stelze *f; -; -n;* 1. yog'ochoyoq. 2. *Zool.* jiblajibon.

stelzen *vi.* yog'ochoyoqda yurmoq.

Stelzenläufer *m; -s; -; Zirkus.* yog'ochoyoqda yuruvchi artist.

Stemmarbeit *f; -; -en;* zarblab, o'yib amalga oshiriladigan ish.

Stemmen *vt.* 1. (og'ir yuklarni) ko'tarmoq. 2. zarb bilan o'ymoq, teshmoq. 3. (kuch ishlatib) oldinga intilmoq. 4. (ko'tarib) ichmoq, ichib yubormoq; ~ **sich** (biron narsaga) taqalmoq.

Stempel *m; -s; -;* 1. muhr. 2. tamg'a, belgi.

stempeln *vt.* 1. muhr bosmoq. 2. (birovga) tamg'a bosmoq, ayblamoq.

Stengel *m; -s; -; Bot.* poya, yaproq poyasi.

stenographieren *vt.* stenografiya qilmoq, (og'zaki matnni) yozuvga tushirmoq.

Stenogramm *n; -(e)s; -e;* stenogramma.

Step *m; -s; -s;* 1. *Zool.* tog'chumchuq *(modasi).* 2. raqs turi.

Steppdecke *f;* qavilgan (paxtali) ko'rpa.

Steppe *f; -; -n;* cho'l; **in der** ~ cho'lda.

steppen *vt.* 1. qavimoq, qavi.q qilmoq. 2. raqsga tushmoq.

Steppenadler *m; -s; -; Zool.* cho'l burguti.

Sterbebett *n; -(e)s; -en;* o'lim to'shagi.

Sterbegewand *n; -(e)s; -Gewänder* kafan.

sterben *vi.* vafot etmoq, o'lmoq; **einen schnellen Tod** ~ nogahon (to'satdan) o'lmoq.

sterbekrank *Adj.* o'lar holatda, halokatli (o'limli) kasal.

sterblich *Adj.* 1. o'limga oid, qazoga tegishli. 2. o'lguday, g'oyat, juda.

Sterblichkeit *f; -; -;* o'lim miqdori, o'lim darajasi.

Stereoanlage *f; -; -n; Elektrotech.* stereofonik, o'ta aniq ovoz eshittirish uskunasi.

Stereotyp *n; -s; -e;* bir qolipli, stereotip.

steril *Adj.* 1. toza, mikroblardan toza, steril. 2. *Bio. Med.* steril, urchumaydigan.

Sterilisation *f; -; -en;* (mikroblardan) tozalash, sterilizatsiya.

sterilisieren *vt.* steriolizatsiya qilmoq.

Stern *m; -(e)s; -e;* 1. *Astron.* yulduz. 2. (san'at sohasida) mashhur, taniqli shaxs.

Sternbild *n; -es; -er;* yulduzlar turkumi, burj.

Sternstunde *f; -; -n;* eng baxtli davr, yulduzli on(lar), damlar.

stet *Adv.* muntazam, har doim.

stetig *Adj.* muntazam, doimiy, tinmaydigan.

stets *Adv.* doim, hamma vaqt.

Steuer I *f; -; -n;* 1. soliq; ~ **einehmen** soliq olmoq. 2. soliq idorasi.

Steuer II *n; -s; -;* rul; **~ führen, regieren** rulni boshqarmoq.

Steuerabzug *m; -(e)s; -abzüge* soliq chegirmasi.

steuerbar *Adj.* 1. boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan. 2. soliq solinadigan.

Steuerbefreiung *f; -; -;* soliqdan ozod qilish.

Steuerberater *m; -s; -;* soliq bo'yicha maslahatchi, ekspertiza.

Steuererhebung *f; -; -en;* soliq yig'ish.

Steuererklärung *f; -; -en;* soliq deklaratsiyasi.

steuerfrei *Adj.* soliqdan ozod qilingan.

steuerlich *Adj.* soliqqa oid.

steuerlos *Adj.* boshqaruvsiz, rulsiz.

Steuermann *m; -es; -männer* shturman, rul boshqaruvchi kishi.

steuern I *vt.* boshqarmoq; **einen Kraftwagen ~** avtomobilni boshqarmoq. **II** *vi.* yurmoq.

steuerpflichtig *Adj.* soliqqa tortilgan.

Steuerpolitik *f; -; -;* soliq siyosati.

Steuersatz *m; -es; -sätze* soliq miqdori.

Steuersenkung *f; -; -en;* soliqni pasaytirish.

Steuerung *f; -; -en;* 1. boshqaruv. 2. boshqaradigan uskuna.

Steuerzahler *m; -s; -;* soliq to'lovchi.

Steward {*βtyuart*} *m; -s; -s;* styuard, (avia)bort kuzatuvchisi.

Terminplan *m; -s; -pläne;* tadbirlar (yozma) rejasi.
Terminüberschreitung *f; -; -en;* muhlatning (muddatning) o'tib ketishi.
Terminus *m; -; -termini;* atama, termin; **technischer ~** texnik atama.
Terminverlängerung *f; -; -en;* muddatni cho'zish.
Terra *f; -; -; Geogr.* yer, planeta.
Terra incognita *f; -; -;* ochilmagan (o'zlashtirilmagan) joy, o'lka.
Terrain *n; {tärẽ}-s; -s;* joy, yer, o'lka, yurt; **in unwegsamem ~** o'tib bo'lmas joyda.
Terrarium *n; -s; -terrarien* terrarium, (hayvonot bog'ida) sudraluvchilar saqlanadigan qafas.
Terrasse *f; -; -n;* ayvon, peshayvon, terrasa.
Terrassengarten *m; -s; -gärten;* ayvonoldi bog', bog'cha.
territorial *Adj.* yer maydoni jihatidan, teritorial, hududiy.
Territorium *n; -s; -territorien;* territoriya, yer maydoni, hudud.
Terror *m; -s; -;* terror, qo'poruvchilik; **~ ausüben** terror amalga oshirmoq.
Terrorist *m; -en; -en;* qo'poruvchi, terrorist.
terrorisieren *vt.* qo'poruvchilik qilmoq, dahshat solmoq.
terroristisch *Adj.* terroristik; **~e Handlung** terroristik harakat.
Test *m; -(e) s; -s;* selten *-e;* sinov, sinash, tekshirish, test.
Testament *n; -(e)s; -e;* 1. vasiyat, vasiyatnoma; **sein ~ machen** vasiyat qilmoq. 2. *Rel.* muqaddas kitob, injil; **das Alte ~** qadimgi Ahd; **das Neue ~** yangi Ahd.
testen *vt.* sinamoq, tekshirmoq, test o'tkazmoq.
Tester *m; -s; -;* sinovchi, tekshiruvchi.
Testfahrer *m; -s; -;* sinovchi-haydovchi.
testieren *vt.* 1. tasdiqlamoq. 2. *Jur.* vasiyatnoma tuzmoq.
Teststopp *m; -s; -e;* (yadro qurollari) sinovlarining to'xtashi.
Tete-a-tete *n; -; -s; (tet-a-tet) n, -; -s;* yakkama-yakka uchrashuv.

teuer *Adj.* 1. qimmat; qimmatbaho, narxi baland; ~ **werden** qimmatlashmoq. 2. qimmatli, muhtaram; **Teure Freunde!** Muhtaram do'stlar!

Teuerung *f; -; -en;* narx-navoning oshishi; qimmatlik.

Teufel *m; -s; -;* shayton, iblis, jin; **zum ~!** Jin ursin!

teuflisch *Adj.* 1. *Adj.* jahldor. 2. *Adv.* zo'r, rosa.

Text *m; -es; -e;* matn, so'z *(qo'shiqniki)*, libretto *(operada)*; **weiter im ~** davom etamiz.

Textanalyse *f; -; -n;* matn tahlili.

texten *vt.* 1. reklama matni tuzmoq. 2. qo'shiqqa matn tuzmoq.

Textil *n; -s; -ien* 1. to'qilgan material. 2. *Pl.* kiyim-kechak.

Textilarbeiter *m; -s; -;* to'qimachi; to'qimachi ayol.

Textilien *Pl.* to'qilgan gazmol, gazmol.

Textilindustrie *f; -; -n;* to'qimachilik sanoati.

Theater *n; -s; -;* 1. teatr binosi. 2. spektakl namoyishi. 3. teatr jamoasi.

Theaterabend *m; -s; -e;* oqshomgi spektakl.

Theateraufführung *f; -; -en;* spektakl, pyesa.

Theaterdichter *m; -s; -;* bastakor, dramaturg.

Theatermaler *m; -s; -;* teatr rassomi.

Theaterplan *m; -s; -plāne;* teatr dasturi.

Theaterstück *n; -s; -e;* teatr spektakli, pyesa.

theatralisch *Adj.* 1. teatrga oid. 2. tomoshabop.

Theke *f; -n;* peshtaxta *(barda)*; **an der ~** peshtaxta oldida.

Thema *n; -s; -themen;* mavzu; **aktuelles ~** dolzarb mavzu.

Thematik *f; -; -en;* keng qamrovli mavzu.

thematisieren *vt.* mavzuga aylantirmoq, mavzu qilmoq.

Themenkreis *m; -es; -e;* mavzular doirasi.

Theologie *f; -; -;* teologiya, dinshunoslik.

Theorem *n; -s; -e; Math.* teorema.

Theoretiker *m; -s; -;* nazariyachi, teoretik.

theoretisch *Adj.* nazariy; **~e Grammatik** nazariy grammatika.

theoretisieren *vt.* nazariya darajasiga olib chiqmoq.

Theorie *f; -; -theorien;* nazariya, teoriya; **~ und Praxis verbinden** nazariya va amaliyotni bog'lamoq.

Therapeut *m; -en; -en; Med.* terapevt, ichki kasalliklar shifokori.

Therapie *f; -; -Therapien Med.* terapiya, ichki kasallikni davolash.

Thermometer *n; -s; -;* termometr, harorati o'lchaydigan asbob.

Thermophor *m; -en; -en;* grelka, og'rigan joyga qo'yiladigan issiq suv solingan isitkich.

Thermosflasche *f; -; -n;* termos, issiq yoki sovuq suvni saqlaydigan idish.

These *f; -; -n;* tezis, asosiy fikrning qisqa talqini.

Thespiskarren *m; -s; Theatr.* 1. sayyor guruh sahnasi. 2. sayyor guruh.

Thriller *m; -s; -;* triller, qo'rqinchli syujetli roman, film.

Thron *m; -(e)s; -e;* taxt; **den ~ besteigen** taxtga o'tirmoq

Thronentsagung *f; -en;* taxtdan voz kechish

Tronfolge *f; -;* taxt vorisligi.

Thronfolger *m; -s; -;* taxt vorisi.

Thunfisch *m; -es; -e; Zool.* tun balig'i.

ticken *vi.* tiqillamoq, chiqillamoq (soat).

Ticket *n; -s; -s;* chipta; **das ~ im voraus buchen** oldindan chiptaga buyurtma bermoq.

Ticktack *n; -s; -s;* 1. taq-taq (tovushi). 2. soat.

tief I *Adj.* 1. chuqur. 2. jiddiy, puxta, o'tkir. 3. kech. 4. juda kuchli. 5. dardli; **~e Trauer** chuqur qayg'u.

tief II *Adv.* chuqur; ~ **graben** chuqur qazimoq.

Tiefbau *m; -s; -e;* und *-bauten;* 1. yer osti inshooti. 2. yer osti qurilish ishlari.

Tiefdruck *m; -s; -drücke*; 1. past (kuchsiz) bosim. 2. *Polygr.* botiq bosma.
Tiefe *f; -; -n;* chuqurlik; ~ **des Meeres** dengiz chuqurligi.
Tiefebene *f; -; -n;* pasttekislik.
Tiefkühlfach *n; -es; -fächer*; sovutgichning kuchli muzlatuvchi qismi.
Tiefland *n; -es; -länder*; tekislik, pasttekislik.
tiefliegend *Adj.* past tekislik yer.
tiefsinning *Adj.* chuqur fikrli; ma'noli.
Tiegel *m; -s; -;* tova, qozoncha.
Tier *n; -es; -e;* hayvon; **wildes** ~ yovvoyi hayvon; **zahmes** ~ qo'la o'rgatilgan hayvon.
Tierart *f; -en*; hayvon turlari zoti
Tierarzneikunde *f; -; -;* veterinariya.
Tierarzt *m; -es; -ärzte*; mol doktori.
Tierbändiger *m; -s; -;* hayvon o'rgatuvchi.
Tiergarten *m; -s; -gärten;* hayvonot bog'i; zoopark.
tierisch *Adj.* 1. chorvaga oid; ~**e Produktion** chorva mahsuloti. 2. hayvonlarcha.
Tierkunde *f; -; -n;* zoologiya.
Tierzucht *f; -; -züchten*; chorvachilik.
Tierzüchter *m; -s; -;* chorvador.
Tiger *m; -s; -; Zool.* yo'lbars;
Tigerherz *n; -ens; -en;* bag'ritosh berahm, shafqatsiz kishi.
tigern *vi.* kezmoq, kezib yurmoq.
Tilde *f; -; -n; Ling.* qo'shtirnoq.
tilgen *vt.* 1. yo'q qilmoq, bitirmoq, tugatmoq, yo'qotmoq, qirib tashlamoq. 2. to'lamoq *(qarzni)*. 3. aybini bekitmoq.
Tilgung *f; -; -en;* bartaraf qilish, tugatish, yo'q qilish.
Time-out *n; -s; -s; Sport.* taym-aut *(o'yin paytidagi qisqa tanaffus)*.
Tinnef *m; -s; -;* 1. arzimagan, maydachuyda bezak, befoyda buyum. 2. safsata, bema'ni gap.
Tinte *f; -; -n;* siyoh; **mit** ~ **schreiben** siyoh bilan yozmoq.
Tintenfaß *n; -fasses; -fässer* siyohdon.
Tintenfisch *m; -es; -e; Zool.* karakatitsa *(yumshoq badanli dengiz mollyuskasi)*.
Tintenstift *m; -es; -e;* siyoh qalam.
tintig *Adj.* 1. siyoh bilan bo'yalgan; ~**e Hände** siyohli qo'llar. 2. siyohrang.
Tip *m; -s; -s;* 1. ishora, ko'rsatish. 2. maslahat. 3. (lotereyada) taxmin. 4. choy puli.
tippeln *vi.* 1. yayov yurmoq, 1. mayda qadamlar bilan yurmoq.
tippen I *vt.* (kompyuterda, mashinkada) yozmoq. 2. (biror narsaga) tegmoq. 3. eslatmoq. 4. taxmin qilmoq. 5. (lotereyada) to'g'ri javobni tanlamoq, pul tikmoq.
Tippfehler *m; -s; -;* bosma xato.
Tippschein *m; -es; -e;* lotereya chiptasi.
tipptopp *Adj.* nuqsonsiz, kam-ko'stsiz, bejirim; ~ **gekleidet** bejirim kiyingan.
Tisch *m; -es; -e;* 1. stol, xontaxta; **am** ~ **Platz nehmen** stol atrofiga o'tirmoq. 2. ovqat mahali, taom payti; **bei** ~ ovqat vaqtida; **nach** ~ ovqatdan keyin; **Zu** ~! Dasturxonga kelinglar!
Tischdecke *f; -; -n;* dasturxon.
tischfertig *Adj.* dasturxonga (tortishga) tayyor.
Tischkarte *f; -; -n;* taomnoma.
Tischlein *n; -es; -e;* kichik xontaxta.
Tischleindeckdich *n; -; -;* ochil dasturxon.
Tischler *m; -s; -;* duradgor.
Tischlerei *f; -; -en;* duradgorlik ustaxonasi; duradgorlik hunari.
tischlern *vi.* duradgorlik qilmoq.
Tischrede *f; -; -n;* qadah so'zi, qadah ko'tarish; **eine** ~ **halten** nutq so'zlamoq.
Tischtennis *n; -; -; Sport.* stol tennisi.
Tischtuch *n; -es; -tücher* dasturxon.
Tischwein *m; -(e)s; -e;* oddiy vino.
Tischzeit *f; -; -en;* tushlik vaqti.
Titan I *m; -s; -; Chem.* titan, kimyoviy modda.
Titan II *m; -en; -en; Myth.* ulkan, devsifat, bahaybat shaxs; ~ **der Arbeit** zahmatkash.
titanenhaft *Adj.* juda katta, ulkan, zo'r; ~**e Arbeit** ulkan ish.
Titel *m; -s; -;* 1. sarlavha. 2. unvon.
Titelanwärter *m; -s; -;* unvonga da'vogar.
Titelkampf *m; -es; -kämpfe*; *Sport* birinchilik uchun o'tkaziladigan musobaqa.

Titelträger *m; -s; -; Sport.* unvon sohibi, egasi.

Toast {toßt} *m; -(e)s; -e;* und *-s*; qadah so'zi, tost; **einen ~ auf jemanden ausbringen** qadah so'zi aytmoq. 2. qizdirilgan (non) bo'laklari.

Toastbrot *n; -(e)s; -e;* (tosterda) qizdirilgan non (bo'laklari).

toasten 1. qadah so'zi aytmoq. 2. (tosterda) qizdirib olmoq.

Toaster *m; -s; -;* toster, non qizdiradigan maxsus elektr asbobi.

toben *vt.* 1. shiddat bilan mavj urmoq, avj olmoq. 2. g'avg'o ko'tarmoq. 3. *vi.* quturmoq; **der Sturm tobt** bo'ron avj olmoqda, avjiga chiqmoqda.

Tobsucht *f; -; -;* quturish, talvasaga (g'azabga) tushish.

tobsüchtig *Adj.* quturgan, g'azablangan.

Tochter *f; -; -Töchter* qiz (farzand); **die ~ des Hauses** uy bekasi; **sich unter den Töchtern des Landes umsehen** kelin qidirmoq.

Tochterbetrieb *m; -es; -e;* korxona filiali.

Tod *m; -(e)s; -;* o'lim; **zu ~e kommen** vafot etmoq.

todblaß *Adj.* rangi (murdaday o'liknikiday) oqargan.

Todesangst *f; -; -ängste*; o'limdan qo'rqqanday qo'rqish, o'lim vahimasi.

todgeweiht *Adj.* o'limga mahkum.

Todesstoß *m; -es; -stöße*; halokatli (kuchli va o'limga olib kelgan) zarba.

Todesstrafe *f; -; -n;* o'lim jazosi; **die ~ abschaffen** o'lim jazosini bekor qilmoq.

Todesurteil *n; -(e)s; -e;* o'lim hukmi; **über j-n ein ~ fallen** o'limga hukm qilmoq.

Todfeind *m; -es; -e;* ashaddiy dushman.

todkrank *Adj.* tuzalmas kasal, bedavo.

todmüde *Adj.* juda charchagan, o'lguday horigan.

töf, töf! po'sht, po'sht! *(yo'ldan qochishga ogohlantirish).*

Toffee *n; -s; -s;* (toffi) karamel *(yumshoq konfet).*

Toi, toi, toi! omadingizni bersin! *(tilak).*

Toilette *f; -; -;* 1. kiyim-bosh, kiyim; libos. 2. pardoz. 3. hojatxona.

Toilettenseife *f; -; -n;* atir sovun.

tolerant *Adj.* bag'ri keng, sabr-toqatli.

Toleranz *f; -; -en;* 1. bag'rikenglik, sabr-toqatlik. 2. *Tech.* me'yordan biroz chekinish, og'ish.

tolerieren *vt.* sabr-toqatli bo'lmoq, bag'rikenglilik qilmoq.

toll *Adj.* 1. quturgan. 2. jinni, tentak; **Bist du ~?** Jinnimisan? 3. kuchli. 4. ajoyib; **~!** zo'r!

tollen *vt.* (yarashmas qiliqlar bilan) shovqin solmoq.

Tollheit *f; -; -en;* qiliq, yarashmas harakat.

Tollwut *f; -; -; (Tier) Med.* (hayvonlarning) quturish kasali; **die ~ haben** quturmoq.

tollwütig *Adj.* quturgan.

Tolpatsch *m; -(e)s; -e;* beso'naqay (kishi).

tolpatschig *Adj.* beso'naqay, beo'xshov, kelishmagan.

Tolpatschigkeit *f; -; -;* beso'naqaylik, beo'xshovlik.

Tölpel *m; -s; -;* befahm (befarosat) odam.

Tölpelei *f; -; -;* befahmlik, befarosatlik.

Tölpelhaft/tölpisch *Adj.* befahm, befarosat.

Tomate *f; -; -n; Bot.* pomidor.

Tomatenketchup *n;* und *m; -s; -s; Kulin.* pomidor ketchupi.

Tomatenmark *n; -(e)s; -;* pomidor pastasi, tomat.

Tomatensalat *m; -(e)s; -e;* pomidor salati shakarob achiq-chuchuk.

Ton I *m; -(e)s; -Töne*; loy, gil; **Gefäße aus gröberen (feinem) ~** (mayin) loydan qilingan idishlar.

Ton II *m; -(e)s; Töne*; 1. ovoz, ohang. 2. urg'u. 3. muomala.

Ton III *m; -(e)s; Töne*; tus, rang; **heller ~** yorqin bo'yoq rang.

tonal *Adj. Mus.* ton (ohangga) oid, ohang ...

tonangebend *Adj. (sohada)* yetakchi, boshqaruvchi.

Tonbandgerät *n; -s; -e;* magnitofon.
Tonbild *n; -(e)s; -er;* musiqiy manzara
Tondichter *m; -s; -;* bastakor, kompozitor.
Tondichtung *f; -en;* musiqiy asar.
tönen *vi.* 1. rang bermoq. 2. maqtanmoq. 3. yangramoq, ovoz kelmoq.
Tonfall *m; -es; -fälle;* 1. intonatsiya, gap, nutq ohangi. 2. *Mus.* tovush darajasi.
Tonfilm *m; -es; -e;* ovozli film.
Tonkrug *m; -es; -krüge* loydan yasalgan ko'za.
Tonkünstler *m; -s; -;* sozanda, bastakor.
Tonleiter *m; -s; -; Mus.* gamma *(ketma-ket avjga chiqadigan yoki pasayib boradigan tovushlar qatori).*
tonlos *Adj.* 1. tovushsiz, ohangsiz. 2. urug'siz; **eine ~e Stimme** ohangsiz ovoz.
Tonnage {*tonnasche*} *f; -; -n;* hajm, tonnaj.
Tonne *f; -; -n;* 1. tonna *(og'irlik o'lchovi).* 2. katta dumaloq idish, bochka.
tonnenweise *Adv.* 1. tonnalab. 2. bochkalab.
Tönung *f; -; -en;* bo'yoq, rang, tus.
top *Adj.* eng (juda) yaxshi.
Top *n; -s; -s;* ayollar ko'ylagi (yengsiz).
Topf *m; -(e)s; -töpfe;* 1. qozoncha. 2. tuvak. 3. xumcha, kuvacha.
Töpfer *m; -s; -;* kulol.
Töpferei *f; -; -en;* 1. kulolchilik. 2. kulolchilik ustaxonasi.
töpfern *vt.* kulolchilik qilmoq, yasamoq.
Topliste *f; -; -n;* yetakchilar ro'yxati.
Topmanager *m; -s; -; Wirt.* yetakchi menedjer.
Topographie *f; -; -n; Med. Meteor.* topografiya
topp: ~! 1. Mayli! Bo'ladi! 2. (bahs boylashda) Qo'l tashladik! Garov o'ynaymiz!
Tor I *n; -(e)s; -e;* 1. darvoza. 2. *Sport.* gol.
Tor II *m; -en; -en;* tentak, befarosat, ahmoq, befahm odam.
Torchance *f; -; -n; Sport.* gol kiritish imkoniyati.
Torf *m; -(e)s; -e; -e;* torf *(botqoq yerlaridagi o'simliklarning chirishidan hosil bo'lgan yoqilg'i).*
torfig *Adj.* torfli; **~es Gebiet** torfli hudud.
Torheit *f; -; -en;* tentaklik, jinnilik.
Torhüter *m; -s; -; Sport.* darvozabon.
toricht *Adj.* jinnicha, tentaklarcha.
Torflager *n; -s; -;* torf koni.
Torfmoor *n; -(e)s; -e;* torfga boy botqoqlik.
Tornado *m; -s; -s;* 1. o'ta kuchli dovul. 2. *Milit.* jangovar samolyot.
Torte *f; -; -n; Kulin.* tort **ein Stück** ~ bir bo'lak tort.
Tortur *f; -; -en;* azob, qiynoq.
Torwart *m; -(e)s; -e;* 1. *Sport.* darvozabon. 2. darvozabon, darvoza qorovuli.
tosen *vi.* olmoq, to'lqinlanmoq, guvillamoq, bo'ron-dovul guvillamoqda (hayqirmoqda).
tot *Adj.* o'lik, jonsiz; ~ **sein** o'lmoq; **ein ~es Tier** o'lik hayvon.
total *Adj.* 1. umumiy. 2. to'la. 3. yalpi.
totalitär *Adj.* totalitar, (yakka) hukmron.
Totalsumme *f; -; -n;* umumiy (yakuniy) summa.
totarbeiten *vi.* ishlab tinkasi qurimoq.
Tote *m; -en; -en;* o'lik, o'lgan kishi, marhum.
töten *vt.* o'ldirmoq; **sich** ~ o'zini o'ldirmoq.
Totenbahre *f; -; -n;* katafalk, tobut.
Totengräber *m; -s; -;* go'rkov.
Totenhemd *n; -es; -e;* marhum kiyimi.
Totenschädel *m; -s; -;* kalla (suyaklari) skeleti.
totenstill *Adj.* suv quyganday jimjit.
totlachen *vi.* o'lguday kulmoq.
totsaufen *vi.* o'lguncha ichmoq (qattiq mast bo'lmoq).
totschießen *vt.* otib o'ldirmoq.
Totschlag *m; -es; -schläge;* qotillik, odam o'ldirish; **einen ~ begehen** qotillik sodir etmoq.
totschlagen *vt.* urib o'ldirmoq.

totschweigen *vt.* (atayin) indamay qo'ymoq, indamay qoldirmoq.
Tour *f; -; -en;* [tu:r] 1. sayohat, sayr; **eine ~ machen** sayohat qilmoq. 2. tur, davra.
touren *vi.* sayohat qilmoq, sayohatga chiqmoq.
Tourismus *m; -; -;* turizm, sayohat.
Tourist *m; -en; -en;* sayyoh, turist.
Touristenhotel *n; -s; -;* sayyohlar mehmonxonasi.
touristisch *Adj.* turistik; **~e Reise** turistik sayohat.
Tournee {*turne*} *f; -; -; Toerneen* turne *(san'atkorlarning asarlarini namoyish etish uchun safar).*
toxigen *Adj. Med.* zaharli, tarkibida zahar bor.
toxisch *Adj.* zaharli, zaharlovchi.
Trab *m; -(e)s; -;* (otga oid) yo'rg'a yurish.
Trabant *m; -en; -en; Astron. (sun'iy)* yo'ldosh.
traben *vi.* yo'rg'a yurmoq, yo'rg'alamoq.
Traber *m; -s; -;* yo'rg'a ot.
Trabrennbahn *f; -; -en;* ippodrom, ot chopar.
Trabrennen *n; -s; -;* ot chopish, ot poygasi.
Tracht *f; -; -en;* 1. libos, milliy (hududiy, kasbiy) libos; **die ~ von Krankenschwestern** hamshiralarning kasb kiyimi. 2. asalarilarning emishi, ozuqasi.
trachten *vt.* erishmoq, intilmoq.
Trachtenfest *n; -es; -e;* (milliy) liboslar bayrami.
trächtig *Adj.* (hayvonlarga oid) bo'g'oz, homilador.
Trächtigkeit *f; -; -en;* bo'g'ozlik, homiladorlik.
Tradition *f; -; -en;* an'ana; **alte ~en pflegen** qadimgi an'analarni saqlab qolmoq.
traditionell an'anaviy; **eine ~e Feier** an'anaviy bayram.
traditionsgemäß *Adj.* an'anaga ko'ra.
tragbar *Adj.* 1. ixcham, qulay. 2. mevali, hosildor. 3. ko'chma.
Trage *f; -; -n;* zambil.
träge *Adj.* erinchoq, sust, bo'shang.
tragen I *vt.* 1. ko'tarmoq, ko'tarib olib bormoq. 2. kiyim kiymoq, kiyib yurmoq.
tragen II *vi.* hosil (meva) bermoq.
Träger *m; -s; -;* 1. yuk tashuvchi. 2. ustun. 3. aviakema. 4. ega, sohib; **~ einer Medaille** medal sohibi.
Trägerrakete *f; Milit.* raketa eltuvchi *(raketa bilan qurollangan samolyot).*
Tragetasche *f; -; -n;* (yelkaga osadigan) sumka.
tragfähig *Adj.* mustahkam, yuk ko'taruvchan.
Tragfähigkeit *f-; -en; Tech.* yuk ko'tarish qobiliyati.
Trägheit *f; -; -en;* sustkashlik, erinchoqlik, bo'shanglik.
Tragik *f; -; -;* fojiyaviylik, tragizm.
Tragikomödie *f; -; -n;* tragikomediya.
tragisch *Adj.* 1. fojiali; **ein ~es Schicksal** fojiali taqdir. 2. *Theat.* tragedik; **ein ~es Stück** tragik asar.
Tragödie *f; -; -n;* tragediya *(fojiali sahna asari).*
Tragödin *f; -; -en;* tragik (rol o'ynaydigan) aktrisa.
Tragkorb *m; -es; -körbe;* yelkaga osiladigan savat.
Tragkraft *f; -; -kräfte; Tech.* ko'tarish kuchi, yuk ko'tarish qobiliyati.
Trailer *m; -s; -;* 1. (traktor tortadigan) arava, treyler. 2. (asosiy filmdan oldingi) qisqa film.
Trainer {*trener*} *m; -s; -; Sport.* murabbiy, trener.
trainieren I *vt.* o'rgatmoq, mashq qildirmoq.
trainieren II *vi.* mashq qilmoq.
Training *n; -s; -s;* 1. sport mashqi. 2. trening, amaliy mashg'ulot.
Trainingsanzug *m; -es; -anzüge* mashq kiyimi.
traktieren *vt.* siylamoq; **j-n mit dem Stock ~** kimnidir kaltak bilan siylamoq, kaltaklamoq.

Traktor *m; -s; -Trak'toren* traktor.
Traktorenwerk *n; -es; -e;* traktor zavodi.
trällern *vt.* xirgoyi qilmoq.
trampeln 1. *vt.* (oyoq bilan) depsimoq. 2. *vi.* toptamoq, tepinmoq. 3. kezib yurmoq.
trampen *vi.* (yo'lovchi mashinalarda «avtostop» bilan) sayohat qilmoq.
Trampolin *n; -s; -e; Sport.* batut.
Tran *m; -(e)s; -e;* baliq yog'i.
Träne *f; -; -n;* ko'z yoshi; ~ **vergießen** ko'z yoshi to'kmoq.
tränen *vi. (ko'zi)* yoshlanmoq, ko'z yoshlari oqmoq.
tränenlos *Adj.* ko'z yoshisiz.
tränennaß *Adj.* ko'z yoshidan nam(langan).
tranig *Adj.* 1. baliq yog'li ta'mli. 2. sustkash, bo'shang.
Trank *m; -(e)s; -Tränke;* 1. ichimlik. 2. zardob, atala. 3. *Med.* mikstura, suyuq dori.
Tränke *f; -; -n;* suvloq; **zur ~ führen** (mollarni) suvloq joyga haydamoq.
tränken *vt.* 1. sug'ormoq, suv bermoq; **das Vieh ~** molga suv bermoq. 2. shimdirmoq.
Transaktion *f; -; -en;* katta hajmdagi moliyaviy faoliyat.
Transfer *m; -s; -s;* 1. *Wirt.* (valyutada) pul o'tkazish. 2. *Sport.* transfer *(sportchini boshqa jamoaga sotish).*
transferieren *vt.* 1. (boshqa valyutada) pul o'tkazmoq. 2. (chet elga) o'tkazib yubormoq.
Transit *m; -s; -e;* (yo'lovchi va yuklarni uchinchi mamlakat orqali) olib o'tish.
Transitabkommen *n; -s; -;* tranzit haqida shartnoma.
transitiv *Adj. Gramm.* o'timli; **~es Verb** o'timli fe'l.
Transitraum *m; -es; -räume;* tranzit yo'lovchilar uchun kutish zali.
Transitvisum *n; -s; -visen* tranzit vizasi.
transkribieren *vt. Ling.* so'zning talaffuz shaklini yozuvda ifodalamoq transkriptsiya qilmoq.
Transkription *f; -; -en; Ling.* transkriptsiya, matnni so'zlashuv yozuviga ko'chirmoq.
Translation *f; -; -en;* (yozma) tarjima.
Transliteration *f; -; -en;* so'zma-so'z tarjima, to'g'ridan to'g'ri tarjima.
Transmission *f; -; -en; Tech.* transmissiya.
Transparent *n; -(e)s; -e;* ko'chma plakat.
transparent *Adj.* ravshan, aniq.
Transport *m; -(e)s; -e;* 1. transport; yo'lovchi va yuk tashish. 2. qatnov tizimi.
transportabel *Adj.* 1. ko'chma. 2. transportda olib o'tsa bo'ladigan.
Transportbehälter *m; -s; -;* konteyner yuk yoki oziq-ovqat tashishga ixtisoslashtirilgan transport vositasi.
transportieren *vt.* transportda tashimoq.
Transportmittel *n; -s; -;* transport vositasi.
Transportschiff *n; -es; -e;* yirik yuk kemasi.
Trapez *n; -es; -e;* 1. *Math.* trapetsiya; ikkita parallelli to'rtburchak. 2. *Sport.* (ikki uchiga arqon bog'lab osib qo'yilgan) tayoq, gimnastika asbobi.
Trapezkünstler *m; -s; -;* akrobat *(sirk artisti).*
trapp *(oyoq tovushi)* to'p-to'p; **Jetzt aber ~, ~ ins Bett!** Tez (uxlagani) yotinglar!
trappeln *vi.* to'p-to'p etib yurmoq, depsinmoq.
Tratsch *m; -(e); -;* g'iybat, fisqi-fasod gap.
tratschen *vt.* 1. g'iybat qilmoq. 2. vaysamoq.
Trauakt *m; -es; -e;* 1. nikohni rasmiylashtirish. 2. cherkovda nikoh o'qitish.
Traualtar *m; -(e)s; -e; Rel.* mehrob *(cherkovda nikoh o'qiladigan joy);* **j-n zum ~ führen** (nikoh o'qitish orqali) uylanmoq.
Traube *f; -; -n; Bot.* 1. uzum; **eine ~ Wein** bir bosh uzum. 2. bir bosh, bir shingil. 3. olomon, to'da *(odamlar)*
Traubenkirsche *f; -; -n; Bot.* shumurt *(oq xushbo'y gulli daraxt).*

Traubenlese *f; -; -n;* uzum uzish, uzum terimi.

trauen I 1. *vi.* ishonmoq; **seinen Augen nicht** ~ o'z ko'zlariga ishonmaslik. 2. botinmoq, jur'at etmoq, tavakkal qilmoq.

trauen II *vt.* nikoh o'qimoq, nikohlamoq.

trauen sich botinmoq, jazm qilmoq, jur'at qilmoq.

Trauer *f; -; -;* 1. qayg'u, g'am, anduh. 2. a'za, motam ~ **haben** motamda bo'lmoq.

Trauerbirke *f; -; -n; Bot.* (shoxlari pastga egilib o'sadigan) qayin daraxti.

Trauerfeier *f; -; -n;* motam marosimi, vidolashuv marosimi.

Trauermusik *f; -; -;* motam kuyi.

trauern *vi.* 1. qattiq (qayg'urmoq) achinmoq, aza tutmoq. 2. motam kiyimini kiymoq.

Trauernachricht *f;* yomon xabar, o'lim haqida xabar.

Trauerweide *f; -; -n; Bot.* majnuntol.

Trauerzug *m; -es; -züge;* dafn marosimi yurishi.

Traufe *f; -; -n;* 1. tarnov, nov. 2. (katta) suv idishi.

träufeln 1. *vt.* tomizmoq. 2. *vi.* tommoq.

traulich *Adj.* samimiy, sirdoshlarcha, o'zaro ishonchli, dilkash; ~ **plaudern** dildan suhbat qurmoq.

Traulichkeit *f; -; -;* samimiylik, o'zaro ishonch, dilkashlik .

Traum *m; -(e)s; -träume;* 1. tush; **im** ~ tushda; **einen** ~ **sehen** tush ko'rmoq. 2. orzu; **unerfüllter** ~ amalga oshmagan orzu.

Trauma *n; -s; Traumata* und *Traumen* 1. *Med.* yara, jarohat, trauma. 2. ruhiy tushkunlik.

Traumauto *n; -s; -s;* orzu qilingan avtomashina.

Traumberuf *m; -es; -e;* orzu qilingan kasb, orzudagi kasb.

träumen *vt., vi.* 1. tush ko'rmoq. 2. orzu (niyat) qilmoq.

Träumer *m; -s; -;* xayolparast, orzumand, xayol suruvchi.

traumverloren *Adj.* xayoliy, xayolparast, xayolga cho'mgan.

traumwandeln *vi.* uyqusida yurmoq.

traurig *Adj.* xafa, g'amgin; **eine ~e Nachricht** g'amgin (qayg'uli) xabar, shumxabar.

Traurigkeit *f; -; -en;* g'am, xafalik, qayg'u; **tiefe** ~ chuqur qayg'u.

Trauring *m; -es; -e;* nikoh uzugi; **einen** ~ **tragen** nikoh uzugi taqmoq.

Trauschein *m; -es; -e;* nikoh haqidagi guvohnoma.

traut *Adj.* 1. shinam, ochiq ko'ngilli. 2. aziz, mehribon, qadrdon; **ein ~er Freund** qadrdon do'st.

Trauung *f; -; -en; Rel.* nikoh o'qish.

Trauzeuge *m; -n; -n;* nikoh guvohi.

Trawler *m; -s; -;* trauler, katta kemalarni portdan olib chiquvchi tirkama kema.

Trecker *m; -s; -;* shatakli traktor.

Treff 1. kelish, hozir bo'lish, maxfiy uchrashish. 2. uchrashuv joyi.

treffen *vt.* 1. mo'ljalga olmoq. 2. (nozik joyiga) tegmoq. 3. yo'liqtirmoq, uchratmoq. 4. tasvirlamoq. 5. *Sport.* gol urmoq (kiritmoq).

Treffen *n; -s; -;* 1. yig'ilish, yig'in; uchrashuv. 2. *Sport.* musobaqa. 3. jang.

treffend *Adj.* aniq, chin; bop, o'rinlatib aytilgan; **eine ~e Antwort** lo'nda javob, **kurz und** ~ qisqa va lo'nda.

Treffer *m; -s; -;* 1. tushish, tegish, nishonga tegish. 2. yutish. 3. *Sport.* gol.

trefflich *Adj.* a'lo darajali, juda zo'r.

Treffpunkt *m; -es; -e;* 1. uchrashuv joyi. 2. mo'ljal joyi.

treiben I *vt.* 1. haydamoq; haydab yubormoq, quvmoq. 2. yumalatmoq. 3. harakatga keltirmoq. 4. shug'ullanmoq, o'rganmoq; **Sport** ~ sport bilan shug'ullanmoq; **Sprachen** ~ tillarni o'rganmoq.

treiben II *vi.* 1. (toshqinda, dovulda) kelib qolmoq. 2. nish urmoq, unib chiqmoq. 3. (xamir) ko'tarilmoq ko'pmoq.

Treiben *n; -s; -;* 1. hayot girdobi. 2. qiliq, qilmish; **Leben und ~** tirikchilik. 3. ov, quvib ovlash.

Treiber *m; -s; -;* 1. (ovda hayvonlarni) haydovchi. 2. mol haydovchi.

Treibgas *n; -es; -e;* yonilg'i (sifatidagi) gaz.

Treibhaus *n; -es; -häuser;* issiqxona, gulxona, oranjeriya.

Treibhauseffekt *m; -es; -;* (yer haroratining haddan tashqari ko'tarilishi sababli hosil bo'lgan) iqlim o'zgarishi.

Treibholz *n; -es; -;* (suvda suzib kelgan) yog'och qoldiqlari.

Treibstoff *m; -(e)s; -e;* suyuq yoqilg'i.

Trend *m; -s; -s;* rivojlanish (yuksalish) yo'nalishi.

Trendwende *f; -; -n;* yo'nalishdagi burilish.

trennbar *Adj.* ajraladigan; **eine ~e Vorsilbe** ajraladigan old qo'shimcha.

trennen *vt.* 1. ajratmoq, ayirmoq. 2. qismlarga bo'lmoq; **~ sich** ajrashmoq; **sich unentschieden ~** durang o'ynamoq.

Trennung *f; -; -en;* 1. ajrashuv, ayriliq, judolik. 2. xayrlashuv.

Trennwand *f; -; -wände,* to'siq, devor.

Trense *f; -; -n;* yugan; **einem Pferd die ~ anlegen** otga yugan taqmoq.

treppab *Adv.* zinadan pastga.

treppauf *Adv.* zinadan tepaga.

Treppe *f; -; -n;* zina, zinapoya, pillapoya.

treppenförmig *Adj.* zina shaklida.

Tresor *m; -s -e;* seyf, yong'inga chidamli shkaf.

Tretauto *n; -s; -s;* (pedal bilan harakatlanadigan) bolalar avtomashinasi.

treten I *vi.* 1. (*s*) qadam qo'ymoq; **~!** Qadamni sekinlat! 2. kelmoq, yaqinlashmoq; **Bitte ~ Sie näher!** Iltimos, yaqinroq keling!

treten II *vt.* 1. urmoq, tepmoq. 2. kamsitmoq, xo'rlamoq. 3. pedalni bosmoq. 4. *Sport.* gol urmoq.

treu *Adj.* 1. sadoqatli, sodiq. 2. ishonchli, chin; **ein ~er Freund** (sodiq) chin do'st.

Treue *f; -; -;* sodiqlik, vafodorlik, to'g'rilik, chinlik.

Treueid *m; -(es); -e;* sodiqlik qasamyodi.

Treubruch *m; -es; -brüche;* xoinlik, xiyonat.

Treuhandbetrieb *m; -es; -e;* vasiylik ostidagi korxona.

Treuhänder *m; -s; -;* vasiy, homiy.

Treuhandschaft *f; -; -en;* homiylik, vasiylik; **unter ~ stehend** vasiylik asosida.

Treuherzigkeit *f; -; -;* soddalik, samimiylik, ochiq ko'ngillilik.

treulos *Adj.* xoinona, xiyonatkorona.

Treulosigkeit *f; -; -;* ahdidan qaytish, xoinlik, xiyonatkorlik.

treulich *Adj.* rost, vijdonan, to'g'ri.

Triade *f; -; -n;* uchlik, uch sonli raqam.

Triathlon *n; -s; -s; Sport.* uchkurash *(suzish, velopoyga, yugurish).*

Tribunal *n; -s; -e;* tribunal, maxsus sud.

Tribüne *f; -; -n;* minbar, tribuna.

Tribut *m; -(e)s; -e;* 1. ulush, qurbonlik. 2. hurmat, ehtirom. 3. tovon *(to'lash).*

Trichter *m; -s; -;* 1. (bir idishdan ikkinchisiga) suyuqlik quyish asbobi. 2. (qo'lni) karnay qilish.

Trickfilm *m; -es; -e;* multiplikatsion film.

Trick *m; -s; -s;* (kichik) hiyla, tryuk. *Sport.* fint, abjirlik bilan amalga oshirilgan usul.

Trieb I *m; -(e)s; -e;* 1. ishtiyoq, havas, layoqat. 2. moyillik intilish. 3. instinkt, tabiiy tuyg'u. 4. harakatlantiruvchi mexanizm.

Trieb II *m; -(e)s; -e; Bot.* navda, shox.

Triebkraft *f; -; -kräfte* harakatlantiruvchi kuch; **~ mensch** ehtirosli, zavqli, ishqiboz odam; **~ rad** *n; -(e)s; -räder Tech.* yetakchi, boshlovchi, oldingi g'ildirak.

Triebwerk *n; -es; -e;* motor, dvigatel.

triefäugig *Adj.* yoshlanadigan ko'z, ko'zi yoshli.

triefen *vi.* oqmoq, tommoq.

triftig *Adj.* 1. ishonchli; asosli; **~e Beweise** ishonchli asosli dalil. 2. sababli.

tricolor *Adj.* uch rangli.

Trikolore *f; -; -n;* uch rangli bayroq.
Trikot/Trikot *n;* und *m; -s; -s; {triko} n; -s; -s;* mashinada to'qilgan matodan sport kiyimi, triko.
Trikotage *(trikotashe) f; -; -n;* mashinada to'qilgan mato, trikotaj.
Trikothemd *n; -es; -e;* triko, elastik ko'ylak.
trillern *vt.* sayramoq *(qushlarga oid).*
Trillion *f; -; -en;* trillion.
Trilogie *f; -; -n;* uch qismdan iborat film (roman).
Trimester *n; -s; -;* o'quv yilining uchinchi qismi.
trimmen *vt.* mashq qildirmoq, o'rgatmoq; ~ **sich** mashq qilmoq.
trinkbar *Adj.* ichishga yaraydigan, ichsa bo'ladigan.
Trinkbruder *m; -s; -brüder;* 1. hamshisha. 2. mast *(odam).*
trinken *vt.* ichmoq; **das Wasser** ~ suv ichmoq.
Trinker *m; -s; -;* ichkilikka mukkasidan ketgan (mubtalo) kishi.
tringfest *Adj.* mast bo'lmaydigan.
Trinkgeld *n; -es; -er;* choychaqa, choy puli.
Trinkspruch *m; -es; -sprüche;* qadah so'zi.
Trinkwasser *n; -s; -;* ichimlik suvi.
Trio *n; -s; -s;* 1. *Mus.* (uch musiqa asbobi asosidagi) musiqali asar. 2. *Mus.* uch musiqachidan iborat guruh. 3. uch kishilik guruh.
Trip *m; -s; -s;* 1. qisqa muddatli safar.
trippeln *vi.* mayda qadamlar bilan tez yurib ketmoq.
trist *Adj.* mayus, g'amgin, umidsiz.
Tristheit *f; -; -;* mayuslik, g'amginlik, umidsizlik.
Tritt *m; -(e)s; -e;* 1. qadam, odim. 2. zinapoya. 4. tepki. 5. (birovga) oyoq qo'yish. 5. *Jagd.* iz, belgi.
Trittbrett *n; -(e)s; -er;* zina, zinapoya *(transportda).*
trittfest *Adj.* mustahkam, baquvvat.
Triumph *m; -(e)s; -e;* zafar, tantana, shuhrat.
triumphal *Adj.* 1. g'olibona, zafar bilan. 2. shuhratli.
triumphieren *vi.* tantana qilmoq, g'alaba qozonmoq.
trivial *Adj.* o'rtacha, o'rtamiyona, odatdagicha.
trocken *Adj.* quruq; **der ~e Boden** quruq yer; ~ **sein** quruq bo'lmoq; **ein ~er Husten** quruq yo'tal.
Trockenfleisch *n; -es; -;* quritilgan go'sht.
Trockenfutter *n; -s; -; Landw.* quruq (quritilgan) yem.
Trockengebiet *n; -es; -e;* qurg'oq (qurg'oqchil) hudud.
Trockenheit *f; -; -en;* 1. qurg'oqchilik. 2. quruqlik (buyumga oid).
Trockenkammer *f; -; -n;* quritish xonasi.
trockenlegen *vt.* 1. yo'rgaklamoq *(chaqaloqni).* 2. quritmoq *(botqoqlikni).*
Trockenmilch *f; -; -;* quritilgan (quruq) sut.
Trockenobst *n; -es;* quritilgan meva.
trocknen 1. *vt.* quritmoq, artmoq; **das Holz** ~ o'tinni quritmoq. 2. *vi.* qurimoq; **an der Sonne** ~ quyoshda qurimoq.
Trockner *m; -s; -;* qurituvchi uskuna.
Trocknung *f; -; -;* qurish, quritish.
Trödel *m; -(e)s; -;* 1. eski-tuski (mebel, kiyim). 2. uvada, lash-lush.
Trödelmarkt *m; -es; -märkte;* eski-tuski sotiladigan bozor chayqov bozori.
trödeln *vi.* 1. zo'rg'a yurmoq, sudralmoq. 2. ovora bo'lmoq, sudralmoq.
Trog *m; -(e)s; Tröge;* oxur, tagana *(hayvonlar uchun).*
Troika *f; -; -s;* 1. uch ot qo'shilgan arava. 2. uch kishilik guruh.
trollen sich 1. jo'nab qolmoq; **Trolle Dich!** Yo'qol! 2. tentirab yurmoq.
Trolleybus *m; -ses; -se;* trolleybus.
Trommel *f; -; -n;* 1. *Mus.* nog'ora, do'mbira. 2. *Tech.* baraban.
trommeln *vi., vt.* taraqlatmoq, taqillatmoq.

Trommelschlag *m; -es; -schläge;* nog'ora ovozi.

Trommler *m; -s; -; Mus.* nog'orachi, do'mbirachi.

Trompete *f; -; -n;* karnay, truba, gorn; **die (auf der) ~ blasen** karnay chalmoq.

trompeten *vt.* karnay chalmoq.

Trompeter *m; -s; -;* karnaychi, gorn chaluvchi.

Tropen *Pl.* tropik, eng issiq mintaqa.

Tropenklima *n; -s; -s;* tropik iqlim.

Tropf *m;* 1. *Med.* tomchili ukol, kapelnitsa. 2. sodda *(kishi),* to'pori, odmi.

tropfbar *Adj.* tomchisimon, tomchili.

tröpfchenweise *Adv.* 1. tomchilab; **~ einnehmen** tomchilab (dori) ichmoq. 2. zarracha, qittak, tomchilab.

tröpfeln/ tropfen I. 1. *vi.* tommoq. 2. (sepalab) yog'moq. 3. (qon) oqmoq, tommoq. **II.** *vt.* tomizmoq.

Tropfen *m; -s;. -;* 1. tomchi. 2. tomchi dori.

tropfenweise *Adv.* tomchilab.

Trophäe *f; -; -n;* o'lja *(urushda, ovda qo'lga tushirilgan).*

tropisch *Adj.* tropik; **das ~e Klima** tropik iqlim.

Tropus *m; -; -Tropen; Ling.* trop, (tilda ko'chma ma'nodagi) qiyofali ifoda vositasi.

Troß *m; -sses, -e;* 1. mulozim, kuzatuvchi shaxs. 2. xizmat ko'rsatish bo'limi *(armiyada).*

Trost *m; -es;* taskin, yupanch, tasalli; **du bist wohl nicht bei ~e?** sen aqldan ozmaganmisan?

trösten *vt.* taskin bermoq, yupatmoq, ovuntirmoq.

Tröstler *m; -s; -;* yupatuvchi, taskin beruvchi.

tröstlich *Adj.* taskinli, yupatishli.

trostlos *Adj.* g'amgin, zerikarli.

Trostpreis *m; -es; -e;* taskinli sovrin; **~ wort** *n; -(e)s;* yupanch, ovutish so'zi.

Tröstung *f; -; -en;* yupanch, taskin berish.

Trott *m; -(e)s; -;* sekin qadam; **im ~ gehen** asta-sekin yurmoq.

Trottel *m; -s; -;* tentak, telba, nodon, aqli zaif odam.

trotteln *vi.* sudralmoq, tentiramoq.

trotten *vi.* zo'rg'a yurmoq, bemaqsad aylanib yurmoq.

Trottoir {*trottoar*} *n; -s; -s;* trotuar, yo'lka.

trotzen *vi.* 1. o'jarlik, qaysarlik qilmoq. 2. qarshilik ko'rsatmoq.

Trotz *m; -es; -;* o'jarlik, qaysarlik.

trotz *Präp.* -ga qaramay; **~ alledem** hech narsaga qaramasdan.

trotzig *Adj.* o'jar, qaysar; **ein ~es Verhalten** o'jar xulq.

Trotzkopf *m; -es; -köpfe;* o'jar, qaysar (odam).

trüb/trübe I *Adj.* 1. loyqa, quyqim; **das ~e Wasser** loyqa suv. 2. bulutli. 3. qayg'uli.

trüb/trübe II *Adv.* 1. xira. 2. xafa, qayg'uli.

Trübe *f; -; -;* loyqalik, xiralik. 2. bulutli havo.

Trubel *m; -s; -;* 1. hovliqish ovoragarchilik, behuda harakat. 2. yugur-yugur, ur-yiqit, sur-sur.

trüben *vt.* 1. loyqalamoq, chayqatmoq. 2. xafa qilmoq, g'amga solmoq, buzmoq. 3. **~ sich** 1) loyqalanmoq, xiralashmoq; 2) (bulut bilan) qoplanmoq; 3) yomonlashmoq.

Trübheit *f; -; -;* xiralik, nursizlik, (havoning) ayniganligi.

Trübsal *f; -e; -;* g'am, qayg'u, alam.

trübselig *Adj.* g'amli, qayg'uli, alamli.

Trübsinn *m; -es; -;* mayuslik, g'amginlik; **in ~ verfallen** mayuslikka cho'mmoq.

Trübung *f; -; -en;* 1. (suyuqlik) loyqalashuv, xiralashuv. 2. (munosabat) yomonlashuv

Trug *m; -(e)s; -;* 1. aldash, firib berish, aldamchilik. 2. aldanish, yanglishish; **es ist alles Lug und ~** bularning hammasi g'irt yolg'on.

Trugbild *n; -es; -er;* sharpa, arvoh.

trügen *vt.* aldamoq, firib bermoq.
Trugschluß *m; -sses; -sse;* soxta xulosa.
Truhe *f; -; -n;* sandiq, sandiqcha.
Trumf *m; -(e)s; -trümfe* (karta o'yinida) kuzir; ~ **spielen** kuzir bilan yurmoq.
Trümmer *Pl.* xaroba, vayrona, xarobazor.
Trunk *m; -(e)s; -e;* 1. ichimlik; **kühler** ~ sovuq ichimlik. 2. yutish, ho'plash, qultum.
trunken *Adj.* 1. mast, mast holatli. 2. (baxtdan) aql-u hushini yo'qotgan.
Trunkenheit *f; -; -;* mast bo'lish; **im Zustand der** ~ mastlik holati.
Trunksucht *f; -; -en;* mastlik, ichkilikka berilganlik; **der** ~ **verfallen** aroqxo'rlikka berilmoq.
trunksüchtig *Adj.* ichkilikka berilgan, aroqxo'rlikka moyil.
Trupp *m; -s; -s;* (askarlarning) kichik guruhi.
Truppe *f; -; -n;* 1. *Milit.* qo'shin, harbiy qism. 2. (artistlar) guruhi.
Truppenübung *f; -; -en;* jangovar mashq.
truppenweise *Adv.* guruh-guruh, guruhlab.
Trust {*traßt*} *m; -(e)s; -e;* und *-s;* trest; **zu einem** ~ **vereinigen** bir trestga birlashmoq.
Truthahn *m; -es; -hähne;* kurka *(xo'rozi).*
Truthenne *f; -; -n;* kurka *(makiyoni).*
Tschüs: ~! Hozircha! Xayr!
Tube *f; -; -n;* (plastmassadan qilingan) dori idish.
Tuberkulose *f; -; -n;* sil, tuberkulyoz; **an** ~ **erkranken** sil kasali bilan og'rimoq.
Tuch I. *n; -es; -tücher;* 1. ro'mol; **wollenes** ~ jun ro'mol. 2. latta.
Tuch II. *n; -es; -tücher;* movut; ~ **weben** movut to'qimoq.
tüchtig *Adj.* ishchan, yaxshi.
Tüchtigkeit *f; -; -;* 1. g'ayrat, intiluvchanlik. 2. qobiliyat.
Tücke *f; -; -n;* makkorlik, hiylagarlik.
tuckern/tukkern *vi., vt.* tuq-tuq qilmoq, tuqqillamoq, tuqqilatmoq.
tückisch *Adj.* makkor, hiylagar.
Tucktuck chip-chip *(jo'jalarni chaqirish).*
Tuff *m; -s; -s;* 1. g'ovak, tog'jinsi, tuf. 2. *Geol.* ohaktosh qoldig'i.
tüftelig *Adj.* mushkul, qiyin, murakkab.
tüfteln *vi.* bilimdonlik (bilarmonlik) qilmoq.
Tugend *f; -; -en;* fazilat, ijobiy xususiyat, saxovat, himmat.
tugendsam *Adj.* saxovatli, himmatli, yaxshi fazilatli.
Tüll *m; -s; -e;* nafis to'r to'qima, tyul.
Tüllgardine *f; -; -n;* to'r parda.
Tulpe *f; -; -n;* 1. lola. 2. qadah.
Tulpenblüte *f; -; -n;* lolalarning gullashi.
Tulpenfeld *n; -es; -er;* lolazor.
tummeln sich shodon o'ynamoq.
Tummelplatz *m; -es; -plätze;* (bolalarning) o'yin maydoni.
Tumor *m; -s; tumore(n) Med.* shish.
tumorös *Adj.* shishli, shishgan.
Tümpel *m; -s; -;* 1. kichik hovuz. 2. ko'lmak, halqob.
Tumult *m; -(e)s; -e;* to'polon, tartibsizlik, shovqin.
tun *vt.* 1. qilmoq, bajarmoq; **was soll ich** ~? Nima qilsam ekan? 2. ~ **sich** sodir bo'lmoq. 2. tuyulmoq.
Tünche *f; -; -;* suyuq ohak; **mit** ~ **streichen** ohak urmoq, ohaklamoq.
tünchen *vt.* ohaklamoq, oqlamoq; **die Wände** ~ devorlarni oqlamoq.
Tuner {*tjuner*} *m; -s; -;* boshqa kanalga oluvchi uskuna, tyuner.
Tunke *f; -; -n; Kulin.* qayla, sous.
tunken *vt.* botirmoq, ivitmoq, botirib olmoq.
tunlich *Adj.* maqsadga muvofiq.
Tunlichkeit *f; -; -en;* maqsadga muvofiqlik.
Tunnel *m; -s; -;* tunnel, yer osti yo'li; **durch den** ~ **fahren** tunnel orqali yurmoq.
Tunnelbau *m; -(e)s; -;* tunnel qurilishi.
Tunnelbohrung *f; -; -en;* tunnel kavlash.
Tunte *f; -; -n;* qari qiz.

Tüpfel *n; oder m; -s; -;* mayda xol, ziraxol.
Tüpfelchen *n; -s; -;* nuqtacha, mayda xol; **das ~ auf dem i setzen** ikir-chikirigacha bilib olmoq.
tupfen *vt.* 1. (ehtiyotkorlik bilan, yengil) moy, yog' surmoq. 2. (barmog'ini) tiqmoq.
Tupfen *m; -s; -;* xol, dog'.
Tür *f; -; -en;* eshik; **an der ~ klopfen** eshikni taqillatmoq; **~ zu!** Eshikni yop!
Türangel *f; -; -;* eshik ilmog'i, halqa, ilgak.
Turban *m; -s; -e;* salla, bosh kiyim.
Turbine *f; -; -n; Tech.* turbina.
turbulent *Adj.* 1. notinch. 2. *Tech.* turbulentli.
Turbulenz *f; -; -en;* 1. notinchlik. 2. *Tech.* turbulentlik (titrash).
türkisfarben *Adj.* feruzarang, ko'khavorang.
Türklinke *f; -; -n;* eshik tutqichi.
Turkologe *m; -n; -n; f;* turkshunos olim.
Turkologie *f; -; -; Ling.* turkshunoslik.
Turm *m; -(e)s; -Türme;* 1. minora. 2. kuzatuv minorasi. 3. *Schach.* rux; **hoher ~** baland minora.
turmartig *Adj.* minorasifat, minorasimon.
türmen 1. *vi.* g'oyib bo'lmoq. 2. *vt.* uymoq, to'plamoq. 3. **~ sich** ko'paymoq, uyulmoq.
Turmhelm *m; -(es); -e;* minora gumbazi, qubba.
Turmuhr *f; -; -en;* minora (o'rnatilgan) soati.
Turnanzug *m; -es; -anzüge;* sport kostyumi.
turnen *vi.* 1. gimnastika bilan shug'ullanmoq. 2. qimirlamoq, harakat qilmoq.
Turnen *n; -s; -;* 1. badantarbiya. 2. gimnastika.
Turner *m; -s; -;* gimnastikachi.
Turnhalle *f; -; -n;* gimnastika zali.
Turnier *n; -(e)s; -e; Sport.* turnir, sport musobaqasi.
Turniersieger *m; -s; -;* turnir g'olibi.
Turnus *m; -; -se;* oraliq vaqt (davr); **im ~ von vier Jahren** oraliq har to'rt yilda.
turnusgemäß *Adj.* navbatga ko'ra, navbat bilan.
Turnwettkampf *m; -es; -kämpfe;* gimnastika musobaqasi.
Türschlüssel *m; -s; -;* eshik kaliti.
Tusche *f;* 1. tush (siyoh). 2. akvarium suvi. 3. kiprik siyohi.
tuschen *vt.* 1. tush surmoq. 2. bo'yamoq, bo'yab pardoz bermoq.
Tüte *f; -; -n;* tugun, o'ram, paket.
tuten *vi.* yangramoq, ovoz chiqarmoq, g'uvillamoq.
Tuttifrutti *n; -s; -s;* har xil mevalardan tyyorlangan shirin taom.
Twen *m; -s; -s;* (20 – 30 yoshlardagi) yigit.
Typ *m; -s; -en;* 1. alohida xususiyatli shaxs. 2. xil, tur, nusxa, tip. 3. erkak kishi.
Type *f; -; -n;* 1. *Typogr.* quyilgan harf, litera. 2. tur, xil, tip.
typen *vt.* tiplashtirmoq, turlarga bo'lmoq.
Typenentwurf *m; -s; -entwürfe* bir xil tipdagi loyiha.
Typenwohnhaus *n; -es; -häuser;* standart (bir tipdagi) turar joy.
Typhus *m; -; -; Med.* terlama, tif; **an ~ erkranken** tif kasali bilan og'rimoq.
typisch *Adj.* tipik, ma'lum, odatdagi; **ein ~er Fall** tipik hodisa.
typisieren *vt.* tiplarga bo'lmoq.
Typographie *f; -; -Typographien* bosmaxona, kitob bosish (chop qilish), kitob chiqarish.
Typologie *f; -; -Typologien;* tipologie, tiplarga bo'lish.
typologisch *Adj.* tipologik.
Tyrann *m; -en; -en;* zolim hukmdor, mustabid hokim.
Tyrannei *f; -; -en;* zolimlarcha hukmdorlik, mustabid hokimlik.
tyrannisieren *vt.* zulm qilmoq, jabr-zulm yetkazmoq, azoblamoq.

U

U.u. Der einundzwanzigste Buchstabe des deutschen Alphabets.

U-bahn *f; -; -en; (Kurzw; für Untergrundbahn)* metro, yer osti yo'li.

U-Bahnlinie *f; -; -n;* metro yo'nalishi.

U-bahnstation *f; -; -en;* metro bekati.

übel *Adj.* yomon, yaramas, yoqimsiz; **eine üble Gewohnheit** yaramas odat.

Übel *n; -s; -;* yomonlik, yovuzlik. 2. balo, ofat, musibat, kulfat.

übelberaten *Adj.* bema'ni (yaramas bo'lmag'ur yomon) maslahat olgan.

Übelkeit *f; -; -en;* ko'ngil aynish, o'qchish.

übellaunig *Adj.* yomon kayfiyatli, kayfi noxush, xafa, mayus.

übelnehmen *vt.* xafa bo'lmoq.

übelnehmerisch *Adj.* jizzaki, serzarda, salga xafa bo'ladigan, arazchi.

Übelsein *n; -es; -;* ko'ngil aynish, o'qchish.

Übelstand *m; -(e)s; -Stände* kamchilik, tartibsizlik, yomonlik.

üben *vt.* 1. mashq qilmoq, mashq qildirmoq. 2. (munosabat) ko'rsatmoq; **Gastlichkeit** ~ mehmondo'stlik ko'rsatmoq; **seine Kräfte** ~ o'z kuchini sinab ko'rmoq.

über *Präp.* 1. *(joyga nisbatan)* ustida; ~ **dem Meeresspiegel** dengiz sathida. 2. *(mashg'ulot vaqtga nisbatan)* -da, paytida; ustida; ~ **der Arbeit** ish ustida; ~ **Büchern sitzen** kitoblar ustida (ishlab) o'tirmoq. 3. (sababni anglatadi) sababli, dan; ~ **dem Lärm** shovqindan. 4. orqali, dan; ~ **die Straße** ko'prikdan.

Überaktivität *f; -; -en;* haddan tashqari faollik.

überall *Adv.* hamma joyda, hamma yerda.

überaltert *Adj.* 1. eskirgan. 2. yoshi o'tgan.

Überalterung *f; -; -en;* 1. eskirish. 2. qariyalarning ko'payishi. 3. yoshi o'tish.

Überangebot *n; -(e)s; -e;* taklifning talabdan oshishi, ustun kelishi.

überanstrengen *vt.* 1. juda charchamoq, juda toliqmoq. 2. charchamoq, toliqmoq.

überantworten *vt.* (boshqa birovga) yetkazmoq, topshirmoq, berib yubormoq, uzatmoq; **j-n dem Gericht**~ kimnidir sudga bermoq.

überarbeiten I. *vi.* ish vaqtidan tashqari (ko'p) ishlamoq.

überarbeiten II. (kamchilik ustida) ishlamoq, qayta ishlamoq.

überaus *Adv.* haddan tashqari, o'ta favqulodda, oliy darajada.

überbacken *vt.* toblab (qizartirib) pishirmoq.

Überbau *m; -es; -e;* und *-bauten;* 1. (ustiga) ustki qurilish. 2. *Philos.* ustqurma. 3. *Jur.* beruxsat qurilish.

überbauen I *vt.* beruxsat qurmoq.

überbauen II *vt. (bino)* ustiga qurmoq.

überbeanspruchen *vt.* (o'ta) ortiqcha talab qo'ymoq.

Überbein *n; -(e)s; -e; Med.* (suyakli) o'simta, buqoq.

überbekommen *vt.* 1. (ko'pligidan) to'ymoq, joniga tegmoq. 2. tanbeh, qattiq gap eshitmoq.

überbelasten *vt.* 1. ortiqcha yuk yuklamoq. 2. ortiqcha talab qo'ymoq.

Überbelastung *f; -; -en;* 1. ortiqcha yuk. 2. ortiqcha talab.

überbelegt *Adj.* to'lib ketgan.

überbetrieblich *Adj.* korxonalararo.

überbevölkert *Adj.* aholisi g'oyat ko'p, o'ta zich aholili.

Überbevölkerung *f; -; -en;* aholi juda zich tig'izligi.

überbewerten *vt.* ortiqcha baho bermoq.

Überbewertung *f; -; -en;* ortiqcha baholash.

überbezahlen *vt.* ortiqcha to'lamoq, ko'proq haq to'lamoq.
überbieten *vt.* (yuqoriroq) narx taklif etmoq.
überbleiben *vi.* (qoldiq bo'lib) qolib ketmoq.
Überbleibsel *n; -s; -;* 1. qoldiq, ovqat qoldig'i. 2. eskilik sarqiti, sarqit.
überblenden *vt. Filmw.* (ekrandagi manzaraga oid) almashmoq, ohista o'zgarmoq.
Überblick *m; -(e)s; -e;* 1. manzara, ko'rinish. 2. tasavvur. 3. umumlashtiruvchi qisqa ma'lumot.
überblicken *vt.* ko'z qiri bilan qaramoq. 2. tasavvurga ega bo'lmoq.
überbringen *vt.* yetkazmoq, yetkazib bermoq, (salom) yetkazmoq.
Überbrückung *f; -; -en;* 1. (qiyinchilikni) yengib chiqish, bartaraf etish. 2. (kelishmovchilikni) yumshatish. 3. (bo'shlikni) to'ldirish. 4. (ko'prik orqali) yo'l o'tkazish.
Überdach *n; -es; -dächer;* ayvon, bostirma, shiypon, peshayvon.
überdeutlich *Adj.* o'ta yaqqol, juda aniq.
überdies *Adv.* 1. undan tashqari, buning ustiga. 2. baribir.
überdimensional *Adj.* g'oyat keng, juda katta.
überdosieren *vt. Med.* me'yoridan ko'p (dori) bermoq, dozani oshirmoq.
Überdruck *m; -es; drücke;* (ortiqcha) bosim.
überdurchschnittlich *Adj.* odatdan tashqari, favqulodda, boshqacha.
übereifrig *Adj.* o'ta g'ayratli, o'ta tirishqoq.
übereinander *Pron.* ustma-ust.
übereinanderlegen *vt.* ustma-ust qo'ymoq, termoq.
Überdruß *m; -sses; -;* (haddan tashqari) to'yib ketish, halqumiga kelish.
überdrüssig *Adj.* ~ **werden** jonga tegmoq.
übereinkommen *vi.* kelishmoq, bitimga kelmoq.
Übereinkommen *n; -s; -;* bitim, qaror.
übereinstimmen *vi.* fikrga qo'shilmoq, fikrlar to'g'ri kelmoq.
Übereinstimmung *f; -; en;* 1. mos kelish, to'g'ri kelish. 2. kelishuv.
übererfüllen *vt.* oshirib bajarmoq, ortig'i bilan bajarmoq.
Übererfüllung *f; -; -en;* oshirib bajarish.
überessen *vt.* juda ko'p yemoq, yeb joniga tegmoq.
überessen *vt.* ko'p yeb qo'ymoq, bo'kmoq.
überfahren *vt.* 1. bosib ketmoq. 2. yulib o'tmoq, ko'chirmoq.
überfahren *vi., vt.* (bir qirg'oqdan boshqasiga) olib o'tmoq.
Überfahrt *f; -; -en;* suzib o'tish, (daryo, dengiz) kechuv.
Überfall *m; -(e)s; -Überfälle;* 1. hujum, hujum qilish. 2. boshqa tomonga (izilib) tushish.
überfallen *vt.* 1. hujum qilmoq, bostirib kirmoq. 2. (mehmonga) kutilmaganda bostirib kirmoq. 3. (kutilmaganda) tashlanmoq.
überfallen *vi.* (qoqilib) yiqilib tushmoq.
überfällig *Adj.* 1. (poyezd, kemaga oid) kechikkan. 2. muqarrar, vaqti kelgan. 3. eskirgan, foydalanib bo'lingan.
überfliegen *vi.* ustidan uchib o'tmoq, parvoz qilmoq. 2. varaqlab (bee'tibor) o'qib chiqmoq, ko'z yugurtirib chiqmoq.
überfließen *vi.* to'lib toshmoq, toshib chiqmoq.
überfließen *vt.* toshirmoq, (suyuqlikni) yoniga to'kmoq.
überflügeln *vt.* o'tib (o'zib) ketmoq.
Überflügelung *f; -; -en;* 1. ortiqlik ustunlik afzallik ko'plik. 2. oshish, ko'payish.
Überfluß *m; -sses; -;* mo'llik, keragidan ortiqchalik, seroblik.

überflüssig *Adj.* ortiqcha, ortiq, serob.
überfluten *vi.* suv bosmoq, (qirg'oqdan) toshib ketmoq.
überfluten *vt.* (suvga) bostirmoq, suv bilan to'ldirib tashlamoq .
Überflutung *f; -; -en;* suv bosishi, suv toshqini. 2. (mahsulotlar bilan) to'ldirib tashlash.
überfordern *vt.* ortiqcha talab qo'ymoq, (savol, topshiriq bilan) qiynab qo'ymoq.
überfragen *vt.* (qiyin, murakkab) savol bermoq; **ich bin überfragt!** Yengilroq savol bering!
überfressen *vt.* yeb bo'kmoq, bo'kib qolmoq.
überführen *vt.* 1. boshqa joyga o'tkazmoq. 2. boshqa vaziyatga o'tkazmoq; **in die Praxis** ~ amaliyotga o'tkazmoq, amaliyotga joriy qilmoq.
überführen *vt.* 1. (ko'prik orqali) yo'lni bog'lamoq, ulamoq. 2. fosh qilmoq.
Überführung *f; -; -en;* 1. (boshqa tarafga) olib o'tish. 2. (yuqoridan) yo'l olib o'tish. 3. fosh qilish
Überfülle *f; -; -;* mo'lchilik, serobchilik mo'l-ko'lchilik.
überfüllt *Adj.* liq to'la, to'lib bo'lgan.
Überfüllung *f; -; -en;* to'lib toshish.
überfüttern *vt.* juda ko'p ovqat bermoq, ko'p yem bermoq, bo'ktirib yubormoq.
Übergabe *f; -; -n;* 1. topshirish; **die ~ der Schlüssel** kalitlarni topshirish. 2. (shaharni) topshirish, kapitulyasiya.
Übergabetermin *m; -s; -e;* topshirish muddati.
Übergang *m; -es; -gänge;* 1. (yayov) o'tish, (boshqa tomonga) o'tish joyi. 2. (boshqa) mavzuga o'tish.
Übergangsperiode *f; -; -n;* o'tish davri.
übergeben *vt.* qo'lga topshirmoq, olib bermoq, uzatmoq.
übergeh(e)n *vi.* 1. o'tmoq, kechib o'tmoq, boshqa tomonga o'tmoq; **zum Angriff** ~ hujumga o'tmoq. 2. (asta-sekin) o'zgarmoq, (boshqa tusga) aylanmoq, kirmoq.
übergehen *vt.* 1. yonidan o'tib ketmoq, ko'rmay (sezmay) qolmoq, aylanib o'tmoq. 2. qoldirmoq, o'tkazib yubormoq; **das Frühstück** ~ tushlikni o'tkazib yubormoq.
übergenau *Adj.* o'ta aniq batafsil to'g'ri qabul qilmoq aynan o'zi deb bilmoq; **es ist ~ dasselbe** bu aynan o'shaning o'zi.
übergeordnet *Adj.* yuqori (turgan tashkilot).
Übergepäck *n; -(e)s; -;* (yo'lovchining) me'yordan ortiqcha yuki.
Übergewicht *n; -(e)s; -e;* ortiqcha og'irlik, ortiqcha yuk; **das ~ bekommen (erhalten)** me'yoridan ortiqcha yuk olmoq.
übergießen *vt.* 1. quymoq. 2. to'kmoq, oqizmoq. 3. surtmoq. 4. to'ldirib tashlamoq.
übergießen *vt.* (kiyim ustidan) quyib yubormoq, sepmoq.
überglücklich *Adj.* juda baxtli; **er ist ~** u baxtdan o'ta shod.
übergreifen *vt.* 1. (qo'ldan qo'lga) olmoq. 2. tarqalmoq, (boshqa tomonga) o'tmoq.
Übergriff *m; -(e)s; -e;* (mansabni) suiiste'mol qilish, berilgan huquq chegarasidan chiqmoq, o'z huquqidan noto'g'ri foydalanmoq; **der ~eines Beamten** xizmatchining o'z mansabini suiiste'mol qilishi.
übergroß *Adj.* bahaybat, g'oyat katta.
Übergröße *f; -; -n;* (juda) katta o'lchov.
überhaupt *Adv.* umuman, asosan.
überhaben *vt.* 1. kiyib olmoq, kiygan bo'lmoq, egnida bo'lmoq. 2. joniga tegmoq. 3. (ortiqcha narsaga) ega bo'lmoq.
Überhandnahme *f; -; -;* haddan tashqari ko'payish.

überhandenehmen *vi.* haddan tashqari ko'paymoq, ildiz otmoq.

Überhang *m; -(e)s; -Überhänge;* 1. yopqich *(yelkaga tashlanadigan kiyim).* 2. *Ök.* (yig'ilib qolgan) zaxira. 3. (binoga oid) bo'rtiq, do'ng, tumshuq, qoyaning osilib turgan joyi.

überhängen *vt.* yelkasiga tashlamoq.

überhängen I. *vi.* bo'rtib chiqib turmoq.

überhängen II. *vt.* qoplamoq, ustiga yopmoq, to'shamoq.

überheben sich 1. ko'tarilmoq. 2. kekkaymoq.

überheblich *Adj.* dimog'dor, kekkaygan.

Überheblichkeit *f; -; -n;* manmanlik, kekkayish.

überheizen *vt.* (juda) isitib yubormoq.

überhöhen *vt.* 1. balandga ko'tarmoq. 2. (ta'sirni) kuchaytirmoq. 3. (narxni, tezlikni) oshirmoq.

Überhöhung *f; -; -en;* 1. (yo'lga oid) do'nglik, bo'rtib chiqqan joy. 2. kuchayish. 3. oshirish.

überholen *vt.* 1. o'zib ketmoq, (o'zib) o'tib ketmoq. 2. (yaxshiroq yutuqqa) erishmoq.

überholen *vt. (kemaga oid)* 1. boshqa tomonga olib o'tmoq. 2. bir yonga qiyshaymoq, og'moq

überholt *Adj.* 1. eskirgan, orqada qolgan. 2. tekshirilgan va ta'mirlangan.

Überholung *f; -; -en;* oddiy ta'mir(lash).

überhören *vt.* 1. chala eshitmoq. 2. (ataylab) eshitmay qolmoq.

überirdisch *Adj.* samoviy, ilohiy.

überkleben *vt.* (ustidan) (kley, sirach) yelim surmoq, yelimlamoq.

überklug *Adj.* quv, hiylagar.

überkochen *vi.* 1. qaynamoq, toshib chiqmoq. 2. tez jahli chiqmoq.

überkommen *vi.* (suv) toshib chiqmoq, (kema bortidan) suv ko'tarilmoq.

überkommen I *vt.* (hayajon) chulg'ab olmoq.

überkommen II *Adj.* meros qolgan.

überladen *vt.* 1. haddan tashqari ko'p yuklamoq. 2. (xonaga oid) to'ldirib tashlamoq. 3. (batareyaga oid) quvvat (zaryad) bermoq.

überladen *Adj.* 1. ortiqcha yuklangan. 2. (xonaga oid) ortiqcha bezalgan, to'ldirib tashlangan.

Überladung *f; -; -en;* 1. ortiqcha yuklash. 2. to'ldirib tashlash. 3. quvvat (zaryad) berish.

überlang *Adj.* juda uzun, me'yordan uzun.

überlassen *vt.* 1. (kimningdir ixtiyorida) qoldirmoq. 2. (kimgadir) ishonib topshirmoq.

Überlassung *f; -; -en;* 1. qoldirish. 2. yon bosish.

Überlast *f; -; -en;* og'ir yuk, ortiqcha talab. 2. (birovga) keraksiz yuk, og'irlik qilish.

überlasten *vt.* og'ir yuk yuklamoq. 2. (birovga) ortiqcha yuk bo'lmoq.

Überlauf *m; -(e)s; -läufe;* suv chiqadigan qurilma, nov.

überlaufen *vi.* 1. oqib (chiqib) ketmoq, to'kilmoq. 2. boshqa (raqib) tomonga o'tib ketmoq.

überlaufen *vt.* **I.** 1. *Sport.* (chiziqni) bosib o'tib ketmoq. 2. (hayajon, qo'rquv) bosmoq.

Urteilsverkündung *f; -; -en;* hukmni o'qish.
Urtext *m; -es; -e;* (eng) qadimiy matn yozma yodgorlik.
urtümlich *Adj.* ilk, asliy, qadimiy.
Urwald *m; -es; -wälder* qadimiy o'rmon.
Uhrzeit *f; -; -en;* (eng) qadimgi davr.
utilitär *Adj.* foydaga qaratilgan.
Utopie *f; -; -n;* amalga oshmaydigan g'oya, reja, utopiya.
Uzname *m; -ns; -n;* laqab, taxallus.

V

V.v. Der zweiundzwanzigste Buchstabe des deutschen Alphabets.

va banque [va'bak] (qarta o'yinida) tavakkal, yo ostidan yo ustidan.

Vabanquespiel *n; -es; -e;* tavakkaliga o'yin.

Vagabund *m; -en; -en;* darbadar, daydi.

vagabundieren *vi.* darbadarlik qilmoq daydilik qilmoq.

Vademekum *n; -s; -s;* ma'lumotnona, yo'llanma.

vage *Adj.* 1. noaniq, notinch betinch. 2. qorong'i, mavhum.

Vagheit *f; -; -en;* mavhumlik, betinchlik, notinchlik g'ola-g'ovur.

vakant *Adj.* vakant, bo'sh.

Vakanz *f; -; -en;* vakantsiya, bo'sh o'rin.

Vakuum *n; -s; -Vakua od. Vakuen* vakuum, bo'shlik.

Vakzination *f; -; -en; Med.* emlash.

Vakzine *f;* valentlik grammatikasi.

Valuta *f; -; -Valuten* valyuta; **in ~ zahlen** valyutada to'lamoq.

Valutakurs *m; -es; -e;* valyuta kursi.

Vampir *m; -(e)s; -e; Zool.* vampir, qon so'ruvchi qonxo'r.

vampirisch *Adj.* vampirlarcha, qonxo'rona.

Vandalismus *m; -; -;* vandalizm *(madaniyya moddiy yodgorliklarni xarob etish).*

Vanille *f; -; -n;* vaksina.

Valenz *f; -; -en;* 1. *Chem.* atomning boshqa atom bilan qo'shiluvchanlik xususiyati, hossasi valentlik. 2. *Ling.* valentlik, so'zning boshqa sozlar bilan bog'lanish imkoniyati.

variabel *Adj.* o'zgaruvchan.

Variante *f; -; -n;* variant.

Varieté [varie'te:] *n; -s; -s;* varyite, xilma-xil dasturli teatr.

Vasall *m; -en; -en;* vassal, qaram kishi, qaram davlat.

Vase *f; -; -n;* vaza, guldon.

Vaselin(e) *f; -; -; Pharm.* vazelin.

Vater *m; -s; -Väter* ota; **er ist ganz ~** u otasining xuddi o'zi.

Vaterhaus *n; -es; -häuser* ota uyi, tug'ilgan uy.

Vaterland *n; -es; -länder* vatan, Ona vatan, ota yurt.

väterlich *Adj.* otalarcha; **~e Sorge** otalarcha g'amg xo'rlik.

väterlicherseits *Adv.* ota tomonidan (qarindosh).

Väterlichkeit *f; -; -;* otalik, otalarcha munosabat.

vaterlos *Adj.* otasiz; **~ aufwachsen** otasiz o'smoq.

Vatermörder *m; -s; -;* padarkush.

Vater(s)name *m; n; -n;* ota(si)ning ismi, sharifi.

Vaterstadt *f;* ona shahar, bolalik o'tgan shahar.

Vatertier *n; -es; -e;* erkak hayvon, nar.

Vati *m; -s; -s; Kinder spr.* dada, ada.

vegetabil *Adj.* o'simlikka oid.

Vegetarianer *m; -s; -;* vegetarian (g'osht emaydigan) kishi.

vegetarisch *Adj.* vegetariancha; **~ Lebensweise** vegetariancha turmush tarzi.

Vegetation *f; -; -en;* vegetatsiya, o'sish davri; **vegetationslos** *Adj.* o'sish davrisiz.

vegetieren *vi.* qashshoqlarcha hayot kechirmoq, qiyin sharoitlarda yashamoq.

vehement *Adj.* shiddatli, kuchli, keskin.

Vehikel *n; -s; -;* eski (shaldiragan) arava.

Veilchen *n; -s; -; Zool.* 1. binafsha, gunafsha. 2. ko'kargan ko'z.

veilchenblau *Adj.* binafsharang.

Vene *f; -; -n; Anat.* vena, qon tomiri.

Ventil *n; -s; -e; Tech.* ventil, klapan.

Ventilation *f; -; -en;* 1. ventlyatsiya, havo yo'nalishi. 2. suniy shamollatish.

Ventilator *m; -s; -en;* ventilyator, shamollatish uskunasi.
ventilieren *vt.* shamollatmoq *(xonani).*
Venus *m; -; -;* Venera *(planeta).*
veraasen *vt.* bekorga sovurmoq, xarj qilmoq.
verabreden *vt.* kelishmoq shartlashmoq.
verabreden sich *vt.* biron narsa bo'yicha kelishmoq, kelishib olmoq, uchrashmoq.
verabredetermaßen *Adv.* kelishilganidek.
Verabredung *f; -; -en;* bitim, kelishish, kelishuv; rozilik, murosa.
verabschieden *vt.* 1. kuzatmoq *(mehmonni);* **sich** ~ (von D.) xayrlashmoq. 2. iste'foga chiqarmoq, lavozimdan bo'shatmoq. 3. (qonun) qabul qilmoq.
Verabschiedung *f; -; -en;* 1. xayrlashuv. 2. qonun qabul qilish.
verachten *vt.* 1. yomon ko'rmoq, nafratlanmoq. 2. mensimaslik nazarga ilmaslik.
verachtenswert *Adj.* nafratga loyiq.
verächtlich *Adj.* nafratli.
Verächtlichmachung *f; -; -en;* masxaralash, obro'sini tushirish, to'kish.
Verachtung *f; -; -en;* yomon ko'rish, nafratlanish.
verachtungswürdig *Adj.* nafratga munosib, sazovor.
veralbern *vi.* ahmoq qilmoq, laqqilatmoq aldamoq, firib bermoq, mayna qilmoq.
Veralberung *f; -; -en;* laqqillatish mayna qilish.
verallgemeinern *vt.* umumlashtirmoq.
Verallgemeinerung *f; -; -en;* umumlashtirish.
veralten *vi.* eskirmoq *(kiyim haqida),* qarimoq.
veraltet *Adj.* eskirgan, ko'hna, eski.
Veranda *f; -; -Veranden* veranda, ayvon.
verändern *vt.* o'zgartirmoq; **sich** ~ o'zgarmoq.
Veränderung *f; -; -en;* o'zgarish, o'zgartish.
verängstigen *vt.* qo'rqitmoq, cho'chitmoq.
verängistigt *Adj.* qo'rqqan, qo'rqoq.
Verängstigung *f; -; -en;* qo'rqish, qo'rqitish.
verankern *vi.* langar tashlamoq.
Verankerung *f; -; -en;* langar tashlash.
veranlagen *vt.* soliqqa tortmoq.
veranlagt *Adj.* qobiliyat, zehnli bo'lmoq; **musikalish ~ sein** musiqaga zehni (qobiliyati) bor.
Veranlagung I *f; -; -en;* 1. iste'dod, qobiliyat. 2. tabiat, xarakter.
Veranlagung II *f; -; -en;* soliqqa tortish.
veranlassen *vt.* undamoq, sabab bo'lmoq.
Veranlassung *f; -; -en;* 1. bahona, sabab. 2. rag'bat, tashabbus.
veranschaulichen *vt.* yaqqol tasvirlamoq, namoyishkorona ko'rsatmoq.
Veranschlagen *vt.* baholamoq, rejaga kiritmoq.
veranstalten *vt.* uyushtirmoq, o'tkazmoq, tashkil qilmoq.
Veranstalter *m; -s; -;* tadbir tashkilotchisi.
Veranstaltung *f; -; -en;* 1. tashkil qilish, o'tkazish. 2. tadbir, chora.
verantworten javob bermoq, kafil bo'lmoq; ~ **sich** biron narsa uchun javob bermoq.
verantwortlich *Adj.* javobgar, mas'ul.
Verantwortung *f; -; -en;* javobgarlik, mas'uliyat; **die ~ übernehmen (aufsich (A.) nehmen** mas'uliyatni o'ziga olmoq.
Verantwortungslosigkeit *f; -; -en;* mas'uliyatsizlik.
verantwortungsvoll *Adj.* o'ta mas'uliyatli.
verarbeiten *vt.* 1. ishlov bermoq. 2. ishlatmoq.
Verarbeitung *f; -; -en;* 1. ishlov berish *(material),* qayta ishlash; ~ **des Wortschatzes im remdsprachenterricht** chet tili darslari-

da lug'at zaxirasini faollaschtirish. 2. xarajat

verargen *vt.* ta'na qilmoq.

verärgern *vt.* jahlini chiqarmoq; **verärgert sein** jahli chiqqan.

Verärgerung *f; -; -en;* jahli chiqish, xafa bo'lish.

verarmen *vi.* kambag'allashmoq.

Verarmung *f; -; -en;* kambag'allik.

verarschen *vt.* jinni qilmoq, aldamoq.

verarzten *vt. Med.* 1. ilk yordami ko'rsatmoq. 2. tez xizmat ko'rsatmoq.

veraschen *vt.* kulga aylantirmoq, kulini ko'kka sovurmoq.

verausgaben sich 1. joninini jabborga bermoq. 2. katta xarajat qilmoq.

Verb *n; -(e)s; -en; Gramm.* fe'l; **unregelmäßiges** ~ noto'gri tuslanadigan fe'l; **(in) transitives** ~ o'timsiz va o'timli fe'l.

verbal *Adj.* 1. *Ling.* fe'lga tegishli. 2. og'zaki.

Verbalkategorie *f; -; -n; Ling.* fe'l kategoriyasi.

Verbalnote *f; -; -n; Dipl.* verbal nota.

Verband *m; -es; -verbände* 1. bint, bog'lama. 2. uyushma, jamiyat. 3. (harbiy) bo'lim.

Verbandsvorstand *m; -(e)s; -stände;* uyushma hay'ati.

verbannen *vt.* badarg'a (surgun) qilmoq.

Verbannte *m; -n; -n;* surgun qilingan badarg'a qilingan.

verbergen *vt.* bekitmoq, yashirmoq; **sich** ~ bekinmoq, yashirinmoq.

verbessern *vt.* 1. yaxshilamoq, mukammallashtirmoq; **sich** ~ yaxshilanmoq. 2. (xato) tuzalmoq.

Verbesserung *f; -; -en;* 1. yaxshilanish. 2. tuzalish *(xato).*

verbeugen sich egilmoq, ta'zim qilmoq.

Verbeugung *f; -; -;* egilish, ta'zim.

verbeulen *vt.* g'ijim qilmoq.

verbiegen *vt.* egmoq; ~ **sich** egilmoq.

verbieten taqiqlamoq, man qilmoq; **Rauchen verboten!** Chekish taqiqlangan!

verbieten sich taqiqlanmoq, man qilinmoq.

Verbilligung *f; -; -en;* arzonlashish, narxi tushish.

verbinden *vt.* 1. bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; **sich** ~ birlashmoq. 2. (munosabat) o'rnatmoq.

verbindlich *Adj.* 1. iltifotli, xushmuomala, shirin so'z. 2. majburiy ~**en Dank!** Minnatdormiz!

Verbindlichkeit *f; -; -en;* 1. iltifot, shirinsuxanlik. 2. majburiyat.

Verbindung *f; -; -en;* 1. aloqa. 2. birikma. 3. uyg'unlashish.

verblassen *vi.* rangi ketmoq, o'chmoq, o'chib ketmoq.

Verbleib *m; -es; -e;* 1. joy, joylashgan yer, manzil. 2. qolish.

verbleiben *vi.* 1. qolib ketmoq. 2. kelishishmoq. 3. (birovga) qolmoq.

verbleichen *vi.* 1. oqarib qolmoq, rangi ketmoq. 2. vafot etmoq.

verbleien *vt.* qo'rg'oshin surmoq.

verblenden *vt.* 1. (ko'zni) qamashtirmoq. 2. (ustini, sirtini) qoplamoq.

Verblendung *f; -; -en;* 1. ko'zni qamashtirish. 2. ustini qoplash.

verblühen *vi.* gullab bo'lmoq, gulni to'kmoq.

verbluten *vi.* qon yo'qotishdan o'lmoq.

Verblutung *f; -; -en;* qon yo'qotish sababli o'lim.

verbocken *vt.* ishni barbod qilmoq, pachavasini chiqarmoq.

verborgen *vt.* qarz bermoq.

verborgen *Adj.* yashirin, ko'rinmas, xilvat; **im Verborgenen** ko'rinmas joyda.

Verborgenheit *f; -; -en;* xilvat joy.

Verbot *n; -(e)s; -e;* man qilish, taqiq.

verboten *Adj.* 1. taqiqlangan. 2. ~ **aussehen** g'alati ko'rinishli.

verbotenerweise *Adv.* taqiqlanganiga qaramasdan.

Verbotsschild *n; -es; -er;* taqiq belgili taxta.

Verbotszeichen *n; -s; -;* taqiq belgisi.
verbraten *vt.* 1. kuydtirmoq *(go'shtni).* 2. ovqat pishirmoq. 3. ortiqcha pul sarflamoq.
Verbrauch *m; -es; -;* iste'mol qilish, sarf qilish.
verbrauchen *vt.* 1. iste'mol qilmoq, xarajat qilmoq. 2. ishlatib (qo'llab) bo'lmoq.
Verbraucher *m; -s; -;* iste'molchi.
verbrechen *vt.* 1. jinoyat qilmoq. 2. xato (ayb ish) qilmoq.
Verbrechen *n; -s; -;* jinoyat; **ein ~es begehen** jinoyat qilish; **sich (D)ein~zuschulden kommen lassen** jinoyatni amalga oshirmoq.
Verbrecher *m; -s; -;* jinoyatchi; **den ~ vor Gericht stellen** jinoyatchini sudga topshirmoq.
verbrecherisch *Adj.* jinoiy, jinoyatkorona.
Verbrechertum *m; -s; -tümer* uyushgan jinoyatchilik, mafiya.
verbreiten *vt.* tarqatmoq, yoymoq; kengaytirmoq; **sich ~** tarqalmoq, yoyilmoq.
verbreitern *vt.* kengaytirmoq, yoymoq; **~ sich** kengaymoq.
Verbreitung *f; -; -en;* kengayish, yoyilish.
verbrennbar *Adj.* yonuvchan, yonadigan.
verbrennen *vt.* yoqmoq, yondirmoq; **~ sich** yonmoq, kuymoq.
Verbrennung *f; -; -en;* olov qo'yish, o't qo'yish.
verbriefen *vt.* qonunlashtirmoq, rasmiylashtirmoq (shartnoma orqali).
Verbriefung *f; -; -en;* shartnoma orqali rasmiylashtirish.
verbringen *vt.* 1. o'tkazmoq (vaqtni). 2. olib o'tmoq (chegara orqali).
Verbringung *f; -; -en;* olib kelish, yetkazib berish.
verbrüdern sich do'stlashmoq, aka-uka tutinmoq.
Verbrüderung *f; -; -en;* do'stlashish, aka-uka tutinish.
verbrühen *vt.* qaynatmoq, qaynatib olmoq; **~ sich** qaynamoq.
Verbrühung *f; -; -en;* qaynatish, qaynatib olish.
verbuchen *vt.* yozib (kiritib) qo'ymoq (daftarga).
Verbummeln *vt.* vaqtni bekorga o'tkazmoq.
Verbund *m; -es; -e;* 1. *Wirt.* shirkatlar uyushmasi. 2. *Tech.* qismlarni biriktirish
verbunden *Adj.* 1. bog'liq. 2. bog'langan; **jemandem ~ sein** (birovdan) minnatdor bo'lmoq.
verbünden *vt.* birlashtirmoq; **sich ~** birlashmoq, ittifoq tuzmoq.
Verbundenheit *f; -; -;* ittifoqlik, birlashish.
verbündet *Part. Adj.* ittifoqchi, ittifoqdosh.
Verbündete *m; -n; -n;* ittifoqdosh.
verbüßen *vi.* jazoni o'tamoq, tortmoq.
Verbüßung *f; -; -;* jazo o'tash.
verbuttern *vt.* 1. yog'ini olmoq. 2. tejamsiz sarf qilmoq.
Verdacht *m; -es; -e;* shubha, gumon; **in ~ geraten** shubha ostiga tushmoq.
verdächtig *Adj.* shubhali, shubha ostida.
Verdächtige *m; -n; -n;* shubha ostidagi shaxs, gumon qilinayotgan.
verdächtigen *vt.* shubhalanmoq, gumonsiramoq.
Verdächtigte *m; -n; -n;* shubha ostidagi shaxs, gumon qilingan shaxs.
Verdächtigung *f; -; -en;* 1. shubha, gumon. 2. gumonsirash.
verdammen *vt.* 1. hukm qilmoq, jazo bermoq. 2. qarg'amoq, la'natlamoq.
verdammt *Adj.* zo'r, rosa; **er hat ~es Glück** uning rosa omadi keldi; **Wir haben ~en Hunger** rosa qornimiz ochgan; **Verdammt!** Jin ursun!
Verdammte *m; -n; -n;* xudo urgan (la'natlangan) shaxs.

Verdammung *f; -; -;* la'natla(ni)sh, qarg'ish.
verdampfen *vi.* bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq.
verdanken *vt.* minnatdor bo'lmoq.
verdauen *vt.* hazm qilmoq, singdirmoq; **eine Speise** ~ ovqatni hazm qilmoq.
verdaulich *Adj.* tez hazm bo'ladigan, yengil.
Verdauung *f; -; -;* hazm qilish, singdirish *(ovqatni)*.
Verdeck *n; -(e)s; -e;* 1. yuk mashinasining o'ralgan tepa qismi kuzov. 2. kemaning yoqori palubasi.
verdecken *vt.* 1. yopmoq. 2. yashirmoq; **die Schuld** ~ aybni yashirmoq.
verdenken *vt.* ta'na qilmoq, aybdor qilmoq.
Verderb *n; -s; -;* 1. baxtsizlik. 2. buzilish, aynish *(oziq-ovqat)*.
verderben 1. *vt.* buzmoq, aynitmoq. 2. ~ **sich** buzilmoq, chirimoq.
Verderben *n; -s; -;* 1. buzilish, aynish. 2. halok bo'lish.
Verderblich *Adj.* ayniydigan, buziladigan.
verderbt *Adj.* buzilgan, buzuq, aynigan *(odam)*.
Verderbtheit *f; -; -en;* ma'naviy buzuqlik.
verdeutlichen *vt.* tushuntirmoq, ravshan qilmoq.
Verdeutlichung *f; -; -en;* ravshanlik, aniqlik.
verdeutschen *vt.* nemis tiliga tarjima qilmoq.
verdichten *vt.* 1. (bir-biriga) yaqin, zich qo'ymoq. 2. ~ **sich** qalinlashmoq, kuchaymoq.
verdicken *vt.* quyuqlashtirmoq; **sich** ~ qalinlashmoq.
Verdickung *f; -; -en;* quyuqlashuv.
verdienen *vt.* 1. (pul) ishlab topmoq. 2. sazovor bo'lmoq, loyiq bo'lmoq.
Verdiener *m; -s; -;* boquvchi; **ein guter** ~ **sein** ko'p pul ishlab topuvchi bo'lmoq.
Verdienst *m; -(e)s; -e;* 1. ish haqi, maosh. 2. yuksak xizmat.
Verdienstorden *m; -s; -;* xizmat ko'rsatganlik ordeni.
verdienstvoll *Adj.* xizmat ko'rsatgan.
verdient *Adj.* xizmat ko'rsatgan, sazovor.
Verdikt *n; -(e)s; -e; Rechtw.* hukm.
verdoppeln *vt.* ikkiga ko'paytirmoq; **sich** ~ ikkiga ko'paymoq.
Verdoppelung *f; -; -en;* ikki hissa ko'payish.
verdorben *Adj.* 1. aynigan, buzilgan. 2. ma'naviy buzuq.
verdorren *vi.* qurimoq, qurib qolmoq.
verdösen *vt.* mudramoq, mudrab uxlamoq.
verdrahten *vt.* sim bilan ulamoq *(simni)*.
verdrängen *vt.* siqib chiqarmoq, chetlashtirmoq.
Verdrängung *f; -; -en;* chetga surish, siqib chiqarish.
verdrecken 1. *vt.* ifloslantirmoq, iflos qilmoq. 2. *vi.* ifloslanmoq, iflos bo'lmoq.
verdrehen *vt.* 1. *Tech.* buramoq. 2. burmoq *(bo'ynini)*. 3. buzmoq.
verdreht *Adj.* (teskari) aylantirilgan, buzuq, buzib ko'rsatilgan.
Verdrehung *f; -; -;* buzib ko'rsatish.
verdreifachen *vt.* uchga ko'paytirmoq; ~ **sich** uchga ko'paymoq.
Verdruß *m; -sses; -sse;* alam, ko'ngil qolish.
verduften sich qurimoq, havoga uchmoq.
verdunkeln *vt.* 1. qorong'ilashtirmoq, xiralashtirmoq; **sich** ~ xiralashmoq. 2. bekitmoq.
verdünnen *vt.* suyultirmoq, (suyuqlik) qo'shmoq.
Verdünnung *f; -; -en;* suyultirish, eritish.
Verdünnungsmittel *n; -s;* suyultirish vositasi.
verdunsten *vi.* 1. bug'lanmoq, bug'ga aylantirmoq. 2. uchib ketmoq, bug'lanib ketmoq.

Verdünstung *f; -; -en;* bug'lanish.
verdürsten *vi.* chanqoqdan (suvsizlikdan) o'lmoq.
Verdürstern *vt.* qorong'ilatmoq, qorong'i qilmoq; ~ **sich** 1. qorong'ilashmoq, qorong'i bosmoq. 2. xafa bo'lmoq, mayuslanmoq, g'amgin bo'lmoq.
verduzt *Adj.* tashvishli, parishonxotir.
verebben *vi.* pasaymoq (ovoz), bosilmoq, (asta-sekin) tinmoq.
verdeln *vt. Tech.* bezak bermoq, yaxshilamoq.
verehelichen *vt.* uylantirmoq; turmushga bermoq; **sich** ~ nikohdan o'tmoq.
Verehelichung *f; -; -en;* nikoh, nikoh qurish.
verehren *vt.* 1. hurmat qilmoq. 2. taqdim etmoq, sovg'a topshirmoq.
Verehrer *m; -s; -;* muxlis, ixlosmand, ulug'lovchi.
Verehrung *f; -; -;* hurmatlash, ulug'lash.
verehrungsvoll *Adj.* hurmatli, izzatli ehtiromli ~! Ehtirom bilan!
vereidigen *vt.* qasamyod qilmoq.
Vereidigung *f; -; -en;* qasamyod qilish.
Verein *m; -(e)s; -e;* birlashma, uyushma, jamiyat.
vereinbar *Adj.* kelishsa bo'ladigan.
vereinbaren *vt.* kelishmoq, kelishib olmoq.
Vereinbarung *f; -; -en;* 1. kelishuv. 2. bitim, shartnoma; **eine** ~ **treffen** bitim tuzmoq.
vereinbarungsgemaß *Adv.* kelishuvga binoan.
vereinen *vt.* birlashtirmoq; **sich** ~ birlashmoq; **die Vereinten Nationen** Birlashgan Millatlar.
vereinfachen *vt.* soddalashtirmoq, osonlashtirmoq.
vereinfacht *Adj.* soddalashtirilgan, osonlashtirilgan.
Vereinfachung *f; -; -en;* soddalashtirish, osonlashtirish.
vereinigen *vt.* birlashtirmoq; **sich** ~ birlashmoq.
Vereinigung *f; -; -en;* 1. birlashma. 2. assotsiatsiya.
vereinzelt *Adj.* yakka, yolg'iz.
vereinigt *Adj.* qo'shma; ~**e Staaten von Amerika (USA)** Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH).
vereint *Adj.* birlashgan; **die Organisation der Vereinten Nationen (UNO)** Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT).
vereinzeln *vt.* ajratib olmoq, ayirib olmoq.
vereinzelt *Adj.* alohida, bir holatda, bo'lak holda.
vereisen 1. *vi.* muzlamoq, muzga aylanmoq. 2. *Med.* muzlatmoq.
Vereisung *f; -; -en;* 1. muzlash, muzga aylanish. 2. *Med.* muzlatish.
vereiteln *vt.* barbod qilmoq, buzmoq, to'xtatib qo'ymoq.
Vereitelung *f; -; -en;* barbod qilish, buzish.
vereitern *vi.* chirimoq, chirib bizilmoq.
Vereiterung *f; -; -en;* chirish, chirib buzilish.
verekeln *vt.* 1. jirkantirmoq, jirkanchlik uyg'otmoq. 2. (birovning rejasini) buzmoq.
vererben *vt.* merosxo'r bo'lmoq; ~ **sich** meros olmoq.
Vererbung *f; -; -en;* merosga berish.
verewigen *vt.* adabiylashtirmoq; ~ **sich** abadiylashmoq.
Verewigung *f; -; -en;* abadiylashtirish.
Verewigte *m; -n; -n;* marhum.
Verfahren *n; -s; -;* 1. usul, metod. 2. *Jur.* ish (sud ishi).
verfahren 1. *vi* harakat qilmoq. 2. *vt.* sarf qilmoq. 3. **sich** ~ (yo'ldan) adashmoq.
verfahren *Adj.* chalkash, chigal; ~**er Fall** chalkash hodisa.
Verfall *m; -(e)s; -;* 1. zaiflanish, holsizlanish, yemirilish. 2. muddatning tugashi.
verfallen *vi.* 1. yemirilmoq. 2. muddati tugamoq. 3. xayoliga kelmoq.

verfälschen *vt.* qalbakilashtirmoq, soxtalashtirmoq, bo'yab ko'rsatmoq.
Verfälschung *f; -; -en;* qalbakilashtirish, soxtalashtirish.
verfangen sich chalkashmoq, chuvalashmoq.
verfassen *vt.* tuzmoq, to'qimoq, ijod qilmoq.
Verfasser *m; -s; -;* muallif, tuzuvchi.
Verfassung *f; -; -en;* 1. asosiy qonun, konstitutsiya. 2. (ruhiy, jismoniy) holat.
Verfassungsänderung *f; -; -en;* konstitutsiyaga o'zgartish.
verfassungsgemäß *Adj.* konstitutsiyaga muvofiq.
Verfassungsgericht *n; -(e)s; -e;* konstitutsion sud.
Verfassungsrecht *n; -es; -e;* konstitutsion huquq.
verfaulen *vi.* chirimoq, aynimoq.
Verfaulung *f; -; -en;* chirish, aynish.
verfechten *vt.* 1. himoya qilmoq. 2. yoqlab chiqmoq.
Verfechter *m; -s; -;* kurashchi, yoqlovchi, himoya qiluvchi.
verfehlen *vt.* 1. mo'ljaldan adashmoq. 2. ~ **sich** kech qolmoq. 3. imkoniyatni boy bermoq.
Verfehlung *f; -; -en;* qilmish, jinoyat.
verfeinden sich urushmoq, janjallashmoq.
Verfeindung *f; -; -en;* urush, janjal.
verfeinern *vt.* yaxshilamoq; **sich** ~ yaxshilanmoq.
verfertigen *vt.* tayyorlamoq, yasamoq, tuzatmoq.
Verfertigung *f; -; -en;* tayyorlash, yasash.
verfestigen *vt.* mustahkamlamoq, zichlamoq; ~ **sich** mustahkamlanmoq, zichlanmoq.
Verfestigung *f; -; -en;* mustahkamlash, zichlash.
erfetten *vi.* semirmoq, moy bosmoq.
Verfettung *f; -; -en;* moy bosish, semirish.
verfilmen *vt.* ekranlashtirmoq, filmga olmoq.
verfinstern *vt.* qorong'ilashtirmoq; ~ **sich** qorong'ilashmoq.
Verfinsterung *f; -; -;* tutilish *(oy, quyosh)*, qorong'ilashish.
verflachen *vt.* tekislamoq; ~ **sich** tekislanmoq.
Verflachung *f; -; -;* tekislash.
verflechten *vt.* to'qimoq, o'rmoq, to'qib yasamoq; ~ **sich** o'ralmoq, chigallashib ketmoq.
Verflechtung *f; -; -en;* to'qish, o'rash, to'qib yasash.
verfliegen sich 1. yo'ldan (kursdan) adashmoq. 2. tez o'tib ketmoq *(vaqt)*.
verfließen *vi.* o'tib ketmoq *(kun, yil)*; **im ~en Jahr** o'tgan yilda.
verflossen *Adj.* sobiq, oldingi.
verfluchen *vt.* la'natlamoq, qarg'amoq.
verflucht *Adj.* la'nati, mal'un; ~ **noch mal!** La'natlar bo'lsin!
Verfluchung *f; -; -en;* la'nat o'qish, qarg'ish.
verflüssigen *vt.* suyultirmoq; ~ **sich** suyulmoq.
Verfolg: im ~ davomida, chog'ida.
verfolgen *vt.* 1. payiga tushmoq, ta'qib qilmoq. 2. ko'zlamoq *(maqsadni)*, bormoq. 3. kuzatmoq; **die Spur** ~ izidan bormoq.
Verfolger *m; -s; -;* ta'qib qiluvchi, ta'qibchi, quvlovchi.
Verfolgung *f; -; -en;* 1. payiga (iziga) tushish, ta'qib qilish; quvg'in. 2. kuzatish, kuzatib borish.
Verfolgungsjagd *f; -; -en;* ketidan quvish, izquvarlik.
verfrachten *vt.* 1. jo'natmoq *(yukni)*. 2. yuklamoq.
Verfrachter *m; -s; -;* yuk jo'natuvchi.
Verfrachtung *f; -; -en;* 1. (yuk) jo'natish. 2. yuklash.
verfranzen sich yo'ldan adashmoq, chekkaga chiqib ketmoq.

verfremden *vt.* begonalashtirmoq, uzoqlashtirmoq.
Verfremdung *f; -; -en;* begonalashtirish, uzoqlashtirish.
verfressen *vt.* yeb qo'ymoq (pulni sarf qilmoq).
verfressen *Adj.* yeb to'ymas, mechkay.
verfroren *Adj.* sovqotgan, sovuqda qotgan.
verfrühen sich muddatidan oldin kelmoq.
verfrüht *Adj.* muddatdan oldin, bemahal, bevaqt.
verfügbar *Adj.* ixtiyorida bo'lgan, bor bo'lgan.
Verfügbarkeit *f; -; -en;* mavjudlik, muayyarlik.
verfügen *vt., vi.* 1. buyruq bermoq. 2. ixtiyorida bo'lmoq, ega bo'lmoq.
Verfügung *f; -; -;* farmoyish, buyruq; **laut ~** farmoyishga ko'ra; **zur ~ stellen** ixtoyoriga bermoq.
verfügungsberechtigt *Adj.* huquqqa ega, huquqli.
verführen *vt.* yo'ldan urmoq, yo'ldab ozdirmoq.
Verführer *m; -s; -;* qiziqtiruvchi, havas keltiruvchi, yo'ldan ozdiruvchi vasvasa qiluvchi.
verfüttern *vt.* boqmoq, (molga) yem bermoq.
Vergabe *f; -; -;* ajratib berish, (kredit, litsenziya) berish, topshirish.
vergällen *vt.* zaharlamoq, buzmoq.
vergammeln *vi.* 1. chirimoq, aynimoq. 2. dangasalik qilmoq, vaqtini bekorga o'tkasmoq.
vergammelt *Adj.* chirigan, aynigan.
Vergangenheit *f; -; -;* o'tgan zamon, o'tgan davr.
vergänglich *Adj.* o'tkinchi, abadiy emas.
vergären *vt.* achitmoq, ko'pchitmoq, oshirmoq.
Vergärung *f; -; -;* achish, ko'pchitish.
vergasen *vt.* 1. (gaz bilan) o'ldirmoq. 2. gazlashtirmoq.
Vergaser *m; -s; -; Tech.* korbyurator.
Vergasung *f; -; -en;* 1. (gaz bilan) o'ldirish. 2. gaz bilan zaharlash. 3. gazga aylantirish.
vergeben *vt.* 1. (kredit) ajratmoq, bermoq, topshiriq bermoq. 2. va'da bermoq.
vergebens *Adv.* behuda, bekorga.
vergeblich *Adj.* behuda, foydasiz.
Vergebung *f; -; -en;* 1. kechirish, uzr. 2. topshirish.
vergegenwärtigen *vt.* oydinlashtirmoq, ravshanlashtirmoq; **~ sich** oydinlashmoq.
Vergehen *n; -s; -;* jinoyat, qoida buzish.
vergehen *vi.* 1. o'tmoq *(vaqt)*. 2. tugamoq, tamom bo'lmoq; **~ sich** jinoyat qilmoq, qoida buzmoq.
vergelten *vt.* to'lamoq; **Böses mit Gutem ~** yomonlikka yaxshilik bilan javob bermoq.
Vergeltung *f; -; -en;* o'ch, qasos, intiqom.
Vergeltungsmaßnahme *f; -; -n;* jazo chorasi.
vergessen *vt.* unutmoq, esdan chiqarmoq; **sich ~** esdan chiqmoq.
Vergessenheit *f; -; -;* esdan chiqarish, unutish.
vergeßlich *Adj.* unutuvchan, xotirasi past, faromushxotir, parishonxotir.
Vergeßlichkeit *f; -; -en;* parishonxotirlik, unutuvchanlik.
vergewaltigen *vt.* zo'rlamoq, majbur qilmoq.
Vergewaltigung *f; -; -en;* zo'rlash, zo'rlik ko'rsatish.
vergeuden *vt.* (bekorga) sarf qilmoq.
vergießen *vt.* quymoq, to'kib yubormoq.
vergiften *vt.* zaharlamoq.
vergiftet *Adj.* zaharlangan.
Vergiftung *f; -; -en;* zaharlab o'ldirish.
vergilben 1. *vi.* sarg'aymoq. 2. *vt.* sarg'aytirmoq.
vergipsen *vt.* gipslamoq, gips quymoq

Vergißmeinnicht *n; -(e)s; -; Bot.* bo'tako'z.
verglasen *vt.* oyna (o'tkazmoq) qo'ymoq.
Vergleich *m; -es; -e;* 1. taqqoslash, solishtirish, qiyoslash 1. *Rechtw.* kelishuv.
vergleichen *vt.* taqqoslamoq, solishtirmoq; ~ **sich** o'zini o'xshatmoq.
Vergnügen *n; -s; -;* mamnuniyat, rohat, huzur-halovat.
vergnügen sich zavqlanmoq, maza qilmoq.
Vergnügungspark *m; -es; -s;* ko'ngil ochish bog'i, istirohat bog'i.
vergolden *vt.* tilla suvi yuritmoq.
vergotten *vt.* ko'klarga ko'tarmoq, sajda qilmoq.
Vergötterung *f; -; -;* sajda, ko'klarga ko'tarish.
vergraben *vt.* ko'mmoq, ko'mib tashlamoq; ~ **sich** ko'milmoq.
vergreifen sich tortib olmoq, o'ziniki qilib olmoq, egallamoq, o'zlashtirmoq.
vergreisen *vi.* qarimoq, qarib ketmoq.
vergriffen *Adj.* sotilgan, sotib bo'lingan.
vergröbern sich qo'pollashmoq, dag'allashmoq.
vergrößern *vt.* kattalashtirmoq, kengaytirmoq, oshirmoq; **sich** ~ kengaymoq, kattalashmoq.
Vergrößerung *f; -; -en;* kengayish, kattalashish.
Vergrößerungsgerät *n; -es; -e;* kattalashtiruvchi uskuna.
vergucken sich adashmoq, (ko'rganda) yanglishmoq.
Vergünstigung *f; -; -en;* imtiyoz, yengillik.
verhaften *vt.* qamamoq, qamoqqa olmoq, hibsga olmoq.
Verhaftete *m; -n; -n;* mahbus.
Verhaftung *f; -; -en;* qamash, qamoqqa olish, hibsga olish.
verhageln *vi.* chaqmoq urmoq.
verhaken *vt.* mustahkamlamoq, ilmoq; ~ **sich** ilinmoq, ilinib qolmoq.
Verhalten *n; -s; -;* xulq, axloq, o'zin tutish.
verhalten *vt.* 1. tiymoq, tutmoq; **sich** ~ o'zini tutmoq. 2. munosabatda bo'lmoq.
Verhältnis *n; -ses, -se;* 1. nisbat (mutanosiblik), tenglik (munosabat). 2 *Pl.* ~**se** sharoit; **schweres** ~ og'ir sharoit.
verhältnismäßig *Adj.* nisbatan, qaraganda.
verhandeln 1. *vi.* muzokaralar olib bormoq. 2. *vt. Jur.* 1. ishni ko'rib chiqmoq. 3. savdolashmoq.
Verhandlung *f; -; -en;* 1. muzokara; **in** ~ **stehen** muzokara olib bormoq. 2. *Jur.* sudda ish ko'rish.
Verhandlungssprache *f; -; -n;* muzokaralar tili.
verharren *vi.* (o'z fikrida) qolmoq.
verhangen *Adj.* (bulut bilan) qoplangan, bulutli.
verhängen *vt.* 1. ilmoq (pardani). 2. jazo belgilamoq.
Verhängnis *n; -ses, -se;* taqdir baxtsizlik, og'ir qismat.
vergängnisvoll *Adj.* baxtsiz keltiruvchi.
Verhängung *f; -; -en;* tayinlash *(jazo).* belgilash.
verharmlosen *vt.* (aslidan) kichraytirmoq, kamaytirib ko'rsatmoq, kichik qilib ko'rsatmoq, ahamiyatsiz hisoblamoq.
verhärmt *Adj.* qiynalgan, ezilgan.
verharren 1. *Auf A.* turmoq *(fikrida, so'zida).* 2. qotmoq *(joyida).* qotib qolmoq.
verhärten *vt.* 1. qattiq holatga keltirmoq, toblamoq. 2. qovog'ini solmoq.
Verhärtung *f; -; -en;* toblash, qattiq holatga keltirish; **sich** ~ toblanmoq.
verhaspeln sich tutilib gapirmoq, so'zidan adashmoq, duduqlanmoq.
verhätscheln *vt.* erkalatib yubormoq, taltaytirib yubormoq.
Verhätschelung *f; -; -en;* erkalatish, taltaytirish.

Verhau *m;* und *n; -es; -e;* to'siq.
verhauen *vt.* 1. kaltaklamoq. 2. o'tkazib yubormoq *(tadbirni, ishni).*
verheben sich lat yemoq, shikast yemoq.
verheeren *vt.* qirg'in keltirmoq, qirib tashlamoq, xarob qilmoq.
verheerend *Adj.* xarob, vayron.
Verheerung *f; -; -en;* vayronagarchilik, xarob qilish.
verhehlen *vt.* yashirmoq, sir tutmoq.
verheilen *vi.* bitmoq *(yara),* bitib ketmoq.
Verheilung *f; -; -en;* bitib ketish *(yaraning),* tuzalib ketish.
verheimlichen *vt.* yashirmoq, sir tutmoq.
verheiraten *vt.* uylantirmoq turmushga bermoq; ~ **sich** turmush qurmoq.
verheiratet *Adj.* uylangan, turmushga chiqqan.
Verheiratung *f; -; -en;* uylantirish, turmushga chiqarish, uzatish.
verheißen *vt.* darak bermoq, va'da bermoq.
verhelfen *vi.* yordam bermoq, ko'maklashmoq.
verherrlichen *vt.* maqtamoq, ko'klarga ko'tarmoq.
verhetzen *vt.* gijgijlamoq.
Verhetzung *f; -; -en;* gijgijlash, qutirtirmoq, vasvasa qilmoq.
verhexen *vt.* sehrlamoq, jodulamoq, avramoq.
Verhexung *f; -; -en;* sehrlash, jodulash, avrash.
verhindern *vt.* bartaraf qilmoq *(to'siqni),* yo'q qilmoq.
Verhinderung *f; -; -en;* bartaraf qilish, yo'q qilish.
verhöhnen *vt.* masxara qilmoq, mazax qilmoq.
Verhöhnung *f; -; -en;* masxara, mazax, xurlik, tahqir.
Verhör *n; -s; -e;* so'roq, so'roq qilish.
verhören *vt.* 1. so'roq qilmoq. 2. **sich** ~ xato eshitmoq.
verhüllen *vt.* bekitmoq, yashirmoq *(yuzini).*
Verhüllung *f; -; -en;* 1. bekitish, yashirish. 2. parda, po'st, po'stlog'.
verhungern *vi.* ochdan o'lmoq.
verhüten *vt.* himoya qilmoq, saqlamoq *(yomon narsadan).*
Verhütung *f; -; -en;* saqlanish, himoya qilish.
verifizieren *vt.* solishtirmoq, solishtirib o'qimoq, solishtirib ko'rmoq, solishtirib chiqmoq.
Verifikation *f; -; -en;* solishtirish, solishtirib chiqish, tasdiqlash, tasdiq etish.
verimfen *vt.* emlamoq, payvand qilmoq.
Verimfung *f; -; -en;* emlash, payvand qilish.
verinnerlichen *vt.* yakkalamoq, yolg'izlamoq.
verirren. sich adashmoq *(yo'ldan).*
Verirrung *f; -; -en;* adashish.
verjagen *vt.* haydamoq, quvmoq.
verjahren *vi.* vaqti (davri) o'tmoq, muddati o'tmoq.
Verjahrung *f; -; -en;* (harakat) davri o'tish, muddati o'tish.
verjubeln *vt.* (behuda) sarflamoq.
verjüngen *vt.* yoshartirmoq; **sich** ~ yosharmoq.
verkabeln *vt.* kabel tortmoq, kabel bilan ulamoq.
verkahlen 1. *vi.* qurimoq (daraxt). 2. *vt.* kesib tashlamoq, kesib bo'lmoq.
verkalken *vi.* 1. ohakka aylantirmoq. 2. (yoshiga nisbatan) qari ko'rinmoq.
Verkalkung *f; -; -en;* 1. *Med.* parishonxotirlik, skleroz. 2. ohak yig'ilishi.
verkanten *vt.* (yonboshga) og'dirmoq; ~ **sich** yonboshga turib qolmoq *(kema).*
verkappt *Adj.* yashirin, maxfiy.
verkappseln sich 1. po'stloqqa, qobig'iga o'ralmoq. 2. odamovi bo'lmoq, o'z yog'iga o'zi qovurilmoq.
verkäsen *vt.* pishloq qilmoq, pishloq tayorlamoq.

Verkauf *m; -s; -;* sotish, sotuv; **zum ~ stehen** sotuvga qo'yilmoq.
verkaufen *vt.* sotmoq; **~ sich** 1. sotilmoq. 2. o'zini bozorga solmoq.
Verkäufer *m; -s; -;* sotuvchi.
verkäuflich *Adj.* sotiladigan, sotuvga qo'yilgan.
Verkaufspreis *m; -es; -e;* sotuv narxi, bahosi.
Verkaufsstand *m; -es; -stände* (kichik) do'kon, do'koncha.
Verkehr *m; -s; -;* 1. harakat, yurish *(transport).* 2. yo'l, aloqa. 3. muomala.
verkehren *vt.* 1. harakat qilmoq *(transport vositasida).* 2. munosabatda bo'lmoq, uchrashmoq; **sich ~** (batamom) o'zgarmoq.
Verkehrsampel *f; -; -n;* svetofor.
Verkehrsminister *m; -s; -;* transport vaziri.
Verkehrspolizei *f; -; -;* yo'l harakati politsiyasi.
verkehrt *Adj.* yanglish, noto'g'ri.
verkennen *vt.* kam baho bermoq, yetarli baho bermaslik, qadriga yetmaslik.
verklagen *vt.* 1. birov ustidan shikoyat qilmoq. 2. sudga bermoq.
Verlängerung *f; -; -en;* uzaytirish, kechiktirish.
verkleben *vt.* yelimlamoq, yopishtirmoq.
verkleiden *vt.* 1. qoplamoq, jildlamoq. 2. (biror narsa bilan) yopmoq, bekitmoq, yopib (bekitib) qo'ymoq.
verkleinern *vt.* kichraytirmoq, kichiklashtirmoq.
verketten *vt.* 1. (mustahkam) ulamoq, mahkamlamoq. 2. zanjirlamoq; **~ sich** ulanmoq.
verkitten *vt.* yog'lamoq, moylamoq.
verklagen *vt.* sudga bermoq.
Verklagte *m; -n; -n;* aybdor, javobgar, sudlanuvchi.
verklammern *vt.* ulamoq, birlashtirmoq; **~ sich** ulanmoq, birlashmoq.
verklapsen *vt.* jinni qilmoq, mayna qilmoq.
verklemmt *Adj.* tang, cheklangan, bemalol emas, chegaralangan.
Verklemmung *f; -; -;* tanglik, cheklanganlik.
verklingen *vi.* o'chmoq, tinmoq (qo'shiq).
verknappen *vt.* (ataylab) kamaytirmoq (mahsulotni); **~ sich** kamaymoq.
Verknappung *f; -; -en;* kamayish, pasayish.
verkneifen *vt.* ushlab qolmoq, tutib qolmoq, to'xtatmoq, tiymoq; **~ sich (D) mit Mühe das Lachen** ~ qiyinchilik bilan o'zini kulishdan tiydi.
verkneten *vt.* aralashtirmoq (sabzavotni).
verkniffen *Adj.* jahldor, qisilgan siqilgan; **ein ~er Mund** zaharhanda qisilgan lablar.
Verkniffenheit *f; -; -en;* kek, adovat, g'azab.
verknoten *vt.* bog'lamoq, tang'imoq, (tugun) tugmoq.
Verknotung *f; -; -en;* 1. tugun, bo'xcha. 2. tugun tugush.
verknüpfen vt. bog'lamoq, birlashtirmoq; **sich ~** bog'lanmoq.
Verknüpfung f; -; -en; 1. bog'lanish. 2. aloqa.
verkochen 1. *vt.* qaynatmoq, pishirmoq. 2. *vi.* qaynamoq.
verkohlen 1. *vt.* ko'mirga aylantirmoq. 2. jinni qilmoq. 3. *vi.* ko'mirga aylanmoq.
verkommen I *vi.* 1. (axloqan) aynimoq, buzilmoq. 2. tashlandiq holatga kelmoq.
verkommen II *Adj.* tashlandiq, aynigan.
Verkommenheit *f; -; -en;* tashlandiq holat.
verkörpern *vt.* 1. ifodalamoq. 2. rol o'ynamoq gavdalantirmoq. 3. **sich ~** ifodalanmoq.
Verkörperung *f; -; -;* 1. ifoda. 2. rol, qiyofa.

verkosten *vt.* tatib ko'rmoq *(vinoni)*, degustatsiya qilmoq.
verkrachen sich janjallashmoq, urishib qolmoq.
verkraften *vt.* uddalamoq, amalga oshirmoq.
verkramen *vt.* (qo'lini) tiqmoq, suqmoq.
Verkrampftheit *f; -; -;* tomir tortishish, talvasa.
verkrauten *vi.* o'sib chiqmoq (begona o't), o't bosmoq.
verkriechen sich yashirinmoq, bekinmoq.
verkrümeln *vt.* ushatmoq, maydalamoq, ushoq to'kib iflos qilmoq. 2. ~ **sich** (sezdirmasdan) uzoqlashmoq, tarqalmoq.
verkrümmen 1. *vt.* bukmoq, egmoq. 2. ~ **sich** bukilmoq, egilmoq.
Verkrümmung *f; -; -en;* 1. qiyshaytirish, egri qilish, egish, bukish. 2. qiyshaygan joy bukilgan joy; *Med* ~ umurtqa suyagining egilishi.
verkrüppeln *vt.* 1. mayib qilmoq, lat yedirmoq, shikast yetkazmoq. 2. lat yemoq.
verkühlen, sich 1. shamollamoq. 2. **sich etw.** ~ shamollatmoq.
Verkühlung *f; -; -en;* shamollash.
verkünden *vt.* 1. e'lon qilmoq. 2. tushuntirmoq. 3. da'vat etmoq.
verkündigen *vt.* e'lon qilmoq.
Verkündung *f; -; -en;* (ommaviy) e'lon qilish; o'qib eshittirish.
verkuppeln *vt.* 1. ulamoq. 2. unashtirmoq.
verkürzen *vt.* qisqartmoq; **sich** ~ qisqarmoq.
Verkürzung *f; -; -en;* qisqartirish.
verlachen *vt.* masxara qilmoq, ustidan kulmoq.
verladen *vt.* yuklamoq, ortmoq.
Verladeplatz *m; -es; -plätze* yuklash joyi, yuk ortish joyi.
Verlader *m; -s; -;* 1. yuklovchi, yuk ortuvchi (ishchi). 2. yuk jo'natuvchi (korxona). 3. yuk ortuvchi uskuna.
Verladung *f; -; -en;* yuklash, yuk ortish.
Verlag *m; -es; -e;* nashriyot.
verlagern *vt.* ko'chirmoq, boshqa joyga joylashtirmoq; **sich** ~ ko'chmoq, o'zgarmoq.
verlanden *vi.* sayozlashmoq, suvi pasaymoq.
Verlandung *f; -; -;* sayozlanish, suvi pasayish.
verlangen *vt.* 1. talab qilmoq. 2. so'ramoq; **am Telefon verlangt werden** telefonda so'ramoq. 3. chaqirmoq; **das Kind ~ nach Mutter** bola onasini chaqiryapti.
Verlangen *n; -s; -;* 1. talab. 2. istak, (kuchli) ishtiyoq talab ehtiyoj xohish; **j-s ~ stillen** kimnidir xohishini qondirmoq.
verlängern *vt.* uzaytirmoq, cho'zmoq; **den Urlaub** ~ ta'tilni cho'zmoq; **die Arbeitszeit** ~ ish soatini uzaytirmoq.
Verlängerung *f; -; -en;* uzaytirish, cho'zish.
Verlängerungsschnur *f; -; -schnüre* uzaytiruvchi sim, kabel.
verlangsamen *vt.* susaytirmoq, sekinlatmoq; **sich** ~ sekinlamoq, susaymoq.
Verlangsamung *f; -; -;* sekinlashish, susayish.
verläppern *vt.* (behuda) sarflamoq.
Verlaß *m; -sses, -;* ishonch; **auf (jdn. etw.) ist** ~ ishonsa bo'ladi; **auf A. ist kein** ~ ishonib bo'lmaydi.
verlassen I. *vt.* tashlab ketmoq, qoldirmoq.
verlassen sich II. (birovga) suyanmoq, ishonmoq.
verlassen III. *Adj.* yakka, yolg'iz.
verläßlich *Adj.* ishonchli, ishonsa bo'ladigan.
Verläßlichkeit *f; -; -;* ishonch, suyanchiq.
Verlaub *m; -s; -;* **mit -(gesagt, sagen)** ijozatingiz, ruxsat(ingiz) bilan aytganda.
Verlauf *m,-es; Verläufe* davomi, borishi (1. tadbiming. 2. vaqtning o'tishi); **im** ~ davomida. 2. o'tish (chegara).

verlaufen *vi.* 1. o'tmoq. 2. bo'lib o'tmoq; ~ **sich** 1. adashmoq. 2. tarqalmoq.
verlautbar *Adj.* ovoza, ma'lum.
verlautbaren *vt.* ovoza qilmoq.
verleben *vt.* boshdan kechirmoq, o'tkazmoq.
verlebt *Adj.* ko'pni ko'rgan boshdan kechirgan.
verlegen 1. *vt.* 1. qo'ymoq, yotqizmoq, joylashtirmoq. 2. o'tkazmoq *(boshqa joyga)*. 3. nashr qilmoq.
verlegen *Adj.* xijolat, dovdiragan.
Verlegenheit *f; -; -en;* 1. xijolatlik. 2. noqulay vaziyat; **in ~ geraten** xijolatli vaziyatga tushmoq.
Verleger *m; -s; -;* noshir, nashriyotchi.
Verlegung *f; -; -en;* 1. o'zgartirish *(joyga, vaqtga tegishli)*. 2. to'siq. 3. yotqizish *(kabel, sim)*.
Verleih *f; -; -;* ijara, kira.
verleihen *vt.* 1. mukofotlamoq, bermoq. 2. kiraga, ijaraga bermoq. 3. (ovqatga ta'm) bermoq.
Verleiher *m; -s; -s;* ijarachi, qarz beruvchi.
Verleihung *f; -; -;* mukofotlash, mukofot topshiruish.
verleimen *vt.* kleylamoq, yelim, (sirach) kley surmoq, yelimlamoq.
verleiten *vt.* yo'ldan urmoq, ko'ndirmoq, havasini keltirmoq.
verlernen *vt.* esidan chiqarmoq, unutmoq.
verlesen *vt.* 1. o'qib eshittirmoq. 2. terib olmoq (saralamoq). 3. **sich ~** yanglishmoq.
Verlesung *f; -; -en;* o'qib eshittirish.
verletzbar *Adj.* gap ko'tarolmaydigan, ko'ngli nozik, zaif, ojiz, bo'sh.
Verletzbarkeit *f; -; -;* zaiflik, bo'shlik, noziklik.
verletzen *vt.* 1. zarar (ziyon) yetkazmoq, shikast yetkazmoq. 2. qoidani buzmoq.
Verletzer *m; -s; -;* qoidabuzar.
Verletzlichkeit *f; -; -;* zaiflik, ojizlik, bo'shlik.
Verletzte *m; -n; -n;* yarador, jarohatlangan *(shaxs)*.
Verletzung *f; -; -en;* 1. yara, yaralanish. 2. qoida buzish. 3. zarar yetkazish.
verleugnen *vt.* inkor qilmoq, rad qilmoq, tonmoq, qaytmoq *(so'zidan va'dasidan)*.
Verleugnung *f; -; -;* 1. oshkor bo'lish. 2. voz kechish tonish.
verleumden *vt.* tuhmat (bo'hton) qilmoq.
Verleumder *m; -s; -;* tuhmatchi.
Verleumdung *f; -; -en;* tuhmat, bo'hton.
verlieben sich yaxshi ko'rmoq, sevib qolmoq, oshiq bo'lmoq.
verliebt *Adj.* ~ **sein** yaxshi ko'rgan, sevgan.
verlieren *vt.* 1. yo'qotmoq, yo'qotib qo'ymoq. 2. (o'yinda, urushda) yutqazib qo'ymoq.
Verlierer *m; -s; -;* mag'lub, yutqazgan *(shaxs)*.
Verließ *n; -es; -e;* zindon, qorong'i yer-to'la.
verloben *vt.* unashtirmoq; **seinen Sohn ~** o'g'lini unashtirmoq.
verloben sich unashtirilmoq, unashmoq.
Verlobte *m; -n; -n;* unashtirilgan *(shaxs)*.
Verlobung *f; -; -en;* 1. unashtirish. 2. unashtirish marosimi.
Verlöbnis *n; -ses, -se;* unashtirish.
Verlobungsring *m; -es; -e;* unashtiruv uzugi.
verlocken *vt.* jalb qilmoq, o'ziga tortmoq, qiziqtirib qo'ymoq, avramoq, maftun qilmoq, ko'ngilni band etmoq.
verlockend *Adj.* jozibador, o'ziga tortadigan maftunkor.
Verlockung *f; -; -;* jalb qilish, havasini keltirish, qiziqtirib qo'yish.
verlogen *Adj.* 1. yolg'onchi, aldamchi. 2. soxta, yasama.
Verlogenheit *f; -; -en;* aldamchilik, yolg'onchilik, soxtalik.
verlohnen *vi.* arzimoq, o'zini oqlamoq.
verloren 1. *Adj.* chekka, tanho, yolg'iz, g'arib. 2. yo'qolgan; **der ~e Sohn** oqpadar og'il; **Such ~!** Qidir! *(ovchilar tilida)*.

verlorengehen *vi.* yo'qolmoq, yo'qolib ketmoq; **an ihm ist ein Arzt verloren gegangen** undan yaxshi shifokor chiqardi.
Verlorenheit *f; -; -;* tanholik, yolg'izlik, g'ariblik.
verlöschen *vi.* o'chmoq, rangi ketmoq.
verlosen *vt.* (lotereya) o'ynamoq.
Verlosung *f; -; -en;* lotereya o'yini, tiraj.
verlumpen *vi.* aynimoq, buzilmoq *(axloqiy).*
Verlumpung *f; -; -;* (axloqiy) buzilish.
Verlust *m; -es; -e;* yo'qotish, talofot, kamomad.
Verlustanzeige *f; -; -n;* yo'qolganlik haqida e'lon.
verlustfrei *Adj.* yo'qotishlarsiz.
vermachen *vt.* vasiyat qilmoq, vasiyat qilib qoldirmoq.
Vermächtnis *n; -ses; -se;* vasiyatnoma, vasiyat.
vermahlen *vt.* maydalamoq, yanchmoq, tuymoq.
vermählen sich nikohdan o'tmoq.
Vermählte *m; -n; -n;* (yosh) nikohdan o'tgan kelin-kuyov.
vermählung *f; -; -en;* nikohlanish, nikohdan o'tish.
vermahnen *vt.* qattiq hayfsan bermoq.
Vermahnung *f; -; -en;* qattiq hayfsan.
vermarkten *vt.* sotmoq, sotib foyda ko'rmoq.
Vermarktung *f; -; -en;* sotish (katta hajmda), sotuvga qo'yish.
vermehren *vt.* ko'paytirmoq; **den Reichtum** ~ boylikni ko'paytirmoq; **sich** ~ ko'paymoq.
Vermehrung *f; -; -en;* 1. ko'paytirish, kattaytirish. 2. oshirish.
vermeiden *vt.* qochmoq, o'zini chetga tortmoq, (birovga) ko'rinmaslikka harakat qilmoq.
Vermeidung *f; -; -en;* chetga tortish, ko'rinmaslik.
vermeintlich *Adj.* gumondagi, taxminiy.
vermengen *vt.* aralashtirmoq; qorishtirmoq; **sich** ~ aralashmoq, qorishib ketmoq.
Vermengung *f; -; -en;* aralashish, qorishish.
vermenschlichen *vt.* odamsimon (odambashara) qilmoq.
Vermerk *m; -es; -e;* yozma belgi, belgilash.
vermerken *vt.* 1. yozib belgilamoq. 2. ro'yxatga olmoq.
vermessen I. *vt.* o'lchamoq, o'lchov bilan.
vermessen II. *Adj.* surbetlarcha, shartaki.
Vermessenheit *f; -; -en;* surbetlik, shartakilik.
Vermessung *f; -; -en;* o'lchash, topografik surat.
vermiesen *vt.* buzmoq, yo'qqa chiqarmoq *(kayfiyatni).*
vermieten *vt.* ijaraga bermoq.
vermietbar ijaraga beriladigan, ijaraga bersa bo'ladigan.
Vermieter *m; -s; -;* ijarachi, ijaraga beruvchi.
Vermietung *f; -; -;* ijara, ijaraga berish.
vermindern *vt.* kamaytirmoq, qisqartirmoq.
Verminderung *f; -; -en;* kamaytirish, pasaytirish.
vermischen *vt.* qo'shmoq, aralashtirmoq.
Vermischung *f; -; -;* aralashtirish.
vermissen *vt.* o'rni bilinmoq, yetishmaslik, yo'qotib qo'ymoq.
Vermißte *m; -n; -n;* izsiz yo'qolgan *(shaxs).*
vermitteln *vt.* 1. vositachilik qilmoq, oraga kirmoq. 2. bermoq *(bilim, tajriba).*
Vermittler *m; -s; -;* vositachi, dallol.
Vermittlung *f; -; -en;* 1. vositachilik, aralashish (dallollik). 2. bilim berish.
Vermögen *n; -s; -;* 1. mol-mulk, boylik. 2. ko'nikma, imkoniyat.
vermögen *vt.* 1. qodir bo'lmoq, imkoniyati bo'lmoq, qila olmoq. 2. erishmoq.

vermögend *Adj.* boy, badavlat.
Vermögensteilung *f; -; -en;* mol-mulk bo'lishish.
Vermögenssteuer *f; -; -n;* mulk solig'i.
vermooren *vi.* botqoqqa aylanmoq.
Vermoorung *f; -; -en;* botqoqqa aylanish.
vermotten *Adj.* (kuyadan) yedirilgan.
vermummen *vt.* o'ramoq, burkamoq; ~ **sich** o'ranmoq; burkanmoq (kiyimga).
Vermummung *f; -; -en;*, 1. o'ranish. 2. niqoblanish (qoyofasini yashirish uchun) kiyinish.
vermuten *vt.* taxmin qilmoq, gumon qilmoq, faraz etmoq, chamalamoq.
vermutlich *Adj.* ehtimol, balki.
Vermutung *f; -; -en;* taxmin, faraz; **eine ~ haben** mo'ljallash taxmin qilish, chamalash.
vernachlässigen *vt.* 1. mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik. 2. (yetarli) e'tibor bermaslik.
Vernachlässigung *f; -; -;* nazarga olmaslik, mensimaslik.
vernageln *vt.* mixlamoq, mix urmoq, mix qoqmoq.
vernähen *vt.* tikib qo'ymoq, tikmoq.
vernünftig *Adj.* aqli raso, to'g'ri, yaxshi, maqsadga muvofiq.
vernehmen *vt.* 1. eshitmoq. 2. so'roq qilmoq.
Vernehmung *f; -; -en;* so'roq, so'roq qilish.
verneinen *vt.* inkor etmoq (qilmoq), rad qilmoq.
vernichten *vt.* 1. yo'qotmoq, yo'q qilmoq. 2. tugatmoq.
Vernichtung *f; -; -;* vayron qilish, yo'q qilish, tor-mor keltirish.
vernickeln *vt.* nikel surmoq, nikellamoq.
verniedlichen *vt.* (qadrini) pasaytirmoq, yerga urmoq.
Vernissage *(wernissashe) f; -; -s;* und *-n;* vernisaj, san'at ko'rgazmasining ochilishi.
Vernunft *f; -; -;* aql-idrok, idrok.
Vernünftigkeit *f; -; -en;* maqsadga muvofiqlik, oqillik, mantiq.
Vernunftheirat *f; -; -;* hisob-kitob asosidagi nikoh.
vernünftig *Adj.* aqlli, aql-idrokli.
vernunftlos *Adj.* noto'g'ri, mantiqsiz.
vernunftwidrig *Adj.* aqlga to'g'ri kelmaydigan.
veröden *vi.* 1. bo'shab qolmoq. 2. qirilmoq, qirilib ketmoq.
veröffentlichen *vt.* nashr qilmoq, chop etmoq, bosib chiqarmoq.
Veröffentlichung *f; -; -en;* 1. nashr qilish. 2. nashr qilingan ish.
verölen *vi.* yog' bosmoq, yog' bosib ketmoq.
verordnen *vt.* 1. yozib bermoq. 2. farmoyish bermoq.
Verordnung *f; -; -en;* 1. farmoyish. 2. (dori) yozib berish.
verpachten *vt.* ijaraga bermoq.
Verpächter *m; -s; -;* ijarachi, ijaraga beruvchi.
verpacken *vt.* joylamoq, o'ramoq, qadoqlamoq.
Verpackung *f; -; -en;* o'rash, qadoqlash.
verpassen *vt.* qo'ldan boy bermoq, paytni (fursatni) qo'ldan boy bermoq, o'tkazib yubormoq.
verpesten *vt.* 1. zaharlamoq. 2. buzmoq *(havoni, tabiatni).*
verpflanzen *vt.* 1. (ko'chatni) boshqa joyga ko'chirmoq. 2. *Med.* transplantatsiya qilmoq, (organni) ko'chirmoq.
verpflegen *vt.* (oziq-ovqat bilan) ta'minlamoq, boqmoq.
Verpflegung *f; -; -en;* 1. oziq-ovqat ta'minoti. 2. ovqatlanish; ~ **ausfolgen** oziq-ovqat bermoq, ta'minlash.
verpflichten *vt.* majbur etmoq, ustiga yuklamoq, vazifa qilib qo'ymoq.
Verpflichtung *f; -; -;* 1. burch, xizmat, vazifa. 2. majburiyat; **heilige ~** muqaddas, xayrli burch.
verpimpeln *vt.* erkalatmoq *(bolani).*

verplanen *vt.* rejalashtirmoq; **sich** ~ noto'g'ri rejalashtirmoq.
verplomben *vt.* plomba (tamg'a) qo'ymoq.
Verplombung *f; -; -;* plombalash, tamg'alash.
Verplemperung *f; -; -en;* isrofgarchilik, nobudgarchilik.
verprügeln *vt.* kaltaklamoq, kaltak bilan urmoq.
verputzen *vt.* suvamoq, suvab chiqmoq.
verquellen *vi.* to'lishmoq, shishmoq.
Verquellung *f; -; -en;* shishish, shishib ketish.
Verrat *m; -s; -;* xoinlik, sotqinlik.
verraten *vt.* 1. xoinlik (sotqinlik) qilmoq. 2. ~ **sich** oshkor qilmoq *(sirni).*
Verräter *m; -s; -;* sotqin, xoin, xiyonatchi.
verräterisch *Adj.* xoinlarcha, xoin.
verrauchen 1. tarqalmoq (tutun). 2. chekmoq.
verrechnen *vt.* hisoblab chiqmoq; **sich** ~ noto'g'ri hisoblamoq, hisobda yanglishmoq.
Verrechnung *f; -; -en;* 1. *(o'zaro)* hisob-kitob. 2. hisoblash
verreisen *vi.* jo'nab ketmoq, sayohat qilmoq.
verregnen *vi.* yomg'irda qolmoq, seryog'in joy.
verreißen *vt.* tanqid qilmoq, tanqid bilan yerga urmoq.
verrenken *vt.* chiqarmoq, qo'zg'atmoq (qo'lini); ~ **sich** qo'li chiqmoq.
Verrenkung *f; -; -en;* qo'lning chiqishi, qo'zg'alishi.
verrennen sich adashmoq; **sich in etw.** ~ (biron narsaga) aralashib qolmoq.
verrichten *vt.* bajarmoq, o'tamoq *(xizmatni).*
Verrichtung *f; -; -;* bajarish, xizmat qilish.
verriegeln *vt.* 1. to'sib qo'ymoq. 2. (mahkam) yopmoq.
Verriegelung *f; -; -en;* 1. to'sib qo'yish. 2. yopish.
verringern *vt.* qisqartirmoq, toraytirmoq; ~ **sich** qisqartirmoq, toraymoq.
verrosten *vi.* zanglamoq, sang bosmoq.
verrücken *vt.* siljitmoq, surmoq.
verrückt *Adj.* 1. tentak; ~ **werden** aqldan ozmoq. 2. g'aroyib; **wie** ~ tentakdek telbasimon.
Verrückte *m; -n; -n;* aqldan ozgan (kishi), ruhiy kasal, telba.
Verruf *m; es; -e;* yomon otliq; **in** ~ **kommen, geraten** yomon otliq bo'lmoq.
verrühren *vt.* aralashtirmoq, chayqatmoq.
verrunzelt *Adj.* ajin bosga, burushgan, tirishgan.
verrußen *vt.* dudlamoq, us bostirmoq. *vi.* dudlanmoq, is bosmoq, tutamoq.
verrutschen *vi.* 1. (uchib) tez tushmoq. 2. yonboshlamoq.
Vers *m; es; -e;* she'r; ~**e machen** she'r yozmoq.
versacken *vi.* 1. cho'kmoq, botmoq. 2. (ma'naviy) tubanlikka tushmoq. 3. **sich** ~ (yashab) qolib ketmoq.
versagen *vt.* 1. rad qilmoq. 2. uddalay olmaslik.
Versager *m; -s; -;* 1. omadsiz (kishi). 2. uddalanmagan ish.
Versal *m; -n; Versalien* katta harf.
versalzen *vt.* sho'r qilmoq, ortiqcha tuz solmoq.
versammeln *vt.* yig'moq, to'plamoq.
Versammlung *f; -; -en;* yig'ilish, majlis, yig'in.
Versammlungsort *m; -es; -e;* majlis joyi.
Versand *m; -es; -;* jo'natma *(pochta orqali).*
versauern *vi.* achimoq, achib qolmoq.
versäumen *vt.* o'tkazib yubormoq, kechikib qolmoq.
Versäumnis *f; -; -se;* kechikish, (orqada) qolib ketish.
verschaffen *vt.* (uzoq izlab) topib olmoq; **sich** ~ qozonmoq, ega bo'lmoq.
verschämt *Adj.* uyatchan, uyaluvchan.

Verschämtheit *f; -; -en;* uyatchanlik, uyalish.

verschandeln *vt.* badbashara qilmoq, husnini buzmoq, hunigini chiqarmoq, abjag'ini chiqarmoq.

Verschandelung *f; -; -en;* husnini buzish, badbashara qilmoq.

verschanzen sich 1. (chuqurga) ko'milmoq. 2. yashirinmoq. 3. bahona qilmoq, ro'kach qilmoq.

verschärfen *vt.* 1. keskinlashtirmoq. 2. kuchaytirmoq.

Verschärfung *f; -; -en;* keskinlashish, keskin tus olish.

verschätzen sich (baholashda) yanglishmoq, xato qilmoq.

verschenken *vt.* 1. sovg'a qilib yubormoq. 2. arzon garovga sotmoq.

verscherbeln *vt.* arzon-garovga sotib yubormoq.

verscherzen sich (biron narsadan) quruq qolmoq, qo'ldan chiqarmoq.

verschicken *vt.* yubormoq, jo'natib yubormoq.

Verschickung *f; -; -en;* jo'natish, yuborish, yo'naltirish.

verschiebbar *Adj.* ko'chma, o'zgartirsa bo'ladigan.

verschieben I. *vt.* 1. o'midan qo'zg'atmoq. 2. boshqa yo'lga o'tkazmoq. 3. surmoq *(vaqtni)*. **II.** *vi.* 1. qo'zg'almoq. 2. surilmoq. 3. o'zgarmoq ko'chirmoq; **auf Sonntag** ~ yakshanbaga ko'chirildi.

Verschiebung *f; -; -en;* 1. o'zgarish *(joy)*. 2. surilish *(muddat)*. 3. o'zgarish *(jarayon)*.

verschießen *vt.* 1. o't ochmoq, otmoq. 2. sarflamoq *(o'qni)*. 3. mo'ljalni noto'g'ri olmoq.

verschieden *Adj.* har xil, turli; ~ **wie Tag und Nacht** butunlay boshqa-boshqa.

verschiedenartig *Adj.* turlicha, turfa xil.

Verschiedenartigkeit *f; -; -;* turfa xillik, xilma-xillik.

verschiedenfarbig *Adj.* rang-barang, har xil rangda.

verschießen *vt.* otmoq, o't ochmoq; ~ **sich** xato otmoq, mo'ljalga ololmaslik.

verschiffen *vt.* kemada yuk olib o'tmoq.

Verschiffung *f; -; -en;* (kemada) yuk qatnovi.

verschimmeln *vi.* mog'or bosmoq, mog'orlamoq.

verschlafen I *vt.* uxlab qolmoq, (uchrashuv, kelishuvni) esdan chiqarmoq.

verschlafen II *Adj.* uyqusiragan.

Verschlag *m; -es; -Verschläge* qaznoq, kichik omborxona.

verschlagen I. *vt.* 1. mahkamlamoq, mix urmoq. 2. (koptokni) mo'ljalni to'g'ri olmaslik. 3. (so'zdan) qolmoq.

verschlagen II. *Adj.* ayyor, hiylagar, mug'ambir.

Verschlagenheit *f; -; -;* ayyorlik, hiylagarlik, mug'ambirlik.

verschlammen *vi.* loy (loyqa, balchiq), loyqalanmoq, loyqa bosmoq.

Verschlammung *f; -; -;* balchiq (loy, loyqa) bosish.

verschlampen 1. yaroqsiz (xunuk) ahvolga kelmoq. 2. esdan chiqarmoq.

verschlechtern *vt.* yomonlashtirmoq; **sich** ~ yomonlashmoq.

Verschlechterung *f; -; -en;* yomonlashuv.

verschleiern *vt.* (yuzini) yopmoq, bekitmoq; ~ **sich** yopinmoq.

Verschleierung *f; -; -en;* yopinchiq, yopinchoq *(islom madaniyati mamlakatlarida paranji hijob)*.

verschleifen *vt.* 1. charxlamoq, yo'nmoq. 2. *Ling.* (so'zlarni) jamlab talaffuz qilmoq.

Verschleifung *f; -; -en;* charxlash, yo'nish.

Verschleiß *m; -es; -e;* (kiyib) to'zitish..

verschleißen *vt.* 1. to'zimoq, eskirmoq. 2. to'zitmoq, eskirtirmoq.

verschleppen *vt.* 1. (majburan) olib ketmoq. 2. (kasallik) tarqatmoq. 3. tortmoq, cho'zmoq.

Verschleppung *f; -; -en;* 1. olib ketish. 2. yuqtirish. 3. to'zish.

verschleudern *vt.* 1. arzon garovga sotmoq. 2. sarflamoq.

verschließen 1. *vt.* 1) qulflamoq, yopmoq; 2) yashirin, sir saqlamoq. 2. (ichkaridan) qulflab olmoq. 3. ~ **sich** bekinib olmoq. 4. (o'z) o'y-fikrini yashirmoq, his-hayajonga chulg'anmoq.

verschlimmern *vt.* yomonlashmoq; **sich** ~ yomonlashmoq.

verschlingen *vt.* 1. yutmoq, yutib yubormoq. 2. tez o'qimoq, o'qib tashlamoq. 3. ochlik bilan yuitb yubormoq; ~ **sich** o'ralmoq, o'ralib qolmoq.

Verschlingung *f;* -; -; 1. to'qish, o'ralish, ulash. 2. tutashgan joy, bog'lanish, bog'.

verschlossen *Adj.* odamovi., (birovga) qo'shilmaydigan.

Verschlossenheit *f;* -; -; 1. odamovilik. 2. xilvat joy.

verschlucken *vt.* 1. yutmoq, yutub yubormoq. 2. tilini tishlamoq; ~ **sich** (ovqatdan) tiqilib qolmoq.

verschludern *vt.* 1. (pulni) behudaga sarf qilmoq, shamolga uchirmoq. 2. tashlandiq holatga olib kelmoq.

Verschluß *m; -sses; -sse;* 1. qopqoq. 2. *Ling.* portlash *(tovush).*

Verschlußlaut *m; -es; -e; Ling.* portlovchi undosh.

yotmoq 1. liegen *vi*, sich legen. 2. (*uxlamoq*) einschlafen *vi*, schlafengehen *vi*. 3. (*joylashmoq*) liegen; **kitob stol ustida yotibdi** das Buch liegt auf dem Tisch.
yotoqxona 1. Schlafzimmer *n*. 2. Wohnheim *n*; **talabalar ~si** Studenten(wohn)heim *n*.

yotqizmoq legen *vt*, (narsalarni) (ein) packen *vt*.
yov Feind *m*, Gegner *m*.
yovgarchilik Feindschaft *f*, Hass *m*.
yovlamoq feindlich gesinnt sein.
yovlashmoq: o'zaro ~ sich (einander) befeinden.
yovon Feld *n*, Acker *m*.
yovqarash feindseliger Blick.
yovuz böse, boshaft, erbost.
yovuzlarcha boshaft, misstätlich.
yovuzlik Missetat *f*, Gräueltat *f*.
yovvoyi wild; ~ **hayvon** wildes Tier; ~ **it** wilder Hund.
yovvoyilashmoq 1. verwildern *vi*. 2. (*odamlarga oid*) menschenscheu werden.
yovvoyilik Wildheit *f*, Scheu *f*.
yovg'on Fast-, Fasten-; ~ **sho'rva** Fastensuppe *f*.
yoy 1. (*qurol*) Bogen *m*, (*kamalak*) Bogen *m*. 2. *Mat.* Kreisbogen *m*.
yoyandoz Bogenschießer *m*, Schütze *m*.
yoyilmoq sich ausbreiten, sich er strecken, sich verstreuen.
yoyiq flach, platt, breit.
yoyish Ausbreitung *f*, Verstreuen *n*.
yoymoq ausbreiten *vt*; verstreuen, auswerfen; **xamir** ~ den Teig ausrollen.
yoysimon bogenförmig, gewölbt, gekrümmt, gebogen.
yoz Sommer *m*; ~**i bilan** den ganzen Sommer.
yozdirmoq (auf)schreiben lassen, sich registrieren.
yozgi sommerlich; ~ **kiyim** Sommerkleid *n*; ~ **vaqt** Sommerzeit *f*.
yozilmoq 1. (*auf*) geschrieben werden. 2. (*ro'yxatga*) sich einschreiben, sich eintragen.
yozishma Briefwechsel *m*, Briefaustausch *m*.
yozishmoq im Briefwechsel stehen, im brieflichen Verkehr stehen.
yozma schriftlich; ~ **ish** schriftliche Arbeit; ~ **ravishda** schriftlich, in Schriftform.
yozmoq I. 1. schreiben *vt*, aufschreiben *vt*. 2. (*she'r*) dichten, (*asar*) verfassen, abfassen, (*musiqa*) komponieren.
yozmoq II. (*yoymoq*) ausbreiten *vt*, verstreuen, auswerfen.
yozuv Schrift *f*, Brief *m*, Schreiben *n*.
yozuvchi Schriftsteller *m*.
yozuv-chizuv Lesen und Schreiben; ~**ga o'rgatish** Lesen und Schreiben lernen.
yog' Fett *n*; **o'simlik** ~**i** Pflanzenfett *n*.
yog'du Strahl *m*, Licht *n*.
yog'ilmoq verschüttet werden, niederprasseln *vi*.
yog'ingarchilik Unwetter *n*, Unbilden der Witterung.
yog'lamoq fetten *vt*, mit Fett (durch) tränken.
yog'li fettig; ~ **ovqat** fette Speise.
yog'moq regnen; schneien, hageln; **yomg'ir yog'yapti** es regnet; **qor yog'yapti** es schneit; **do'l yog'yapti** es hagelt.
yog'och Holz *m*.
yog'ochlik Holz *n*, Nutzholz *n*.
yog'simon fett, ölig.
yosh I. 1. *subst.* Alter *n*, Lebensalter *n*, Altersstufe *f*. 2. *Adj.* jung.
yosh II. Träne *f*, Zähre *f*; **achchiq ko'z** ~**lari** bittere Tränen.
yosharmoq jünger werden, sich jung machen.
yoshartirmoq verjungen *vt*, jung machen.
yoshlanmoq tränen *vi*.
yoshli I. jährig; **bir** ~ **bola** einjähriges Kind.
yoshli II. tränend; **uning ko'zlari** ~ sie(er) hat tränende Augen.
yoshlik Jugend *f*, Jungsein *n*.
yubiley Jubiläum *n*, Jahresfeier *f*.
yubka Rock *m*, Frauenrock *m*, Unterrock *f*.
yuborish 1. (*yuk*) Absendung *f*, Beförderung *f*, Versand *m*. 2. (*transport*) Abfahrt *f*, Abgang *m*.

yubormoq (*pochta orqali*) versenden *vt*, absenden *vt*, (*kimnidir*) schicken, verschicken.
yuboruvchi Absender *m*; **yuk ~** Verlader *m*.
yugan Zaum *m*, Zügel *m*.
yuganlamoq aufzäumen, zäumen, halftern, zügeln; **otni ~** ein Pferd (auf) zäumen.
yugurdak Läufer *m*, Lakai *m*, Diener *m*.
yugurish 1. *Sport.* Lauf *m*; **qisqa masofaga ~** Kurzstreckenlauf *m*; **sprint ~** Sprint *m*, **100 metrga ~** Hundertmeterlauf *m*. 2. (*tashvish bilan*) Lauferei *f*, Herumlaufen *n*.
yugurmoq laufen *vi*, rennen *vi*; **u yoqdan bu yoqqa ~** hin und her laufen.
yugurtirmoq laufen lassen, (*haydamoq*) vertreiben; **ko'z ~** durchsehen, überfliegen.
yugur-yugur Lauferei *f*.
yuk 1. Ladung *f*, Fracht *f*, Gut *n*, Gepäck *n*, Bürde *f*, Last *f*; **~ mashinasi** Lastauto *n*, Lastkraftwagen *m*, (*qisq.* LKW). 2. (*tashvish*) Sorge *f*, Last *f*, Bürde *f*.
yuklama 1. Beladen *n*, Verladen *n*, Belastung *f*. 2. *Gram.* Partikel *f*.
yuklamoq 1. laden *vt*, befrachten *vt*, beladen *vt*. 2. (*vazifani*) beauftragen, einen Auftrag geben.
yuklatmoq laden lassen, beladen lassen.
yukli beladen, geladen.
yuksak hoch, groß, erhaben; **~ martaba** hoher Rang; **~ malakali mutaxassis** hochqualifizierter Fachmann.
yuksaklik Höhe *f*, Erhebung *f*, Erhöhung *f*.
yuksalish Erhöhung *f*, Aufstieg *m*.
yuksalmoq sich erhöhen, sich entwickeln.
yuksaltirmoq erhöhen *vt*, steigern *vt*, heben *vt*, hochheben *vt*, hochnehmen *vt*, emporheben *vt*.
yulduz 1. Stern *m*; **dumli ~** Komet *m*. 2. (*mashhurlik*) Star *m*; **sport ~i** Sportstar *m*.
yulduzli *Astr.* astral, astrisch, stellar, Stern-; **~ osmon** Stern(en)himmel *m*.
yulduzsimon sternförmig, asterisch.
yulduzcha Sternchen *n*.
yulmoq reißen *vt*, abreißen *vt*, ausreißen *vt*.
yulqimoq ausreißen, herausreißen, entreißen D.
yulqinmoq sich befreien, sich loszureißen suchen.
yulg'ich Raffer *m*.
yulg'in *Bot.* Tamariske *f*.
yumalamoq rollen *vi*, gleiten *vi*, sich wälzen, sich rollen.
yumalatmoq rollen, wälzen.
yumaloq rund, kreisformig; **~ yostiq** mit Mühe und Not, mit Ach und Krach, schlecht und recht.
yumdalamoq kratzen *vt*, ritzen *vt*, zerschrommen *vt*.
yumilmoq sich schließen, zumachen *vt*, schließen *vt*; **charchoqdan ko'zlari ~** vor Müdigkeit die Augenlider zufallen.
yuminqiramoq: ko'zlarni ~ die Augen schließen.
yummoq zudrücken *vt*, zumachen *vt*; schließen, **ko'zni ~** die Augen schließen.
yumor Humor *m*.
yumronqoziq *Zool.* Zieselmaus *f*, Zieselratte *f*.
yumuq zusammenkneifen, geschlossen.
yumush Arbeit *f*, Werk *n*, Handwerk *n*, Tat *f*, Wesen *n*, Job [dshob] *m*.
yum-yum: ~ yig'lamoq bitterlich weinen, bittere Tränen weinen.
yumshamoq weich werden, sich mildern, nachlassen *vi*.
yumshatmoq 1. erweichen *vt*, weich machen, enthärten. 2. *Ling.* palatisieren.
yumshoq weich, geschmeidig; **~ o'rindiq** weicher Sessel, Polstersessel *m*.
yumshoqlik Weichheit *f*, Geschmeidigkeit *f*.

yunoniston Grichenland *m.*
yunoncha griechisch, griechische Sprache.
yupanmoq sich trösten, sich abfinden mit D., (*bola*) nachlassen *vi*, sich legen.
yupanchiq Tröster *m.*
yupatmoq trösten *vt*, vertrösten *vt*, beschwichtigen; **bolani** ~ das Kind beschwichtigen.
yupqa dünn, fein, zart; **terisi** ~ empfindlich, übelnehmerisch.
yupqalamoq dünner machen, *Tex.* verjungen.
yupqalanmoq sich verdünnen, *Tex.* sich verjüngen.
yupqalik Dünne *f*, Dünnheit *f*, Feinheit *f.*
yuq Überreste *pl*, Überbleibsel *pl*, Rückstände *pl.*
yuqma ansteckend, infektiös.
yuqmoq 1. (*yopishmoq*) festkleben *vi*, klebenbleiben *vi*, sich an j-n anhängen. 2. (*kasallik*) übertragen werden, sich anstecken mit D.
yuqori 1. *Adv.* ober(e)(er)(es), oben, hoch ~ **qavat** oberes Stockwerk. 2. Höhe *f.*
yuqorida oben; ~ **aytilgan**... obengenannte...
yuqoriga aufwärts, nach oben, herauf.
yuqorilamoq sich erheben, steigen *vi*, hinaufgehen *vi.*
yuqorilik Höhe *f*, Gipfel *m.*
yuqtirmoq infizieren *vi*, anstecken *vt*; **o'ziga** ~ sich anstecken mit D.
yuqumli ansteckend, Infektions-; ~ **kasallik** Infektionskrankheit *f*, ansteckende Krankheit.
yurak Herz *n*; **chin** ~**dan** von ganzem Herzen; ~ **xovuchlab** mit schwerem Herzen.
yurakli tapfer, mutig.
yuraksiz feig, feigherzig, memmenhaft, schwachherzig.
yurgizmoq bewegen *vt*, in Bewegung setzen, schieben *vt*, verschieben *vt.*
yuridik juristisch; ~ **fakultet** juristische Fakultät.
yurish I. 1. (*otda*) Rennen *n.* 2. (*o'yin*) Zug *m*, (*shaxmat*), Ausspiel *n*, (*karta*), 3. *Harb.* Feldzug *m.*
yurish II. Gehen *n*, Wandern *n*, Gang *n*, Verlaut *m.*
yurish-turish Benehmen *n*, Tat *f*, Handlung *f.*
yurist Jurist *m*; ~ **bo'lib ishlamoq** als Jurist tätig sein.
yurmoq 1. (*yayov*) gehen *vi.* 2. (*transport*) verkehren *vi*, fahren *vi.* 3. (*o'yinda*) ausspielen (*kartada*), einen Zug tun (*shaxmatda*).
yurt Land *n*, Heimat *f*; Heimatland *n*; **o'quv** ~**i** Lehranstalt *f.*
yurtdosh Landsmann *m*; ~ **ayol** Landsmännin *f.*
yutinmoq sich (D.) die Lippen belecken, (ishtaha bilan) lechzen nach *D.*
yutmoq 1. schlucken *vt.* 2. (*o'yinda*) gewinnen, (*jangda*) siegen, besiegen.
yutqiziqsiz verlustlos, gewinnsicher.
yutqizish Verlust *m*, (*o'yinda*) Spielverlust *m.*
yutqizmoq verspielen *vt*, verlieren *vt.*
yutuq 1. Gewinn *m*, (*lotereyada*) Los *n.* 3. (*foyda*) Nutzen *m*, Gewinn *m.*
yutuqli gewinnbringend, einträglich, vorteilhaft, Gewinn.
yutuqsiz gewinnlos, uneinträglich.
yuvinmoq sich waschen.
yuvintirmoq waschen, waschen lassen.
yuvish Waschen *n*, Scheuern *n*, (*idish*) Abwasch *m*, (*bosh*) Kopfwäsche *f.*
yuvmoq waschen *vt*; (*pol va h.*) scheuern, (*idish*) abwaschen *vt*, (*derasa*) putzen *vt.*
yuvosh ruhig, stil, sanft, artig.
yuvoshlik Sanftmut *f*, Milde *f.*
yuvundi 1. (*ovqat qoldig'i*) Speisereste *pl.* 2. (*suv*) Spülwasser *n*, Spülicht *n.*
yuvundixo'r Schmarotzer *m*; Parasit *m*, Nichtsteuer *m.*
yuvuqsiz ungewaschen, schmutzig, sündhaft.
yuz I. 1. Gesicht *n*, Angesicht *n*, Antlitz *n.* 2. Seite *f*; ~ **tomoni** Vorderseite *f*,

ko'chaning ~i Straßenseite *f.* 3. (*ust tomon*) Fläche *f*, Oberfläche *f.* 4. (*o'tkir qism*) Schneide *f*, Klinke *f*; **pichoqning ~i** Messerklinke *f*; ~ **bermoq** sich ereignen, vorfallen *vt*, geschehen *vi*, passieren *vi, s.*

yuz II. hundert; ~ **marta** hundert Mal.

yuza Fläche *f*, Oberfläche *f*; **~ga chiqarmoq** verwirklichen *vt*, ausführen *vt*, in die Wirklichkeit umsetzen; **~ga kelmoq** sich verwirklichen, zustande kommen.

yuzaki oberflächlich; ~ **tahlil** oberflächliche Analyse.

yuzasidan anlässlich G, von D, über A.

yuzinchi das, die, der hundertste; ~ **bet** Seite hundert.

yuzlab hunderte; ~ **kishilar** Hunderte von Menschen.

yuzlanmoq sich (um)wenden, sich umdrehen, sich umkehren.

yuzlashmoq zusammenkommen *vi*, vorkommen *vi*.

yuzlashtirish *Jur.* Konfrontation *f*, Gegenüberstellung *f*.

yuzlashtirmoq konfrontieren *vt*, gegenüberstellen *vt*.

yuzli: oq ~ mit weißem Gesicht, weißhäutig; **qizil** ~ rotbäckig.

yuzma-yuz unter vier Augen, Auge in Auge.

yuzsiz schamlos, unverschämt.

yuzsizlarcha zynisch, unverschämt, frech, unverfroren.

yuzsizlik Schamlosigkeit *f*, Frechheit *f*, Unverschämtheit *f*.

yuztalik Hunderter *n*, Hundertgeldschein *m*.

yung Fell *n*, Haar *n*, Wolle *f*.

yungli haarig, wollig, flauschig.

yo'l I. Weg *m*, Straße *f*; **avtomobil ~i** Autostraße *f*; **temir** ~ Eisenbahn *f*; ~ **haqi** Fahrgeld *n*; **~dan adashmoq** vom Wege abkommen, **Oq ~!** Gute Fahrt!

yo'l II. (*usul*) Weise *f*, Mittel *n*, Weg *m*.

yo'la: bir ~ gleichzeitig, parallel, zugleich, einmalig, auf einmal.

yo'lak Durchgang *m*, Durchlass, Korridor *m*, Flor *m*.

yo'lamoq (an)nähern *vt*, näher bringen *vt*, rücken *vt*.

yo'lbars Tiger *m*, (*moda*) Tigerin *f*; ~ **bolasi** Tigerjunge *m*.

yo'lboshchi Führer *m*, Leiter *m*, Anführer *m*.

yo'lboshchilik Leitung *f*, Anleitung *f*; ~ **qilmoq** leiten *vt*, anleiten *vt*.

yo'ldosh Gefährte *m*, Wegbeleiter *m*; **umr ~i** Lebensgefährte; **yer ~i** Erdsatellit *m*, Erdtrabant *m*.

yo'liqmoq zusammentreten *vi*; **kasalga** ~ sich eine Krankheit holen (*zuziehen*).

yo'lka Pfad *m*, Fußweg *m*, Gehsteig *m*.

yo'llamoq richten *vt*, ausrichten *vt*, leiten *vt*.

yo'llanma Richtung *f*, Ausrichtung *f*.

yo'lli gestreift, streifig.

yo'lovchi Wanderer *m*, Wandersmann *m*, Fahrgast *m*, Reisende *m*, Passagier *m*, Passant *m*.

yo'lto'sar Räuber *m*, Wegelagerer *m*.

yo'lto'sarlik Räuberei *f*.

yo'l-yo'l streifig, streifig.

yo'lchi Reisende *m*, Wandersmann *m*.

yo'nalish Richtung *f*; **asosiy** ~ Hauptrichtung *f*.

yo'naltirish Richtung *f*, Ausrichtung *f*.

yo'q nein; **nimaga** ~ warum nicht; **yana bir bora** ~ nein und abermals nein.

yo'qlama Ausruf *m*, Appell *n*, Kontrolle *f*; ~ **qilmoq** aufrufen.

yo'qlamoq besuchen *vt*, einen Besuch machen.

yo'qlik 1. Fehlen *n*, Nichtvorhandensein *n*, Nichtsein *n*. 2. (***kambag'allik***) Armut *f*, Elend *n*.

yo'qlovchi Besucher *m*.

yo'qolish Verschwinden *n*, Schwund *m*.

yo'qotish Verlust *m*, Einbuße *f*.

yo'qotmoq verlieren *vt*, einbußen *vt*.

yo'qchilik Not *f*, Bedürfnis *n*, Bedarf *m*, Elend *n*.
yo'rg'a (*yugurish*) Passgang *m*; ~ **ot** Passgänger *m*, Zelter *m*.
yo'rg'alamoq trippeln *vi*.
yo'rgak Windel *f*, Wickeltuch *n*, Einschlagtuch *n*.
yo'sin Ordnung *f*, Reinfolge *f*.
yo'tal Husten *m*.
yo'talmoq husten *vt*.
yo'ymoq 1. auslegen *vt*, deuten *vt*, erläutern *vt*. 2. zuschreiben *vt*.
yo'g'on dick, voll, gefällt.
yo'g'onlashmoq dick werden.
yo'g'onlik Fülle *f*, Körperfülle *f*, Beleibtheit *f*.

Z

Z, z. O'zbek alifbosining yigirma to'rtinchi harfi.
zab toll, super; ~ **ish bo'libdi** das war toll.
zabardast stark, kräftig, mächtig, gewaltig.
zabt Eroberung *f*, Erkämpfung *f*, Errungenschaft *f*; ~ **etmoq** erobern *vt*, erkämpfen *vt*.
zafar Sieg *m*, Gewinn *m*; ~ **qozonmoq** den Sieg davontragen (*erringen*).
zahar Gift *n*, **ilon zahri** Schlangengift *n*.
zaharlamoq vergiften *vt*, verseuchen *vt*, ***gaz bilan*** - vergasen *vt*.
zaharlanmoq sich vergiften, Gift nehmen.
zaharli giftig; ~ **qo'ziqorin** Giftpilz *m*.
zaharlovchi giftig; ~ **modda** Giftstoff *m*, Kampfstoff *m*.
zaharxanda Sarkasmus *m*, beißender Spott, Hohn *m*.
zahmat Mühe *f*; ~ **chekmoq** sich bemühen, sich Mühe geben.
Zahmatkash Berufstätige *m*, Arbeitsnehmer *m*.
zaif schwach, schlaff.
zaifa Gattin *f*, Ehefrau *f*, Gemahlin *f*.
zaiflanmoq schwach werden, erschlaffen *vi*; an Kräften abnehmen *vi*.
zaiflik Schwäche *f*.
zaifona weiblich, schwach.
zakiy findig, gescheit, verständig, auffassungsfähig.
zakovat Auffassungsgabe *f*.
zal Saal *m*, Halle *f*.
zambar Tragbahre *f*.
zambarak *Harb.* Kanone *f*.
zambil Tragbahre *f*, Bahre *f*, Trage *f*.
zamin Erde *f*, Erdkugel *f*.
zamir geheim, heimlich, verborgen.
zamon Epoche f, Zeit *f*, Zeitraum *m*.
zamona Epoche *f*.
zamonaviy gegenwärtig, zeitgenössisch; epochal, ~**adabiyot** zeitgenössische Literatur.
zamondosh Zeitgenosse *m*.
zangor blau, hellblau.
zangori blau; ~ **osmon** blauer Himmel.
zanjir Kette *f*; **eshik** ~**i** Sperkette *f*.
zanjirband gefesselt, - **qilmoq** fesseln, in Ketten legen.
zanjirlamoq verschließen, zuschließen *vt*, zusperren *vt*.
zaqqum Antschar *m*, starker Gift.
zar Gold *n*; ~ **qog'oz** Goldblatt *n*, Blattgold *n*.
zarar Schaden *n*, Nachteil *m*; ~ **keltirmoq** (*yetkazmoq*) beeinträchtigen *vt*, einen Schaden zufügen.
zararkunanda 1. Schädling *m*, Satoteur *m*. 2. *Q-x.* Schädling *m*.
zararkunandalik Schädlingsarbeit *f*, Schädlingstätigkeit *f*, Sabotage [-ta:she] *f*.
zararlanish Beschädigung *f*.

zararlanmoq Schaden nehmen, zu Schaden kommen, verunglücken *vi*, betroffen werden.
zararlantirmoq beschädigen *vt*, schaden *vi*, Schaden zufügen, verletzen *vt*.
zararli schädlich, beschädigt, schadenbringend; **sog'liqqa** ~ gesundheitsschädlich.
zararlilik Schädlichkeit *f*, (*ishlab chiqarishda*) Nachteiligkeit *f*.
zararsiz unschädlich, unbeschädigt, harmlos.
zararsizlantirmoq unschädlich machen *vt*; entgiften, **bombani** ~ eine Bombe entschärfen.
zarba Schlag *m*, Hieb *m*, Streich *m*, Stoß *m*; ~ **bermoq** schlagen *vt*; **dushmanga qaqshatqich** ~ **bermoq** dem Feinde einen vernichtenden Schlag versetzen.
zarbof golddurchwirkt, mit Gold gestrickt.
zarbulmasal Gleichnis *n*, Parabel *f*.
zardo'zlik Goldstrickerei *f*.
zargar Juwelier *m*, Goldschmied; **~lik do'koni** Juwelierladen *n*.
zarpechak *Bot.* Hexenzwirn *n*, Teufelszwirn *m*.
zarrin vergolden.
zarur notwendig, nötig, erforderlich.
zarurat Notwendigkeit *f*, Unentbehrlichkeit *f*, Erfordernis *n*.
zaruriy nötig, notwendig, erforderlich.
zaruriyat Notwendigkeit *f*, Erfordernis *n*.
zarg'aldoq Pirol *m*, Goldamsel *f*.
zarshunos Juwelier *m*.
zavod Werk *n*, Betrieb *m*.
zavol Absterben *n*, Verfall *m*, Niedergang *m*; **~ga yuz tutmoq** verfallen *vi*; in Verfall geraten *vi*.
zavq Vergnügen *n*, Wohlbehagen *n*, Genuss *m*.
zavqlanmoq genießen *vt*, sich weiden, sich ergötzen, sich begnügen.
zavqli begeistert, entzückt.
zax 1. Feuchtigkeit *f*. 2. *Adj.* feucht.
zaxira Vorrat *m*, Bestand *m*, Schatz *m*, *Harb.* Reserve *f*.
zaxkash versumpft, sumpfig.
zaxlik Feuchtigkeit *f*.
zaxm *Tib.* Syphilis *f*.
zaytun Olive [-v-] *f*; ~ **moyi** Olivenöl *n*.
zang 1. Rost *m*. 2. Klingel *f*. 3. Rebe *f*, Weinrebe *f*. 4. Gesetz *n*, Sitten *f*.
zanglamoq (ver)rosten *vi*, Rost ansetzen.
zebo hübsch, schön, schlank.
zebolik Schönheit *f*.
zebra *Zool.* Zebra *n*.
zehn Vernunft *f*, Verstand *m*.
zehnli vernünftig, klug.
zehnsiz wenig auffassungsfähig, schwer von Begriff, begriffsstutzig.
zerikarli langweilig; ~ **film** ein langweiliger Film.
zerikish Langeweile *f*, Langweile *f*.
zerikmoq sich langweilen, sich mopsen.
zid gegen, wider.
zikr Erwähnung *f*, Nennung *f*; ~ **qilmoq** erwähnen *vt*.
zilol rein, sauber, klar.
zimdan heimlich, verstohlen, im stillen; ~ **ishlamoq** hinterlistig handeln *vi*.
zimiston Finsternis *f*, Dunkeln *n*.
zimma: ~siga olmoq die Sache in die Hand nehmen.
zimziyo Finsternis *f*, Dunkel *n*.
zina Treppe *f*, Leiter *m*.
zinapoya Treppenaufgang *m*, Stiege *f*.
zindon *Esk.* Gefängnis *n*, Kerker *m*.
zinhor keineswegs, mitnichten, durchaus nicht, absolut nicht, ganz und gar nicht, auf keine Weise, in keiner Weise.
ziq beengt, bedrängt, beschränkt; **vaqtim** ~ meine Zeit ist knapp bemessen.
ziqna 1. *Adj.* geizig, knauserig, karg. 2. Geizige *m*, Geizhals *m*.
ziqnafas *Tib.* Asthma *n*, Atemnot *f*.
ziqnalik Geiz *m*, Knauserigkeit *f*.
zira Kümmel *m*; ~ **qo'shmoq** würzen *vt*, hinzutun *vt*, zusetzen *vt*.

zirak Ohrring *m*, Ohrgehänge *n*.
ziralamoq würzen *vt*, zusetzen *vt*.
zirapcha Spliter *m*.
zirillamoq zittern *vi*, beben *vi*, schauern *vi*, klirren *vi*.
zirillash Klirren *n*, Geklirre *n*, Zittern *n*, Beben *n*.
ziroat Landwirtschaft *f*, Ackerbau *m*.
ziroatchi Landmann *m*, Landwirtschaftler *m*, Ackerbauer *m*.
ziroatchilik Grundeigentum *f*.
zirqiramoq schmerzen *vi*, weh tun.
ziynat Ausschmückung *f*, Verschönerung *f*.
ziynatli geschmückt, elegant, schmuck.
ziyo Licht *n*, Schein *m*, Helle *f*, Helligkeit *f*.
ziyod über, mehr als; **haddan** ~ übermäßig, maßlos.
ziyofat Essen *n*, Bewirtung *f*, Schmaus *m*, Festmahl *m*.
ziyoli 1. Intellektuelle *m*. 2. *Adj.* intelligent, intellektuell, gut ausgebildet.
ziyon Schaden *m*, Nachteil *m*.
ziyonli schädlich, schadenbringend.
ziyonsiz unschädlich, harmlos.
ziyorat Pilgerfahrt *f*, Pilgerreise *f*.
ziyoratchi Pilger *m*, Wallfahrer *m*.
ziyoratgoh Wallfahrtsort *m*.
ziyrak findig, scharfsinnig.
ziyraklik Findigkeit *f*, Scharfsinnigkeit *f*.
zig'ir *Bot.* Lein *m*, Flachs *m*; ~ **moyi** Leinöl *n*.
zig'irday leidlich, einigermaßen, etwas, ein wenig.
zig'irkor Flachszüchter *m*; ~ **hudud** Flachsbaugebiet *n*.
zig'irkorlik Lein(an)bau *m*, Flachsbau *m*.
zig'ircha ein bisschen, ein klein wenig, keine Spur.
zich dicht, stämmig, robust, kräftig, reichlich.
zichlamoq verdichten *vt*, befestigen *vt*.
zichlashmoq sich verdichten.
zichlik Dichte *f*, Festigkeit *f*.
zobit *Harb.* Offizier *m*.
zohid Asket *m*, Held *m*.
zohidlik Einsiedlerleben *n*.
zohir offensichtlich, augenscheinlich, offenbar.
zolim Unterdrücker *m*, Bedrücker *m*, Tyrann m, Despot *m*.
zolimlik Unterdrücktheit *f*, Bedrückung *f*, Tyrannei *f*.
zolimona bedrückt, grausam, tyrannisch.
zomin schuldig; ~ **bo'lmoq** schuldig sein.
zona Zone *f*, Gebiet *n*, Raum *m*; **chegara ~si** Grenzgebiet *n*.
zoolog Zoologe *m*, Tierkundige *m*.
zoologiya Zoologie [tsoo-] *f*, Tierkunde *f*; ~ **bog'i** zoologischer Garten *m*.
zoopark Zoo *m*, Tiergarten *m*.
zor 1. (*yig'i*) Schluchzen *n*; ~ **yig'lamoq** schluchzen *vi*. 2. (*ehtiyoj*) Bedürfnis *n*, Bedarf *m*.
zora wenn, falls.
zorlanmoq sich beklagen, murren *vi*; **taqdirdan** ~ mit dem Schicksal hadern.
zorlik Bedürfnis *n*, Bedarf *m*.
zot Abstammung *f*, Gens *f*, Gattung *f*.
zotan eigentlich, genau gesprochen.
zotdor rassig, hochzüchtig.
zotli reinrassig; ~ **it** Rassehund *m*.
zovur Abfluss *m*, Ablauf *m*, Gußrinne *f*.
zoye umsonst, vergebens, unnütz, ohne Grund.
zog' Krähe *f*, Rabe *m*, Kolkrabe *m*.
zog'ora Maismehl *n*, ~ **non** Brot aus Maismehl.
zog'cha *Zool.* Dohle *f*.
zudlik: ~ **bilan** sofort, unverzüglich.
zuhal *Astr.* Saturn *m*.
Zuhra (Zuhro) *Astr.* Venus *f*.
zuhur Erscheinen *n*, Entstehen *n*; ~ **qilmoq** erscheinen *vi*.
zukko findig, scharfsinnig.
zukkolik Scharfsinnigkeit *f*, Findigkeit *f*, Fassungskraft *f*.
zulf Locke *f*, Locken *pl*.
zulm Druck *m*, Bedrückung *f*.
zulmat Finsternis *f*, Dunkel *n*.

zulmkor Unterdrücker *m*, Tyrann *m*.
zuluk *Zool.* Egel *m*, Blutegel *m*; ~ **solish** Blutegel ansetzen *vt*.
zulukday wie ein Egel.
zum Augenblick *m*, Moment; **bir** ~**da** im Augenblick, im Handumdrehen.
zumrad Smaragd *m*.
zumrasha Wildfang *m*, Schlingel *m*.
zuravor Würze *f*, Gewürze *f*.
zurriyot Generation *f*, Gens, Abstammung *f*.
zuvala Teig *m*; ~ **yasamoq** den Teig ausrollen, glattrollen.
zuvillamoq summen *vi*, surren *vi*, sausen *vi*, schwirren *vi*.
zuv-zuv Summen *n*, Surren *n*, Sausen *n*; ~ **qilmoq** summen *vi*, surren *vi*.
zo'r 1. stark, kräftig. 2. ~! Toll! Ausgezeichnet!
zo'raki gezwungen, gekünstelt; ~ **jilmayish** unnatürliches Lächeln.
zo'ravon Gewalttäter *m*, Notzüchtiger *m*.
zo'ravonlik Gewalttätigkeit *f*, Gewalt f, Gewalttat *f*; ~ **qilmoq** Gewalt anwenden.
zo'raymoq sich verstärken, sich steigern, sich verschärfen.
zo'raytirmoq verstärken *vt*, verschärfen *vt*, steigern *vt*.
zo'rlamoq zwingen *vt*, nötigen *vt*, veranlassen *vt*, vergewaltigen.
zo'rlik Gewalt *f*, Gewalttat *f*.
zo'rg'a kaum, mit Mühe und Not; ~ **qadam bosmoq** stampfen *vi*.

O'

O'. o'. O'zbek alifbosining yigirma beshinchi harfi.
o'gay: Stief; ~ **ota** Stiefvater *m*; ~ **ona** Stiefmutter *f*.
o'girilmoq sich umdrehen, sich umwenden.
o'girmoq 1. umdrehen *vt*, (um)kehren *vt*, wenden *vt*. 2. (*tarjima qilmoq*) übersetzen *vt*.
o'git Rat *m*, Ratschlag *m*, Belehrung *f*.
o'jar eigensinnig, hartnäckig, dickköpfig, verbohrt.
o'jarlik Eigensinn *m*, Hartnäckigkeit *f*; ~ **qilmoq** eigensinnig (*starrsinnig, halsstarrig*) sein, sich versteifen.
o'kinmoq bedauern *vt*, bemitleiden, bereuen.
o'kinch Bedauern *n*, Mitleid *n*, Mitgefühl *n*.
o'kinchli bedauerlich, betrüblich, traurig.
o'kirmoq brüllen *vi*, beulen *vi*, toben *vi*.
o'ksik traurig, betrübt.
o'ksinmoq betrüben *vt*, traurig werden.
o'ksitmoq kränken *vt*, beleidigen *vt*.
o'ktam großmutig, hochherzig, großherzig.
o'laksa halbtot, mehr tot als lebendig.
o'lan I. Gras *n*, Kraut *n*.
o'lan II. Lied *n*; ~ **aytmoq** ein Lied singen.
o'larmon gierig, halbsüchtig, gefräßig.
o'lat *Tib.* Seuche *f*, Massensterben *n*.
o'ldirmoq töten *vt*, ermorden; **urib** ~ totschlagen *vt*.
o'lguday tödlich, todbringend; ~ **urmoq** halbtot prügeln *vt*.
o'lguncha tödlich, zu Tode.
o'lik Tote *m, f*, Leichnam *m*.
o'lim Tod *m*; **hayot yoki** ~ Leben oder Tod.
o'limtik Aas *n*, Kadaver [-v-] *m*.
o'lja Ausbeute *f*, Gewinnung *f*.
o'lka Land *n*; **janojon** ~ Heimatland *n*.
o'lkashunos Heimatkundler m, Heimatforscher *m*.
o'lkashunoslik Landeskunde *f*, Länderkunde *f*.

o'lmas unsterblich, ewig.
o'lmoq sterben *vi*, versterben *vi*, entschlafen *vi*.
o'lchagich Messgerät *n*.
o'lcham Ausmaß *n*, Maß *n*, Abmessung *f*, Umfang *m*, Dimension *f*, Größe *f*.
o'lchamoq messen *vt*, vermessen *vt*; (*tarozida*) wiegen *vt*.
o'lchash Messung *f*, Vermessung *f*.
o'lchov Messung; ~ **birligi** Maßeinheit *f*.
o'n zehn; ~ **marta** zehnfach.
o'naqay Rechthändler *m*.
o'ninchi zehnte; ~ **mart** der zehnte März.
o'nlab: ~ Dutzende von...
o'nli *Mat.* dezimal, Dezimal; ~ **kasr** Dezimalbruch *m*.
o'ng'ay bequem .
o'ng'aylik Bequemlichkeit *f*.
o'pirilish Umwerfung *f*, Umstoßen *n*.
o'pirilmoq umwerfen *vi*.
o'pirmoq umstützen *vt*.
o'pish Kuss *m*.
o'pishmoq sich küssen.
o'pka Lunge *f*; ~ **shamollashi** Lungenentzündung *f*.
o'pkalamoq sich beleidigen.
o'pmoq küssen *vt*, einen Kuß geben.
o'q 1. Pfeil *m*. 2. Kugel *f*. 3. Achse *f*.
o'qdon Köcher *m*.
o'qigan gebildet, belesen, kultiviert.
o'qimishli ausgebildet, gelehrt; ~ **odam** ausgebildeter Mensch.
o'qimoq 1. lesen *vt*; **tovush chiqarib** ~ vorlesen *vt*. 2. (*maktabda*) lernen. 3. (*oliy ta'lim*) studieren; **satrlararo** ~ zwischen den Zeilen lesen; **fikrini** ~ Gedanken lesen.
o'qitish Lehre *f*, Unterricht *m*.
o'qitmoq lehren *vt*, (*dars bermoq*) unterrichten.
o'qituvchi Lehrer *m*.
o'qituvchilik Lehrerschaft *f*, Leherberuf *m*.
o'qish 1. Lesen *n*, Vorlesen *n*, Lektüre *f*. 2. (*oliy o'quv yurtida*) Studium *n*.
o'qlamoq laden *vt*, aufladen *vt*.
o'qli *Harb.* geladen.
o'qlog'i Rolle *f*, Mangel *f*, Teigrolle *f*.
o'qraymoq glotzen *vi*. (*auf A.*), *vt*, die Augen aufreißen.
o'quvchi 1. Schüler *m*. 2. Leser *m*.
o'q-yoy Bogen *m*, *Sport.* ~ **bilan otish** Bogenschießen *n*.
o'ra Grube *f*; **axlat ~si** Müllgrube *f*, Loch *n*.
o'ralmoq sich aufwickeln, aufrollen *vi*.
o'ram Aufwickeln *n*, Auftrommeln *n*.
o'ramoq aufwickeln *vt*, aufrollen *vt*.
o'rda Horde *f*.
o'rdak Ente *f*; ~ **ovi** Entenjagd *f*.
o'rganish Lernen *n*, Studieren *n*.
o'rganmoq lernen, studieren; **o'qishni** ~ lesen lernen.
o'rganmoq studieren *vt*; lernen, erlernen.
o'rganuvchi Lernende *m*, *f*.
o'rgatish Lehren *n*, Unterrichten *n*.
o'rgatmoq lehren *vt*, unterweisen, beibringen *vt*.
o'rgatuvchi Zehrende *m*, Lehrer *m*, Erzieher *m*.
o'rgimchak *Zool.* Spinn(en)gewebe *n*, Spinn(e)webe *f*.
o'rik Aprikose *f*; ~ **daraxti** Aprikosenbaum *m*.
o'rim I. *q-x.* Mähen *n*, Schneiden *n*, Schnitt *m*; **beda ~i** Lyzernenschlag *m*.
o'rim II. Gefleckt *n*; **soch ~i** Knoten *m*.
o'rin Platz *m*, Ort *m*, Stelle, Sitz, Stellung *f*; ~ **egallamoq** den Platz besetzen.
o'rinbosar Stellvertreter *m*, Vertreter *m*.
o'rindiq Sitz *m*, Liege *f*.
o'rindosh Vertreter *m*, Nebenbeschäftigte *m*.
o'rindosh Vertretung *f*, Nebenbeschäftigung *f*.
o'rinli passend, angebracht, treffend; ~ **so'zlar** treffende Worte.
o'rinlik: bir ~ einsitzig, mit einem Platz.
o'rinsiz ungehörig, unpassend, unangebracht.
o'rmalamoq kriechen *vi*, (*juda sekin yurmoq*) sich mühsam fortschleppen.

o'rmalashmoq 1. wimmeln *vi*, kribbeln *vi*. 2. (*titkilamoq*) hantieren, umherkramen *vi*.

o'rmalovchi: Raupen-; ~ **traktor** Raupenschlepper *m*, Raupentraktor *m*.

o'rmon Wald *m*, Forst *m*; **ninabargli** ~ Nadelwald *m*; ~ **xo'jaligi** Forstwirtschaft *f*.

o'rmonzor Waldgelände *n*, Waldung *f*.

o'rmonchi Forster *m*, Waldwärter *m*, Forstwart *m*.

o'rmonchilik Försterei *f*, Forstamt *m*.

o'rmoq I. abmähen *vt*, sicheln *vt*, ernten *vt*, schneiden *vt*; **nima eksang shuni o'rasan** was der Mensch säet, das wird er ernten.

o'rmoq II. (*soch, arqonni*) flechten *vt*.

o'rnak Vorbild *n*, Beispiel *n*, Muster *n*; ~ **bo'lmoq** als Beispiel dienen; ~ **olmoq** sich (D.) an j-m (D.) ein Beispiel nehmen.

o'rnakli vorbildlich, beispielgebend, musterhaft.

o'rnatish Aufstellen *n*, Montieren *n*, Einbau *m*, Installation *f*, Errichtung *f*.

o'rnatmoq aufstellen *vt*, hinstellen, *Tex.* einbauen, montieren, einstellen, installieren; **aloqa** ~ die Verbindung aufnehmen; **haykal** ~ das Denkmal errichten.

o'rnashmoq hineingehen *vi*, sich einrichten, (*joy egallamoq*) den Platz einnehmen, liegen, (*ishga*) Arbeit finden, (*joyga*) unterkommen *vi*, Unterkunft finden.

o'rnashtirmoq (hin)stellen, (hin)setzen, (hin)legen, (joylashtirmoq) unterbringen, einliefern, (*birovni ishga va h.*) unterbringen, versorgen, einstellen.

o'rniga anstatt, an Stelle.

o'roq Sichel *f*; ~ **va bolg'a** Hammer und Sichel.

o'roqchi Schnitter *m*.

o'rta Mitte *f*; ~ **Osiyo** Mittelasien *n*; ~ **asr** Mittelalter *n*.

o'rtalik Mitte *f*, Zwischenraum *m*.

o'rtamoq verzehren, brennen, quälen, peinigen.

o'rtanmoq sich quälen, sich grämen, sich martern.

o'rtancha mittler; ~ **o'g'il** der mittlere Sohn.

o'rtasida mitten, zwischen; **do'stlar** ~ unten den Freuden.

o'rtayashar mittleren Alters, von mittleren Jahren.

o'rtacha mittlerweile; mittelmäßig.

o'rtoq Freund *m*, Kumpel m, Kamerad *m*; **qalin** ~ Busenfreund *m*.

o'rtoqlarcha freundlicherweise, freundschaftlich.

o'rtoqlashmoq 1. sich befreunden, sich j-m anschließen. 2. mitteilen, Meinungen austauschen. 3. (*o'rtoq tutinmoq*) sich verbrüdern.

o'rtoqlik Freundschaft f, freundschaftliche Beziehung.

o'sal verlegen, verwirrt, betreten, betroffen, bestürzt; ~ **bo'lmoq** verlegen werden, verwirrt sein.

o'simlik Pflanze *f*; **bir yillik** ~ Jahrespflanze *f*.

o'simta 1. *Bot.* Schößling *m*, Reis *n*, Sproß *m*. 2. *Anat.* Auswuchs *m*, Fortzatz *m*.

o'sish Wachstum *m*, Wachsen *n*, Anwachsen *n*, Zuwachs *m*, Zunahme *f*.

o'sma *Tib.* Geschwulst *f*.

o'smir Teenager [ti'nesher] *m*, Halbwüchsuge *m*, Jugendliche *m*.

o'smoq 1.wachsen *vi*, (*o'sib bormoq*) heranwachsen *vi*, (*daraxt*) gedeihen *vi*. 2. (*ko'paymoq*) anwachsen *vi*, zunehmen *vi*, ansteigen *vi*.

o'spirin Junge *m*, Bursche *m*.

o'spirinlik Jugendalter *n*.

o'stirmoq 1. züchten *vt*, aufzüchten *vt*. 2. (*tarbiyalab yetishtirmoq*) erziehen, ausbilden. 3. entwickeln, vervollkommnen. 4. (*soch va h.*) wachsen lassen.

o'suvchan (*schnell*) wachsend, steigend, zunehmend.

o't I. Feuer *n*; ~ **ochmoq** schießen *vi*; ~ **yoqmoq** Feuer machen; ~ **yoquvchi** Heizer *m*.

o't II. *Bot.* Gras *n*, Kraut *n*; **yovvoyi** ~ Unkrat *n*.

o't III. *Tib.* Galle *f*; ~ **pufagi** Gallenblase *f*.

o'ta übermäßig; ~ **qisqa to'lqinlar** Ultrakurzwellen *f*, *pl*.

o'taka: ~si yorilmoq erschrecken *vi*, in Schrecken geraten.

o'taketgan beispiellos, präzedenzlos; äußerst.

o'tamoq I. *Q-x.* jäten *vt*, ausjäten *vt*, behacken *vt*.

o'tamoq II. (*xizmat qilmoq*) dienen *vt*, (*vazifa bajarmoq*) erfüllen.

o'tar Herde *f*, Schafherde *f*.

o'tgan vergangen, verflossen, verwichen; ~ **yili** voriges Jahr, *Ling.* ~ **zamon** Vergangenheit *f*.

o'tgan-ketgan 1. Vergangene *n*, Vergangenheit *f*. 2. (*yo'lovchi*) Passant *m*. Vorübergehende *m*.

o'timli *Ling.* transitiv; ~ **fe'l** transitives Verb.

o'timsiz *Ling.* ~ **fe'l** intransitives Verb.

o'tin Holz *n*, Brennholz *n*.

o'tinmoq bitten, mit Bitten bestürmen, sich auflehnen.

o'tinch dringende (*inständige*) Bitte.

o'tirish 1. Sitzen *n*. 2. (*tadbir*) geselliger Abend, Abendgesellschaft *f*, Party [pa:ti] *f*.

o'tirmoq 1. sitzen *vi*; **stol atrofida** ~ am Tisch sitzen; **qamoqda** ~ im Gefängnis sitzen. 2. (*joy olmoq*) sich setzen; **stol atrofiga** ~ sich an den Tisch setzen; **marhamat, o'tiring!** Bitte, Setzen Sie sich! Nehmen Sie Platz!

o'tish 1. (*boshqa tomonga*) Übergang *m*, Übertritt *m*, Überfahrt *f*; **chegaradan** ~ Grenzübergang *m*. 2. ~ **joyi** Übergang *m*; **bekatdan bekatga** ~ Umstieg *m*, Umsteigen *n*.

o'tkazgich *fiz.* Leiter *m*, Stromleiter *m*.

o'tkazish Versäumen *n*, Durchlass-, Passier-, Durchgangs-

o'tkazmoq 1. durchlassen, einlassen, eintreten lassen, (*oldinga*) vorlassen, (*o'tkazib yubormoq*) vorbeilassen. 2. (*tadbirni*) durchführen. 3. (*o'tqazib yubormoq*) verpassen *vt*, verschlafen *vt*, versäumen *vt*, sich entgehen lassen.

o'tkinchi 1. (*yo'lovchi*) Passant *m*. 2. *Adj.* vorübergehend, vergänglich, zeitweilig, kurzlebig.

o'tkir scharf, spitz, heftig, fein, gespannt.

o'tkirlamoq scharfen *vt*, schleifen *vt*.

o'tkirlik Scharfe *f*, Feinheit *f*, Gespanntheit *f*.

o'tlamoq weiden *vi*.

o'tlatmoq weiden *vt*, zur Weide treiben.

o'tli feurig, flammend.

o'tloq Weide *f*, Viehweide *f*.

o'tmas 1. stumpf. 2. dumpf, stumpfsinnig, stupid, borniert.

o'tmaslanmoq stumpf werden, abstumpfen *vi*.

o'tmish Vergangenheit *f*, Vergangene *n*.

o'tmoq 1. übergehen *vi*, vorübergehen *vi*, durchgehen *vi*. 2. (*vaqt*) vergehen *vi*, verlaufen *vi*, verfließen *vi*. 3. (*tugamoq*) vergehen *vi*, aufhören *vi*; yomg'ir o'tib ketdi der Regen hat aufgehört. 4. (*mavzuni*) durchnehmen. 5. (*ro'y bermoq*) sich ereignen, stattfinden *vi*, yo'l o'rmondan o'tadi der Weg geht durch den Wald. 6. (boshqa dinga) konventieren.

o'toq Jäten *n*, Ausjäten *n*, Behacken *n*.

o'tov Jurte *f*, Zelt *n*.

o'tqazish (*ko'chat*) Hinsetzen *n*.

o'tqazmoq pflanzen *vt*, stecken *vt*.

o'ttiz dreißig; **bu oyda** ~ **kun bor** dieser Monat hat dreißig Tage.

o'ttizinchi (das), (die), (der) dreißigste; ~ **dekabr** der dreizigste Dezember.

o'txo'r *Zool.* grassfressend; ~ **hayvon** grassfressendes Tier, Grasfresser *m*.

o'xshamoq ähnlich sein, ähneln *vi*, gleichen *vi* D, ähnlich werden, sich angleichen.

o'xshatish Vergleichung *f*, Gleichstellung *f*.

o'xshatmoq 1. vergleichen *vt*, gleich stellen *vt*. 2. für (*A.*) halten *vt*. 3. (*taqlid qilmoq*) nachahmen A.

o'xshash ähnlich; **shunga ~** Ähnliche *n*.

o'xshashlik Ähnlichkeit *f*, Analogie *f*.

o'y Gedanke *m*, Idee *f*; Meinung *f*; **~ga tolmoq** nachdenklich werden; **~ga bormoq** in Gedanken versinken *vi*.

o'ydim-chuqur uneben, ungleichmäßig, schief, krumm **~ yo'l** holp(e)riger Weg.

o'yilmoq stürzen *vi*, (*ichi o'yilgan*) ausgehöhlt werden, (*muz*) (durchgebrochen werden.

o'yin 1. Spiel *n*, Spielen *n*; **futbol ~i** Fußballspiel *n*. 2. (*raqs*) Tanz *m*; **~ga tushmoq** tanzen *vt, vi*.

o'yinchi 1. Spieler *m*. 2. Tänzer *m*.

o'yinchoq Spielzeug *n*, Spielsachen *pl*.

o'yingoh Spielplatz *m*, Stadion *n*.

o'yinqaroq spielerisch, verspielt; **~ bola** ein verspieltes Kind.

o'yiq aushöhlend, ausmeißelnd.

o'ylamoq 1. denken A, überlegen *vt*, nachdenken *vi*. 2. glauben *vt, vi*, meinen *vt*. 3. (*qayg'urmoq*) sich sorgen für A., besorgt sein um A.

o'ylamsiramoq nachdenklich werden, in Gedanken versinken.

o'ylanish Nachdenklichkeit *f*.

o'ylanmoq nachdenklich werden, sinnen *vi*, in Gedanken versinken.

o'ylantirmoq 1. nachdenken lassen. 2. (*ikkilanmoq*) bedenken *vt*, schwanken *vt*.

o'ylash Denken *n*, Meinen *n*, Nachdenken *n*.

o'ylatmoq nachdenken lassen, in Gedanken zu versinken zwingen.

o'yma 1. *Adj.* (*o'yib yasalgan*) ausgehölt. 2. Schnitzwerk *n*, Schnitzereien *pl*.

o'ymakor Graveur *m*, Radierer *m*, Stecher *m*, Kupferstecher *m*; **yog'och ~** Holzschneider *m*, Holzschnitzer *m*.

o'ymakorlik Schnitzerei *f*, Gravierung *f*, Gravieren *n*; **~ ishi** Schnitzerarbeit *f*.

o'ymoq 1. stoßen *vt*, bestoßen *vt*, aushöhlen *vt*. 2. (*verni*) graben *vt*. 3. (*muzni*) durchschlagen *vt*, durchbrechen *vt*. 4. (*yog'ochni*) schnitzen *vt*, (*metallni*) gravieren *vt*.

o'ynamoq 1. spielen *vi*. 2. (*raqsga tushmoq*) tanzen *vt, vi*. 3. (*sayr qilmoq*) spazierengehen *vi*; shaxmat ~ Schach spielen, bekinmachoq ~ Versteck spielen.

o'ynatmoq 1. zerstreuen *vt*, belustigen *vt*, amüsieren *vt*. 2. tanzen lassen.

o'ynash I. Spielen *n*. 2. Tanzen *n*.

o'ynash II. Geliebte *m*, Liebhaber *m*.

o'ynashmoq (*hazillashmoq*) scherzen, anbändeln *vi*, liebäugeln *vi*.

o'ynoqi 1. schalkhaft, verspielt. 2. leichtsinnig, kokett.

o'ychan nachdenklich, gedankenvoll.

o'ychanlik Nachdenklichkeit *f*, Melancholie *f*.

o'zak 1.Mark *n*, (*daraxtning*) Griebs *m*. 2. *Ling.* Stamm *m*; **~ so'z** Stammwort *n*. 3. Kern *m*, Grundlage *f*.

o'zan Bett *n*, Bahn *f*; **daryo ~i** Flußbett *n*.

o'zaro gegenseitig, wechselseitig, beiderseitig, **~ aloqa** Wechselbeziehung *f*; **~ yordam** gegenseitige Hilfe; **~ hamkorlik** Zusammenarbeit *f*.

o'zbilarmon 1. Alleswisser *m*, Besserwisser *m*. 2. *Adj.* eigenmächtig, eigenwillig, eigensinnig.

o'zbilarmonlik Eigensinn *m*, Eigenmächtigkeit *f*, Eigenwille *m*, Starrsinn *m*.

o'zboshimcha eigenwillig, eigenmächtig, willkürlich.

o'zboshimchalik Eigenwille *m*, Starrsinn *m*; **~ qilmoq** eigenwillig handeln.

o'zga fremd, unbekannt.

o'zgarish Veränderung *f*, Wandel *m*; **tub ~** eine grundlegende Veränderung.

o'zgarmas unverändert, unveränderlich, unwandelbar, ständig, stabil, stet.

o'zgarmaslik Unveränderlichkeit *f*, Unabänderlichkeit *f*, Stetigkeit *f*, Stabilität *f*.
o'zgarmoq sich verändern, sich verwandeln, sich umstalten.
o'zgartirish Änderung *f*, Veränderung *f*, Umgestaltung *f*; **~lar kiritish** Änderungen treffen.
o'zgartirmoq ändern *vt*, verändern *vt*, verwandeln *vt*, umwandeln *vt*, umgestalten.
o'zgartiruvchi Reorganisator *m*, Reformator *m*, Wandler *m*.
o'zgaruvchan veränderlich, variabel, unbeständig.
o'zgacha anders, besonders, ungewöhnlich.
o'zicha 1. selbständig. 2. unverändert; **~ o'ylamoq** für sich denken.
o'zidan-o'zi 1. von sich selbst. 2. (*to'satdan*) mir nichts, dir nichts.
o'zish Überholen n, Übersteigen *n*.
o'ziyurar selbstfahrend, selbstfahrbar; **~ kombayn** selbstfahrender Mähdrscher.
o'zlashtirish Aneignung *f*, Anpassung *f*, (*texnikani*) Beherrschung *f*, (*yerni*) Erschließung *f*.
o'zlashtirmoq beherrschen *vt*, aneignen, zu eigen machen, (*yerni*) erschließen, urbar machen.
o'zlik I. Identität *f*; **~ni anglash** Selbstbewußtsein *n*.
o'zlik II. *Ling.*: **~ olmoshi** Reflexivpronomen *n*.
o'zmoq überholen *vt*, überflügeln *vt*, übersteigen.
o'g'il 1. Sohn *m*. 2. **~ bola** Knabe *m*, **O'g'lim!** Mein Sohn! **~ qilib olmoq** adoptieren.
o'g'ilcha Söhnchen *n*.
o'g'irlamoq stehlen *vt*, entwenden *vt*, klauen *vt*, mausen *vt*.
o'g'irlatmoq stehlen lassen, bestehlen lassen.
o'g'it Dünger *m*, Düngemittel *n*; **mineral ~** Kunstdünger *m*, chemisches Düngemittel; **~ bermoq** düngen *vt*, *vi*.
o'g'lon Sohn *m*, der Sohn seiner Heimat.
o'g'ri Dieb *m*; **cho'ntak ~si** Taschendieb *m*.
o'g'rilik Diebstahl *m*, Raub *m*, Einbruch *m*.
o'sha jene, jener, jenes.
o'shqirmoq anschreien, anschnauzen, sich über j-n hermachen.
o'shshaymoq mürrisch dreinsehen, finster dreinschauen.
o'ch I. Rache *f*, Vergeltung *f*; **~ olmoq** sich rächen, Rache nehmen; **~ oluvchi** Rächer *m*.
o'ch II. gierig, habsüchtig, habgierig; **bilimga ~** wißbegierig, bildungshungrig.
o'chakishmoq zuwiderhandeln, zum Trotz, zum Ärger, zuwider handeln, sich ärgern, zürnen *vi*.
o'chakishtirmoq aufhätzen *vt*, aufstacheln *vt*, aufwiegeln *vt*.
o'chirgich 1. (*o'tni*) Feuerlöscher *m*. 2. Gummi *m*, Gummiband *n*.
o'chirish Löschen *n*, Auslöschen *n*, Ausschalten *n*; **o't ~ komandasi** Feuerwehr *f*.
o'chirmoq löschen *vt*, auslöschen *vt*, ausschalten *vt*.
o'chiruvchi Löscher *m*, Feuerlöscher *m*.
o'chlik Gier *f*, Habsucht *f*, Habgier *f*; **bilimga ~** Wißbegier *f*, Wissensdurst *m*.
o'chmoq 1. erlöschen *vi*, verlöschen *vi*; **chiroq o'chyapti** das Licht erlischt, am Erlöschen sein, trübe werden, ausgehen *vi*. 2. sich verwischen, ausbleichen *vi*, verbleichen *vi*, verschwinden *vi*; **xotiradan ~** aus dem Gedächtnis schwinden.
o'choq Herd *m*, Feuerstelle *f*.
o'ng gerecht, rechtlich.
o'nglamoq in Gang bringen, einrichten *vt*.
o'nglanmoq in Ordnung kommen.
o'nglik Bequemlichkeit *f*, Komfort [- fo:r] *m*.

G'

G'. g'. O'zbek alifbosining yigirma oltinchi harfi.

g'adir: - budur rauh, uneben, stoppelig, hügelig, wellig.

g'ajimoq 1.nagen *vt* an D; **suyakni ~** am Knochen nagen. 2. (*tor-mor qilmoq*) zerfleischen *vt*, zerreißen *vt*. 3. zerschmettern *vt*, zermalmen *vt*, zerquetschen *vt*.

g'ajirlamoq knarren *vi*, schnarren *vi*; **eshik g'ajirlayapti** die Tür knarrt.

g'alaba Sieg *m*; **~ qozonmoq** besiegen *vt*, siegen *vi* (über *A*), den Sieg (*einen Sieg*) erringen.

g'aladon Schubfach *n*, Schublade *f*.

g'ala-g'ovur Lärm *m*, Krach *m*, Radau *m*; **~ ko'tarmoq** lärmen *vi*, Krach machen.

g'alati merkwürdig, ungewöhnlich, seltsam, außergewöhnlich.

g'alatilik Merkwürdigkeit *f*, Ungewöhnlichkeit *f*, Seltsamkeit *f*.

g'alla Getreide *n*, Korn *n*; **~ yetishtirish** Getreideanbau *m*.

g'allakor Getreidebauer *n*, Ackerbauer *m*.

g'allasimon gräsig, grasartig; **~ o'tlar** Gräser pl, Gräsarten *pl*.

g'allaxona Kornspeicher *m*, Getreidespeicher *m*.

g'allachilik Getreidebau *m*, Ackerbau m, **~ bilan shug'ullanmoq** den Akerbau treiben.

g'altak Spule *f*; **oq ~ ip** weiße Zwirnrolle, *Tex.* Spule *f*; **~ka o'ramoq** spulen.

g'altakarava Schubkarren *m*, Karren *m*; **~ni haydamoq** karren.

g'alva 1.Streit *m*, Lärm *m*, Krach *m*. 2. Sorgen *pl*, Mühen *pl*, Bemühungen *pl*.

g'alvali mühevoll, schwierig, (*odam*) geschäftig.

g'alvir Sieb *n*; **~da elamoq** sieben *vt*.

g'am Leid *n*, Kummer *m*; Gram *m*, Trauer *f*; **~ chekmoq** leiden.

g'amgin traurig, betrübt, kummervoll; vergrämt; **~ ashula** kümmerliches Leid.

g'amlamoq lagern *vt*, aufbewahren *vt*.

g'amli kümmervoll, traurig, betrübt.

g'am-tashvish Sorgen *pl*, Mühen *pl*.

g'amxo'r besorgt, fürsorglich, sorgsam, mitfühlend.

g'amxo'rlik Sorgsamkeit *f*, Sorgfalt *f*; Aufmerksamkeit *f*; **~ qilmoq** sich sorgen, sich kümmern.

g'anim Feind *m*; **~ orttirmoq** sich (D.) Feinde machen.

g'aram Menge *f*, Haufen *m*; **~lamoq** an(auf)häufen.

g'araz Neid *m*, Missgunst *f*; **~li** voll Neid.

g'arb Westen *n*; **~da** im Westen.

g'arbi-janubiy westsüdlich, **yo'nalishda** in westsüdlicher Richtung.

g'arbiy westlich; **~ mamlakatlar** westliche Länder.

g'arib 1. Arme *m*, Wallfahrer *m*, Alleinstehende *m*. 2. *Adj.* schutzlos, obdachlos, hilflos, ohnmächtig, einsam, vereinsamt.

g'ariblik Schutzlosigkeit *f*, Hilfslosigkeit *f*, Ohnmächtigkeit *f*.

g'aroyib merkwürdig, wundervoll, selten, seltsam, wunderlich.

g'arq: ~ bo'lmoq versinken *vi*, ertrinken *vi*, untergehen *vi*, untersinken *vi*.

g'arch Knarren *n*, Kratzen *n*; **~ etmoq** knarren *vi*, glitschen *vi*.

g'avg'o Lärm, Toben *n*; **~ qilmoq** Lärm machen, toben *vi*, lärmen *vi*.

g'avg'oli laut, skandalös.

g'ayrat Eifer *m*, Leidenschaft *f*, Fleiß *m*.

g'ayratli eifrig, inbrünstich, fleißig.

g'ayritabiiy ungewöhnlich; merkwürdig; **~ hodisa** ein ungewöhnliches Geschehen

g'azab Wut *f*, Zorn *m*; Bosheit *f*, Gehässigkeit *f*.

g'azablanmoq sich ärgern, sich erzürnen, zürnen *vi*, böse sein D, auf A.
g'azablantirmoq erzürnen, aufbringen, erbosen, in Zorn jagen.
g'azabli ärgerlich, wütend, böse gehässig.
g'idi-bidi Wortwechsel *m*, nichtiger Streit; ~ ***qilmoq*** (sich) herumstreiten *vi*, sich wegen Nichtigkeiten zanken.
g'idillashmoq sich verzanken, sich gegenseitig beschimpfen.
g'ij-g'ij 1. Knarren *n*, Geknarre *n*. 2. in großer Menge, in Hülle und Fülle.
g'ijillamoq wimmeln *vi*, kribbeln *vi*.
g'ijillashmoq sich verzanken, sich gegenseitig beschimpfen.
g'ijim zerdrückt, zerknittert, zerknüllt, faltig; ~ **bo'lmoq** knittern *vi*, zerknüllen *vi*; ~ **qilmoq** knittern *vt*, knüllen *vt*, falten *vt*.
g'ijimlamoq knittern *vt*, zerknittern *vt*, knüllen *vt*.
g'ijir Knarren *n*, Geknarre *n*.
g'ijir-g'ijir Knarren *n*, Geknarre *n*; ~ **qilmoq** knarren *vi*, kratzen *vi*.
g'ijirlamoq knarren vi, schnarren vi, kratzen vi, **eshik g'ijirlayapti** die Tür knarrt.
g'ijirlashmoq sich verzanken, sich gegenseitig beschimpfen.
g'ijirlatmoq: tishini ~ mit den Zähnen knirschen.
g'ijjak Gidshak *m*, *Mus.* geigenähnliches Misikinstrument.
g'ijjakchi Gidshakspieler *m*.
g'ilay schief, schräg, schielend, (*ko'z*) schieläugig.
g'ilaylik Schieläugigkeit *f*, Schielen *n*.
g'ildirak Rad *n*; **old** ~ Triebrad *n*, Antriebsrad *n*.
g'ildiramoq rollen *vi*; **g'ildirab ketmoq** fortrollen *vi*, wegrollen *vi*.
g'ildiratmoq rollen *vt*; walzen *vt*; **bolalar aravachasini** ~ den Kinderwagen schieben.
g'ilof Kappe *f*, Futteral *n*, Überzug *m*, Schutzhaube *f*, Abdeckhaube *f*.
g'iloflamoq mit einem Überzug versehen.
g'imir-g'imir: ~ qilmoq trödeln *vi*, wimmeln *vi*, krimmeln *vi*.
g'imirlamoq trödeln *vi*, wimmeln *vi*, krimmeln *vi*.
g'imirlashmoq wimmeln *vi*, krimmeln *vi*.
g'imirsimoq trödeln *vi*, hantieren *vi* mit D, sich abgeben.
g'ing Gekreische *n*, Summen *n*, Surren *n*; ~ **qilmoq** summen *vi*, surren *vi*; ~ **demasdan** schweigend, kein Wort sagend.
g'ingshimoq klagen *vi*, jammern *vi*, nörgeln *vi*.
g'ippa: ~ bo'g'moq mit dem Würgegriff packen.
g'ir: ~ etib sehr schnell, im Nu, rasch, eilig, mit Ungestüm.
g'ira-shira Dämmerung *f*; **~da** in der Dämmerung, im Halbdunkel.
g'irillamoq dahineilen *vi*, dahinjagen *vi*, rennen *vi*.
g'irillatmoq (*schnell*) fahren *vt*, treiben *vt*, jagen *vt*.
g'iring: ~ demay schweigend, kein Wort sagend.
g'iring-g'iring Brummen *n*, Gebrumm *n*, Jammern *n*.
g'iringlamoq jammern *vi*, nörgeln *vi*, brummen *vi*.
g'irrom 1. *Adj.* unerlich, unredlich. 2. Gauner *m*, Schurke *m*.
g'irrom unfair, ungerecht.
g'irromlik Unehrlichkeit *f*, Unredlichkeit *f*, Schaukerei *f*.
g'irt äußerst, übertrieben, absolut; ~ **yolg'on** offensichtliche Lüge.
g'irt-g'irt: ~ chaynamoq knirschend kauen.
g'iybat Geklatsch *n*, Klatsch *m*, Tratsch *n*; Lästerung *f*; ~ **qilmoq** klatschen *vi*.

g'iybatchi Klatschbase *f*, Klatschmaul *n*, (*erkak*) Klatschbruder *m*.
g'isht Ziegel *m*; **pishgan** ~ gebrannter Ziegel; ~ **teruvchi** Maurer *m*.
g'ishtin Ziegel:-, aus Ziegel; ~ **uy** Ziegelhaus *n*.
g'ichirlamoq knarren *vi*, knirschen *vi*, krachen *vi*, knistern *vi*.
g'olib Sieger *m*; ~ **chiqmoq** siegen *vt*, besiegen *vt*.
g'olibona siegreich; ~ **yurish** Siegeszug *m*.
g'or Höhle *f*, unterirdisches Gewölbe.
g'ov Schranke *f*, Sperre *f*, Zaun *m*; ~ **bo'lmoq** im Wege stehen.
g'ovlamoq üppig wachsen vi, fortwachsen vi, wuchern *vi*.
g'ovur Lärm *m*, Höllenlärm *m*; ~ **ko'tarmoq** Lärm machen.
g'ovurlashmoq lärmen *vi*, randalieren *vi*, Lärm machen.
g'oya Idee *f*; **ajoyib** ~ eine tolle Idee.
g'oyatda außerordentlich, äußerst, übermäßig.
g'oyaviy Ideen-, ideell; ~ **mazmun** Ideengehalt *m*.
g'oyib unsichtbar, abwesend; ~ **bo'lmoq** verschwinden *vi*.
g'oz Gans *f*; ~ **bolasi** Gänschen *n*.
g'ubor Staub *m*.
g'uj dicht, (zusammen)gedrängt; ~ **bo'lmoq** aufhäufen *vt*.
g'ujanak (*zusammen*) ziehend; ~ **bo'lmoq** zusammenschrumpfen *vi*, sich zusammenziehen.
